

# **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI**

### **SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH INSTITUTI**

#### **“Ko‘chmas multk ekspertizasi va uni boshqarish” kafedrasi**

Institutning **ilmiy-uslubiy kengashida**

ko‘rib chiqildi va chop etishga ruxsat berildi.

Ro‘yxatga olindi: \_\_\_\_\_

Bayonnomma:Nº \_\_\_\_\_

“ \_\_\_\_ ” 2019 yil.

**“TASDIQLAYMAN”**

Institutning ilmiy-uslubiy kengashi raisi,  
t.f.n., dotsent **A.R.Raximov**

“ \_\_\_\_ ” 2019 yil.

### **TARMOQ IQTISODIYOTI (Ma’ruzalar matni)**

- Ta’lim yo’nalishi:**
- 5340900 - Ko‘chmas multk ekspertizasi va uni boshqarish
  - 5340200 - Binolar va inshootlar qurilishi
  - 5340400 - Muxandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji (issiqlik-gaz ta’minoti va ventilyasiya)
  - 5340400 - Muxandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji (suv ta’minoti va oqova suvlarni oqizish)
  - 5111000 - Kasbiy ta’lim (muxandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji)
  - 5610100 - Xizmatlar sohasi (uy-joy va kommunal maishiy xizmatlar)

**Samarqand – 2019**

Ushbu ma’ruzalar matnida “Tarmoq iqtisodiyoti” fanining bir qator nazariy va amaliy masalalari mohiyati ochib berilgan bo‘lib, unda iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirish sharoitida respublikamiz kapital qurilish tarmog‘ida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo‘nalishlari va muammolari, shuningdek sohada investitsiya siyosatini olib borilishi va investitsion-qurilish faoliyat, qurilish ishlab chiqarishini tashkil etish, rejalashtirish va loyihalashtirish, moddiy-texnik baza va uni takomillashtirish yo‘nalishlari, mehnat resurslari va mehnat unumдорligi hamda qurilish ishlab chiqarishini diversifikatsiyalash kabi muhim masalalar o‘rin olgan.

Mazkur ma’ruzalar matni oliy ta’lim muassasalarining “Ko‘chmas mulk ekspertizasi va uni boshqarish”, “Bino va inshootlar qurlishi”, “Muxandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji”, “Kasbiy ta’lim (Muxandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji)”, “Xizmatlar sohasi (uy-joy, communal va maishiy xizmatlar)” ta’lim yo‘nalishlari hamda arxitektura va qurilish sohasining boshqa barcha ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari talabalari, shuningdek qurilish iqtisodiyotiga qiziquvchilarning ham foydalanishlari uchun tavsiya etiladi.

**Tuzuvchilar:** SamDAQI “Ko‘chmas mulk ekspertizasi va uni boshqarish”

kafedrasi dotsenti, i.f.n. B.D.Giyasov;

SamDAQI “Ko‘chmas mulk ekspertizasi va uni boshqarish”

kafedrasi katta o‘qituvchisi Yu.I.Turdibekov.

SamDAQI “Ko‘chmas mulk ekspertizasi va uni boshqarish”

kafedrasi o‘qituvchisi B.M.Abduraimov.

**Taqrizchilar:** SamDAQI “Ko‘chmas mulk ekspertizasi va uni boshqarish”

kafedrasi dotsenti, i.f.n. F.S.Ganiyeva;

SamDAQI “Qurilishda menejment” kafedrasi dotsenti, i.f.n.

Z.K.Karjavov.

Uslubiy ko‘rsatma “Ko‘chmas mulk ekspertizasi va uni boshqarish” kafedrasi majlisida (201\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_ bayonnomasida) va «Qurilishni boshqarish» fakultetining ilmiy-uslubiy kengash yig‘ilishida (201\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_ bayonnomasida) ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan.

Chiqish belgilari: SamDAQI. Shakli A4. Buyurtma №\_\_\_\_ Adadi:\_\_\_\_ Hajmi\_\_\_\_

## KIRISH

---

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Shavkat Mirziyoyevning 2019 yilda mamlakatni rivojlantirishning eng ustivor vazifalari to‘g‘risidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlanganidek, “Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy salohiyatni yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash ko‘lamini kengaytirish – eng muhim masalalardan biridir”.<sup>1</sup>

Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘z navbatida, respublikada chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishni ta’minlaydi, milliy iqtisodiyot sohalariga tashqi va ichki investitsiyalar oqimini faollashtirish, iqtisodiy yuksalishning yangi bosqichini boshlab berish uchun asosiy omil hisoblanadi.

Jumladan, iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, uy-joy qurilishini, transport va infratuzilma kommunikatsiyalarini rivojlantirishdir.

Qurilish sohasida iqtisodiy islohotlarning asosiy yo‘nalishlari va muammolarini mukammal bilishlarida, shuningdek qurilish ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya va diversifikasiyalash, ularning moddiy-texnika bazasini yaxshilash, sohada puxta investitsiya siyosatini yurgizish va chet el investitsiyalarini yanada ko‘proq jalb qilish kabi masalalarda chuqur bilimga ega bo‘lishlarida talabalarning mazkur fandan samararli foydalanishlari hamda ijodiy yondoshuvlari qurilish iqtisodiyoti fanining oldida turgan vazifalardan biridir.

Hozirgi kunda kapital qurilishda narxlarni shakllantirishning smeta-normativ bazasini takomillashtirish va yangilash uchun hududlar, tarmoq vazirliklari va idoralari bo‘yicha qurilish materiallari, konstruksiylar va buyumlar narxi, qurilish mashinalari va mexanizmlaridan foydalanish qiymati, transport xarajatlari, quruvchi ishchilarning ish xaqi to‘g‘risidagi ma’lumotlar axborot banki tashkil etilmoqda.

Eskirgan va zamonaviy talablarga muvofiq bo‘lmagan amaldagi smeta normalari va qoidalari tizimi va uning asosida qurilish smeta qiymatining oshib ketishiga olib keluvchi rassenkalarni qayta ishlab chiqish va tugatish, qurilish-texnologiya jarayonini va umuman qurilish majmuasining samarali ishlashini maqbullashtirish yo‘lida, pirovard natijada qurilishda loyihalashtirish smeta tizimini takomillashtirib borishda ushbu fanni qurilish sohasi talabalariga o‘qitish o‘z samarasini beradi.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.”Халқ сўзи” газетаси, 2018 йил 29 декабрь.

## **1-MAVZU: “TARMOQ IQTISODIYOTI” FANINING PREDMETI, MAQSADI, MAZMUNI VA VAZIFALARI**

---

### **Reja:**

- 1.1. Fanning maqsad va vazifalari.
- 1.2. Qurilishning milliy iqtisodiyotda tutgan o‘rni va ahamiyati.
- 1.3. Milliy iqtisodiyotning mustaqil tarmog‘i sifatida qurilishning shakllanishi va texnik-iqtisodiy xususiyatlari.
- 1.4. Qurilishning tashkiliy shakllari, moddiy-texnika bazasi va uning taraqqiyot istiqbollari.

### **1.1. Fanning maqsad va vazifalari**

Fanni o‘rganishdan asosiy maqsad – talabalarda bozor iqtisodiyoti sharoitida qurilish iqtisodiyotini va islohotlarni chuqurlashtirish bilan bog‘liq holda ta’lim yo‘nalishiga mos bilim, ko‘nikma va malakani shakllantirishdir.

“Tarmoq iqtisodiyoti” fanining asosiy vazifalariga:

- qurilish tarmog‘ini milliy iqtisodiyot va jamiyat ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish yo‘nalishlarini o‘rgatish;
- qurilish industriyasi resurs potensialini o‘rganish. Foyda, rentabellik va qurilish ishlab chiqarishining ta’sirini o‘rganish;
- qurilish bahosini yiriklashtirilgan ko‘rsatkichlar bilan aniqlashni o‘rgatish;
- qurilish ishlari hajmini hisoblash qoidalari va uslubi hamda smeta hisoblarini avtomatlashtrish bilan tanishtirish;
- tarmoq vazirliliklari va idoralari bo‘yicha qurilish materiallari, konstruksiyalar va buyumlar narxi bankini tashkil qilishva mavjud muammolar bilan tanishtirish;
- iqtisodiyotni medernizatsiya qilish sharoitida qurilish mashinalari va mexanizmlaridan foydalanish qiymati, transport xarajatlari aniqlashni o‘rgatish;
- kapital qurilishda boshqaruv va xo‘jalik munosabatlari tizimiga bozor tamiyillari hamda mexanizmlarini keng joriy etish, loyiha va qurilish ishlarini bajarishga buyurtmalar joylashtirishda tanlov savdolari (tenderlar)ni tashkil etishni o‘rgatish;
- qurilishni boshqarishni zamonaviy tizimini va investitsion – qurilish jarayoni ishtirokchilarning o‘zaro munosabatlarini o‘rganish.

Shu bilan bir vaqtida samarali qarorlar qabul qilishni shakllantirishdir.

“Tarmoqlar iqtisodiyoti” fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida *talaba*:

- tarmoq va milliy iqtisodiyot rivojlanishning zamonaviy yo‘nalishlari va qonuniyatlarini hamda ularni bozor munosabatiga o‘tkazish tamoyillarini; investitsiya loyihalari va ularning iqtisodiyotni modernizatsiyalash hamda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishdagi o‘rnini; investitsiya loyihalarini va qurilish ishlab chiqarishini amalga oshirishdagi ishtirokchilar va ularning majburiyatharini; qurilish va qurilish montaj ishlarini olib borish uslublarining hamda tayyor qurilish mahsuloti uchun amalga oshiriladigan to‘lovlarining o‘ziga xos tomonlarini; qurilishni tashkil

etish va qurilish tashkilotlarining bir maromda ishlashida loyiha-smeta ishining ahamiyatini; qurilishda bahoni shakllantirish va pudrat hamda unga tenglashtirilgan tashkilotlarning samarali ishlashi bo'yicha davlat tomonidan qo'llab quvvatlash mexanizmlarini; qurilish industriyasi xodimlari salohiyatini shakllantirishning xususiyatlарини ***bilishi kerak;***

- moddiy ishlab chiqarish sohasi sifatidagi qurilishning ixtisoslashuvi hamda uning ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarish funksiyalarini amalga oshirish; qurilishning boshqa tarmoqlar bilan aloqasini hamda ushbu aloqalarning iqtisodiyot va qurilishning ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlash; qurilishning tashkiliy tuzilmasi va boshqarish tizimini tashkil etish; investitsiyalash va qurilish sohasidagi davlatning zamonaviy siyosatini olib borish; kapital qurilish va iqtisodiyotni boshqarishning turli bosqichlarida investitsiya siyosatini amalga oshirish sohasida amal qiluvchi qonun va huquqiy hujjatlarni amalda qo'llash; rejalashtirish va turli investitsiyaviy xolatlarni baholash hamda tahlil qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;***

- qurilish ob'yeqtalarining turli variantlari va investitsiya qo'yilmalarini baholash bilan bog'liq masalalarni hal etish; qurilish industriyasi korxona va tashkilotlarining ishlab chiqarish quvvatlaridan hamda resurslardan oqilona foydalanish; xarajatlarni kamaytirish va qurilish ishlab chiqarishining rentabelligini oshirish masalalarini hal etish; qurilish ishlab chiqarishining turli zaxiralarini izlash va ulardan foydalanish bo'yicha vazifalarni echish; qurilishning turli xil ko'rsatkichlarini tahlil qilish va baholash ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***

Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, tarmoqda bozor iqtisodiyoti tamoyillariga, jumladan "O'zbek modeli" tamoyillariga mos keladigan xo'jalik munosabatlarini joriy etish. Pudrat, loyiha ishlari va qurilish materiallarining rivojlangan bozorini shakllantirish. Samarali qarorlar qabul qilishga erishish. Ishchi kuchlaridan va boshqa resurslardan unumli foydalanish. Qurilish narx belgilash mexanizmini takomillashtirish, uning narxini to'g'ri va aniq shakllantirishdir.

## ***1.2. Qurilishning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni va ahamiyati***

---

O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyoti tarmoqlari qatorida qurilish tarmog'i nafaqat iqtisodiyotning asosiy fondlarini yaratuvchi uchastkasi sifatida, balki mamlakat iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlarni hamda turli xususiyatlarga ega bo'lgan ijtimoiy sohadagi dolzarb vazifalarni amalga oshirishda muhim o'rinni va ahamiyatga egadir (demografik tuzilma va uning o'zgaruvchanligi, qishloq aholisining yuqori darajadaligi hamda uy-joy va ijtimoiy-madaniy-maishiy ob'yeqtalar bilan kam ta'minlanganligi, ichki infratuzilma, transport va kommunikatsiya qurilishlarining etarli darajada rivojlanmaganligi va boshqalar).

Mamlakat milliy iqtisodiyoti moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari va bozor xizmat ko'rsatish sohalaridan tarkib topadi. Qurilish moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari qatorida (sanoat va qishloq xo'jaligidan keyin) uchinchi o'rinda turadi.

Qurilish tarmog'i mahsuloti bo'lib, mamlakatning xo'jalik majmuasi asosiy

fondlarini tashkil qiluvchi qurilishi tugallangan va ekspluatatsiyaga topshirilgan zavod va fabrikalar, temir va avtomobil yo'llari, elektr stansiyalar, irrigatsiya kanallari, portlar, uy-joylar va boshqa ob'yektlar hisoblanadi.

Qurilish milliy iqtisodiyotning muhim tarmog'i sifatida milliy xo'jalikning barcha tarmoqlari uchun asosiy fondlarni yaratishda ishtirok etadi. Ishga tushirilgan va o'rnatilgan tartibda qabul qilingan ishlab chiqarish quvvatlari va noishlab chiqarish ob'yektlari kapital qurilishning mahsuloti hisoblanadi hamda ular o'zlashtirilib borishi bilan asosiy fondlarga aylanib boradi. Ularning yaratilishida boshqa tarmoqlar ham qatnashadi (qurilish materiallari sanoati, metallurgiya, mashinasozlik, ximiya sanoati va boshqalar). Asosiy ishlab chiqarish fondlari mazmuniga ko'ra texnik, energetik va boshqa uskunalar bilan jihozlangan bino va inshootlardan iboratdir.

Shunday qilib, kapital qurilish ishlab chiqarish vositalarining faoliyat yurgizishi uchun moddiy shart-sharoit imkoniyatlarini ham yaratadi.

Qurilish tarmog'i umum va maxsus qurilish, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarini, qurilish birlashmalariga kiruvchi qurilish sanoati korxonalarini, shuningdek qurilish-montaj ishlari(QMI)ni bajaruvchi barcha tashkilotlar faoliyatini birlashtiradi. Qurilish tashkilotlariga ro'yxatdan o'tkazilgan va qurilishi faoliyati uchun litsenziyaga ega bo'lgan, shuningdek buyurtmachilar bilan shartnomaga asosida ishlarni bajaruvchi barcha mulk shakllaridagi yuridik shaxslar kiradi. Kapital qurilish sohasiga, o'z mablag'lari, qarz hamda davlat byudjeti mablag'lari manbalari asosidagi kapital qo'yilmalarga egalik qiluvchi buyurtmachilar faoliyati ham kiradi.

Qurilishning rivojlanishi va uning samaradorligini oshirish industrializatsiya asosida amalga oshiriladi. Uning asosiy yo'nalichlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: quriladigan bino va inshootlarning yig'maliligini oshirish maqsadida texnologik jarayonlarning bir qismini qurilish maydonlaridan zavodlarga ko'chirish; bino va inshootlarning texnologik loyiha yechimlarini yaxshilash, ularni keyinchalik ularni bir shaklga keltirish va unifikatsiyalashtirish; mexanizatsiyalashtirilgan tarzda zavodlarda yoki qurilish tashkilotining yordamchi sexlarida qurilish konstruksiyalari, buyumlari, detallari va materiallarini yuqori darajada qurilish jarayoniga tayyorgarlik holatida ishlab chiqarish; qurilish ishlab chiqarishi ishlarning uzluksizligini ta'minlash maqsadida bino va inshootlarni qurish, qurilish materiallari va konstruksiyalarini etkazishning texnologik operatsiyalari va jarayonlarini mexanizatsiyalashtirgan tarzda bajarish.

Asosiy fondlarni yaratishdan tashqari, kapital qurilish funksiyalariga mavjud asosiy fondlarni kengaytirish, qayta qurish va texnik qayta jihozlashlar ham kiradi. Shuning uchun mamlakat iqtisodiyoti barcha tarmoqlari asosiy fondlarini kengaytirilgan tarzda qayta ishlab chiqarish va sifat jihatdan yangilash kapital qurilishning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Kapital qurilish sohasida qurilish ishlarini metallolom va metall konstruksiyalar, sement, yog'och materiallari, qurilish mashinalari, transport vositalari, yoqilg'i va energetika resurslari bilan ta'minlovchi 70 dan ortiq milliy iqtisodiyot tarmoqlari bevosita yoki bilvosita qatnashadi. Qurilishda 50 foiz qurilish materiallari sanoati, 18 foizga yaqin metallprokat, 40 foiz yog'och materiallar, 10

foizdan ortiq mashinasozlik sanoati mahsulotlari ishlataladi. Qurilish materiallari, konstruksiyalari va texnikalarini tashishda amalda barcha transport turlaridan foydalaniladi (avtomobil, temir yo'l, daryo, dengiz va havo transportlari). Qurilish sarf-xarajatalari tarkibida transport xarajatlari qiymati 20 foizgacha etadi.

Mamlakat qurilish majmuasi tarkibiga turli mulk shakllaridagi pudrat tashkilotlari, qurilish materiallari sanoati korxonalar, mexanizatsiya, transport, loyiha va ilmiy-tadqiqot institutlari, lizing firmalari, o'quv muassasalari va boshqa korxona hamda tashkilotlar kiradi.

Qurilish tarmog'ida olib borilayotgan islohotlar tufayli 8100 tadan ortiq qurilish majmuasi korxona va tashkilotlari mulkchilikning nodavlat shakliga aylantirildi, ya'ni bu umumiy songa nisbatan 92,7 foizni tashkil etadi. Shuningdek, 65 tadan ortiq qo'shma korxonalar va 2253 tadan ortiq kichik va o'rta qurilish tashkilotlari faoliyat yurgizmoqda.

Ushbu tashkilotlar tomonidan yaratilayotgan mahsulotlar hajmining milliy iqtisodiyot yalpi daromadidagi ulushi doimiy ravishda ortib bormoqda. Shuni qayd etish kerakki, qurilish tarmog'i barcha tadbirkorlik tuzilmasining ko'pchilik qismi to'g'ri keladigan xususiy korxonalar sonining o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda.

### ***1.3. Milliy iqtisodiyotning mustaqil tarmog'i sifatida qurilishning shakllanishi va texnik-iqtisodiy xususiyatlari***

---

Qurilish milliy iqtisodiyotning mustaqil alohida tarmog'i bo'lib, yangi asosiy fondlarni yaratish hamda faoliyat yurgizayotgan ishlab chiqarish va noishlab chiqarish ob'yektlarini qayta qurish, kengaytirish, ta'mirlash va texnik qayta jihozlash uchun mo'ljallangan. Qurilish tarmog'ining ahamiyati shundaki, mamlakat milliy iqtisodiyoti rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratib beradi.

Qurilish tashkilotlarining mahsuloti sifatida yaratilayotgan asosiy fondlarni yaratish jarayonida ishchi xodimlar band bo'ladi hamda mehnat vositalari (texnika) va mehnat predmetlari (materiallar) ishlataladi. Qurilish jarayoni asosiy elementlarining o'zaro harakati natijasida esa natural (bino, inshoot va ob'yektlar) va qiymat (pul mablag'lari) ko'rinishidagi pirovard qurilish mahsuloti yaratiladi.

Qurilish jarayoni uchta asosiy bosqichga ajratiladi: 1) qurilishga tayyorgarlik ishlari; 2) qurilish jarayonining o'zi; 3) tayyor holdagi qurilish ob'yektini ekspluatatsiyaga topshirish.

Qurilishga tayyorgalik ishlari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi: qurilish ob'yektining maqsadga muvofiqligi yuzasidan texnik-iqtisodiy tadqiqotlarni olib borish, ob'yektni loyihalashtirish va qurilishga muxandislik-texnik jihatdan tayyorgarlik ko'rish. Texnik-iqtisodiy tadqiqotlar jarayonida barpo etilayotgan ob'yektning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari va uni qurishning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi baholanadi. Loyihalashtirish bosqichida ob'yektning konstruktiv-joylashtirish yechimi, uni qurishni tashkil etish usullari va ishlarni bajarish texnologiyasi ishlab chiqiladi hamda qurilishning smeta qiymati aniqlanadi. Undan keyin qurilishga muxandislik-texnik tayyorgarlik ko'rish amalga oshiriladi

(tayanch geodezik va qurilish to‘r(set)larini ishlab chiqish; qurilish maydoni hududi va transport kommunikatsiyalari yo‘lakchalarini tayyorlash bo‘yicha ishlarni olib borish).

Qurilish maydonida bevosita qurilish jarayonining o‘zi amalga oshirilishida barcha texnologik elementlarning birlashishi sodir bo‘ladi, buning natijasida esa qurilish mahsuloti yaratiladi hamda qurilish jarayonining amaldagi jami xarajatlari, bino va inshootlarning moddiy-ashyoviy elementlari, ularning arxitekturaviy-qurilish ifodasi va sifati shakllanadi.

Ob’yektlar qurilishining tugallanishi, ularni tayyor holda ekspluatatsiyaga hamda buyurtmachilarga asosiy fondlar sifatida topshirishdan iboratdir.

Qurilish ishlab chiqarishi jarayoniga kapital qo‘yilmalar doiraviy aylanishining quyidagi uchta bosqichlari to‘g‘ri keladi: 1) ishlab chiqarish - asosiy fondlarni yaratishning mahsulot shakli sifatida; 2) amalga oshirish (realizatsiya) - qurilish mahsulotining asosiy fondlarga aylanishi shakli sifatida; 3) pul mablag‘larini kelgusi mahsulotga aylantirish maqsadida takror ishlab chiqarishning navbatdagi davri(sikli)ni tayyorlash.

Vaqt va makon bo‘yicha takror ishlab chiqarish jarayoni barcha elementlarining o‘zaro harakat darajasi qanchalik katta bo‘lsa, qurilish iqtisodiy samaradorligi ham shuncha yuqori bo‘ladi.

Qurilish jarayonining iqtisodiy mohiyati, uni amalga oshirish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar bilan ifodalanadi. Ob’yektlar barpo etish borasida qurilish korxonalarining ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq xarjatlari bir vaqtning o‘zida sodir bo‘ladigan va joriy xarajatlarga bo‘linadi.

Bir vaqtning o‘zida sodir bo‘ladigan xarajatlarga qurilish tashkilotlarining asosiy fondlarni yaratish yoki sotib olish xarajatlari hamda tugallanmagan qurilish aylanma mablag‘laridagi moddiy zaxiralar qiymati kiradi. Joriy xarajatlar, bu qurilish korxonasining ob’yektlarni yaratish bilan bog‘liq bevosita va bilvosita barcha xarajatlari hisoblanadi: ish haqi, qurilish materiallari, amortizatsion ajratmalar va boshqa xarajatlar. Joriy xarajatlarning umumiy yig‘indisi qurilish-montaj ishlarining tannarxini tashkil qiladi.

Qurilish tarmog‘ining turli mahsulotlarni ishlab chiqarish, taqsimlash hamda xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoq va sohalari bilan iqtisodiy aloqalari tarmoqlararo aloqalar hisoblanadi.

Qurilish moddiy ishlab chiqarish tarmog‘i sifatida boshqa tarmoqlardan farqli ravishda qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Tarmoq xususiyatlari, uning pirovard mahsuloti, mehnat sharoitining o‘ziga xosligi, qo‘llanilayotgan texnika va texnologiya, ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish va moddiy-texnika ta’mnotlar xarakteri bilan izohlanadi. Ko‘rsatilgan xususiyatlar umumiy va maxsus turlarga bo‘linadi.

Qurilishning umumiy xususiyatlari quyidagicha:

1) Qurilish ishlab chiqarishi va pirovard mahsulot xarakteriga ko‘ra noturg‘un va vaqtinchalik bo‘lib, ularning bir tipda emasligi.

Ob’yektlar ekspluatatsiyaga topshirilishi bilan qurilish-montaj ishlari hamda ishlab chiqarish vositalari yangi o‘zlashtirilgan qurilish joyiga ko‘chiriladi.

Qurilishda ish joylari, mashina-mexanizmlar, asbob-uskunalar, mehnatning texnik va texnologik jihatdan ta'minlanganligi - ko'chma, qurilish mahsuloti esa – ko'chmas hisoblanadi. Shuningdek, qurilish tarmog'i mahsulotlari jamiyatga uzoq davrlarga, ya'ni bir necha o'n yillar xizmat qilishga mo'ljallangan.

2) Qurilish jarayoni tarkibiga kiruvchi barcha operatsiyalarning texnologik jihatdan bir-biriga bog'liqligi.

Qurilishda qurilish-montaj ishlari boshlanishiga qadar vaqtinchalik ishlab chiqarish-maishiy va ma'muriy-xo'jalik binolari barpo etiladi hamda muxandislik kommunikatsiyalari, yo'l, elektruzatish liniyalari va boshqalar o'tkaziladi. Ushbu ishlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan tashkiliy va qo'shimcha xarjatlarni talab qiladi. Shu bilan birgalikda qurilish muddatining uzoq davomiyligi xo'jalik faoliyatidagi aylanma mablag'larni tugallanmagan qurilishga sarflanishiga olib keladi. Qurilishning me'yordan ortiq davom etishi va keyinchalik texnologik jarayonning takomillashuvi yangi texnika va texnologiyalarni hisobga olgan holda qurilishning borishi to'g'risida oldin qabul qilingan qarorlarni qayta ko'rib chiqishga olib keladi. Qurilish ishlab chiqarish texnologiyasi, uning alohida jarayonlarining qat'iy ketma-ketlikda bajarilishini talab qiladi: bitta ish jarayonining tugallanishi boshqa jarayonning boshlanishidan oldin bo'lishi kerak. Shu bilan birgalikda qurilish jarayonini fazoviy jihatdan joylashtirish mumkin emas, shuningdek ishchi xodimlardan ularning ixtisosligi va malakalariga muvofiq ravishda bir vaqtning o'zida foydalanish tegishli qiyinchiliklarni tug'diradi.

3) Qurilish-montaj ishlari murakkabligi va turlari bo'yicha ular o'rtasidagi nisbatning noturg'unligi.

4) Pirovard qurilish mahsulotini yaratishda turli tashkilotlarning qatnashuvi.

Sanoatda kooperatsiyaning istalgan darajasida pirovard mahsulotni bitta bajaruvchi ishlab chiqaradi va sotadi. Ob'yektlar qurilishida esa bir vaqtning o'zida bir necha qurilish-montaj tashkilotlari qatnashadi (bosh pudratchi, subpudratchilar). Ushbu tashkilotlarning har biri qurilish mahsulotining ma'lum bir qismlarini bajaradi.

Qurilish milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, ayniqsa sanoat bilan chambarchas bog'langan. Qurilish hajmining oshishi, bir tomondan uni texnik va texnologik jihatdan ta'minlovchi sanoat tarmoqlari rivojlanishiga, ikkinchi tomondan esa milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari uchun pudrat shartnomasi asosida qurilish-montaj ishlarining bajarilishiga bog'liqdir. Qurilish tashkilotlari buyurtmachilar faoliyati bilan mustahkam bog'langan. Bir qancha tarmoqlar qurilishga nisbatan ham ta'minlovchisi, ham qurilish mahsulotining iste'molchisi sifatida faoliyat yurgizadi. Qurilish material jihatdan ko'p talab qiladigan tarmoq hisoblanadi. Pirovard qurilish mahsulotini olish uchun mazkur tarmoqga 70 tadan ortiq milliy iqtisodiyot tarmoqlari qurilish materiallarini etkazib beradi.

5) Qurilish ishlarida iqlim va mahalliy shart-sharoitning roli.

Qurilishda mavsumiyliknig yo'qotilishiga qaramasdan, qish mavsumida ham ob'yektlar qurilishi bo'yicha tadbirlarning bajarilishi talab qilinadi. Bir xil tipdag'i binolarning turli hududlarda qurilishi har xil moddiy resurs xarajatlarni talab qiladi. Qurilish sharoiti ko'pincha hududning seysmik holati, yer relefi, gruntlar geologik tuzilishi, yer osti suvlari mavjudligi, qurilish maydoniga konstruksiya va

materiallarni etkazish uslublari orqali aniqlanadi.

Qurilish ishchilarini sanoatning boshqa tarmoqlaridagi ishchilariga nisbatan ko‘pincha iqlim sharoiti ta’siriga duch keladi. Ushbu xususiyat yilning eng qulay davrlariga katta kuchlar sarflanishini talab qiladi. Shu sababdan asosiy qurilish, montaj va ta’mirlash-qurilish ishlariga mehnatning me’yoriy shart-sharoitidan chetga chiqishlarni hisobga oluvchi tuzatish koefitsientlari kiritiladi.

Qurilishning maxsus xususiyatlari qurilayotgan ob’yektlarning turlitumanligi bilan bog‘liqdir. Ular quyidagilardan iborat: sanoat, uy-joy, ijtimoiy-maishiy, transport, qishloq xo‘jaligi, melioratsiya va suv xo‘jaligi, magistral quvurlar, elektruzatish liniyalari.

Sanoat binolari qurilishi ularning ajratilgan joyga to‘planishi va ob’yektlarning murakkabligibilan xarakterlanadi. Bitta joydagi ishlar bir yildan ortiq olib boriladi. Nisbatan uzoq muddatli sanoat ob’yektlarini qurish bilan band bo‘lgan tashkilotlarda ishlab chiqarish vositalarining ko‘chib yurishi kam ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu qurilish korxonalarida kadrlar tarkibi esa bir muncha barqaror hisoblanadi.

Transport, qishloq xo‘jaligi, melioratsiya va suv xo‘jaligi, magistral quvurlar va elektruzatish liniyalari ob’yektlarini qurish esa quyidagi xususiyatlarga ega: bitta joydagi ishlar hajmining unchalik katta emasligi, bir-biridan har xil masofalarda joylashgan turli ob’yektlarda ishlarni olib borish zaruriyati, shuningdek yangi o‘zlashtirilgan maydonlarda u yoki bu ob’yekt va inshootlar qurilishida ishchi xodimlarning ko‘chib yurishi.

Uy-joy va ijtimoiy-maishiy ob’yektlarni qurish esa kompleks qurilishlar ketma-ketligi va navbatiga qat’iy rioya qilinganlik bilan xarakterlanadi. Shuningdek, uy-joy massivlari bilan bir qatorda yo‘l, suv ta’minoti tizimi, elektr ta’minoti, issiqlik tarmog‘i, mакtab va maktabgacha tarbiya muassasalari, savdo-sotiq, madaniyat va maishiy xizmat ko‘rsatish ob’yektlari ham qurilishi kerak. Ushbu ob’yektlarni qurish talablariga amal qilmaslik sanitariya hamda shahar normalari va qoidalarining buzilishiga olib keladi. Ijtimoiy ahamiyatga molik ob’yektlarni barpo etish qurilish korxonasi texnikasi, asbob-uskunalar, brigada va qurilish ishtirokchilarining doimiy ravishda ko‘chib yurishi bilan xarakterlanadi. Qo‘srimcha vaqt, moliya va moddiy xarajatlar esa qurilish tashkilotlari faoliyati samaradorligining pasayishiga olib keladi.

#### ***1.4. Qurilishning tashkiliy shakllari, moddiy-texnika bazasi va uning taraqqiyot istiqbollari***

---

Kapital qurilishda investitsiya jarayonining asosiy ishtiroqchilar sifatida odatda bajaradigan vazifalariga ko‘ra investor, buyurtmachi, quruvchi, pudratchi va loyihalovchilar ishtirok etadilar.

*Investor* - ob’yekt qurilishini moliyalashtirishni xususiy yoki qarz mablag‘lar hisobiga amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati sub’ekti. Investor investitsiya natijalarini tasarruf qilishga to‘liq yuridik huquqlarga ega.

Shuningdek, u investitsiyalarni (kapital qo‘yilmalarni) jalb qilish shaklini belgilaydi, qurilish kontraktlarining shartlarini ishlab chiqadi, investitsiya jarayoni

ishtiroqchilari bilan bo‘ladigan moliyaviy-kredit munosabatlarni amalga oshiradi. Investor qurilish mahsulotining buyurtmachisi, kreditori, haridori bo‘lishi, shuningdek, bevosita quruvchi funksiyasini bajaradi.

*Buyurtmachi* - texnik-iqtisodiy asoslarni ishlab chiqishdan boshlab ob’yektni foydalanishga topshirish yoki ob’yektning ishlab chiqarish quvvatiga chiqishigacha bo‘lgan muddatda ob’yekt qurilishining tashkilotchisi va boshqaruvchisi funksiyalarini qabul qilgan huquqiy yoki jismoniy shaxs.

*Qurilish egasi* - qurilish bo‘layotgan yer maydoniga egalik qilish huquqiga ega bo‘lgan huquqiy yoki jismoniy shaxs. U buyurtmachidan farqli ravishda qurilish uchun ajratilgan yer maydonidan uzoq muddatli ijara shartlari asosida foydalanadi.

*Pudratchi (bosh pudratchi)* - pudrat shartnomasi yoki kontrakti asosida ob’yekt qurilishini amalga oshirayotgan qurilish firmasi. Bosh pudratchi qurilish natijalari uchun shartnoma shartlariga muvofiq ravishda buyurtmachi oldida to‘liq javobgar bo‘ladi. U zarur hollarda ayrim turdag'i ishlarni bajarish uchun quyi pudrat tashkilotlarini jalb qilishi mumkin.

*Loyihalovchi* - buyurtmachi bilan tuzilgan shartnoma asosida u yoki bu ob’yektning kelgusidagi qurilishini loyihalovchi loyihalash tashkiloti yoki shunga o‘xhash boshqa muassasa. Loyihalovchi loyihaning va uning asosidagi texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarning sifati uchun to‘liq javobgar bo‘ladi. Buyurtmachi loyihada ko‘zda tutilgan yechimlarga rioya qilinishini nazorat qilish uchun mualliflik nazorati o‘rnatadi.

Qurilish ishlab chiqarishi jarayoni turli shakl va usullarda tashkil qilinishi mumkin bo‘lib, pudrat usuli, xo‘jalik usuli, ob’yektlarni “qulf-kalit” qilib topshirish va sotish shular jumlasidandir.

*Pudrat usulida* qurilish muntazam ishlab turuvchi qurilish tashkilotlari (firmalari) tomonidan buyurtmachilar bilan tuzilgan shartnomalar assida amalga oshiriladi. Bu qurilishning asosiy va eng keng tarqalgan usulidir. Bugungi kunda kapital qurilish sohasidagi barcha pudrat ishlarning taxminan 80 foizdan ortig‘i shu usulda amalga oshiriladi. Uni amalga oshirish uchun “Kapital qurilish pudrat shartnomasi” asos bo‘lib xizmat qiladi.

*Xo‘jalik usulida* - ob’yektlar qurilishi yoki qurilish-montaj, ta’mirlash-qurilish ishlari xo‘jalk sub’ektlarining - korxonalar, tashkilotlar, institutlar va shu kabilarning kuch va mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi. Korxonalarni qayta ta’mirlash va kengaytirish, kichikroq qurilish ob’yektlari, hududlar va xonalarni obodonlashtirish, ta’mirlash ishlari ko‘pincha shu usulda olib boriladi.

*Ob’yektlarni to‘liq qurib bitkazishga o‘tkazish (“qulf-kalit” bilan topshirish)*da buyurtmachining funksiyalari bosh pudratchiga berilib, u qurilishni boshidan boshlaydi va ob’yektni buyurtmachiga uzil-kesil tugallangan holatda topshiradi. Qurilishning bunday usuli uy-joy qurilishida juda keng tarqalgan.

*Tanlovlari* - iqtisodiyotda nisbatan yangi hodisa bo‘lib, bunda buyurtmachi biror ob’yektni qurish yoki loyihalash, asbob-uskunalar etkazib berish bo‘yicha tanlov e’lon qilayotganligini ochiq yoki yopiq shaklda xabardor qiladi va hohlovchilarni shu tanlovda ishtiroq etishga taklif qiladi. Bunda maxsus hujjat tayyorlanadi va unda tanlovning asosiy g‘oyasi, uning tijoriy va boshqa shartlari

ko'rsatiladi. Bunday hujjatlar majmuasi "tender" deb ataladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan shakllardan tashqari, qurilishning ijtimoiy mehnat taqsimoti nuqtai nazaridan ixtisoslashuv, konsentratsiya, kooperatsiya kabi tashkiliy shakllari mavjud. Shuni ham aytib o'tish kerakki, bu shakllar faqat qurilishda emas, balki xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida, avvalo sanoatda ham qo'llaniladi. Amaliyotdan ma'lum bo'lishicha, bu shakllarni mohirlik bilan qo'llash orqali ishlab chiqarish va kapital qo'yilmalarda yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Masalan, agar ixtisoslashuv va kooperatsiya xarajatlarning kamayishiga, mahsulot sifatining yaxshilanishiga imkon bersa, konsentatsiya va kombinirlash - xom ashyo va materiallardan kompleks foydalanishga hamda qurilish sohasida fan-texnika taraqqiyoti ko'laming yanada kengayishiga olib keladi.

Qurilish moddiy ishlab chiqarish tarmog'i sifatida faqat mahsulot ishlab chiqaribgina qolmay, balki buning uchun u yoki bu turdagি resurslarni iste'mol qiladi yoki foydalanadi ham. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, qurilish materiallari sanoati mahsulotlarining 80 foizi, yog'och materiallarining taxminan yarmi, metall prokatining 20 foizdan ko'prog'i, mashinasozlik sanoati mahsulotlarining 10 foizdan ko'proq qismi qurilishda foydalaniladi. Qurilish xarajatlari tarkibida transport sarf-xarajatlarining qiymati 20-25 foizni tashkil qiladi. Boshqacha qilib aytganda, qurilishga xalq xo'jaligi tarmoqlarining deyarli barchasi xizmat ko'rsatadi.

Qurilishning moddiy-texnik bazasini rivojlantirishda qurilish materiallari sanoati alohida o'rinn tutadi. Bu tarmoqdagi korxonalar sement, ohak, gips, g'isht, shisha, qoplama va issiqlik o'tkazmaydigan materiallar, turli to'ldirmalar ishlab chiqaradi.

Kapital qurilishda ayrim turdagи materiallar iste'molining solishtirma ulushi juda kattadir. Masalan, taxminan 80 foiz sement, deraza oynasi – 50 foiz, yog'och materiallar - 35-40 foiz, qora metallar prokati – 20 foiz, yumshoq qoplama materiallar - deyarli 70 foiz iste'mol qilinadi.

Qurilishning materiallar, konstruksiyalar, texnikalar va boshqa ishlab chiqarish vositalari bilan eng to'la ta'minash ko'p jihatdan tarmoqlararo aloqalarning mukammalligi va yanada rivojlantirishiga bog'liqdir. Bu esa, odatda, ishlab chiqarishning tarmoqlararo balansida va mahsulotning xalq xo'jaligidagi taqsimotida aks etadi.

Iqtisodiyotda buyruqbozlik, markazlashgan boshqaruv va rejalashtirish tizimidan bozor tizimiga o'tilishi xo'jalik sub'ektlariga qurilishni rivojlantirish va uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun keng imkoniyatlarni ochib berdi, bunda hududiy boshqaruv organlarining roli kuchayib bormoqda. Ammo bu qurilishning ishlab chiqarish bazasini rivojlantirish va mustahkamlash o'z-o'zidan, stixiyali ravishda yuz beradi, degani emas. U qurilishning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish va joylashtirish hamda uning resurslar bilan to'la ta'minash ilmiy tamoyillariga mos bo'lishi lozim.

Qurilishning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish va joylashtirish uchun qurilish hududi va joyini tanlashga ta'sir qiladigan barcha omillar va shartlarni miqdoriy ifodalashga imkon beradigan usullarga ega bo'lish lozim. Bunday usullar - masalaning optimal yechimini topishga imkon beradigan matematik modellardir.

Ulardan biri - chiziqli dasturlash bo'lib, u o'zgaruvchan kattaliklarning berilgan chiziqli cheklashlarni va ushbu kattaliklarning maqsadli funksiyasini maksimallashtiruvchi yoki minimallashtiruvchi qiymatlari majmuasini topish talab qilinadigan ekstremal masalalarni echishning nazariyasi va amaliyotini o'zida birlashtiradi.

Qurilishning moddiy-texnik bazasini optimal rivojlantirish va joylashtirishning iqtisodiy-matematik modelini shakllantirishda boshqa omillar bilan bir qatorda xom ashyo va materiallarni ishlab chiqarish punktlari, korxonalarini joylashtirish mumkin bo'lgan punktlar, shu punktlardagi ishlab chiqarish hajmlari, transport xarajatlari va boshqalar hisobga olinishi lozim. Bu holatda masalani optimal echish mezoni odatda kelgusida ishlab chiqariladigan mahsulotning yuqori darajada raqobatbardosh bo'lishi, ayni paytda korxonani yaratish va joylashtirishda (bir martalik va joriy) xarajatlarning imkon qadar kam bo'lishidir.

Qurilishning moddiy-texnik bazasini yanada rivojlantirishning muhim shartlaridan biri qurilish industriyasi korxonalarini hamda qurilish konstruksiyalari, detallari va materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarini loyihalashtirish bilan shug'ullanuvchi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro aloqlarni yaxshilashdir.

Bunda ushbu o'zaro munosabatlarning asosida quyidagilar yotishi lozim:

- qurilish industriyasi korxonalarining ishlab chiqarish jarayonlari yuksak darajada mexanizatsiyalashgan va avtomatlashtirilgan, yangi, eng tejamli loyihamalarini ishlab chiqish;

- bu korxonalarini xom ashyo va materiallarni, konstruksiyalarni tashishning hamda ishlab chiqarishni kooperatsiyalashni rivojlantirishning ratsional sxemalarini hisobga olgan holda mamlakat hududida joylashtirishning optimal variantlarini tanlash;

- ishlab turgan, birinchi navbatda 20-30 yil va undan uzoq muddat ishlab kelayotgan korxonalarini texnik qayta jihozlash.

Shuni ham nazarda tutish kerakki, bozor munosabatlari sharoitida, qurilish industriyasi korxonalarini va tashkilotlarning xo'jalik yuritishdagi mustaqilligi kuchayib borayotgan bir paytda, moddiy-texnik bazani rivojlantirish, xo'jalik sub'ektlari, xususan, sub'ektlar bilan kapital qurilish sohasida ishlovchi yoki unga bog'liq bo'lgan ilmiy-tadqiqot va boshqa tashkilotlar o'rtasidagi xo'jalik aloqlarini kuchaytirish masalalari avvalgi paytlardagidek vazirlik va mahkamalar tomonidan emas, balki zarur hollarda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan holda ko'proq qurilish tashkilotlari va korxonalarini tomonidan hal qilinmoqda.

Qurilish industriyasi korxonalarini va tashkilotlari o'zlarining moddiy-texnika bazalarini rivojlantirish orqali o'z ishlab chiqarish salohiyatini mustahkamlabgina qolmay, balki raqobatli muhitda o'z iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydilar hamda faoliyatlarini hayot sikllarini o'zaytiradilar. Bunda moddiy-texnika bazani rivojlantirish ishlab chiqarishning faqatgina texnik yoki moddiy ta'minotidagi absolyut o'sishidan yoki iqtisodchilarining iborasi bilan aytganda, ishlab chiqarishning fond bilan ta'minlanganligi oshishidan iborat bo'lib qolmay, balki uning ustuvorlik tamoyillari asosida, maksimal samaradorlikni ta'minlash tamoyili asosida amalga oshiriladi. Gap

shundaki, bozor munosabatlari sharoitida korxona resurslarning har bir turi oldin rejalashtiriladigan iqtisodiyot sharoitidagi kabi Davlat rejalashtirish qo‘mitasining yoki ta’minot qo‘mitasining buyrug‘i asosida emas, balki xususiy mablag‘lar hisobiga erishiladi.

**Tayanch iboralar:** Qurilish tarmog‘i. Qurilish mahsuloti. Bino. Inshoot. Qurilishning xo‘jalik usuli. Qurilishning pudrat usuli. Moddiy-texnik baza. Investor. Buyurtmachi. Qurilish egasi. Pudratchi. Loyihalovchi. Tanlov savdosi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Qurilish tarmog‘ining milliy iqtisodiyotda tutgan o‘rni va ahamiyatini tushuntirib bering.
2. Qurilish mahsulotini nimalar tashkil qiladi?
3. Qurilish tarmog‘ining texnik-iqtisodiy xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Qurilishning tashiliy shakllarini tushuntirib bering.
5. Qurilish tarmog‘i moddiy-texnika bazasining hozirgi holati va uning taraqqiyot istiqbollari to‘g‘risida gapirib bering.

---

## **2-MAVZU: KAPITAL QURILISHDA IQTISODIY ISLOHOTLARNI CHUQURLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA MUAMMOLARI**

---

### **Reja:**

- 2.1. Qurilish iqtisodiyotini isloh etishning asosiy yo‘nalishlari va muammolari.
- 2.2. Kapital qurilishda shartnoma tizimi va tanlov savdolari.
- 2.3. Qurilishda tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va imkoniyatlari.

### **1. Qurilish iqtisodiyotini isloh etishning asosiy yo‘nalishlari va muammolari**

Mustaqillik yillari davrida mamlakat jamiyati va iqtisodiyoti sezilarli darajada sifat va miqdor o‘zgarishlarga erishdi. Erishilgan natijalar bozor munosabatlariga o‘tishning o‘zbek modeli naqadar oqilona va puxtalik bilan ishlab chiqilganligini yaqqol tasdiqlamoqda. Shunindek, mazkur model orqali jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlari ta’siriga qarama-qarshi tura oladigan O‘zbekistonning barcha ijtmoiy-iqtisodiy tizimi barqarorligi va ishonchlilagini ta’minalashga erishish imkoniyatlari yaratildi.

Shuni ta’kidlash kerakki, 1991 yildan boshlab hozirgi davrga qadar qurilish tarmog‘ida ham boshqa tarmoqlar qatori keng va chuqr miqyosdagi islohotlar olib borildi. O‘tkazilgan tahlillar asosida o‘tgan davr mobaynida qurilish tarmog‘i rivojlanishini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin.

1991-1996 yillarda, mamlakatda investitsion faollikning pasayishi qurilish ishlari hajmi va pudrat shartnomalarining kamayishiga olib keldi. Bu davrlarda

aksariyat qurilish tashkilotlari rahbar xodimlarining qo‘yilgan vazifalarni hal etishda etarli darajadagi bilim va ko‘nikmalarga ega emasliklari hamda bozor sharoitiga moslasha olmaganliklari sababli kadrlar va ishlab chiqarish salohiyati borasida ko‘p yo‘qotishlarga uchradi.

1996-2002 yillar, qurilish tarmog‘ining sezilarli darajada yuksalishi va bozor xo‘jaligi sharoitiga moslashishi, bozor infratuzilmasi elementlarining paydo bo‘lishi va ularning faollashuvi, chet el kapitallari ishtirokidagi qo‘shma korxonalar bilan birgalikda tadbirkorlik va kichik korxonalar, ayniqsa ularning qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida ommaviy ravishda rivojlanishi bilan xarakterlanadi.

2002 yildan boshlab hozirgi davrga qadar qurilish tarmog‘i miqdor va sifat jihatdan milliy iqtisodiyot ehtiyojlarini to‘liq qondira boshladi. Mahalliy qurilish tashkilotlari raqobatbardoshligining o‘sishi sababli aksariyat murakkab va nufuzli ob’yektlar chet el qurilish firmalari ishtirokisiz qurila boshlandi hamda ularning muxandislik va ishlab chiqarish salohiyatlari yuksaldi.

2018 yil yalpi ichki mahsulot hajmi 407,5 trln. so`mni tashkil etdi va 2017 yil bilan taqqoslaganda 5,1% ga o`sdi. Bu haqda Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlarida keltirilgan.

Aholi jon boshiga hisoblangan YIM 12,3 mln. so`mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o’tgan yilning mos davriga nisbatan 3,3% ga o`sdi.

2018 yil yakunlari bo‘yicha, qurilish tarmog‘ida 20,7 trln. so`mlik mahsulot yaratilgan bo‘lib, uning YAIMdagi ulushi 23,3% ni tashkil etdi va 2017 yil bilan taqqoslaganda 9,9% ga o`sdi.


## 2.1-jadval

### **2018-yilda O‘zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning**

#### **asosiy ko‘rsatkichlari**

(2017-yilning shu davriga nisbatan foiz hisobida)

Ko‘rsatkichlar	% da
Yalpi ichki mahsulot	105,1
• Sanoat	110,6
• Chakana savdo aylanmasi	105,5
• Qurilish	109,9
• Qishloq, o‘rmonchilik va baliqchilik xo‘jaligi	100,3
• Jami xizmatlar	108,4



**2.1-diagramma. 2018-yilda O‘zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy ko‘rsatkichlari** (2017-yilning shu davriga nisbatan foiz hisobida)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2018 yil 2 apreldagi “Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5392-sonli Farmoni va 2018 yil 2 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” gi PQ-3646-sonli Qaroriga muvofiq islohotlar na faqat kapital qurilishda, balki mamlakatning qurilish tarmog‘iga xizmat qiluvchi boshqa tarmoq va sohalarda ham amalga oshirilmoqda.

Arxitektura va qurilish sohasini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish hududlarning zamonaviy qiyoqasini shakllantirish, hayot va tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan shaharsozlik faoliyatini sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarishning muhim sharti hisoblanadi.

Shu bilan birga, tahlillar qurilish sohasida davlat boshqaruvini tashkil etishda zamonaviy shaharsozlik uslublari, normalari va qoidalarini keng joriy qilishga, raqobatni rivojlantirishga, yangi sub’ektlarning innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar bilan bozorga kirib kelishiga to‘sinqilik qilayotgan bir qator tizimli muammolarni ochib berdi. Xususan:

birinchidan, shaharsozlik faoliyati, loyiha va pudrat xizmatlari bozori, shuningdek, qurilish materiallari ishlab chiqarishning holati hamda rivojlanish tendensiyalari kompleks tahlil qilinmagan, oqibatda hududlarni shaharsozlik jihatidan rivojlantirishning o‘rta muddatli va istiqbolli yo‘nalishlari belgilanmagan;

ikkinchidan, arxitektura va qurilish organlarining tashkiliy-shtat tuzilmasi qurilish va rekonstruksiya jarayonlarini to‘liq kuzatib borishni ta’minlash,

shuningdek, qurilish-montaj ishlari sifatini samarali nazorat qilish uchun mavjud resurslarni safarbar etishga imkon bermayapti;

uchinchidan, arxitektura va qurilish organlari funksiyalarining tarqoqligi hamda ular faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish darajasining pastligi shaharsozlik sohasida davlat xizmatlarini ko'rsatishning maksimal shaffofligi va samaradorligini ta'minlamayapti;

to'rtinchidan, ko'pchilik aholi punktlarining bosh rejalari mavjud emasligi hududlarni kompleks qurishga, ishlab chiqarish va infratuzilma ob'yektlarini joylashtirishga, tadbirkorlik va ishbilarmonlik faolligini rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, shuningdek, qurilish jarayonida puxta o'ylanmagan qarorlarni qabul qilishga sabab bo'lmoqda;

beshinchidan, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar ancha eskirgan hamda ularda arxitektura-qurilish ishlarini olib borishning innovatsion uslublarini, energiya samarador va energiya tejaydigan texnologiyalarni keng qo'llash e'tiborga olinmagan, bu esa loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va ob'yektlarni qurish sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

oltinchidan, qurilish ishlarini tashkil etish, innovatsion g'oyalar va ishlanmalarni joriy qilishda ayrim hollarda tor idoraviy manfaatning ustunlik qilishi byudjet mablag'laridan oqilona foydalanmaslikning sabablaridan biri hisoblanadi;

ettinchidan, qurilish sohasi va qurilish materiallari sanoatida istiqbolli investitsion loyihalarini, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni ilgari surish va amalga oshirishda, shuningdek, innovatsion mahsulotlarni joriy etish uchun infratuzilmani takomillashtirishda davlat-xususiy sheriklikdan foydalanishga etarlicha e'tibor berilmayapti;

sakkizinchidan, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning amaldagi tizimi arxitektura-qurilish sohasini jadal rivojlantirish vazifalarini samarali ro'yobga chiqarishga imkon bermayapti, kadrlarni moddiy rag'batlantirish darajasining pastligi esa malakali mutaxassislarning tizimdan ketib qolishiga olib kelmoqda.

Arxitektura-qurilish sohasini boshqarishning shaharsozlik faoliyatiga innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish imkonini beruvchi zamonaviy tizimni yaratish, ko'rsatilayotgan xizmatlarning shaffofligini ta'minlash maqsadida, shuningdek, 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi va O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi negizida O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tashkil etildi va quyidagilar uning vazifalari etib belgilandi:

- shaharsozlik va qurilish uchun muhandislik-texnik izlanishlar sohasida yagona ilmiy-texnikaviy siyosatni olib borish, mehnat unumdarligini oshirish, qurilish-montaj ishlari qiymatini kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydigan energiya samarador va energiya tejaydigan innovatsion loyiha va qarorlarni qurilish faoliyatiga joriy etish;

- respublika hududida aholini joylashtirishning bosh sxemasini, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar hududlarini rejalashtirish sxemalarini, aholi punktlarining bosh rejalarini va boshqa shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish va tasdiqlashni tashkil qilish, ularning amalga oshirilishi ustidan monitoring yuritish;
- shaharsozlik sohasida davlat siyosatining asosiy yo'naliishlari bo'yicha takliflar tayyorlash, arxitektura-qurilish faoliyatini rivojlantirishning uzoq muddatli va o'rta muddatli davlat dasturlarini ishlab chiqish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning tarmoq va hududiy dasturlarini tayyorlashda ishtirot etish;
- loyiha ishi va qurilish faoliyatini muvofiqlashtirish, loyiha-qidiruv tashkilotlarining ish samaradorligini oshirish va hududiy tarmoqlarini kengaytirish, yakka tartibdagi, namunaviy, takroran qo'llaniladigan va eksperimental loyihalarni va loyiha yechimlarini ishlab chiqishni tashkil etish, shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish;
- shaharsozlik va shaharsozlik faoliyatining normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish va yangilash, idoraviy qurilish norma va qoidalarini ishlab chiqishni muvofiqlashtirish, loyihalash, qurilish, qurilish materiallari va buyumlarini ishlab chiqarish sohasida standartlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- arxitektura, loyihalash va qurilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlash, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida o'quv jarayonining darajasi va sifatini tubdan yaxshilash, qurilish sohasida, jumladan, chet eldag'i etakchi ilmiy-tadqiqot muassasalarida loyihachilar va mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishga ko'maklashish.

Vazirlik markaziy apparatining boshqaruvi xodimlari cheklangan soni 81 nafar etib belgilandi. Hududiy bo'linmalarda esa 796 kishi ishlaydi.

Idora litsenziyalovchi organga aylanadi. Buning uchun Qurilish sohasida islohotlarning amalga oshirilishi monitoringi va faoliyatni litsenziyalash bo'yicha Respublika komissiyasi tugatildi. Litsenziyalar Loyiha boshqaruvi milliy agentligi bilan kelishilgan holda beriladi. Litsenziyalash jarayoni soddalashtiriladi: aniq va to'liq litsenziya talablari va shartlari nazarda tutiladi, ularga rioya etilishini nazorat qilinadi va moddiy javobgarlik belgilanadi, shuningdek litsenziya talabgorining litsenziya talablari va shartlariga muvofiqligini tekshirish mexanizmi takomillashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 noyabrdagi "Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5577-sون Farmoniga muvofiq mamlakatimizda tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlashning zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy etish, xususiy biznesga katta erkinlik berish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari kafolatlarini kuchaytirish, xorijiy investitsiyalarni va zamonaviy texnologiyalarni jalg qilish yuzasidan chora-tadbirlar ko'rilmoxda.

Shu bilan birga, qurilish sohasidagi ishlar holatini o'rganish ushbu sohasida islohotlarni jadal amalga oshirishga va sog'lom raqobat muhitini rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan muammolar borligini ko'rsatdi.

Shaharsozlikni texnik tartibga solishning bozor vositalarini joriy etishga etarlicha e'tibor berilmayapti, qurilish sohasida katta miqdorda davlat ma'muriy-boshqaruv va nazorat funksiyalari saqlanib qolmoqda.

Ob'yektlarni loyihalashtirish va qurishdagi normalashning mavjud ko'rsatma beruvchi usuli innovatsion loyihaviy yechimlar va yangi ilmiy-texnik ishlanmalarni qo'llashga to'sqinlik qilmoqda, ichki va xorijiy investitsiyalarini qurilish sohasiga jalb qilishni sekinlashtirmoqda.

Xalqaro savdoning hozirgi globallashuv shartlariga javob beradigan qurilish normalari va qoidalarini ishlab chiqish, qo'llab-quvvatlash va joriy etish sohasida kadrlarni professional tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi mavjud emas.

Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish, investitsiyalarini jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, qurilish tarmog'i kadrlarini professional tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimining samaradorligini oshirish maqsadida:

1. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga ko'ra:

a) 2018 yil 1 dekabrdan boshlab:

barcha qurilish ob'yektlari uchun loyihalarning smeta qismini ekspertizadan o'tkazish majburiydir, qurilishi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar hisobiga amalga oshiriladigan ob'yektlar bundan mustasno;

qurilishi tugallangan ob'yektlarni foydalanishga qabul qilish qurilish sohasidagi nazorat inspeksiysi, kadastr organlari, buyurtmachi, pudratchi (bosh pudratchi) vakillari ishtirokida amalga oshiriladi, davlat xaridlari sub'ektlari mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan ob'yektlarni qurish bundan mustasno;

pudrat tashkilotlari va loyiha tashkilotlari o'rtasida konsorsium tashkil etish hamda konsorsium ishtirokchilari zimmasiga loyihani sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish uchun solidar javobgarlikni yuklash orqali «fast-track» usuli (bir vaqtning o'zida loyihalashtirish, xarid qilish va qurilish ishlari) bilan «tayyor holda topshirish» shartlari (Engineering Procurement Construction) asosida loyihalarni amalga oshirishga yo'l qo'yiladi;

b) 2019 yil 1 yanvardan boshlab:

loyihalash va qurilish faoliyatini amalga oshirish uchun Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga a'zo davlatlarning vakolatlari, tashkilotlari, jamiyatlari va birlashmalari tomonidan berilgan sertifikatlar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlar (litsenziyalar) tan olinadi;

qurilish uchun yer uchastkalarining o'z vaqtida va to'g'ri ajratilishi hamda qurilish-montaj ishlari tasdiqlangan bosh rejaga yoki er uchastkalarini joylashtirish sxemalariga (bosh reja mavjud bo'lmaganda) bog'lamasdan amalga oshirilishi uchun tegishli hokimlarning shaxsiy javobgarligi belgilanadi;

qurilish uchun yer uchastkalari o'z vaqtida ajratilmasligi yoki noto'g'ri ajratilishi natijasida yuzaga kelgan xarajatlar mahalliy byudjetlar mablag'lari hisobidan, keyinchalik aybdor shaxslardan regress tartibida undirish orqali qoplanadi;

milliy qurilish normalari va qoidalarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish, shuningdek qurilishga oid xorijiy normativ-texnik hujjatlarni moslashtirish faqat tanlov asosida amalga oshiriladi;

milliy qurilish normalari va qoidalarini qayta ko'rib chiqishda, shuningdek qurilishga oid xorijiy normativ-texnik hujjatlarni moslashtirishda mulkchilik shaklidan qat'i nazar milliy va xorijiy yuridik shaxslar, jamoat va xalqaro tashkilotlar, shuningdek shu sohaga ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot muassasalari ishtirok etishga haqli;

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi milliy qurilish normalari va qoidalarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish, shuningdek qurilishga oid xorijiy normativ-texnik hujjatlarni moslashtirish va ularni amaliyatga joriy etish bo'yicha ishlarning buyurtmachisi hisoblanadi;

qurilish normalari va qoidalari har tomonlama ekspertizadan o'tkazish natijalari asosida Qurilish vazirligining qarori bilan tasdiqlanadi va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida majburiy tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi shart;

belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan qurilish standartlari, texnik reglamentlar, qurilish normalari va qoidalaring yagona katalogini yuritish, rasmiy veb-saytida e'lon qilish va yangilab borish orqali katalogdan bemalol foydalanishni ta'minlash «O'zstandart» agentligiga yuklanadi;

v) 2019 yil 1 martdan boshlab:

malakaga ega bo'lishi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq majburiy bo'lgan qurilish sohasidagi mutaxassislarni sertifikatlash O'zbekiston muhandislar-konsultantlar uyushmasi tomonidan amalga oshiriladi;

loyihalash faoliyatini amalga oshirishga shtatida tegishli sertifikatga ega va doimiy asosda ishlaydigan kamida ikki nafar muhandis mavjud bo'lgan yoxud O'zbekiston muhandislar-konsultantlar uyushmasi a'zosi bo'lgan yuridik shaxslarga ruxsat beriladi;

ob'yektlarni qurishning barcha bosqichlarida mualliflik va texnik nazorat majburiydir hamda tegishli ravishda loyiha muallifi va buyurtmachi tomonidan yoki sertifikatga ega ekspert jalb qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

qurilayotgan ob'yektlar ustidan mualliflik nazorati, texnik nazorat va tekshiruv faqat belgilangan tartibda sertifikat olgan mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi;

g) 2020 yil 1 yanvardan boshlab uy-joy qurilishi ob'yektlari loyiha-tadqiqot va qurilish-montaj ishlarini bajarish bosqichida energiya-samarador va energiya-tejamkor uskunalar bilan majburiy ravishda jihozlanishi, shuningdek, ular foydalanishga qabul qilinishidan avval energetik audit pasportini olishi kerak, BREEAM (binolar samaradorligini ekologik baholash usuli) va LEED (energiya-samarador va ekologik loyihalashtirish bo'yicha qo'llanma) xalqaro standartlari bo'yicha sertifikatga ega ob'yektlar bundan mustasno;

2. Adliya vazirligi, Qurilish vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligining qurilish sohasini texnik tartibga solishning normativ bazasini isloh qilish to'g'risidagi quyidagilarni nazarda tutuvchi takliflariga rozilik berilsin:

tayyorgarlik davri (2019 — 2021 yillar) — O‘zbekiston Respublikasining geologik, tabiiy-iqlim, seysmologik va boshqa xususiyatlarini inobatga olgan holda amaldagi milliy qurilish normalarini qayta ko‘rib chiqish, shuningdek, qurilishga oid xorijiy normativ-texnik hujjatlarni moslashtirish;

o‘tish davri (2022 — 2026 yillar) — milliy qurilish normalari va qoidalariga moslashtirilgan qurilishga oid xorijiy normativ-texnik hujjatlarni amaliyatga joriy etish, qurilish sohasiga innovatsiyalar joriy etish, yangi texnologiyalar, materiallar, buyumlar va konstruksiyalarni o‘zlashtirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlarni amalgga oshirish;

yakuniy davr (2027-2028 yillar) — milliy va moslashtirilgan xorijiy qurilish normalari hamda qoidalarini qo‘llash tajribasini umumlashtirish asosida qurilish sohasini texnik tartibga solishning yagona normativ bazasini yaratish.

“Jahon bankining biznes yuritish sohasidagi reytingida mamlakatimiz qurilish bo‘yicha 134-o‘rinni egallagan. Bu esa sohada ko‘plab muammolar borligidan dalolat beradi. Misol uchun, qurilish sohasida ruxsat berishga oid 17 ta tartib mavjud bo‘lib, ularni olish uchun o‘rtacha 246 kun sarflanadi. Bu adolatsizlik emasmi?” deb alohida urg‘u berilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Shavkat Mirziyoevning 2019 yilda mamlakatni rivojlantirishning eng ustivor vazifalari to‘g‘risidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida.<sup>2</sup>

Kapital qurilishni isloh etish quyidagi assosiy muammoli yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- loyiha va qurilish ishlari bozorida raqobat muhitini rivojlantirish ob’yektiv zarurat ekanligi;
- bozor tamoyillari va mexanizmlarini asoslash va amaliyatga tatbiq etish;
- qurilishda doimiy ravishda loyiha, smeta va texnologik tartib-intizomni takomillashtirib borish;
- qurilish materiallari bozorining tiklanishi va rivojlanishi;
- kapital qurilish tarmog‘i va tarmoq osti sohalariga zamonaviy texnika va texnologiyalarni muntazam joriy etib borish;
- qurilish ishlab chiqarishi sohasiga xizmat qiluvchi konsalting tashkilotlardan tortib, to lizing va boshqa tashkilotlarga bo‘lgan bozor infratuzilmalarning tiklanishi va rivojlanishi;
- tarmoqda kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish ishlarini tubdan takomillashtirish.

## ***2.2. Kapital qurilishda shartnoma tizimi va tanlov savdolari***

Qurilish ob’yektlarini foydalanishga tayyor holda pudrat usulida qurilish muntazam ishlab turuvchi qurilish tashkilotlari (firmalari) tomonidan buyurtmachilar

---

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.”Халк сўзи” газетаси, 2018 йил 29 декабрь.

bilan tuzilgan shartnomalar assida amalga oshiriladi. Bu qurilishning asosiy va eng keng tarqalgan usulidir. Bugungi kunda kapital qurilish sohasidagi barcha pudrat ishlarining taxminan 80 foizi shu usulda amalga oshiriladi. Uni amalga oshirish uchun “Kapital qurilish pudrat shartnomasi” asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shartnomada quyidagi tariflar qo‘llaniladi:

*ijro hujjatlari* - naturada bajarilgan ishlarni bajarish uchun mas’ul bo‘lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o‘zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqligi to‘g‘risidagi yozuvlar bilan birgalikda ob’yekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o‘rnatalgan asbob-uskunalarning sifatini va ishlarni bajarishda qo‘llanilgan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlarni tasdiqlanganligi to‘g‘risidagi dalolatnomalar, ayrim mas’uliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to‘g‘risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarning yakka tartibdagi sinovi to‘g‘risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar;

*qurilish maydoni* - mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnomaga bo‘yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob’yektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo‘yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo‘yiladi;

*vaqtinchalik inshootlar* - Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o‘rnataladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan har qanday tipdagisi vaqtinchalik binolar va inshootlar;

*berkitiladigan ishlar* - sifati va aniqligini keyingi ishlarni bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo‘lmagan keyinchalik bajariladigan ishlarni va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlarni;

*shartnoma narxini bo‘lib chiqish* - ishlarning har bir bosqichi va (yoki) turlari qiymatini aniq belgilagan holda shartnoma bo‘yicha ob’yektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

Pudratchi shartnoma shartlariga ko‘ra loyihada ko‘zda tutilgan ob’yektni foydalanishga tayyor holda qurish bo‘yicha qurilish ishlarini bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa pudratchiga qurilish ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to‘lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko‘rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

- qurilish qiymatini ko‘paytirishga engib bo‘lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo‘lganda;
- ishlarni hajmi buyurtmachi tomonidan o‘zgartirilganda;
- ob’yektning qurilishi bir yildan ortiqqa o‘zgartirilganda.

Qurilish muddati bir yildan ortiq bo‘lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Pudratchining majburiylari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- barcha ishlarni shartnomada ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o‘zining kuchlari yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish

hamda ishni buyurtmachiga shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;

- qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini etkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlash;

- qurilish maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar qurish;

- buyurtmachini pudrat shartnomalari tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to‘g‘risida xabardor qilish;

- qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o‘tqazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muhofaza qilish bo‘yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta’minalash, shuningdek yoritish chiroqlari o‘rnatish;

- qurilish tavakkalchiliklarini sug‘urta qilish;

- mazkur shartnoma bo‘yicha ob‘yektni foydalanishga qabul qilib olish to‘g‘risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o‘ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob-uskunalar, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo‘shatish;

- qurilish maydoni qo‘riqlanishini ta’minalash;

Pudratchi shartnoma bo‘yicha barcha ishlarning o‘z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi hamda ob‘yektning foydalanishga tayyor holda topshirilishi uchun buyurtmachi oldida to‘liq mulkiy javob beradi.

Buyurtmachining majburiyatlari asosan quyidagilardan iborat:

- shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo‘lgan qurilish maydonini ob‘yekt qurilishi va qurilish tugallangungacha bo‘lgan davrda dalolatnoma bo‘yicha pudratchiga berish;

- ishlarni bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta’minalash;

- pudratchining barcha murojaatlarini o‘n kun muddatda ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish;

- moliyalashtirish jadvaliga binoan pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;

- shartnoma imzolangan kundan boshlab 2 oy davomida pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ijro hujjatlari ro‘yxatini taqdim etish;

- pudratchi shartnomaga ilova qilinadigan moliyalashtirish jadvaliga muvofiq birinchi avans to‘lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

To‘lovlar va hisob-kitoblar bo‘yicha quyidagi shartlar belgilanadi:

- buyurtmachi pudratchiga shartnoma bo‘yicha ishlarni umumiyligi qiyamatining 30 foizi miqdorida, ikki oyga teng ulushlarga (oyiga 15 foizdan) bo‘lgan holda avans o‘tkazadi;

- joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlarni sifati tekshirilgandan keyin, berilgan avansni hisobga olgan holda, ishlarni bajarish va moliyalashtirish

jadvallariga muvofiq ob'yeckning umumiyl shartnomaviy joriy qiyematining 50 foizigacha doirasida amalga oshiriladi.

- ob'yeckning shartnomaviy joriy qiyematining qolgan 50 foizi uchun buyurtmachi va pudratchi o'rtasidagi uzil-kesil hisob-kitob qurilish tugallangandan keyin va ob'yeck qabul komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingandan keyin ikki bosqichda;

-ob'yeck qabul komissiyasi tomonidan qabul qilingan kundan boshlab bir oy mobaynida - ishlar qiyematining kamida 45 foizi miqdorida;

-shartnomada belgilangan kafolatli muddat tamom bo'lgandan keyin - ishlar qiyematining 5 foizigacha miqdorida, biroq moliya yili tugamasdan amalga oshiriladi.

Pudratchi ob'yeck foydalanishga topshirilgunga qadar shartnomada bo'yicha ob'yecktga mulk huquqini o'zida saqlab qoladi. Ob'yeck buyurtmachiga topshirilgunga qadar ob'yeckning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi pudratchining zimmasida bo'ladi.

Buyurtmachi shartnomada bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnomada kuchga kirgan kundan boshlab o'ttiz kun mobaynida bajarmagan taqdirda, pudratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir. Bunda buyurtmachi pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini - texnik auditorni tayinlaydi, u buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustn Respexnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarning shartnomalariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshirib boradi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Qurilishi tugallangan ob'yeckni qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo'lgan belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, shuningdek qurilishi tugallangan ob'yecklarni foydalanishga qabul qilib olishning belgilangan qoidalariiga binoan amalga oshiriladi.

Qabul qilib olingan paytdan boshlab ob'yeck Buyurtmachining mulkiga aylanadi.

Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari pudratchi va buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar pudratchi bajarilgaiy investorlar sonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarning kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u holda buyurtmachi kafolat summasini pudratchidan ushlab qolish huquqiga ega.

Buyurtmachi quyidagi hollarda shartnomani bekor qilish huquqiga ega:

- shartnomaga kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi buyurtmachiga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra pudratchi tomonidan bir oydan ko‘p vaqtga kechiktirilganda;

- ishlarni tugatishning shartnomada belgilangan muddati pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko‘paygan holda, pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;

- pudratchi tomonidan shartnomaga shartlari qurilish me’yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda.

Pudratchi quyidagi hollarda shartnomani bekor qilish huquqiga ega:

- ishlarning bajarilishi pudratchiga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to‘xtatib qo‘yilganda;

- buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda.

O‘zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilish, shuningdek ilgari to‘xtatib qo‘yilgan ob‘yektlar qurilishini davom ettirish bilan bog‘liq ishlar va xizmatlarning butun kompleksini bajarish, tovarlar xarid qilish, asbob-uskunalar sotib olish Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 3 iyuldagagi 302-sontanlov qaroriga asosan tanlov savdolari (tenderlar) orqali amalga oshiriladi. Uni tashkil etish va o‘tkazish tartibi va shartlarini esa ushbu Qarorda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda tanlov savdolari to‘g‘risidagi Nizom” belgilaydi.

Nizom tanlov savdolarini o‘tkazishning barcha tashkiliy bosqichlarini belgilab beradi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- umumiy qoidalar;
- tanlov savdolari qatnashchilar;
- tanlov savdolari shakllari;
- talabgorga qo‘yiladigan malaka talabları;
- tanlov savdolarini o‘tkazishga tayyorgarlik;
- tanlov hujjatlarining tarkibi, tuzilishi, ularni ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi;
- ofertalarini taqdim etish;
- tanlov savdolarini o‘tkazish va ularni yakunlash;
- tanlov hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazish hamda tanlov savdolarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi monitoringi;
- narxlarga tuzatishlar kiritish va sug‘urta;
- tanlov savdolarini tashkil etish va o‘tkazish xarajatlari;
- tanlov savdolari qatnashchilarining javobgarligi.

Yuqorida qayd etilgan Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 3 iyuldagagi “Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 302-sontanli Qarori va “O‘zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda tanlov savdolari to‘g‘risidagi Nizom” ning to‘liq matni lex.uz saytida keltirilgan.

## **2.3. Qurilishda tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va imkoniyatlari**

---

So‘nggi yillarda iqtisodiyotning barcha sohalarida, shu jumladan qurilish sohasida ham xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida respublika ijtimoiy-iqtisodiy hayotida bo‘layotgan o‘zgarishlar sezilarli darajada o‘snoqda.

Kapital qurilish ishlari uzoq davom etuvchi va katta mablag‘larni talab qiluvchi jarayon bo‘lganligi sababli real vaqt kesimida paydo bo‘lgan ehtiyojni zudlik bilan ta’minalash imkoniyati mavjud bo‘lmaydi. Shu sababli aholining qurilish tarmog‘i mahsulotiga bo‘lgan ehtiyojini ta’minalashda asosiy e’tibor aynan mehnat resurslaridan etarli darajada va samarali foydalanishga qaratilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 martdagи “Obod qishloq” dasturi to‘g‘risida”gi PF-5386-sonli Farmoni va 2018 yil 27 iyundagi “Obod mahalla” dasturi to‘g‘risida”gi PF-5467-sonli Farmonining ahamiyati qanchalik muhimligini ta’kidlash lozim.

““Obod qishloq” dasturi asosida 2018 yilda 159 ta tumandagi 417 ta qishloqda qurilish-obodonlashtirish ishlari olib borildi. Ushbu qishloqlarda 142 mingta yakka tartibdagi uy va mingdan ziyod ko‘p qavatli uy, 3 ming kilometr yo‘llarni ta’mirlandi, 2,5 ming kilometr elektr energiyasi, 2 ming kilometr ichimlik suv tarmoqlarini qurildi va qayta tiklandi, 2 ming 400 ta bozor va boshqa infratuzilma ob’yektlari qurildi. Bundan tashqari, 388 ta umumta’lim maktabi, 313 ta bog‘cha, 168 ta tibbiyat muassasasi, 38 ta mahalla binosi va boshqa ijtimoiy soha ob’yekti qurildi va ta’mirlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““Obod qishloq” dasturini 2019 yilda amalga oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019 yil 20 fevraldagи Qaroriga asosan 2019 yilda mamlakatimizning 159 ta tumanida 1,6 million nafardan ortiq aholi istiqomat qiladigan 478 ta qishloqda qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilishi rejalashtirildi. Unga asosan umumiyligi 5 476 kilometrdan iborat mintaqaviy yo‘llar (ichki ko‘chalar)ni ta’mirlash va rekonstruksiya qilish, 36 mingdan ortiq hamda umumiyligi 2 458 kilometr bo‘lgan tungi ko‘cha yoritish hamda 21 ta aloqa tizimini yaxshilash, aholiga transport xizmati ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, xususan 556 ta avtobekat qurish hamda umumiyligi 46,3 milliard so‘mlik 189 ta zamonaviy avtobuslar xarid qilish, ichimlik suvi ta’moti tizimini yaxshilash maqsadida 2 219 kilometr yangi tarmoq hamda 221 ta suv inshootini qurish, 729 kilometr tarmoqlar hamda 163 ta suv inshootlarini rekonstruksiya qilish, 361 milliard so‘m miqdoridagi mablag‘lar hisobidan elektr va gaz ta’moti tizimini yaxshilash, 214,2 mingta yakka tartibdagi uy-joylarni ta’mirlash, 1 182 ta ko‘p xonardonli uy-joylarni ta’mirlash hamda 378 ta ko‘p xonardonli uy-joylar hududlarini obodonlashtirish, 280 ta maktabgacha ta’lim, 510 ta maktab, 237 ta sog‘liqni saqlash hamda 439 ta boshqa ijtimoiy soha ob’yektlarini qurish va ta’mirlash, irrigatsiya-melioratsiya sohasida, jumladan, 296 kilometr irrigatsiya va 1 538 kilometr melioratsiya ob’yektlarini qurish va ta’mirlash,

584 kilometr irrigatsiya ob'yektlarini tozalash ishlarini amalga oshirish belgilab olindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev taklifiga muvofiq joriy yildagi ishlarni mantiqiy davom ettirish va yuksak bosqichga ko'tarish maqsadida 2019 yil mamlakatimizda "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili" deb e'lon qilindi.

Investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, iqtisodiyotning yuragi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi.

"Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson, millati, tili va dinidan qat'i nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotdan rozi bo'lib yashashi – bizning bosh maqsadimizdir", deya ta'kidladi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev.

Davlatimiz rahbari bu yo'nalishdagi ulkan rejalar va muhim vazifalarni ko'rsatib o'tdi.

Ochiq iqtisodiyot, sog'lom raqobat, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Yoshlarga munosib ta'lim berish, ilmiy va o'quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilash, aholi salomatligini mustahkamlashga qaratilgan ishlar yangi bosqichda davom ettiriladi.

"Biz faqat investitsiyalarni faol jalg qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz. Iqtisodiyotdagи ijobiy natijalar esa ijtimoiy sohada to'planib qolgan muammolarni tizimli hal etish imkonini yaratadi", dedi davlatimiz rahbari.<sup>3</sup>

O'zbekistonda injiniring va konsalting kompaniyalari 2005 yildan boshlab rivojlna boshladи. Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 7 fevraldagи Qaroriga binoan respublikada mazkur kompaniya va tashkilotlar faoliyat yurgizishlari uchun tayyorgarlik ishlari, tegishli uslubiy va xuquqiy xarakterdagи tavsiyalar hamda mexanizmlar ishlab chiqildi.

*Injiniring* kompaniyalari asosan injenerlik-maslahat xizmatlari, ya'ni tijorat xarakteridagi qurilish mahsuloti va materiallarini ishlab chiqarishni tayyorlash va ta'minlash hamda amalga oshirish; qurilishga xizmat ko'rsatish va yangi ishga tushirilgan ob'yektlarning ekspluatatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar majmuini bajaradi.

Respublikadagi mavjud injiniring kompaniyalarini faoliyat yo'nalishi jihatidan quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin: 1-guruhga – qurilish va qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish jarayonini tayyorlash va 2-guruhga esa – tayyor qurilish ob'yektlari, qurilish materiallari va boshqalarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish jarayonlarining normal kechishi bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar.

*Konsalting* – bu ixtisoslashtirilgan kompaniyalarning qurilish materiallari

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси."Халқ сўзи" газетаси, 2018 йил 29 декабрь.

sanoatidagi qurilish-montaj tashkilotlari va korxonalariga barcha iqtisodiy masalalar, shu jumladan ularning tashqi iqtisodiy faoliyati bo'yicha maslahatlar bera oladigan maqsadli faoliyatidir.

Qurilish majmuasida konsalting kompaniyalar qurilish xizmatlari va materiallari bozorini tadqiq qilish va bashorat qilish; jahon bozorlari, birinchi navbatda yaqin davlatlar bozori kon'yunkturasini tadqiq etish; investitsiya loyihalarining texnik-iqtisodiy asosini ishlab chiqish; qo'shma korxonalarini barpo etish va boshqalar bilan shug'ullanadi.

Injiniring va konsalting kompaniyalaridan farqli ravishda 1999 yildan boshlab respublikada lizing kompaniyalari ham rivojlanan boshladi. Ushbu kompaniyalarning rivojlanishiga 1999 yil 14 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi Qonuni (2002 yil 13 dekabrda o'zgartishlar kiritilgan), 2002 yil 28 avgustdag'i "Lizing tizimlari rivojlanishini yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Prezident farmoni va 2003 yilda qabul qilingan "Kapital qurilishda ijara va lizing xizmatlari tizimini joriy etish" to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasining qarorlari muhim turtki bo'ldi. Mazkur farmon va qarorlarning qabul qilinishi munosabati bilan qurilish-montaj tashkilotlarining ob'yektlarni to'liq bitkazgunga qadar bo'lgan muddatga qurilish texnikalari va mashina-mexanizmlarini chetdan jalb etish bo'yicha imkoniyatlari yanada kengaydi. Qurilish-montaj tashkilotlarining texnikalardan oqilona foydalanish va ularni ekspluatatsiyasi bo'yicha barcha rejimlarga rioya etish bo'yicha mas'uliyatlari yanada oshdi.

*Lizing* kompaniyalarining muvaffaqiyatli rivojlanishida davlat tomonidan har tomonlama o'ylab berilgan barcha preferensiya va imtiyozlar muhim hisoblanadi. Lizing to'lovlari qo'shimcha qiymat solig'idan ozod qiindi; mamlakatga olib kelinayotgan texnologik uskunalar boj to'lovi va qo'shimcha qiymat solig'idan ozod qilindi; xo'jalik yurituvchi sub'ektlar – lizing oluvchilar esa lizing shartnomasi muddati davomida mol-mulk solig'idan ozod qilindi.

Lizing, boshqa faoliyatlarga nisbatan tashqi savdo, kredit va investitsiya jarayonlarining barcha elementlarini o'zida birlashtiruvchi investitsion va tadbirkorlik faoliyatining yangi va istiqbolli turlaridan biri hisoblanadi. Umuman olganda, lizing mazmun-mohiyati jihatidan mol-mulklar sotib olingandan keyin, ularni keyinchalik jismoniy yoki yuridik shaxslarga ma'lum bir mablag' evaziga hamda aniq muddat va shartlar asosida vaqtinchalik foydalanishga berishda paydo bo'ladigan mol-mulk va iqtisodiy munosabatlar majmuidan iboratdir.

Qurilishda ko'chuvchi va ko'chmas mulk lizinglarini ajratish kerak bo'ladi. Ko'chuvchi mulk lizingi ob'yektlariga quyidagilar kiradi: transport vositalari, qurilish texnikasi, mashina va mexanizmlar, mobil zavodlar, hisoblash texnikasi vositalari. Ko'chmas mulk lizingi ob'yektlariga esa ishlab chiqarishga mo'ljallangan bino va inshootlar kiradi. Bozor sektori bo'yicha lizinglar ichki va xalqaro turlarga bo'linadi. Muddati jihatidan lizinglar uzoq muddatli (3 yil va undan ortiq), o'rta muddatli (3 yilgacha) va qisqa muddatli (1,5 yilgacha) bo'ladi. Amaliyotda mazkur lizing turlarining barchasi tarqalgan bo'lib, ular mos ravishda qonun osti va me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ta'minlangan.

Lizing kompaniyalari, tayyorgarlik ishlarini amalga oshiradi, bunda lizing

loyihasining barcha shartlari to‘liq o‘rganiladi. Lizing loyihalarini kompleks ekspertiza qilish lizing bitimlarini tuzishning majburiy shartlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon murakkab bo‘lib, uning ko‘p elementlari respublika sharoitida etarlicha rivojlanmagan hamda chuqur o‘rganilmagan.

Loyiha ekspertizasi - marketing tadqiqotlari, axborot ta’minoti, texnika va moliya ekspertizasi, tavakkalchilikni baholash, shartnomaviy narxlarni to‘g‘ri aniqlash va loyiha qiymatini hisoblash kabi ishlarning o‘tkazilishini ko‘zda tutadi.

Respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning aniq mexanizmlarini ishlab chiqish, bunda asosiy e’tiborni sohada raqobat muhitini rivojlantirish va monopoliyaga qarshi faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtida respublikada mavjud turli tarmoq va sohalar bozorlarining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emasligini quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin:

- ma’muriy-buyruqbozlik tizimidan meros bo‘lib qolgan bozorlarning milliy va mintaqaviy darajada monopollashuvi hamon qolib kelmoqda;

- monopoliyaga qarshi nazorat mexanizmining takomillashmaganligi. Bu holat - yagona “O‘zbekiston Respublikasi monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish Davlat qo‘mitasi” faoliyati etarli darajada emasligi va mazkur nazoratga sud organlarining jalb etilishi past darajada ekanligi bilan tushuntiriladi.

Milliy iqtisodiyotning boshqa sohalarida kabi, qurilish sohasida ham raqobat muhitini rivojlantirish mexanizmi asosida ko‘zlangan natijalarga erishish mumkin. Buning uchun qurilish sohasida kichik va xususiy korxonalar faoliyatini rivojlantirish, aksiyadorlik kompaniyalari va jamiyatlarini boshqa mulk shakllardagi korxonalarga aylantirish jarayonlarini takomillashtirish, sohada xizmat qiluvchi yangi tuzilmalarni, ayniqsa konsalting, injiniring, lizing va ijara firmalari hamda kompaniyalarini tashkil etish va ular faoliyatini rivojlantirish uchun etarli darajadagi qulay huquqiy va iqtisodiy jihatdan imkoniyatlarni yaratish talab qilinadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, xo‘jalik yuritish mexanizmini davlat bevosita belgilaydigan tarmoqlar “boshqariladigan” tarmoqlar deb yuritiladi. Bunday tarmoqlar tarkibi turli mamlakatlarda turlicha bo‘lsa-da, ko‘plab mamlakatlarda, masalan AQSHda boshqariladigan tarmoqlar jumlasiga temir yo‘l, aviatsiya va transportning boshqa turlari, bir qator yoqilg‘i-energetika, gaz ta’minoti, elektr quvvati va ko‘plab turdagи communal xizmatlar va boshqalar kiradi.

Milliy iqtisodiyotda monopoliyaga qarshi muammolarni hal etish unda yuz berayotgan xo‘jalik jarayonlariga davlat ta’siri vositalarining muayyan tizimidan foydalanishni taqozo etadi. Ushbu tizimning asosiy tashkil etuvchilari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- tashkiliy-huquqiy mexanizmlar;
- boshqarilayotgan tarmoqlarga xususiy kapitalning kirib borish sharoitlarini belgilash;
- narx shakllanishi mexanizmi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishida raqobat muhitini takomillashtirish va uning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash

tizimini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi asosiy chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- xususiy va davlat monopoliyasini cheklash, iqtisodiy kuchlarni haddan tashqari markazlashuvining oldini olish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari erkinliklarini oshirish asosida qulay raqobat sharoitini vujudga keltirish;
- soliqqa tortish tizimini yanada takomillashtirish, tavakkalchilikni pasaytirish va kichik biznes korxonalari faoliyatini barqarorligini ta’minalashga yordam berish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini moliyalashtirishda turli xil byudjetdan tashqari fondlar hamda kreditlar uyushmalari faoliyatini tashkil qilish va rivojlantirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini davlat buyurtmalarini bajarishga yanada keng jalg qilish va bu sohada ularga imtiyozlar taqdim etish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlariga axborot va maslahat xizmatlari ko‘rsatishning aniq mexanizmlarini ishlab chiqish.

Shunday qilib, hozirgi paytda respublikaning barcha tarmoq va sohalarida modernizatsiyalash va ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash jarayoni amalga oshirilayotganligi kabi qurilish tarmog‘ida ham iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, shuningdek sohada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini rivojlantirish ishlari faol amalga oshirilmoqda. Xususan, mutlaqo yangi tuzilmalar: injiniring, konsalting, lizing va ijara firmalari hamda kompaniyalarini paydo bo‘lishi va ularning erkin faoliyati uchun huquqiy bazani takomillashtirish, me’yoriy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish, bu borada rivojlangan davlatlar tajribalarini o‘rganish, jahon standartlari darajasida axborot ta’minoti va ish yuritishni tashkil etish, ularning moliyaviy ta’minoti kabi muhim prinsipial vazifalarni hal etishda prinsipial va tizimli jihatdan yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tayanch iboralar:** Bozor iqtisodiyoti. Talab va taklif. Raqobat. Tadbirkorlik. Biznes. Xususiylashtirish. Qurilish kompleksi. Tender savdolari. Loyihalashtirish. Qurilish jarayoni. Sharhnomalar tizimi. Bank tizimi. Soliq tizimi. Byudjet tizimi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Kapital qurilishni isloh etishning asosiy yo‘nalishlari va muammolari to‘g‘risida aytib bering.
2. Mustaqillikning dastlabki yillardan boshlab hozirga qadar qurilish tarmog‘ining rivojlanish bosqichlarini tushuntirib bering.
3. Qurilishda sharhnomalar tizimini tushuntirib bering.
4. Qurilishda tanlov savdolari nima va u qanday tashkil qilinadi ?
5. Qurilishda tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?
6. Qurilishda injiniring, konsalting va lizing kompaniyalari faoliyatini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini gapirib bering.

### **3-MAVZU: IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA INVESTITSION SIYOSAT**

---

#### **Reja:**

- 3.1. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida investitsiya siyosatining mohiyati va xususiyatlari.
- 3.2. Investitsiya-qurilish jarayoni, uni tashkil qilish va samaradorligi.
- 3.3. Investitsiya loyihalari va investitsiya dasturlari hamda ularning iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi o‘rni.
- 3.4. Investitsiya dasturini shakllantirish tartibi.

#### **3.1. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida investitsiya siyosatining mohiyati va xususiyatlari**

**Investitsiya siyosati** ham mamlakatdagi iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasini tashkil qilish to‘g‘risida” 2017 yil 31 martdagи PF-4996-son Farmoniga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil 4 apreldagi PQ-2868-son qarori asosida Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi tashkil qilindi va bu tashkilot davlat investitsiya siyosatini amalga oshirishda bosh hisoblanadi.

Bugungi sharoitlarda, masalan, O‘zbekistonda bu siyosat shahar va qishloqlarni qayta ta’mirlash va obodonlashtirishga, yangilarini qurishga, sanoat va xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlarida ishlab turgan korxonalarni kengaytirish va texnik qayta jihozlash, aholining uy-joyga bo‘lgan ehtiyojini va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish, qazilma boyliklar zahirasini xo‘jalik aylanmasiga samarali jalb qilishga, tabiatni muhofaza qilish va hokazolarga qaratilgan.

Demak, investitsiya siyosati - bu davlatning ishlab chiqarish kuchlarini yanada rivojlantirishni, iqtisodiyotni modernizatsiyalashga qaratilgan siyosatidir. Bu siyosat ko‘p jihatdan kapital qo‘yilmalarning ustivor yo‘nalishlarini to‘g‘ri tanlashga bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy soha va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 2017 yilda 68,4 trln. so‘m (dollar ekvivalentida 13,4 mlrd. AQSh dollari) yoki 2016 yilga nisbatan 120,4 % asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 1991 yilga nisbatan 5,1 martta, 2000 yilga nisbatan 6,6 martta, 2005 yilga nisbatan 5,1 martta, 2010 yilga nisbatan 2,0 martta va 2015 yilga nisbatan 129,7 % ga ko`paydi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy soha va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 2017 yilda 68,4 trln. so‘m (dollar ekvivalentida 13,4 mlrd. AQSh dollari) yoki 2016 yilga nisbatan 120,4 % asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi. Asosiy kapitalga

investitsiyalar hajmi 1991 yilga nisbatan 5,1 martta, 2000 yilga nisbatan 6,6 martta, 2005 yilga nisbatan 5,1 martta, 2010 yilga nisbatan 2,0 martta va 2015 yilga nisbatan 129,7 %ga ko`paydi. YaIMga nisbatan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 2017 yilda 26,9 %ni tashkil etib, o`tgan yildagiga nisbatan 2,8 % punktga ko`paydi (1991 yil 18,8 %, 2000 yilda 22,9 %, 2005 yilda 19,9 %, 2010 yilda 24,6 % va 2015 yilda 24,3 %ni tashkil etgan).

### Asosiy kapitalga investitsiyalar




**3.1-diagramma. Asosiy kapitalga investitsiyalar.**

2017 yilda asosiy kapitalga investitsiyalarning hududlar bo`yicha tarkibini ko`radigan bo`lsak, jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 60,5 %i Toshkent shahri, Buxoro, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida (mos ravishda jami investitsiyalarning 19,8 %i, 16,6 %i, 15,9 %i, va 8,2 %i) o`zlashtirildi. Bu hududlarda amalga oshirilgan yirik investitsiya loyihalariga Kandim konlar guruhini o`zlashtirish va gazni qayta ishlash majmuasi qurilishi, Xisor investitsiya bloki va Ustyurt hududida uglevodorod konlariga ishlov berish va ishlab chiqarish, Sho`rtan gaz kimyo majmuasida tozalangan metan asosida suyultirilgan yoqilg`i ishlab chiqarish, gazni oltingugurtdan tozalovchi 3 ta yangi blok qurilishi, Yoshlik 1 metall konini o`zlashtirish kabilarni keltirish mumkin.

Investitsiya faolligi ko`proq Buxoro, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida kuzatildi (2016 yilga nisbatan 1,2 – 1,6 martta ko`payish). Qoraqalpog`iston Respublikasida esa o`tgan yilga nisbatan asosiy kaitalga investitsiyalar 42,4 %ni tashkil etdi.

Respublika bo`yicha asosiy kapitalga investitsiyalarni aholi jon boshiga ko`radigan bo`lsak, 2017 yilda bu ko`rsatkich 2016 yilga nisbatan 18,4 % ga oshib, 2 112,6 ming so`mga yetdi.

#### **2017 yilda hududlarning Respublika bo`yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmidagi ulushi**



**3.2-diagramma. 2017 yilda hududlarning Respublika bo`yicha asosiy kapitalga investitsiyalar umumiy hajmidagi ulushi.**

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi bo`yicha yuqori ko`rsatkichlar 2017 yilda Buxoro viloyatida 6123,3 ming so`m yoki o`tgan yilining mos davriga nisbatan 154,3 % kuzatildi. Mos ravishda Toshkent shahrida - 5546,4 ming so`m yoki 119,5 %, Navoiy viloyatida - 4041,4 ming so`m yoki 106,0 %, Qashqadaryo - 3479,7 ming so`m yoki 128,8 %, Toshkent viloyatida - 1962,6 ming so`m yoki 120,5 %ni tashkil etdi.

Jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 62 %dan ortig`i quyidagi iqtisodiy faoliyat turlariga yo`naltirildi: tog` – kon sanoati - 20,8 %, ishlab chiqarish sanoati - 17,9 %, tashish va saqlash - 9,3 %, elektr, gaz va bug` bilan ta`minlash, havoni konditsiyalash - 8,0 %, ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalar va mototsikllarni ta`mirlash - 3,7 %, axborot va aloqa - 2,8 %.

### 3.1-jadval

#### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi

	2016 y.		2017 y.	
	mild. so'm	Jamiga nisbatan % da	mild. so'm	Jamiga nisbatan %da
<b>Jami</b>	<b>48083,1</b>	<b>100,0</b>	<b>68423,9</b>	<b>100,0</b>
qishloq, o'mmon va baligchilik xo'jaligi	1646,4	3,4	2379,3	3,5
tog' – kon sanoti	7173,4	14,9	14203,8	20,8
ishlab chiqarish sanoati	8992,0	18,7	12238,1	17,9
elektr. gaz va bug' bilan ta'minlash, havoni konditsiyalash	2722,6	5,7	5472,2	8,0
suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilami yig'ish va qayta ishlash	717,3	1,5	983,6	1,4
qurilish	932,0	1,9	1427,9	2,1
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllami ta'minlash	2459,2	5,1	2508,9	3,7
tashish va saqlash	5785,0	12,0	6369,0	9,3
ovqatlanish va yashash bo'yicha xizmatlar	929,7	1,9	550,8	0,8
axborot va aloqa	1098,5	2,3	1926,1	2,8
moliya va sug'urta faoliyati	345,4	0,7	801,9	1,2
professional, ilmiy va texnik faoliyat	501,9	1,0	553,6	0,8
ta'llim	1330,6	2,8	1481,4	2,2
sog'lijni saqlash va ijtimoiy hizmatlar ko'rsatish	1140,2	2,4	1605,8	2,3
san'at, ko'ngil ochish va dam olish	378,9	0,8	586,2	0,8
jami faoliyat turlaridan tashqari: turar joy qurilishiga investitsiyalar	9394,2	19,5	11068,8	16,2
boshqa faoliyat turlari	2535,8	5,3	4306,5	6,2

2017 yilda asosiy kapitalga investitsiyalarning asosiy qismi, jami investitsiyalarning 52,9% i bino va inshootlar qurilishiga yo`naltirildi.

Asosiy fondlarning faol qismini rivojlantirishga investitsiyalarning ulushi 2016 yilda 41,0 %ni tashkil etgan bo`lsa, 2017 yilda 38,3 %ni tashkil etib, 2,7 % punktga (2005 va 2010 yillarda 1,0 %ga, 2015 yilda esa 1,2 % punktga) kamaydi.

### 3.2-jadval

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning turlari bo`yicha tarkibi**

	2016y. mlrd. so`m	Jamiqa nisbatan %da	<u>Ma`lumot uchun jamiga nisbatan %da</u>		
			2005y.	2010y.	2015y.
<b>Asosiy kapitalga investitsiyalar</b>	<b>68423,9</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
shu jumladan: turar joy	11086,3	16,2	11,0	15,1	20,3
bino (turar-joydan tashqari) va inshootlar	25096,8	36,7	40,0	39,1	31,1
mashina, uskuna, transport vositalari	28054,8	41,0	40,0	40,0	39,8
boshqalar	4186,0	6,1	9,0	5,8	8,8

Aytish kerakki, investitsiya siyosati faqat davlat miqyosida emas, balki ayrim mintaqalar, tarmoqlar va korxonalar miqyosida ham tegishlicha maqsadli vazifalari va ularni amalga oshirishning usullari, muddatlari va vositalari yordamida shakllanib, amalga oshiriladi. Masalan, davlat o`z investitsiya maqsadlarini amalga oshirishda ko`proq markazlashgan manbalarga va birinchi navbatda byudjet mablag`larga, xorijiy investitsiyalar va kreditlarga, mintaqalar esa mahalliy byudjet mablag`lariga tayanadi. Korxonalar o`z investitsiya faoliyatlarini asosan o`z mablag`lari, daromadlari, amortizatsiya mablag`lari va ayrim hollarda bank kreditlari yoki boshqa turdag'i qarz mablag`lari hisobiga amalga oshiradilar.

Amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatida korxonalarning o`z manfaatlari va davlat manfaatlari doirasida tutgan o`rnini alohida ta`kidlab o`tishni istar edik. Ma`lumki, korxonalar iqtisodiyotning asosiy bo`g`inlaridir. Ularda jamiyatga kerak bo`lgan mahsulotlar ishlab chiqariladi, yumushlar bajariladi va xizmatlar ko`rsatiladi. SHuningdek, korxonalarda malakali kadrlarning asosiy qismi to`planadi, foyda yuzaga keladi, binobarin, ularda milliy daromadning jami bo`lmasa ham, har holda bir qismi vujudga keladi.

Korxonalar ushbu ishlab chiqarish funksiyalarini bajarish, shuningdek, kerakli moliyaviy ajratmalarni mahalliy va respublika byudjetlariga to`lash davomida mintaqasi va respublika miqyosida investitsiyalash uchun moddiy bazas yarataish natijasida zaiflashib qoladilar, qolgan foyda miqdori juda kam bo`lib, amortizatsiya ajratmalari jiddiy o`zgarishlar uchun etarli bo`lmay qoladi.

Binobarin, iqtisodiyotni boshqarishning turli pog'onalalarida amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatini investitsiyalarni sarflash yo'naliishlari va sohalarini tanlash, korxonalarning investitsion mustaqilligini va moddiy bazasini kengaytirish nuqtai nazaridan iqtisodiy ahvolga moslashtirish lozim. Direktorlik korpusining aksariyat qismining fikricha, bu vazifani bajarishga soliq tizimini yaxshilash katta yordam beradi. Bunday tizim korxonalarga o'zi ishlab topgan daromadlarining investitsion mo'ljallarni amalga oshirish uchun etarli miqdordagi ulushini o'z ixtiyorida qoldirishga imkon berishi lozim.

Aytib o'tilgan fikrlardan yana bir xulosa kelib chiqadi: investitsiya siyosati har qancha puxta o'ylangan va asoslangan bo'lmasin, u qanday darajada amalga oshirilmasin, moddiy ta'minotsiz, ya'ni resurslar bilan etarli ta'minotsiz faqat qog'ozlarda va qarorlarda qolib ketadi. Har qanday siyosat, shu jumladan investitsiya siyosati ro'yobga chiqishi, amalga oshishi uchun muayyan investitsiyalar miqdori bilan tasdiqlanishi lozim. SHuning uchun, investitsiya maqsadlarini, shu jumladan kapital qo'yilmalarni qo'llashning ustivor yo'naliishlarini, sohalari va chegaralarini belgilashda buning uchun kerak bo'ladigan investitsiyalarning ko'lami va ularning moliyaviy manbalari ham puxta ishlab chiqilishi lozim. Ammo bu yerdagi umumiy qoida shundayki, kuchli investitsiya siyosatini amalga oshirish uchun mamlakatdagi vaziyat ham iqtisodiy, ham siyosiy jihatdan barqaror bo'lishi shart. Sezilarli iqtisodiy o'sishlar ko'zatilayotgan O'zbekiston bugungi kunda maqsadga yo'nalgan va samarali investitsiya siyosatini amalga oshirish uchun barcha shart-sharoitlarga egadir.

### **3.2. Investitsiya-qurilish jarayoni, uni tashkil qilish va samaradorligi**

Investitsiya-qurilish jarayoni ijtimoiy ishlab chiqarishning eng muhim elementidir. Uningsiz takror ishlab chiqarishni tasavvur qilish mumkin emas. Bu faqat tabiiy eskirish jarayonida ishdan chiqayotgan mehnat vositalarini almashtirish emas, balki ishlab chiqarish quvvatlarini kuchaytirish, shu jumladan yuqori sifat darajasini, iqtisodiy o'sishni va aholining farovon turmush darajasini ta'minlashdir.

Investitsiyalash va qurilishni, investitsiya va qurilish jarayonlari kabi ko'pincha alohida o'rganish mumkin. Ammo investitsiya resurslarining 60 foizdan ko'proq qismi qurilish sohasida foydalanilayotganligini hisobga oladigan bo'lsak, bu tushunchalar ko'pincha aynan qurilish majmuasining iqtisodiy samaradorligini baholashda qo'llaniladi.

Investitsiya-qurilish jarayoni ham zamonda, ham makonda amalga oshiriladi. Umumiqtisodiy va ijtimoiy jarayonning tarkibiy qismi bo'lgan investitsiya jarayoni investitsiya maqsadlarining texnik-iqtisodiy asoslashni ( $T_1$ ), ob'yekt va inshootlarni o'rganish va loyihalashni ( $T_2$ ), qurilishning o'zini ( $T_3$ ) va ob'ektni foydalanishga topshirishni, uni sinash, tekshirish va ekspertlar tomonidan baholashni o'z ichiga oladi. Bundan kelib chiqqan holda vaqtida o'lchanadigan investitsiya jarayoni quyidagi formula orqali aniqlanishi mumkin:

$$T_{ip} = T_1 + T_2 + T_3 + T_4$$

Qurilish jarayoni - investitsiya jarayoni hamda qurilishning xalq xo‘jaligining bir tarmog‘i sifatida faoliyat ko‘rsatishining asosiy bosqichidir. Uning tashkiliy tizimi uch bosqichdan iboratdir:

- qurilishni tayyorlash;
- bevosita qurilish jarayonining o‘zi;
- tayyor qurilish mahsulotini realizatsiya qilish.

**Qurilishni tayyorlash** qurilish ob‘yektining maqsadga muvofiqligini texnik-iqtisodiy asoslash (TIA), ob‘yektni loyihalash va qurilishga injener-texnik tayyorgarlik ko‘rishdan iborat. Ushbu yo‘nalishlarning har biri o‘zining maqsadli vazifalariga ega.

**Bevosita qurilish** - bu bino va inshootlarni qurib, ko‘tarish jarayoni bo‘lib, qurilish maydonchalarida bevosita amalga oshiriladi. SHuning uchun qurilish maydonchasini “noldan” qurilish ob‘yektining tayyorlik holatigacha bo‘lgan bevosita qurish jarayonining o‘ziga tenglashtiriladi.

**Qurilish mahsulotining realizatsiyasi** - qurilishi tugallangan ob‘yektlarni foydalanishga topshirish va ularni belgilangan tartibda buyurtmachiga (investorga) topshirishdir. ob‘yektlar buyurtmachiga o‘tkazilgach, ular xalq xo‘jaligi balansida asosiy fond sifatida ko‘rsatiladi.

Qurilish investitsiya jarayonining o‘zagidir. Ob‘yektlarni, ayniqsa sanoat-qurilish ob‘yektlarini qurishda u jami investitsiya siklining 50 foizi va undan ko‘p qismini egallaydi. Masalan, amaliyotdan ma’lum bo‘lishicha, o‘rtacha quvvatli mashinasozlik korxonasini qurishda, turli tadqiqotlar va asoslashlarga o‘rtacha 1-1,5 yil ketadi, loyiha ishlab chiqishga - 1 yilgacha, qurilishga 3-4 yil, foydalanishga topshirish va sinab ko‘rishga esa kamida yarim yil ketadi.

Shunday qilib, o‘rtacha quvvatli korxonani qurishga ketadigan investitsiya jarayonining muddati taxminan 5-7 yilni tashkil qiladi. Bugungi kunda ilg‘or qurilish texnika va texnologiyalari, quruvchilarining g‘ayrat-shijoati qurilish ishlab chiqarishini tashkil qilish tizimi etarlicha darajada yaxshi yo‘lga qo‘yilganda ob‘yektlarni qurish va foydalanishga topshirishga nisbatan qisqaroq muddatlar ketadi, natijada investitsiya resurslarining samarasi eng yuqori bo‘ladi. Bunga o‘z paytida Asakada foydalanishga topshirilgan avtomobil zavodi, Buxoro neftni qayta ishslash zavodi, Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi misol bo‘la oladi.

Bu ob‘yektlar qurilgan va ishlayotgan bo‘lsa, u holda bugungi kunning nuqtai nazaridan Kungrad soda zavodi, Qizilqum fosforit kombinati va Andijon biokimyo zavodida, Angrendagi kaolin fabrikasining birinchi navbati, Toshkent, Buxoro, Samarqand va Urganchdagi aeroportlarda qurilish sur’atlar bilan bormoqda. Farg‘ona neftni qayta ishslash zavodi, Toshkent - Andijon - O‘sh - qashqar avtomobil yo‘lining dovon uchastkasi haqida ham aynan shunday gaplarni aytish mumkin.

Qurilish investitsiya jarayonining o‘zagi, asosiy bosqichi bo‘lishiga qaramay, uning qolgan tarkibiy qismlari ham investitsiya jarayonining muddatiga va samaradorligiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatmoqda.

Masalan, muddati cho‘zilib ketgan injenerlik-geologik tadqiqotlar va boshqa qurilish tadqiqotlari, loyiha ishlanmalari sifatining pastligi va eng yomoni ularning

eski texnik yechimlarga mo‘ljallanganligi investitsiya jarayonida eng yaxshi ko‘rsatkichlarga erishishiga imkon beradi. Bu ko‘rsatkichlar jarayonning dastlabki bosqichida ko‘zga tashlanmasa-da, ob’yektlardan foydalanish davomida yoki o‘ziga o‘xshash ilg‘or analoglar bilan taqqoslaganda lalbatta seziladi. SHuning uchun investitsiya jarayonini yaxshilashda hali loyihalash va tadqiqot ishlarini amalga oshirish jarayonida ham katta imkoniyatlar mavjud bo‘ladi. SHu sababdan, quruvchilarda “Loyiha qanday bo‘lsa, ob’yekt ham shunday bo‘ladi” degan shior haligacha bor bo‘lib, o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Investitsiya-qurilish faoliyatini samarali tashkil qilish quyidagi bir qator vazifalarning hal qilinishini ko‘zda tutadi:

- investitsiya jarayonining asosiy bo‘g‘ini sifatida qurilish faoliyatini tashkil qilishdagi asosiy yondashuvlar;
- olish investitsiya-qurilish faoliyatini tashkil qilishda bozor iqtisodiyoti tamoyillarini hisobga;
- investitsiyalashda ustivor yo‘nalishlarni tanlash va investitsiyalardan foydalanish samaradorligini baholash;
- qurilishda yerga egalik qilish va yerdan foydalanishni tashkil qilish va uning samaradorligini baholash;
- pudrat tanlovlарини о‘tkazishni tashkil qilish;
- investitsiya-qurilish risklarini boshqarish;
- moliyaviy resurslarni shakllantirishni va ulardan foydalanishni tashkil qilish;

Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish investitsiyalar hamda qurilish ishlab chiqarishining samaradorligini oshirishgagina emas, balki mamlakat iqtisodiyotini tarkibiy qayta qurishni muvaffaqiyatli amalga oshirishga va qulay investitsiya muhitini yaratish muammosining hal qilinishiga ham imkon beradi.

Ayni paytda investitsiya-qurilish faoliyatining boshqaruv tizimini qayta qurish ham muhim vazifalardan biri bo‘lib, u quyidagi chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi:

- a) markazlashgan rejalashtirishni bartaraf qilish va qonunlar, me’yorlar va standartlar yordamida davlat boshqaruviga o‘tish;
- b) o‘zaro munosabatlarning, shu jumladan davlat boshqaruv tuzilmalari bilan bo‘ladigan munosabatlarning shartnoma (kontrakt) shakllarini rivojlantirish;
- v) tarmoqlarda kompleks boshqaruv tizimlarini rivojlantirish bilan birgalikda ixtisoslashgan hisobga o‘tish va tashkiliy boshqaruvning yanada mustaqilroq tuzilmalarini barpo qilish;
- g) investitsiya-qurilish faoliyatini boshqarishning “loyihani boshqarish” tizimini keng joriy qilishga o‘tish;

Investitsiya-qurilish faoliyatini tashkil qilishda asosiy “figura” - bu investor bo‘lib, u kapitalni qo‘llash siyosati va taktikasini belgilaydi. Ammo baribir investitsiya-qurilish faoliyatining samaradorligi avvalo qurilish ishlab chiqarishini mahorat bilan tashkil qilishga, resurslarni tejashdan to qurilishga sarflanayotgan har bir so‘m yoki boshqa pul birliklarining yuqori samara berishiga erishishgacha bo‘lgan butun qurilish jarayonini boshqarishning ratsional shakllariga bog‘liqdir. Buning uchun muddati cho‘zilib ketgan qurilishlarning vujudga kelishiga, kapital

qo‘yilmalarning ko‘plab ob’yektlarga taqsimlanib ketishiga, tugallanmay qolib ketgan ob’yektlarning paydo bo‘lishiga va boshqa noishlab chiqarish xarajatlariga yo‘l qo‘ymaslik juda muhimdir. Ayniqsa, ish vaqtining bekorga sarf bo‘lishiga yo‘l qo‘yish mumkin emas, chunki bekor turib qolish va ish vaqtidan samarasiz foydalanish - qurilish muddatining cho‘zilishiga va kapital qo‘yilmalar samarasining pasayib ketishiga sabab bo‘ladigan eng muhim sababdir.

Qurilishning bugungi vazifasi - qurilishning sur’atlarini kuchaytirish, uning sifatini oshirish, noishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mehnat unumdarligining o‘sishini ta’minlashdan iborat. Uni muvaffaqiyatli hal qilish faqat quruvchilarga emas, balki investitsiya jarayonining barcha ishtiroqchilariga bog‘liq bo‘lib, bu vazifa qanchalik tezroq hal qilinsa, qurilishning va butun milliy iqtisodiyotning miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari shunchalik yuqori bo‘ladi.

### **3.3. Investitsiya loyihalari va investitsiya dasturlari hamda ularning iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi o‘rni**

**Investitsiya loyihasi** - bu shunday hujjatki, unda kapitalni iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalariga yo‘naltirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi ko‘zla tutilgan bo‘lib, bu chora-tadbirlardan maqsad ishlab chiqarish kuchlarini yanada rivojlantirish va mavjud ishlab chiqarish salohiyatini mustahkamlashdir. Ushbu kapital qo‘yilmalar quyidagi maqsadlarga sarflanishi mumkin:

- yangi qurilishga;
- ishlab turgan korxonalarini kengaytirish va qayta ta’mirlashga;
- ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash va mehnat vositalarini modernizatsiyalashga;
- mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini zamonaviy talablar darajasida saqlab turishga va hokazo.

Investitsiya loyihasining qurilish loyihasidan farqlay bilish lozim. Ma’lumki, qurilish loyihasida muayyan ob’yektning qurilishi bilan bog‘liq texnik, iqtisodiy, tashkiliy, konstruktiv va boshqa yechimlar ko‘rsatilgan bo‘ladi. qurilish loyihasi - bu avvalo u yoki bu ob’yektning qurilishi bilan bog‘liq texnik-iqtisodiy asoslash, tushuntirish xati, chizmalar va smetalarni o‘z ichiga olgan hujjatlar to‘plamidir.

Masalan, tushuntirish xatida loyihaning asosiy g‘oyasi va uning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari asoslab berilgan bo‘ladi. Chizmalar loyihamayotgan ob’yekt haqida yaqqol tasavvur hosil qiladi, qurilish bevosita shu chizmalar asosida amalga oshiriladi. Smeta qurilishning qiymatini xarakterlaydi; uning asosida moliyalashtirish liniyasi ochiladi va kelgusi pul hisob-kitoblari amalga oshiriladi.

Qurilish loyihasi boshqa turdagи hujjatlarni, masalan, qurilishni tashkil qilish loyihasi (QTL), ishlarni amalga oshirish loyihasi (IAL), materiallar, konstruksiyalar va asbob-uskunalarni etkazib berish jadvali va hokazolarni ham o‘z ichiga olishi mumkin. Ya’ni qurilish loyihasi - bu ko‘proq quruvchilar - prorablar, katta prorablar, qurilish uchastkasi va boshqarmalar boshliqlarining qo‘lida bo‘ladigan hujjatdir. Moliyalashtirish manbalari tomonidan tasdiqlangan qurilish loyihalari va qurilishga

ajratilgan yer maydonlari qancha ko‘p bo‘lsa, qurilish uchun buyurtmalar “portfeli” ham shunchalik to‘laroq bo‘ladi.

Endi esa investitsiya loyihalariga qaytamiz. Aytib o‘tilganlardan tashqari, investitsiya loyihalari kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, bank va umumuan moliya-kredit tiziminining faoliyatini yaxshilash, mavjud injener kommunikatsiyalarini modernizatsiyalash, ekologiyani va atrof-muhitni sog‘lomlashtirish, biznes va tadbirdorlikni rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilishi va kelgusida amalga oshirilishi mumkin.

Ayrim investitsiya loyihalari global xarakterga ega bo‘lib, alohida bir mamlakat manfaatlari doirasidan tashqariga ham chiqishi mumkin. Xuso‘san, “Orolni saqlab qolish loyihasi” ham hozirgi kunda shunday loyihalardan biri bo‘lib, unda O‘zbekiston, qozog‘iston va boshqa Markaziy Osiyo respublikalaridan tashqari progressiv jamiyatlar va dunyodagi bir necha mamlakatlarning rasmiy institutlari ham ishtiroy etmoqdalar.

Masalan, bugungi kunda O‘zbekistonda xorijiy kredit liniyalar bo‘yicha ochilgan jami summasi 200 mln AQSH dollaridan ortiq bo‘lgan 185 dan ortiq loyihalar ishlab turibdi.

Ko‘rinib turibdiki, investitsiya loyihalari turli miqyosda va turli maqsadlarda ishlab chiqilishi mumkin. Korxonalar iqtisodiyotning asosiy bo‘g‘ini bo‘lganliklari hamda avval aytib o‘tilganidek, milliy daromadning “salmog‘ini” sezilarli darajada belgilashlari tufayli, investitsiya loyihalarini aynan shu bo‘g‘in miqyosida ishlab chiqish strategiyasi alohida e’tiborga loyiqidir.

Bugungi kunda korxonalar miqyosidagi investitsiya loyihalari, odatda, investitsiya tanloviga havola etish uchun ularning xususiyashtirish dasturiga mos ravishda ishlab chiqilmoqda. Bunda masalan, qurilishi bilan bog‘liq bo‘lgan investitsiya loyihasini tayyorlash va uni amalga oshirish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- investitsiya g‘oyasini shakllantirish;
- investitsiya imkoniyatlarini o‘rganib chiqish;
- loyihami texnik-iqtisodiy asoslash;
- er maydoni ajratish, sotib olish yoki ijaraga olish;
- kontrakt hujjatlarini tayyorlash;
- loyiha hujjatlarini tayyorlash;
- qurilish-montaj ishlarini, shu jumladan ishga tushirish va sozlash ishlarini amalga oshirish;
- ob‘yektdan foydalanish, iqtisodiy ko‘rsatkichlar monitoringi.

Tabiiyki, bir korxonaning investitsiya loyihasi mazmun jihatdan boshqa korxonaning loyihasi bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin. Har bir investitsiya loyihasi ma’lum bir maqsad va vazifalarga qaratilgan bo‘ladi va binobarin, ulaning moliyalashtirish manbalari ham, pirovard natijalari ham turlicha bo‘ladi.

Ma’lum bir maqsadga qaratilgan investitsiya loyihalari yoki takliflar majmumasi **investitsiya dasturini** tashkil qiladi. Investitsiya dasturi o‘z ko‘lamiga qarab davlat, mintaqqa yoki tarmoq miqyosida bo‘lishi mumkin. Bu dastur ishlab

chiqarish kuchlarini rivojlantirish va iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishda jiddiy o‘zgarishlarni ko‘zda tutadi.

Investitsiya loyihalari va dasturlari quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi:

- ishlab chiqarish apparatini muntazam yangilab borish va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta’minlash;
- fan-texnika taraqqiyotini tezlashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini va raqobatbardoshligini yaxshilashga;
- iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish, xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarini bir tekisda rivojlantirishga;
- sanoat uchun kerakli xom ashyo bazasini barpo etish va mintaqalardagi ishlab chiqarish kuchlarini tenglashtirish;
- fuqarolik qurilishi, sog‘liqni saqlashni, oliv va o‘rta məktəbni rivojlantirish, uy-joy muammosini hal qilishga;
- bozor mexanizmi va raqobat talablaridan kelib chiqqan holda aholini ish bilan ta’minlash, ishsizlik muammosini yumshatishga;
- tabiiy muhitni muhofaza qilish, ekologik vaziyatni yaxshilash va boshqa maqsadlarga erishishga.

2018 yil 19 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning PQ-4067-sonli “O‘zbekiston Respublikasining 2019 yilga mo‘ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

2019 yillarda Investitsiya dasturiga kiritilgan yirik investitsiya loyihalari ichidan quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- Tuyabug’uz suv omborida kichik GES qurilishi loyihasi (15,9 ming AQSH dollar);
- “Navoiyazot” AJ bazasida polivinilxlorid, kaustik soda va methanol ishlab chiqaradigan kompleks qurulishi loyihasi (500,1 ming AQSH dollar);
- “Navoiyazot” AJ da azot kislotasini ishlab chiqarishni tashkil qilish loyihasi (216,6 ming AQSH dollar);
- Toshkent metallurgiya zavodi qurilishi loyihasi (335,0 ming AQSH dollar);
- “Kvars” AJ bazasida listli oyna ishlab chiqarish bo‘yicha yangi liniya qurilishi loyihasi (70,2 ming AQSH dollar);
- “Mutabar Medical Standart” MCHJ da virusga qarshi preparatlar ishlab chiqarishni tashkil qilish loyihasi (15,0 ming AQSH dollar);
- “MILK FOODS TRADE” MCHJ da sut mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil qilish loyihasi (19,6 ming AQSH dollar);
- “BIO AGRO” MCHJ da organik mahsulotlarni o’stirish va chiqarish bo‘yica ishlab chiqarishni tashkil qilish loyihasi (35,0 ming AQSH dollar);
- Buxoro viloyatida cement tegirmoni ishlab chiqarishni tashkil qilish loyihasi (“QIZILQUMSEMENT” AJ) (19,2 ming AQSH dollar).

2019 yilda 112 251,0 mlrd. so‘mlik kapital qo‘yilmalar kirinilishi mo‘ljallanmoqda, shundan 41 641,0 mlrd. so‘m markazlashtirilgan investitsiyalar va 70 610,0 mlrd. so‘m markazlashtirilmagan investitsiyalar.

### **3.4. Investitsiya dasturini shakllantirish tartibi**

Investitsiya dasturi respublika iqtisodiyotini barqaror va tadrijiy rivojlantirishga erishishga, tabiiy, mineral-xom ashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish yo‘li bilan respublika ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tarkibiy o‘zgartirishning asosiy ustuvorliklarini va strategik vazifalarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan chora-tadbirlar kompleksi hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12 sentyabrdagi 395-sen qaroriga ko‘ra «O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish tartibi to‘g‘risida NIZOM» qabul qilindi va unda investitsiya dasturini shakllantirishning umumiy qoidalari, moliyalashtirish va amalga oshirish monitoringi yoritib berilgan.

Investitsiya dasturi respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish proqnozlarining tarkibiy qismi hisoblanadi va davlat investitsiya siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini aks ettiradi.

Shu bilan birga loyiha-qidiruv ishlaridan boshlab mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning umum davlat dasturlari bajarilishini ta‘minlash uchun ob‘yektni foydalanishga topshirishgacha bosqichlarni hisobga olgan holda, investitsiya loyihalarini amalga oshirish muddatlarini va moliyalashtirish manbalarini hisobga olib, har yili Dasturning asosiy ko‘rsatkichlari aniqlashtirilgan va aniq ro‘yxati yangilangan holda uch yillik davrga shakllantiriladi.

Dasturni shakllantirishning asosiy prinsiplriga quyidagilar kiradi:

- investitsiya jarayonlarini boshqarish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, shu jumladan zarur hajmlarda, maqbul shartlarda xorijiy investitsiyalarni va kreditlarni jalb etish, shuningdek loyihalarni tanlab olishning amaliy mexanizmini shakllantirish va ularning amalga oshirilishi monitoringini olib borish asosida ulardan samarali foydalanish mexanizmini yaratish;
- belgilangan davlat ustuvorliklari asosida eng muhim tarmoqlarni, ishlab chiqarishlarni va faoliyat sohalarini qo‘llab-quvvatlash;
- ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan tarmoqlarni (ta’lim, sog‘liqni saqlash, uy-joy-kommunal xo‘jaligi) aholi turmush darajasi va sifatini oshirishni, iste’mol talabini faollashtirishni ta‘minlovchi hajmlarda birinchi navbatda investitsiyalash;
- mineral-xom ashyo resurslarini va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni, tayyor mahsulotni tashqi bozorda raqobatbardoshli darajaga etkazishni ta‘minlashga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishlarni jadal rivojlantirishga qaratilgan investitsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash;
- transport infratuzilmasini rivojlantirish va takomillashtirish, shu jumladan trankontinental transport yo‘laklariga integratsiyalash, logistika komplekslarini shakllantirish;
- tarkibiy o‘zgartirishlar vazifalari va amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatiga muvofiq mablag‘ qo‘yishning o‘zaro manfaatliligi asosida xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, tomonlarning investitsiya majburiyatları asosida shartnomalar tuzish amaliyotini joriy etish;

- investitsiya loyihalarini Dasturning aniq ro'yxatiga oldindan belgilangan mezonlar asosida kiritish;
- ilgari boshlangan ob'yektlarni tugallash uchun markazlashtirilgan investitsiyalarni birinchi navbatda ajratish.

Loyihalarni tanlab olishda ularning samaradorligi, respublika iqtisodiyoti ayrim tarmoqlarini va mintaqalarini rivojlantirish ustuvorliklari, mahsulot sotish ko'rsatkichlari, shu jumladan eksportga yo'natirilganlik, butlovchi buyumlar va komponentlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirishda qatnashish va shu kabilar asosiy mezonlar hisoblanadi.

Dasturda loyihaning baholash qiymati, tugallanmagan qurilish va qurilishni tugallash hamda foydalanishga topshirish uchun yillar bo'yicha joriy narxlarda moliyalashtirishga ehtiyoj, moliyalashtirishning tasdiqlangan manbalari to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Dasturni ishlab chiqishda yirik va o'ta muhim loyihalar alohida, katta bo'limgan bir tipdag'i loyihalar yaxlit kiritilishi mumkin (masalan: maktablar, qishloq vrachlik punktlari qurilishi va boshqalar).

Dastur yig'ma jadvallari bilan tahliliy qismidan, aniq dasturdan va ustuvor investitsiya takliflarining yig'ma ro'yxatidan iborat bo'ladi.

Dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha barcha ishlarni O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi muvofiqlashtiradi.

Dastur O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan tasdiqlanadi.

Investitsiya dasturining tahliliy qismi respublika iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'langan holdagi kapital qo'yilmalar hajmlari va moliyalashtirish manbalarini asoslashdan, Dastur samaradorligini baholash, loyihalarni tanlab olish mezonlaridan iborat bo'ladi.

Tahliliy qism tarkibida investitsiyalarning takror ishlab chiqarish va texnologik tarkibini hisobga olgan holda umuman Dastur, iqtisodiyot sektorlari va tarmoqlari, moliyalashtirish manbalari va hududlar, amalga oshirish yillari bo'yicha kapital qo'yilmalar tarkibi belgilanadi.

Dasturning yalpi ichki mahsulot o'sishiga, iqtisodiyotning tarmoq va hududiy o'zgarishiga, eksport va import tarkibiga, ishlab chiqarish quvvatlarini va ijtimoiy soha ob'yektlarini ishga tushirish hajmlariga ta'sirining prognozlashtirilayotgan natijalari hisob-kitob qilinadi.

Dasturning barcha hisob-kitoblari tadrijiy tarzda, respublikani uch yillik davrda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish prognozlari va investitsiya loyihalarining aniq dasturi asosida ishlab chiqiladi.

### **Aniq dasturni shakllantirish**

Dasturning aniq ro'yxatiga markazlashtirilgan manbalar, hukumat kafolati ostida beriladigan xorijiy kreditlar va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobiga amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari kiritiladi.

Aniq ro'yxat quyidagilardan iborat bo'ladi:

iqtisodiyotni, ijtimoiy sohani va mamlakat mudofaa qudratini tarkibiy o'zgartirishni ta'minlovchi respublika iqtisodiyoti ustuvor yo'nalishlarini

rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan markazlashtirilgan investitsiyalar limitlaridan;

xorijiy investitsiyalar va hukumat kafolati ostidagi kreditlarni jalg etgan holda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining aniq dasturidan;

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalg etgan holda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining aniq dasturidan;

ustuvor investitsiya takliflarining yig'ma ro'yxati.

Ijtimoiy soha ob'yektlarining prognozlashtirilayotgan hajmlari Dasturga yiriklashtirilgan, buyurtmachilar va ob'yektlar bo'yicha taqsimlamagan holda kiritiladi.

Quyidagilar loyihalarni amalga oshirishning birinchi yilida ularni aniq dasturga kiritishning majburiy shartlari hisoblanadi:

belgilangan tartibda tasdiqlangan loyihaning (investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asoslashlari, texnik-iqtisodiy hisob-kitoblari) mavjud bo'lishi;

moliyalashtirish manbalarining va kreditlarning shartnomada belgilangan muddatda qaytarilishining tasdiqlanishi.

Aniq dasturni shakllantirish jarayoni har bir loyiha bo'yicha mufassal axborot tayyorlash, loyihani ustuvorligi bo'yicha tanlab olish va ro'yxatni shakllantirishdan iborat bo'ladi.

Har bir loyiha (loyihalar guruhi) bo'yicha axborot buyurtmachi tomonidan tayyorlanadi hamda unda quyidagilar bo'ladi:

belgilangan shakldagi loyiha pasporti;

loyihani amalga oshirish reja-jadvali;

aniq dasturni shakllantirish sanasida loyihani amalga oshirishning holati to'g'risidagi mufassal axborot.

Loyihaning pasporti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

texnik tavsifnomani;

atrof muhitga ta'sirni baholashni;

ishlab chiqarish va ijtimoiy mulohazalarga ko'ra samaradorlikni va amalga oshirish imkoniyatlarini baholashni, tashkiliy tadbirlarning ko'lamini;

mahsulotga talab hajmi va xususiyatini;

echimning muqobil variantlari mavjudligini, shu jumladan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarini rekonstruksiya qilish yo'li bilan;

asosiy materiallar va ishchi kuchi resurslarining mavjudligini;

investitsiya xarajatlari miqdorlari.

Aniq loyiha uni amalga oshirish maqsadga muvofiqligidan, uning iqtisodiy va moliyaviy samaradorligidan, ishlab chiqarish va ijtimoiy mulohazalarga ko'ra amalga oshirish imkoniyatlari va maqbulligidan, tarmoqni rivojlantirishning strategik vazifalariga muvofiqligidan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich tanlab olinadi:

birinchi bosqichda - loyiha aniq tarmoq va mintaqani rivojlantirish ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda oldindan baholanadi;

ikkinchi bosqichda - loyiha iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va mintaqalarni rivojlantirish ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda tanlab olinadi.

Aniq dasturga iqtisodiy jihatdan samarasiz loyihalarni, shuningdek ilgari jalb qilingan kreditlar bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzi bo'lgan korxonalar loyihalarini kiritish taqiqlanadi.

Quyidagilar birinchi bosqichda loyihaning ustuvorligini belgilashning mezonlari hisoblanadi:

loyihaning tarmoqni rivojlantirish strategiyasiga muvofiqligi;  
moliyaviy va iqtisodiy samaradorlik;  
mahalliy xom ashyodan va butlovchi buyumlardan foydalanish darajasi;  
tayyorlangan mutaxassislarining mavjudligi;  
loyihaning amalga oshirishga tayyorlanganligi darajasi;  
ishga tushirilgandan keyin foydalanish xarajatlari.

Har bir mezonning muhimligi darajasi tarmoqni rivojlantirish strategiyasini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi tomonidan belgilanadi.

Ikkinci bosqichda uch yillik davrda respublika iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgartirishlar prognoziga muvofiq qo'shimcha ravishda quyidagi mezonlar hisobga olinadi:

tarmoq (mintaqa)ning istiqboldagi prognoz o'sish sur'atlari;  
eksport salohiyatining prognoz o'sish sur'atlari;  
tarmoqning umuman respublika bo'yicha makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirining o'zgarishi;  
tarkibiy omillar;  
ilgari qo'yilgan investitsiyalar samaradorligi;  
asosiy fondlar ahvoli va quvvatlardan foydalanish darajasi;  
loyihaning ijtimoiy ahamiyati.

Ikki bosqichda tanlab olish natijalariga ko'ra Dasturga kiritiladigan ob'yeklarning aniq dasturi shakllantiriladi.

Dasturni va investitsiya loyihalarini amalga oshirishning birinchi yili ko'rsatkichlari mavjud moliyaviy resurslar va boshqa resurslar bilan o'zaro bog'langan bo'lishi kerak hamda birinchi moliyaviy yilda o'zgartirilmaydi.

Dasturni va investitsiya loyihalarini amalga oshirishning ikkinchi va keyingi yillari ko'rsatkichlari har yili aniqlashtirilishi kerak, bunda boshlanmagan loyihalarning bir qismi yangi loyihalarga almashtirilishi mumkin.

### **Qurilishlarning aniq va titul ro'yxatlarini shakllantirish**

Buyurtmachilar tasdiqlangan Investitsiya dasturi asosida vakolatli banklarda moliyalashtirishni rasmiylashtirish uchun har yili qurilishlarning aniq ro'yxatini va Dasturni amalga oshirishning ikkinchi va uchinchi yillariga kiritilgan ob'yektlar bo'yicha loyihala-qidiruv ishlaring aniq ro'yxatini aniqlashtiradilar.

Markazlashtirilgan manbalar va davlat korxonalari mablag'lari hisobiga amalga oshiriladigan qurilishlarning aniq ro'yxatlari Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishgan holda investorlar (buyurtmachilar) tomonidan tasdiqlanadi.

Boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladigan qurilishlarning aniq ro'yxatlari investorlar (buyurtmachilar) tomonidan mustaqil ravishda tasdiqlanadi.

Kredit resurslarini jalgan holda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining aniq ro'yxatlari tegishli kredit shartnomasi yoki kreditlovchi bankning yozma roziligi mavjud bo'lganda tasdiqlanadi.

Qurilishlarning aniq ro'yxati birinchi yil mobaynida tanlov savdolari yoki Yirik va strategik muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirishni muvofiqalashtirish kengashining alohida qarorlari bo'yicha aniqlashtirilishi mumkin.

Qurilishning titul ro'yxati tasdiqlangan limitlar doirasida qurilishning butun davriga tuziladi va Investitsiya dasturi tasdiqlangandan keyin 2 oydan kechiktirmasdan tanlov savdolari natijalariga ko'ra shakllantiriladi.

Qurilishning titul ro'yxati investor (buyurtmachi) tomonidan pudratchi bilan kelishgan holda tasdiqlanadi.

Qurilishning tasdiqlangan titul ro'yxatida kapital qo'yilmalar limitlari umuman investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun nazarda tutiladi, bunda qurilish-montaj ishlari, asbob-uskunalar xarid qilish, loyiha-qidiruv ishlari xarajatlari va boshqa xarajatlar (pudratchi va buyurtmachi xarajatlari alohida ko'rsatiladi) qurilish yillari bo'yicha taqsimlangan holda ajratib ko'rsatiladi.

Birinchi moliyaviy yilda qurilishning titul ro'yxatida loyiha-qidiruv, qurilish-montaj ishlari ko'rsatkichlari aniqlashtirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

### **Investitsiya dasturini shakllantirish muddatlari**

Uch yillik Dasturni shakllantirish jarayoni bir yillik siklga ega bo'ladi hamda yangilangan Dasturni har yilning oxirigacha tayyorlashni ta'minlovchi ilovaga muvofiq qat'iy jadvalga tayanadi.

Investitsiya dasturiga kiritish uchun takliflar tayyorlashda buyurtmachilar quyidagi tartibga amal qilishlari kerak:

Dasturni amalga oshirishning birinchi yiliga kelgusi yillar loyiha-qidiruv ishlarining aniq ro'yxati va moliyalashtirish bilan ta'minlangan (kelgusi yilga o'tuvchi va yangidan boshlanayotgan) qurilishlarning aniq ro'yxati tuziladi;

Dasturni amalga oshirishning ikkinchi yiliga unga kelgusi yillar loyiha-qidiruv ishlarining aniq ro'yxati va birinchi yildan o'tuvchi qurilishlarning prognoz ro'yxati va Dasturni amalga oshirishning birinchi yilda loyiha hujjatlari tayyorlangan va tasdiqlangan, birinchi yilda tanlov savdolariga tayyorlanadigan yangidan boshlanadigan ob'yektlar kiritiladi;

Dasturni amalga oshirishning uchinchi yiliga unga kelgusi yillar loyiha-qidiruv ishlarining aniq ro'yxati va tanlov savdolari natijalariga ko'ra belgilangan amalga oshirish muddatlarini hisobga olgan holda qiymati belgilangan tartibda aniqlashtirilgan birinchi va ikkinchi yildan o'tuvchi qurilishlarning prognoz ro'yxati, loyiha hujjatlari ikkinchi yilda tayyorlanadigan va tasdiqlanadigan yangidan boshlanadigan ob'yektlar kiritiladi.

### **Dasturni moliyalashtirish**

Quyidagilar Dasturni moliyalashtirish manbalari hisoblanadi:

a) markazlashtirilgan investitsiyalar, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

davlat byudjeti mablag'lari;

davlat byudjetdan tashqari fondlar mablag'lari;

Hukumat kafolati ostida beriladigan horijiy kreditlar;  
Hukumat qarorlariga ko‘ra belgilanadigan boshqa manbalar;  
b) markazlashtirilmagan investitsiyalar, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:  
mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar mablag‘lari;  
tijorat banklarining, shu jumladan xorijiy tijorat banklarning kreditlari;  
jismoniy shaxslar, shu jumladan xorijiy jismoniy shaxslar mablag‘lari;  
qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa manbalar.

Markazlashtirilgan investitsiyalar respublika xalq xo‘jaligini tarkibiy qayta qurishni, respublikaning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish salohiyatini saqlab qolish va rivojlantirishni, amalga oshirish moliyalashtirishning boshqa manbalari hisobiga mumkin bo‘lmagan ijtimoiy muammolarni va boshqa muammolarni hal etishni ta’minlovchi respublika iqtisodiyotining ustuvor yo‘nalishlarida asosiy fondlarni yaratish va ko‘paytirish uchun foydalaniladi.

Markazlashtirilgan investitsiyalar faqat quyidagi ishlarga ajratiladi ajratiladi:  
respublika iqtisodiyotining ustuvor yo‘nalishlariga davlat maqsadli dasturlarini va davlatlararo bitimlarni amalga oshirishga;

aholining ehtiyojmand qatlamlarini davlat tomonidan ijtimoiy muhofaza qilishni ta’minlash uchun oy-joy qurilishiga;

suv xo‘jaligi qurilishiga;

aholi yashaydigan joylarning muhandislik infratuzilmasini rivojlantirishga;

fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, sport, madaniyat va ijtimoiy infratuzilmaning boshqa tarmoqlari ob’yektlari qurilishiga;

davlat boshqaruvi organlari, mudofaa va huquqni muhofaza qilish organlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va mustahkamlashga;

umum davlat tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishga va tabiiy ofatlardan himoya qilish inshootlari qurilishiga.

### **Dasturning amalga oshirilishi monitoring**

Dasturning amalga oshirilishi monitoringi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 4 yanvardagi 1-sон qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarning amalga oshirilishi ustidan davlat monitoringi to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Dasturining davlat monitoringi quyidagi maqsadlar uchun amalga oshiriladi:

investitsiya loyihalarini, va birinchi navbatda, markazlashtirilgan investitsiyalardan foydalangan holda ro‘yobga chiqarilayotgan investitsiya loyihalarini o‘z vaqtida va samarali amalga oshirilishini ta’minlash;

loyihalarning belgilangan tartibda tasdiqlangan parametrlariga (texnik-iqtisodiy asoslashlar, texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar), tanlov savdolari (tenderlar) shartlariga rioya qilish;

amalga oshirilayotgan loyihalar bo‘yicha axborot bazasini shakllantirish;

investitsiya loyihalarini amalga oshirishda paydo bo‘ladigan muammoli masalalarni kuzatib borish;

investitsiya iqlimini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

Monitoring har oyda statistika hisoboti va so‘rov yo‘li bilan Iqtisodiyot vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Monitoring natijalari Dasturning amalga oshirilishi to‘g‘risidagi har choraklik axborotlarni tayyorlashda hamda navbatdagi uch yillik davrga Dasturni shakllantirishda foydalilaniladi.

**Tayanch iboralar:** Investitsiya. Investitsiya siyosati. Investitsion muhit. Risk. Investitsiya loyihasi. Investitsiya dasturi. Markazlashtirilgan investitsiyalar. Markazlashtirilmagan investitsiyalar.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Davlatning investitsiya siyosatiga xos bo‘lgan xususiyatlari va ularning avvalgi investitsiya siyosatidan farqi nimada
2. Investitsiya loyihasi deganda nima tushuniladi?
3. Investitsiya loyihasining maqsadli funksiyalarini ochib bering.
4. Investitsiya loyihalarni amalga oshirishda qurilishning rolini tavsiflab bering
5. Investitsiya jarayonining mamlakat iqtisodiy salohiyatini rivojlantirishga ta’sirining miqdoriy ko‘rsatkichlariga misol keltiring.
6. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish borasida qanday imtiyozlar mavjud?
7. Investitsiya dasturini shakllantirish tartibini qaysi xujjat bilan belgilanadi?
8. Qurilishlarning aniq va titul ro‘yxatlarini shakllantirish tartibi qanday?
9. Investitsiya dasturini qanday moliyalashtiriladi?
10. Investitsiya dasturining amalga oshirilishi monitoringi qaysi maqsadlar uchun olib briladi

## **4-MAVZU. INVESTITSIYALARING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH USLUBLARI**

---

### **Reja:**

- 4.1. Investitsiyalar iqtisodiy samaradorligini baholash nazariyasi va amaliyoti tarixi.
- 4.2 Investitsiyalar tuzilmasi va ularni investitsion qarorlar samaradorligiga ta'siri.
- 4.3 Investitsiyalarni iqtisodiy samaradorligini baholash uslublari.
- 4.4 Investitsiyalarni iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari.

### **4.1. Investitsiyalar iqtisodiy samaradorligini baholash nazariyasi va amaliyoti tarixi**

Investitsiyalar iqtisodiy samaradorligini baholash nazariyasi va amaliyotining rivojlanishini 3 ta davrga bo'lish mumkin:

1. Kapitalistik munosabatlarni rivojlantirish (1917 yilgacha).
2. Markazlashtirilgan rejali iqtisodiyot davri (1917 – 1990 yilgacha).
3. Bozor iqtisodiyotiga o'tish (1991 yildan hozirgi davrgacha).

Investitsiyani samaradorligini 1917 yilgacha baholash bo'yicha ilmiy ishlar asosan ishlab chiqarish fabrikalari va zavodlarini yaratish ayniqsa Rossiyada temir yo'llarini qurilishi va ekspulatatsiya qilinishi bilan bog'liq bo'lgan. Bundan xususan Yu.V. Lomonosovning 1912- yilda Odessada chop etilgan "Temir yo'llarni ekspluatatsiya qilishning ilmiy muammolari" kitobi, M.G. Destremning "Kanallar va temir yo'llarning nisbiy foydaliligi va Rossiyada yuklarni tashishning eng qulay usulini aniqlash uchun berilgan takliflarini qulayrog'ini tanlash bo'yicha umumiy mulohazalar" kitobi (1831) dalolat beradi

Samaradorlik masalalari va jumladan investitsiya loyihasini ko'proq foydali variantini tanlash A. Vasyutinskiy va V. Yasinining 1905-1908 yillarda chop etilgan hamda "Hozir arzonroq tulangan narsa, keyinchalik ham arzon keladigan narsa emas" (1912) deb hisoblagan V. Sokalskiylar mehnatlarida o'z aksini topdi.

1934 yilda M.Protodyakonov kapital qo'yilmalarning nisbiy iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichi sifatida xarajatlarni izohlashishini hisobga olinishi bilan aniqlanadigan, qurilish - ekspluatatsiya xarajatlarida keltirilgan miqdorni taklif qiladi. Ushbu ko'rsatkich bir qator kamchiliklarga ega bo'lsa ham bozor iqtisodiyotiga o'tish davrigacha investitsiya loyihalari qiyosiy samaradorliginining muhim ko'rsatkichi hisoblangan.

Kapital qo'yilmalarning samaradorligi nazariyasi va amaliyoti rivojiga akademik T.S.Xachaturov katta hissa qo'shgan. U 40-yillarning oxirida kapital qo'yilmalarning umumiy (absolyut) samaradorligi tushunchasini kiritgan va uni milliy daromaddagi o'sishning, ushbu o'sishni yuzaga keltirgan kapital qo'yilmalarga nisbati orqali aniqlashni taklif etgan.

Ko'rsatilgan sohadagi ilmiy ishlanmalar orasidan, asosiyлari sifatida majburiy normalar va qoidalar maqomiga ega bo'lgan quyidagilarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- SSSR halq xo'jaligida kapital qo'yilmalar va yangi texnika iqtisodiy samaradorligini aniqlashning namunali metodikasi(1960.).
- Kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligini aniqlashning namunali metodikasi(1969y).
- Kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligini aniqlashning namunali metodikasi (1980y).
- Kapital qo'yilmalar samaradorligini aniqlash metodikasi (1988).
- Investitsiya loyihalari samaradorligini baholash va ularni moliyalashga tanlab olish bo'yicha metodik tavsiyalar (1994).

Tayyorlangan ishlanmalar investitsilar iqtisodiy samaradorligini baholashda tarmoqlar bo'yicha nizomlar va yo'riqnomalar tayyorlashda asos bo'lib xizmat qiladi. Ularga asoslangan holda "Qurilishda kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligini aniqlash bo'yicha yo'riqnomalar", "Temir yo'l transportida kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligini aniqlash bo'yicha yo'riqnomalar" (1973), "Daryo transportida kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligini aniqlash bo'yicha yo'riqnomalar" (1974), hamda loyihaviy yechimlarni iqtisodiy samaradorligini baholash bo'yicha ko'rsatmalar va metodik tavsiyalar xuddi shunday ishlab chiqarilgan.

Hozirgi kunda olimlar va mutaxassislar 1994 yilgacha tayyorlangan ishlanmalarlarning ko'pchiligi bozor iqtisodiyoti talablariga javob bermasligi ta'kidlab o'tishmokda. Haqiqatdan ham bu ishlanmalarda inflyasiyani hisobga olmaslik, sharoitlarning noaniqligi va tavakkalchilik darajasi va hakozolar, kabi omillarga o'rinn berilmagan, vaholanki u sharoitlarda bu tushunchalar nafaqat amaliy balki nazariy jihatdan ham hisobga olishga yo'l qo'yilmagan. Oldingi metodlarning kamchiliklari sifatida masalaning iqtisodiy va sotsial tomonlarini zaif ishlab chiqilganligi, diskontlash koeffitsientini qabul qilishdagi munozaralar va baxslarni aytish mumkin. Biroq shunga qaramasdan ko'rilgan ishlanmalar iqtisodiy bilimlarning ma'lum yutuqlari sifatida, kapital qo'yilmalarning samarador baholashning boshlang'ich asosi bo'ladi.

#### **4.2 Investitsiyalar tuzilmasi va ularni investitsion qarorlar samaradorligiga ta'siri**

Investitsiyalarning qoplanishi ko'p jihatdan kapital qo'yilmalarning tuzilmasiga, ya'ni kapital qo'yilmalarning umumiyligi hajmidagia alohida xarajatlarning ulushiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Hozirgi kunda investitsiyalarning tuzilmaviy shakllanishini quyidagi turlarga ajratadilar.

1. Texnologik tuzilma.
2. Takror ishlab chiqarish tuzilmasi.
3. Tarmoqlararo tuzilma.
4. Hududiy tuzilma.

**Investitsiyaning texnologik tuzilmasi** – bu qurilish-montaj ishlarini bajarish, asbob-uskunalar, mashinalar va boshqa mehnat vositalarini sotib olish hamda loyihaviy-qidiruv ishlarini amalga oshirish bo‘yicha xarajatlarning o‘zaro foizlardagi nisbatidir. Iqtisodiy jixatdan foydaliroq bo‘lib shunday tuzilma hisoblanadiki, unda qurilish-montaj ishlariga xarajatlarning ulushi kamayib boradi va ishlab chiqarish asbob-uskunalariga ketadigan xarajatlar qismi nisbatan tezroq o‘sib boradi. Biroq texnologik tuzilma yaratilayotgan asosiy fondlarning xarakteri va qurilish tarmog‘iga sezilarli darajada bog‘liq. Takror ishlab chiqarish strategiyasi.

**Investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tuzilmasi** yangi qurilishlarga qilinayotgan xarajatlar bilan, faoliyat yuritayotgan korxonani rekonstruksiya qilish, kegaytirish va texnik qayta qrollantirish xarajatlari orasidagi shuningdek, asosiy fondlarni eskirishi sababli chiqarilishini qoplash xarajatlari o‘rtasidagi o‘zaro nisbatni o‘zida aks ettiradi.

Bugun investitsion siyosat qayta ta’mirlashga, faoliyat yuritayotgan korxonalarni texnik ta’mirlash va kengaytirishga ajratilayotgangan xarajatlarini ko‘paytirishga, yangi qurilishni ulushini esa qisqartirishga sezilarli buriish qilmoqda, vaholanki, yangi qurilishlarsiz ilmiy – texnika taraqqiyotiga va raqobatbardosh zamonaviy ko‘rinishdagi mahsulotlar ishlab chiqarishga erishish qiyin.

**Tarmoqlararo tuzilma** xalq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari o‘rtasida va ularni ichida investitsiyalarning taqsimlanishini foizlarda aks ettiradi. Masalan, investitsiyalarning umumiy hajmidan sanoatni qishloq xo‘jaligi, transport va aloqa, qurilish industriyasini rivojlanadirishga yo‘naltirilgan ulushlari - bu tarmoqlararo taqsimlanish va kapital qo‘yilmalar tuzilmasi; sanoatga kiritilayotgan kapital qo‘yilmalarning umumiy xajmidan mashinasozlik, kimyo, yoqilg‘i sanoati, qurilish materiallari sanoatini rivojlanadirishga sarflanadigan ulushlari – bu investitsiyalarning tarmoqlar ichidagi tuzilmasi.

**Xududiy tuzilma.** Investitsiyani xududiy tuzilmasi kapital qo‘yilmalarni viloyatlar, shaharlar va respublikaning rayonlari bo‘yicha taqsimlanishini ko‘rsatadi. U oddatda byudjet imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish kuchlarini va rayonlarini istiqboldagi rivojlanishini hisobga olgan holda, davlatning investitsion siyosati bilan aniqlanadi. Xududlarning ixtisoslashuvi xarakteri, uning mehnat bilan bandlilik darajasi va boshqa iqtisodiy omillar bu yerda katta o‘rin egallaydi.

Xalq xo‘jaligining hamma tarmoqlarini proporsional rivojlanishini ta’minlash va etakchi tarmoqlarni ko‘proq rivojlanadirish hamda xududlar iqtisodiyotini yaxshilash va aholini yashash darajasini oshirish maqsadida investitsiyaviy ustunlik ba’zasida va to‘liq rivojlanishini iqtisodiy investitsiyani optimal tuzilmasi va taqsimlanishini maksimal darajada maqsadga muvofiqligiga erishish zarur.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, investitsiya tuzilmasini optimallash hisobiga pul mablag‘larini teng baholilik iqtisodiyotiga erishish mumkin, qaysiki u kapital qo‘yilmalar chegaralangan sharoitda iqtisodiy yuksalish va ishlab chiqarish kuchlarini kelgusida rivojlanishi uchun katta ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun investitsion qarorlarni va ayniqsa investitsiyalarni samaradorligini baholashda masalaning bu tomoni hisobdan tushurib qoldirmasligi va investitsion jaryonlarni boshqarishning barcha darajalarida ishlab chiqilishi zarur.

#### **4.3 Investitsiyalarni iqtisodiy samaradorligini baholash uslublari**

Kapital qo‘yilmalarni «samara» va «samaradorligi» tushunchalarini ajrata olish kerak. Birinchisi o‘zida kapital qo‘yilmalarni amalga oshirish natijasini aks etsa, ikkinchisi shu natija bilan asosiy xarajatlar hajmini taqqoslashni aks etadi. Samara ishlab chiqarishga oid va iqtisodiy bo‘lishi mumkin. Birinchisini ko‘pincha, mahsulot ishlab chiqarishining oshishi bilan yoki natural shakldagi mahsulot birligiga ketgan xarajatlarning kamayishi bilan bog‘lashadi, ikkinchisi esa qiymatga oid tomonini ifodalandi, masalan yalpi mahsulot o‘sishi, daromadlar o‘sishi, ishlab chiqarish xarajatlarining ma’lum bir miqdorda kamayishi - bu iqtisodiy samara hisoblanadi.

Samara kapital xarajatlarining miqdori bilan, ham natural, ham qiymat shaklida taqqoslanishi mumkin. Samarani natural shaklda ifodalashda faqatgina bir mahsulot birligiga ketgan kapital xarajatlarning miqdorini ko‘rsatish mumkin. Bu esa uni kapital sig‘imidir, qiymat ko‘rinishi esa kapital qo‘yilmalar iqtisodiy samaradorligini xarakterlovchi ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

Kapital qo‘yilmalarni iqtisodiy samaradorligini aniqlaydigan asosiy tamoyillarga quyidagilar tegishli:

- Kapital qo‘yilmalarning iqtisodiy samarasi masalasiga, jami ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi muammosining tarkibiy qismidek qaralishi.
- Kapital qo‘yilmalar samaradorligini aniqlashda va uning yo‘nalishini tanlashda xalq xo‘jaligi nuqtai nazaridan yondashuv.
- Istiqboldagi omillarni hisobga olish.
- Qo‘yiladigan iqtisodiy masalaning xarakteridan qat’iy nazar hisob-kitob metodini qo‘llash va samaraning xarajatlar bilan bir o‘lchovda olinishi.

Kapital qo‘yilmalarni iqtisodiy samaraligini aniqlashdagi eng muhim talablardan biri xalq xo‘jaligi nuqtai nazaridan yondashuvdir. Kapital qo‘yilmalarni amalga oshirish bo‘yicha qabul qilinadigan qarorlar nafaqat ushbu ishlab chiqarish tarmog‘i, tashkilot, birlashma uchun samarali bo‘lishi kerak, balki u butun xalq xo‘jaligining samaradorligini oshirish uchun ham xizmat qilish kerak.

Xo‘jalik amaliyotida iqtisodiy hisob-kitoblar va kapital qo‘yilmalarni samaradorligini asoslashning ikki turi qo‘llaniladi: umumiyl (absolyut) va qiyosiy (solishtirma). Bunday yondashish ikki masala bilan bog‘liq: ulardan bittasi nima ishlab chiqarish kerak degan savolga javob berishi uchun echilsa, ikkinchisi esa qanday ishlab chiqarish kerak degan savolga yechim topadi. Kapital qo‘yilmalarga muvofiq ravishda, birinchi holda umumiyl samaradorlikni aniqlash metodlarini qo‘llaniladi, ikkinchisida esa qiyosiy(solishtirma) metodlar qo‘llaniladi.

**Umumiyl iqtisodiy samaradorlik** samaraning kapital qo‘yilmalarining qiymatiga yoki ishlab chiqarish fondlarining qiymatiga nisbati orqali aniqlanadi, qiyosiy (solishtirma) iqtisodiy samaradorlik esa, qo‘yilmalarni quyishda bir variantning ikkinchisidan qanchalik samarali ekanligini taqqoslash va aniqlash yo‘li bilan hisoblanadi.

Umumiyl xalq xo‘jaligi samarasi milliy daromadning o‘sishi bilan ifodalanadi. Mamlakat bo‘yicha kapital qo‘yilmalarning xalq xo‘jaligi samaradorliginig mezoni bo‘lib, milliy daromad o‘sishining (solishtirma baholarda) ushbu o‘sishni yuzaga

keltirgan kapital qo'yilmalarga nisbati xizmat qilsa, boshqaruvning keyingi darajalarida esa, sof mahsulotning yoki sof meyoriy mahsulotning o'sishining ushbu o'sishni yuzaga keltirgan kapital qo'yilmalarga nisbati hisoblanadi

Boshqarishning xo'jalik hisobi darajasida va ayniqsa qurilishga xususiy mablag'lar va bank kreditlari jalg qilinganda kapital qo'yilmalarning samarasini sifatida daromadning o'sishi hisobga olinadi. Mos ravishda xo'jalik hisobi samaradorligi uning kapital qo'yilmalarning qiymatiga nisbati bilan baholanadi.

Samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblashda samara va kapital qo'yilmalarning to'la taqqoslash imkoniyatlari yaratilishi kerak. Kapital qo'yilmalar, tannarx, ekspluatatsiya xarajatlari, sof mahsulot hamda qushimcha ko'rsatkichlarni hisoblashda ayni paytda amalda bo'lgan narxlar, tariflar, ish haqi stavkalari va boshqa bahoni shakllantiruvchi normativlar qo'llaniladi.

Kapital qo'yilmalar samaradorligini tahlil qilishda qurilish «lag»ini, ya'ni kapital qo'yilmalarni kiritish va samaraga erishishgacha o'tadigan o'rtacha vaqtini hisobga olish lozim. Xalq xo'jaligi bo'yicha ushbu vaqt o'rtacha ikki-uch yilni tashkil etishi mumkin.

Hisoblarda qabul qilingan, boshlang'ich ma'lumotlar hamda qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda qurilish lagining kattaligi bo'lishi mumkin:

- normativ, ya'ni qurilish va ob'yektlarni o'zlashtirishning normativ muddatlariga asoslangan;

- haqiqiy, ya'ni qurilishning haqiqiy davomiyligi va asosiy fondlar hamda ishlab chiqarish quvvatlarini o'zlashtirishning muddatlariga asoslangan;

- rejali, qurilish va o'zlashtirishning rejada ko'rsatilgan muddatlariga asoslangan.

Quyida kapital qo'yilmalarning umumiyligi hamda qiyosiy (solishtirma) iqtisodiy samaradorligini aniqlash metodlari formulalarda keltirilgan.

Kapital qo'yilmalarining umumiyligi (absolyut) samaradorligini quyidagi tarzda hisoblanadi:

a) respublikaning xalq xo'jaligi va uning tarmoqlari, umuman xalq xo'jaligi bo'yicha  $E_{xx}$  – solishtirma baholarda yillik daromad (sof mahsulot) o'sishi( $\Delta D$ )ning, kapital qo'yilmalarning o'sishi( $K$ )ga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$E_{xx} = \Delta D / K \quad (4.1)$$

$E_{xx}$  kattaligi normativ umumiyligi (absolyut) samaradorlik  $E_n$  bilan qiyoslanishi lozim, agar  $E_{xx} > E_n$  bo'lsa kiritilayotgan kapital qo'yilmalar samarali hisoblanadi;

b) sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, aloqa, qurilish, savdo, kapital qurilishlarning kompleks dasturlari sohalari, alohida texnik-iqtisodiy muammolar bo'yicha umumiyligi (absolyut) samaradorlik ko'rsatkichi  $E_{xxt}$  – sof mahsulot yillik o'sishining( $\Delta SM$ ), ushbu o'sishni yuzaga keltirgan kapital qo'yilmalar( $K$ )ga nisbati orqali aniqlanadi:

$$E_{xxt} = \Delta SM / K \quad (4.2)$$

v) xo‘jalik hisobidagi tarmoqlar, birlashmalar, tashkilotlar bo‘yicha  $E_{xk}$  – yillik foyda o‘sishining( $\Delta F$ ), ushbu o‘sishni yuzaga keltirgan kapital qo‘yilmalar(K)ga nisbati orqali aniqlanadi:

$$E_{xk} = \Delta F / K \quad (4.3)$$

g) yangi quriladigan korxonalar, sexlar, boshqa alohida ob’yekt hamda tadbirlar bo‘yicha  $E_{at}$  – foydaning, qurilayotgan ob’yekt smeta qiymatiga yoki alohida tadbir bo‘yicha kapital xarajatlar(K)ga nisbati orqali aniqlanadi:

$$E_{at} = F / K \quad (4.4)$$

d) tannarxning yoki hisoblangan narxlarning kaiaytirish ko‘rsatkichlari qo‘llaniladigan tashkilot va tarmoqlar, shuningdek zarar bilan ishlayotgan korxonalar bo‘yicha  $E_k$  quyidagicha aniqlanadi:

$$E_k = (S_1 - S_2) / K \quad (4.5)$$

Bu yerda  $S_1$  va  $S_2$ -kapital qo‘yilmalar kiritishdan oldinggi va keyinggi mahsulot tannarxi.

Kapital qo‘yilmalarining samaradorligini aniqlash kapital qo‘yilmaring yaxshi variantini tanlash imkonini beradi. Umumiylar qilib aytganda, loyihalashtirish va rejalashtirishning moxiyati bu texnik, xo‘jalik hamda rejali qarorlarni eng yaxshi variantini tanlashdir. Bu yerda gap xalq xo‘jaligi tarmoqlari, ya’ni mahsulot ishlab chiqarish, korxonalarini joylashtirish xududlari, quvvatlarini tanlash, yangi qurilishlar hamda amaldagi korxonalarini qayta ko‘rish, qurilish va kiritilayotgan quvvatlarni o‘zlashtirish muddatlarini aniqlash, ishlab chiqarishni tashkil etish usullari va boshqalarini rivojlantirish yunalishlari haqida ketayapti.

Loyihaning turli variantlarini solishtirish shuni ko‘rsatadi, qator holatlarda eng past tannarxli variant katta hajmli kapitalni talab qiladi, ob’yektni yaratishga kam qo‘yilma qo‘yilishi hamda ishlab chiqarish quvvatlarining sarflanishi qurilish muddatlarini o‘zaytiradi.

Bundan joriy xarajatlarga qo‘shimcha kapital qo‘yilmalarini tejamkorlik bilan jalb etish zaruriyati kelib chikadi.

Solishtirma samaradorlikni hisoblash, asosan qushimcha kapital qo‘yilmalarining iqtisodiy samaradorligini aniqlashni ko‘zda tutadi, bu quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$E = (S_1 + E_n K_1) - (S_2 + E_n K_2) \quad (4.6)$$

bu yerda:  $S_1$  va  $S_2$  – qiyoslanayotgan variantlarda mahsulot tannarxi;  
 $K_1$  va  $K_2$  – qiyoslanayotgan variatlarda kapital qo‘yilmalar.

Agar  $E_n$  o‘rnatilgan normativga teng yoki kam bo‘lsa, qushimcha kapital qo‘yilmalar tejamlili hisoblanadi. Bir necha variantlar yechimlarini solishtirishda variantlar bo‘yicha keltirilgan xarajatlar( $X_{kel}$ )ni hisoblashdan foydalaniadi:

$$\mathbf{X}_{\text{kel}} = \mathbf{S} + \mathbf{E}_n \mathbf{K} \rightarrow \min \quad (4.7)$$

bu yerda :

$\mathbf{S}$  - har bir variant bo'yicha joriy xarajatlar;

$\mathbf{E}_n$  – kapital qo'yilmalarning normativ koefitsienti;

$\mathbf{K}$  - shu variant bo'yicha kapital qo'yilmalar.

Kapital qo'yilmalarning solishtirilayotgan variantlari, aniqlanayotgan samaradorlik belgisidan tashqari barcha belgilar (mahsulot hajmi, tarkibi, sifati, taylorlash muddati) bo'yicha, shuningdek ijtimoiy ta'sir, jumladan atrof-muxitni himoya qilish bo'yicha solishtirma jihatga (solishtirish imkoniyatlariga) ega bo'lishi kerak.

Hozirga paytda amaliyotda investitsiyalar samaradorligini aniqlashda BMTning YUNIDO tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan metod keng qo'llanilmoqda. Bu metod mazmuni va asosiy ko'rsatkichlari bilan ushbu ma'ruza mantnlarining mualliflari tomoninidan tayyorlangan «Biznes-rejalashtirish» fani bo'yicha o'quv qo'llanma va ma'ruza matnlarida tanishish mumkin.

#### **4.4 Investitsiyalarni iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 avgustdag'i "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5495-son Farmoniga muvofiq:

a) 2018 yil 1 oktyabrdan investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini berishning quyidagi yangi mexanizmlari joriy etilmoqda:

qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkasini 50 yilgacha muddatga, lekin arizada ko'rsatilganidan kam bo'limgan muddatga investitsiya loyihibarini amalga oshirish uchun uzoq muddatli ijaraga berish;

ko'chmas mulk ob'yeqtalarini (mehmonxonalar, savdo ob'yeqtleri, madaniy-ko'ngilochar majmualar, maishiy xizmat ko'rsatish ob'yeqtleri, ta'lim va tibbiyot tashkilotlari, yo'l infratuzilmasi va boshqalar) qurish uchun yer uchastkalariga doimiy egalik qilish huquqini auksion orqali sotish;

b) quyidagilarga:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda tuman (shahar) hokimlariga chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalarga qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan er uchastkasini 50 yilgacha muddatga, lekin arizada ko'rsatilganidan kam bo'limgan muddatga investitsiya loyihibarini amalga oshirish uchun uzoq muddatli ijaraga berish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlar doirasida va tartibda 10 million AQSH dollaridan ko'p bo'limgan ekvivalentda chet el investitsiyasi ulushi bo'lgan investitsiya loyihibarini amalga oshirishda chet el investorlari bilan investitsiya shartnomalarini tuzish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga umumiyl maydoni 2000 kvadrat metrdan ortiq, lekin 5000 kvadrat metrdan ko'p bo'limgan foydalanimayotgan davlat mulki ob'ektlarini

(O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 iyundagi “Davlat mulki ob’yektlarini sotish tartib-taomillarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3067-son qarorining 1 va 2-ilovalarida ko‘rsatilgan ob’yektlar bundan mustasno) investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun sotish to‘g‘risida qaror qabul qilish huquqi berildi.

2. Vazirlar Mahkamasi va Toshkent shahar hokimligining 2018 yil 15 avgustdan 2019 yil 15 avgustgacha Toshkent shahrida investitsiya muhitini yaxshilash bo‘yicha quyidagilarni nazarda tutuvchi eksperiment (keyingi o‘rinlarda eksperiment deb yuritiladi) o‘tkazish to‘g‘risidagi taklifi qabul qilinsin:

investorlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muzokaralar yakunlari bo‘yicha investitsiya shartnomalarini tuzish orqali Toshkent shahar hokimining qarori asosida soddalashtirilgan tartibda investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun doimiy egalik, doimiy foydalanish, muddatli (vaqtinchalik) foydalanish huquqi asosida yer uchastkalarini taqdim etish imkoniyati;

investorlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muzokaralar yakunlari bo‘yicha investitsiya kelishivi asosida Toshkent shahar hokimining qarori bilan davlat mulki ob’yektlarini, shu jumladan foydalanilmayotgan ob’yektlarni ularning maydoni hajmidan qat’i nazar berish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida qarorlari bilan davlat-xususiy sheriklikni joriy etish nazarda tutilgan sohalardagi ob’yektlar bundan mustasno;

Toshkent shahar hokimining qarori bilan kichik sanoat zonalari direksiyasi funksiyalarini ishonchli boshqaruv shartnomasi asosida xususiy boshqaruvchi tashkilotlarga berish;

Toshkent shahar hokimining qaroriga ko‘ra mahalliy davlat hokimiysi organlarining bozorlar va savdo komplekslari ustav kapitali (fondi)dagi ulushlarini ularning balans qiymati va xodimlari sonidan qat’i nazar xususiy tadbirkorlik sub’yektlariga faoliyat yo‘nalishini saqlab qolish, investitsiya va ijtimoiy majburiyatlar olish sharti bilan berish, shuningdek, bozorlar va savdo komplekslarining ijro etuvchi organi funksiyalarini shartnoma asosida xususiy boshqaruvchi tashkilotlarga biznesni tashkil etish va yuritish uchun berish. Bunda, har bir tumanda mahalliy davlat hokimiysi organining ulushi bo‘lgan bitta mahalliy bozor saqlab qolinishi nazarda tutilsin;

Toshkent shahar hokimining qarori bilan davlat-xususiy sheriklik shartlarida avtomobil yo‘llari bo‘ylab pulli avtomobil to‘xtash joylarini tashkil etish bo‘yicha loyihalarini amalga oshirish, xususiy investorlarni jalb qilgan holda ko‘p qavatli avtomobil saqlash joylarini qurish dasturlarini tasdiqlash;

eng yuqori ijara to‘lovlari va investitsiya majburiyatlarini taklif etgan, asosan yo‘l harakati sohasida innovatsiya loyihalarini amalga oshirishda tajribaga ega tadbirkorlik sub’yektlariga mahalliy davlat hokimiysi organlari tasarrufida bo‘lgan, shu jumladan bozorlar va savdo komplekslariga tutash hududlarda joylashgan avtomobillarni vaqtinchalik saqlash joylarini davlat-xususiy sheriklik shartlarida 10 yilga qadar muddatga ijaraga berish.

Kapital qo‘yilmalarning iqtisodiy samaradorligi ijtimoiy mehnat unumdorligini oshishi hamda mahsulot tannarxini kamayishi bilan ifodlanadi. Yangi ishlab chiqarish

quvvatlarini yaratish milliy hamda jaxon tajribalari asosida tashkil etilishi, hamda nafaqat mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish, balki ishchilar mehnatini engilashtirish, unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va tannarxini pasaytirishga yo‘naltirilishi lozim.

Kapital qo‘yilmalarning iqtisodiy samaradorligini oshirishdagi birinchi darajali omil – vaqt bo‘lib, ob’yektlar qanchalik tez ishga tushsa shunchalik tez va ko‘p mahsulot ishlab chiqariladi va (xalq ) aholi ixtiyoji qondiriladi yoki aksincha, qurilish muddatining o‘zayishi kapital qo‘yilmalarining samaradorligini pasaytiradi. Misol uchun, qurilish muddatining 10% ga o‘zayishi qurilish montaj ishlarini tannarxini 1-2%ga oshiradi. Qurilish muddatini haddan tashqari o‘zaytirish, bitkazilmagan, chala qurilishlar hajmini kengaytiradi, asosiy fondlarni joriy etish rejalarini bajarilmasligiga olib keladi.

Kapital qo‘yilmalarning samaradorligi qurilishning tashkil etilishiga, qurilish tashkilotlarining faoliyatiga bog‘liqdir. Qurilish ishlari qanchalik oqilona samarali tashkil etilsa, shunchalik ko‘p yangi korxonalar, uylar, maktablar, kasalxonalar va boshqa ob’yektlarni qurish mumkin.

Kapital qo‘yilmalarning samarali yunaltirishni rejalashtirish quyidagilarga alohida e’tibor berishni talab qiladi:

- asosiy (ya’ni muhim) ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish;
- mamlakat xududida iqtisodiy asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etish, tabiiy resurslardan tularoq foydalanish, iqtisodiy hududlarni rivojlantirish, korxonalarni ixtisoslashtirish va kooperatsiyani tashkillashtirish;
- moddiy va mehnat resurslarini oqilona yunaltirish, chunki bu vositalarini amalga tezroq kiritishga imkon yaratadi.

Loyihalashtirishda qurilayotgan korxonalarning asosiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini, texnik darajasini aniqlash, samarali loyihami qarorlar, qurilishni amalga oshirishning oqilona va samarali yo‘llari belgilanadi.

Shuni aytish lozimki, zamonaviy loyihalash amaliyotida na’munaviy (ommaviy) loyihalar bilan bir qatorda, maqdan vaa materiallarni tejashga yo‘naltirilgan individual loyihalarni yaratish ham rivojlanib bormoqda. Texnologik tizimni qayta qurilishga tez moslashadigan yangi bino va inshootlar qurilishni loyihalashtirish amalda ko‘paymokda. Sanoat korxonalarida mehnat sharoitlarini yaxshilash maqsadida issiklik, energiya va shovqinga qarshi xarakteristikkalarga ega uskunalardan foydalanilayapti.

Zamonaviy loyihalarda binolarga mashina yoki uskunalar uchun quti sifatida qarashayapti. Moxiyatan ular kapital qo‘yilmalar hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshrishga imkon beruvchi optimal mehnat sharoitlarini hamda texnologik jarayonlarini yo‘lga quyishni anglatadi.

Kapital qo‘yilmalarning samaradorligini oshirishning muhim yo‘li - bu ularning texnologik va takror ishlab chiqarish tuzilmasini takomillashtirishdir. Vaholanki, bu qo‘shimcha vositalarni talab qilmaydi va asosan loyihalashtirish hamda rejalashtirish bosqichlarida amalga oshiriladi.

Ma’lumki, kapital qo‘yilmalari qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish, uskunalarini, inventarlarni sotib olish va boshqa ishlarga – loyiha qidiruv, qurilish

maydonini tayyorlash, qurilayotgan korxona uchun kadrlarni tayyorlash va x.k. larga sarflanadigan xarajatlardan kelib chiqadi.

Fondlarning aktiv qismiga ajratilgan mablag‘ning ulushi qanchalik ko‘p bo‘lsa, ishlab chiqarishning va kapital qo‘yilmalarning samaradorligi shunchalik yuqori bo‘ladi.

Kapital qo‘yilmalarning umumiy xajmidan harakatdagi korxonalarini rekonstruksiya qilish, qayta texnik qurollantirish va kengaytirishga yo‘naltirilgan mablag‘larning ulushini oshirish orqali, qisqa muddatlarda va kam xarajatlar bilan iqtisodiy samaraga erishish mumkin.

**Tayanch iboralar:** Samara. Samaradorlik. Kapital qo‘yilma. Iqtisodiy samaradorlik. Umumiy iqtisodiy samaradorlik. Qiyosiy iqtisodiy samaradorlik. Makroiqtisodiyot. Mikroiqtisodiyot.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. “Investitsiya” va “Kapital qo‘yilmalar” tushunchalarini farqlab bering.
2. Kapital qo‘yilmalarinng qanday molivaviy manbalari mavjud va ularing farqi nimada?
3. Siz kapital qo‘yilmalar samaradorligini aniqlashning qanday yo‘llarini bilasiz?
4. Investitsiyalarga nisbatan samarali variantni tanlash uchun qanday uslubdan foydalanish kerak?
5. Qurilish «lagi» nimani ifodalaydi?
6. Investitsiyalar tuzilmasini yaxshilashning natijalari nimada ko‘rinadi?
7. Investitsiyalar samaradorligini baholashning eng zamonaviy metodlaridan qaysilarini bilasiz?
8. Kapital qo‘yilmalar samaradorligini oshirishning qanday yo‘llarini bilasiz?

## **5-MAVZU: QURILISHDA LOYIHALASHTIRISH IQTISODIYOTI VA UNI TASHKIL ETISH**

---

### **Reja:**

- 5.1. Qurilishda loyihalashtirish maqsadi va vazifalari.
- 5.2. Loyihalash bosqichlari va loyiha hujjatlarining tarkibi.
- 5.3. Loyiha yechimlari iqtisodiy samaradorligini baholash.
- 5.4. Loyiha yechimlari iqtisodiy samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari.

### **5.1. Qurilishda loyihalashtirish maqsadi va vazifalari**

Har bir qurilish ob’yektini tiklashda avvalom bor, uning qurilishini amalga oshirishning texnik imkoniyatlari va iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi ko‘rib chiqiladi. Bu vazifalar, savol va masalalar “loyiha” deb nomlanuvchi maxsus hujjatda o‘z aksini topadi.

*Loyiha* – bu quriladigan injenerlik inshooti yoki quyidagi ko‘rinishda namoyon etiladigan sanoat ishlab chiqarilishi yoki fuqarolar uchun mo‘ljallangan ob’ktlarni shakllantirish bo‘yicha quyida keltirilgan maqsadlar tizimidir:

- qurilajak inshootning arxitekturaviy – rejaviy, konstruktiv – kopnovkali va texnologik yechimlarining grafik materiallari (chizmalar);
- inshoot qurilishi texnik imkoniyatlari, konkret tabiiy muhitda bajariladigan ishlarning ishonchliligi va xavfsizligini asoslovchi hisoblash – tushuntirish matni;
- qurilish tannarxini aniqlaydigan va moliyaviy xarajatlar, moddiy – texnikaviy va mehnat resurslarining iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini asoslab beradigan smeta–iqtisodiy qism.

Qurilish ob’yektining iqtisodiy samaradorligi, uning hayotiylik siklining xarakteri va funksiyallashuvining davomiyligi, chiqarilayotgan mahsulotning tannarxi, ekspluatatsiya va mehnat qilish sharoitlari ahamiyatli tarzda loyihaviy yechimlarning darajasiga, ya’ni bir so‘z bilan aytganda, loyihaning qanday darajada tayyorlanganligiga bog‘liq bo‘ladi.

Har qanday ob’yektni loyihalash odatda bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi. Loyihalashning birinchi bosqichida g‘oya paydo bo‘lgandan so‘ng investitsiyalash maqsadlari: ob’yektning qanday vazifa bajarishga mo‘ljallanishi, uning quvvati, ishlab chiqariladigan mahsulotlar nomenklaturasi, joylashish o‘rni aniqlanadi.

Investitsiyalash imkoniyatlari va kutilayotgan texnik – iqtisodiy ko‘rsatkichlarga erishishni baholash olib boriladi.

Birinchi bosqichda bajarilgan izlanishlar (ilmiy – tadqiqot ishlari) va ishlar asosida buyurtmachi (investor) g‘oyalarni amalga oshirish bo‘yicha ishlarni davom ettirish yoki ularni to‘xtatish bo‘yicha qaror qabul qiladi. Ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda buyurtmachi qurilishi mumkin bo‘lgan ob’yektning berilgan rayonda

qurilishi kutilayotganligi to‘g‘risidagi ob‘yektni joylashtirish bo‘yicha oldindan kelishishni iltimos qilish tariqasidagi ariza bilan mahalliy hokimiyat organlariga murojaat qiladi. Mahalliy hokimiyat organlaridan ijobiy javob olingandan keyin buyurtmachi *ikkinch bosqich* ishlari – ob‘yekt qurilishi investitsiyasining texnik – iqtisodiy asosini ishlab chiqishga kirishadi. Bu bosqichda zarur bo‘lgan injenerlik qidiruvlar olib borish bilan injenerlik ayniqsa iqtisodiy va smeta – moliya savollari ancha chuqur o‘rganiladi. Investitsiyalarni texnik – iqtisodiy asoslash natijalari bo‘yicha qurilishning maqsadga muvofiqligi va loyihalashni – texnik loyihani (loyihani) ishlab chiqish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi.

Loyihalash jarayoni davomiyligi loyihalashdan boshlab qurilish boshlanishiga qadar o‘rta va nisbatan katta ob‘yektlar bo‘yicha 5 yildan 10 yilgacha davom etishi mumkin; alohida murakkab va yirik ob‘yektlar bo‘yicha loyihalash – ilmiy–tadqiqot ishlarining davomiyligi undan ham ko‘p bo‘lishi mumkin. Bunday muddatda vaziyat loyihani ishlab chiqishning boshida qabul qilingan o‘sha paytdagi fan va texnikaning oxirgi yutug‘lariga asoslangan injenerlik yechimlarning ob‘yektni foydalanishga tushirish vaqtiga kelib shunchaki eskirib qolishiga olib keladi. Shu tufayli sanoat korxonalarining loyihalarida fan va texnikaning eng yangi yutug‘lari, ishlab chiqarishning ilg‘or texnologiyasi, eng yangi yuqori ishlab chiqarish unumdoorligiga ega bo‘lgan vositalar (jihozlar)dan, qurilmalar, agregatlar, ishlarni kompleksli mexanizatsiyalash va avtomatlashdirishdan to‘liq foydalanish, resurslarning barcha turlaridan va chiqindi chiqarmaydigan texnologiyalardan oqilona foydalanishni ko‘zda tutish taqoza etiladi. Shahar va qishloqlarda quriladigan yangi fuqaro – yashash ob‘yektlarini loyihalashda yashash uchun barcha qulayliklarni yaratish va aholiga maksimal xizmat ko‘rsatishni ko‘zda tutish talab etiladi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaradigan korxonalarni loyihalashda sanoat asosidagi ishlab chiqarishni tashkil etish, tez bo‘ziladigan mahsulotlar (sabzavotlar, mevalar)ni qayta ishlashga asoslangan yirik mexanizatsiyalashgan, ixtisoslashgan komplekslarni yaratish vazifasi asosiy maqsadlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Sanoat va qishloq xo‘jaligi korxonalarini, tarar - joy, jamoat va fuqaro binolari loyihalarida ularning tashqi qiyofasiga katta e’tibor qaratiladi, chunki yangi ob‘yektni joylashtirish bilan nafaqat iqtisodiy samara olinishi, balki ijtimoiy va shaharsozlik bo‘yicha ham samara olinishi lozim. Yerdan oqilona foydalanish va atrof – muhitni muhofaza qilishga alohida e’tibor ajratiladi.

Loyihaning sifati nafaqat ilg‘or texnik yechimlar bilan, balki smeta hujjalalarining to‘g‘ri bajarilganligi bilan ham aniqlanadi. Loyihalanayotgan ob‘yekt texnik – iqtisodiy ko‘rsatkichlarini va qurilishni rejalashtirish hamda moliyalashtirish, qurilish ishlab chiqarishini tashkil etish, qurilish – montaj tashkilotlarida iqtisodiy ishlarni olib borish va ular ishini nazorat qilish uchun qurilishining maqsadga muvofiqligini aniqlashda smetadan foydalaniladi. Qurilishda ishlab chiqarishning borishi va qurilish iqtisodiy samaradorligi ko‘p jihatdan quriladigan ob‘yektlarning smetali narxini to‘g‘ri aniqlashga bog‘liq bo‘ladi.

Loyihalar texnik darajasi bilan qurilish – montaj tashkilotlarida mehnat unumdoorligi o‘sishining jadalligi hamda materiallar va konstruksiyalar ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarining ish samaradorligi shart –sharoitlanadi.

Loyihalarda binolarning maksimal darajadagi ixchamligi va unifikatsiyasi ko‘zda tutilmog‘i lozim, lekin bunda ularning arxitekturaviy mazmuniga zarar etmasiligi, mavjud mexanizatsiya vositalarini hisobga olgan holda konstruksiyalarni yiriklashtirish, loyihaviy yechimlarning texnologikligiga, yuqori ish unumdorligiga ega bo‘lgan texnikalardan foydalanishga to‘sinqilik bo‘lmasligiga e’tibo qaratilishi talab etiladi. Loyihalarda qurilish ishlab chiqarishini tashkil etish va rejalahshtirish uchun zarur bo‘lgan barcha ma’lumotlar (ishlarning hajmlari, materiallar, konstruksiyalar, mashinalar, mehnat rusurslari, transport vositalariga bo‘lgan ehtiyoj to‘g‘risidagi ma’lumotlar) aks ettirilmog‘i taqoza etiladi. Loyihada buyumlar, detallar va konstruksiyalar ishlab chiqaruvchi korxonalarning manfaatlarini ham hisobga olish lozimdir. Qo‘llaniladigan yig‘ma elementlarning tipli o‘lchamlari va markalari loyihalarda minimal beriladi. Bu esa zavodlarda oqimli liniyalarni o‘zgartirishning oldini oladi. SHunday qilib, loyihalashtirish texnikaviy taraqqiyotning yuksalishi bilan birgalikda rivojlanadi.

Loyihalar katta hajmdagi izlanishlar, grafik va hisoblash materiallariga ega bo‘ladi. Loyihalashtirish jarayonida, ayniqsa yirik va murakkab ob’yecktlarni loyihalash bo‘yicha modelli izlanishlar, ko‘p sonli kelishuvlar, ekspertiza olib boriladi va tugallangan texnik hujjatlar tasdiqlanadi.

Bu bosqichlarning barchasi albatta ko‘p mehnat va vaqt talab qiladi, shu sababli loyihalash va ilmiy izlanish ishlari qurilish ishlab chiqarilishi ishlaridan ancha avvalroq olib borilmog‘i kerak. Faqat shunday bo‘lgandagina qurilish dasturining zaruriy va sifatli texnik hujjatlarini o‘z vaqtida ta’minlash mumkin.

## **5.2. Loyihalash bosqichlari va loyiha hujjatlarining tarkibi**

Yirik murakkab sanoat ob’yecktlari va komplekslari bo‘yicha loyiha -ilmiy izlanish ishlari odatda ettita xarakterli bosqichlarda olib boriladi:

- muammoli izlanishlar yoki mavjud bo‘lgan muammolar yechimini topish bo‘yicha olib boriladigan izlanishlar;
- biznes – reja ishlab chiqish;
- investitsiyalarni texnik – iqtisodiy asoslash;
- qurilish uchun qurilish maydonini tanlash va tasdiqlash;
- loyihalash uchun topshiriqni ishlab chiqish va uni loyihalashga taqdim etish;
- injenerlik qidiruv va izlanishlarni olib borish;
- loyihalashtirish.

Loyihalash – ilmiy izlanishlarni bajarishga buyurtmachi albatta, qoidaga ko‘ra, ixtisoslashgan loyihalash – ilmiy –tekshirish firmalarini jalb qiladi. Ixtisoslashgan loyihalash – ilmiy –tekshirish firmalarini tanlash savdolashish e’lonini tarqatish orqali amalga oshiriladi.

*Muammoli izlanishlar* – faqat yirik va murakkab ob’yecktlarni loyihalashda olib boriladi va ular biznes – rejani ishlab chiqish hamda investitsiyalarni texnik – iqtisodiy asoslash uchun zarur bo‘lan boshlang‘ich ma’lumotlarni olishga yo‘naltiriladi.

*Biznes-reja* – qurilish ob’yektining iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini asoslab beradigan hujjat, shuningdek, bu hujjat tadbirkorlik faoliyati sferasida ishtirok etishning maqsadga muvofiq ekanligini baholashda ham ishlab chiqiladi. Shular bilan bir qatorda bu hujjat nima ishlab chiqarish kerak, ishlab chiqariladigan tovarning raqobatbardoshligi qanday qilib oshiriladi, qanday kreditlar zarur bo‘ladi va ularni qachon olish kerak hamda ularni qaytarishning imkonini bormi, tovar ishlab chiqarishni ilgari surish uchun qanday sheriklar kerak bo‘ladi va shu kabi savollarga beriladigan javoblarni o‘z ichiga oladi. Biznes-reja qurilish ob’yekti iqtisodiy samaradorligi – o‘zini oqlash muddati, olinadigan daromadning miqdori, korxona mahsulotlarini sotish yo‘llari to‘g‘risidagi tasavvurlarni ham beradi.

Biznes-reja bozor, uning sig‘imi, muhitning raqobatlilik darajasi, narxlarning dinamikasini o‘rganish natijalarini o‘z ichiga oladi va bo‘lajak buyurtmachilar hamda investorlar bilan muzokaralar olib borishda asos bo‘lib xizmat qiladi. U quriladigan ob’yektning raqobatli muhit sharoitlarida hayotiyligini aniqlash imkonini beradi, ishlab chiqarishning qanday qilib rivojlana olishiga oid tavsiyalarni o‘zida mujassam etadi, tashqi investorlardan moliyaviy yordam olish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Biznes-reja odatda quyidagi bo‘limlardan tashkil topadi:

*taqriz*, unda ob’yektning qanday vazifani bajarishga mo‘ljallanganligi, yangidan yaratiladigan korxona nimani va nimaning hisobiga tovar ishlab chiqarishga intilayotganligi, ishlab chiqariladigan tovar raqobatchilarnikidan nimasi bilan farq qilishi va nima uchun iste’molchilar aynan shu tovari sotib olishni istayotganliklari ko‘rsatiladi. Taqrizda kelgusida amalga oshiriladigan ishlardan qanday asosiy moliyaviy natijalar: sotiladigan tovarlarning hajmini bashorat qilish, olinadigan foyda, ishlab chiqarishga sarflanadigan mablag‘lar, umumiy daromad va foyda olishning darajasi hamda rentabellik, shuningdek, bankdan olingan kreditni qaytarish muddati va shu kabilar beriladi.

*Tovarlar (ishlar va xizmatlar) turi* – mavjud bo‘lgan, ya’ni oldindan ishlab chiqarilayotgan va yangi tovarlar nomenklaturasi, ko‘satiladigan ishlar va xizmatlar, ishlarni ishlab chiqarish texnologiyasining ustunligi nimadan iborat ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Agar bu qurilish yoki loyihalash – ilmiy tekshirish tashkilotiga tegishli bo‘lsa, u holda bu qurilish yoki loyihalash – ilmiy tekshirish tashkiloti qanday salohiyatga ega ekanligi e’tiborga olinadi.

*Savdo-sotiq bozorlari* – savdo – sotiq bilan shug‘ullanayotgan mavjud bozorlarni tahlil qilish, ta’sir o‘tkazish doirasini kengaytirish bo‘yicha takliflar keltiriladi. Iste’molchilarni, ularning talab – ehtiyojlarini aniqlash va ularga mahsulotlarni qanday qilib etkazish eng muhim omillar bo‘lib hisoblanadi. Buyurtmachini yaxshi tushunmasdan turib, mahsulotlar, ishlar va ko‘rsatilayotgan xizmatlarning kuchli va zaif tomonlarini baholash ancha qiyin bo‘ladi.

*Savdo-sotiq bozoridagi raqobat* – kon’yunktura, raqobatchilar, ularning strategiyasi va qurilish mahsulotlari bozoridagi taktikasi, tashkilotlar soni, qurilish – montaj va boshqa ishlarni bajarish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar haqidagi ma’lumotlar tahlilini o‘z ichiga oladi.

*Marketing rejasi* marketing, narxlarni hosil qilish (narxlarni belgilash)ning

maqsad va strategiyasini, ishlar va xizmatlarni taqsimlash sxemasini o‘zida mujassam etadi, reklama va jamoatning fikrini shakllantirishga oid savollarni echadi.

*Ishlab chiqarish rejası* bo‘lajak qurilish ob‘yektining ishlab chiqarish quvvati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Agar so‘z qurilish tashkiloti haqida yuritilayotgan bo‘lsa, u holda unda qurilish tashkilotining quvvati, uning asosiy ishlab chiqarish jamg‘armalari, tashkilot salohiyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltiriladi. Bosh vazifa – buyurtmachilarga o‘zini salohiyatli qilib ko‘rsatish, ya’ni taklif etilayotgan ish hajmlarini tashkilot zarur bo‘lgan muddatlarda va talab etiladigan sifatda bajara olishga qodir ekanligini namoyon eta bilish.

*Tashkiliy reja* – pudratli firma tashkiliy strukturasi va uning personali: tarkibi, yoshi, ma’lumoti, ish tajribasi; ishchi kuchi, moddiy sharoitlari, kadrlar siyosati va shu kabi ma’lumotlarni o‘z ichiga kiritadi. Agar so‘z qurilayotgan ob‘yekt, korxona haqida borayotgan bo‘lsa, u holda ham xuddi shunday ma’lumotlar keltiriladi.

*Huquqiy ta’milanganlik*. Qurilish – montaj va loyihalash firmalari uchun ularning tuzilgan sanasi ko‘rsatiladi, ro‘yxatdan o‘tganligi to‘g‘risida ma’lumotlar, muassislik hujjatlari, faoliyat yuritishni asoslovchi guvohnomaning raqami (litsenziyaning nomeri), mulkchilik shakli, boshqa tashkilotlar bilan ishslash to‘g‘risidagi shartnomalar yoki taqrizlarning nusxalari keltiriladi.

*Xavf-xatrga borish (tavakkal qilish) va sug‘urtlashning baholanishida* – xavf-xatar darajasi va berilgan korxonada ishlab chiqarishga ishtirok etishining maqsadga muvofigligi aniqlanadi, qurilish ob‘yektlari, ishlarning bajarilishi va xizmatlar ko‘rsatilishini sug‘urtalashga doir savollar ko‘rib chiqladi.

*Moliyaviy reja* – bajarilgan ishlar hajmi, foyda, tannarx, daromadlar va xarajatlar, pul mablag‘larining aylanishi, moliyaviy muvozanatni o‘z ichiga oladi.

*Moliyalashtirish strategiyasi* – quyidagi ma’lumotlar: loyihani amalga oshirish uchun qancha mablag‘ kerak bo‘ladi, kreditni qaerdan va qanday shaklda olish mumkin, kreditning shartlari, sarflangan mablag‘lar qanday muddatda qoplanishi mumkinligini o‘zida mujassamlaydi.

Ishlab chiqilgan biznes – reja natijalari asosida buyurtmachi bo‘lajak qurilish ob‘yektining berilgan rayonda qurilishi ko‘zda tutilayotganligi to‘g‘risidagi arznama bilan mahalliy hokimiyat organlariga murojaat qiladi. Qurilishi ko‘zda tutilayotgan ishlab chiqarish ob‘yektlari to‘g‘risidagi arznomada korxona to‘g‘risidagi texnik va texnologik ma’lumotlar, ishchilar va xizmatchilarning taqribiy soni, korxonaning xom - ashyo va materiallar, energiya resurslari, suv, yer resurslariga bo‘lgan taxminiy ehtiyoji, korxonaning atrof-muhit va ekologik vaziyatga ko‘rsatadigan ehtimoliy ta’siri to‘g‘risidagi tushunchalar, ishchi- xizmatchilar hamda ularning oilalari, ularni turar-joy, madaniy va maishiy xizmatlar ko‘rsatadigan ob‘yektlar bilan ta’minlay olishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltiriladi. Qurilishi ko‘zda tutilayotgan ob‘yekt to‘g‘risidagi arznama moliyalashtirish manbalari va tayyor mahsulotdan foydalanishga oid ma’lumotlarni ham o‘zida mujassam etadi.

Qurilishi ko‘zda tutilayotgan ob‘yekt to‘g‘risidagi arznama to‘g‘risida ijobjiy xulosa olingandan so‘ng buyurtmachi qurilishga ajratiladigan investitsiyalarni texnik - iqtisodiy jihatdan asoslashni ishlab chiqishga kirishadi. Investitsiyalarni texnik-iqtisodiy jihatdan asoslash xo‘jalikning zarur ekanligi, investitsiyalarning texnik

imkoniyatlari, tijorat, iqtisodiy va ijtimoiy nuqtai- nazardan maqsadga muvofiqligi haqida qaror qabilish maqsadida olib boriladi.

Qurilish investitsiyalari *texnik-iqtisodiy asosi* (*TIA*) muhim hujjat hisoblanadi, uning asosida qurilishi ko‘zda tutilayotgan ob’yektni qurish va texnik loyihani ishlab chiqish uchun prinsipial qarorlar qabul qilinadi.

Investitsiyalar *TIA*ni ishlab chiqishda marketing, talab va ehtiyojga oid bo‘lgan savollar bo‘yicha narx, inflyasiya, ishbilarmonlik faolligini hisobga olgan holda ancha chuqur izlanishlar olib boriladi, shuningdek, bozor kon'yunkturasini oldindan tahlil va bashorat qilish asosida mahsulotlarni sotish siyosati ancha puxta asoslab beriladi, mahsulotlar savdo-sotig‘ini rag‘batlantirish bo‘yicha chora – tadbirlar ishlab chiqiladi, tashqi bozor uchun ham shu xuddi shunday ishlar amalga oshiriladi va h.k. SHu bilan bir qatorda, asosiy va yordamchi ishlab chiqarishlar texnologiyasi ham ancha chuqur asoslab beriladi, bo‘lajak korxonaning resurslar bilan ta’milanishi yuqori darajadagi puxtalik bilan tahlil qilinadi.

Investitsiyalar *TIA* tarkibiga qurilish ob’yektining joylashish o‘rnini asoslashga doir ma’lumotlar: transport kommunikatsiyalari, injenerlik tarmoqlari, ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastruktura ob’yektlari, mahsulotlarni sotish bozorining mavjudligi kiradi. Bu bo‘lim hajmiy - rejaviy va konstruktiv savollar bo‘yicha prinsipial yechimlar: qurilishning muddati va ketma-ketligi, qurilishni tashkil etish hamda uning texnologiyasi bo‘yicha umumiyl holatlar, energiya gaz ta’moti yechimlarini o‘z ichiga oladi. Atrofdagi tabiiy muhitga ko‘rsatiladigan ta’sir xarakteri baholanadi, mehnat va moddiy – texnik resurslarga bo‘lgan ehtiyojlar, asosiy texnik – iqtisodiy ko‘rsatkichlar va investitsiyalarning smaradorligi aniqlanadi, buyurtmachi tomonidan mamlakatda va xorijda qurilgan ob’yektlarning ularga o‘xhash bo‘lgan ob’yektlarga nisbatan texnik – iqtisodiy ko‘rsatkichlari qiyoslangan holda tahlil qilinadi.

Investitsiyalar *TIA*ni ishlab chiqishda, qoidaga ko‘ra, qurilish ob’yektining bir nechta variantlari ko‘rib chiqiladi. Har bir variant bo‘yicha narxning eng yirik ko‘rsatkichlari bo‘yicha kapital mablag‘lar hajmi (K), mahsulotning tannarxi (T), solmishtirma kapital mablag‘lar, xom – ashyolar, yoqilg‘i, elektroenergiyaning solishtirma sarfi, ishlayotgan ishchi – xodimlarning soni, mehnat unumdorligi aniqlanadi.

Investitsiyalar *TIA* bo‘limlarining nomlari biznes-reja bo‘limlarining nomlariga etarli darajada yaqin bo‘ladi, lekin ular mazmun – mohiyati bo‘yicha iqtisodiy jihatdan chuqur ishlanishi singari, injenerlik yechimlari bo‘yicha ham biznes – reja bo‘limlaridan farq qiladi. Agar biznes-reja investitsiyalar *TIA* ishlab chiqilgandan keyin ishlab chiqilgan vaziyatlarda investitsiyalar *TIA* materiallari biznes-rejani ishlab chiqish uchun xizmat qiladi. Biznes - reja bunday holatda korxonaning pul to‘lay olish qodirligi va moliyaviy ustuvorligini tasdiqlash maqsadida shakllantiriladi.

Investitsiyalar *TIA* davlat ekspertiza xulosalari va ob’yekt quriladigan joyning ijro hokimiyati organi tomonidan kelishilganligi to‘g‘risidagi qaror asosida tasdiqlanadi. Ob’yektning joylashish o‘rnini tanlash qurilish uchun maydon tanlash dalolatnomasi orqali rasmiylashtiriladi va tasdiqlanadi. Tasdiqlangan investitsiyalar

TIA va maydon tanlash dalolatnomasi loyihalashning keyingi bosqichi – loyiha (texnik loyiha)ga o‘tish imkonini beradi.

*Texnik topshiriqning ishlab chiqilishi va uning loyihalashtirishga taqdim etilishidan keyin loyihani ishlab chiqishga kirishiladi.* Texnik topshiriqning loyihalashtirishga berilishi buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi. Lekin buyutmachi topshiriqni tuzish uchun etaricha saviyaga ega emasligi tufayli uni tuzish uchun loyihalash yoki injiniring firmasini jalb etadi. Texnik topshiriq loyilash ishlari uchun tuzilgan har qanday shartnoma (kontrakt)ning ajralmas qismi deb hisoblanadi.

Sanoat ob’yektini loyihalash uchun taqdim etilgan topshiriq qurilish rayoni, punkti va maydoni, mahsulotning tavsifi, uning nomenklaturasi va ishlab chiqarish quvvati, texnologik jarayonlar va jihozlarga asoslangan ixtisoslashtirish va koopiratsiyalash, xom – ashyolar, suv, yoqilg‘i, gaz va elektr energiyasi bilan ta’minkaydigan manbalar, oqava suvlarni tozalash va oqizib yuborish sharoitlari, tayyor mahsulotlarni iste’mol qiladigan rayonlar, qurilish mudduti va quvvatlarni ishga tushirish ketma – ketligi, kapital mablag‘larning taxminiy miqdori, yashash – fuqaro qurilishining hajmi va uni joylashtirish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

O‘rnatilgan amaliyotga ko‘ra texnik loyihani ishlab chiqishga qadar bajarilgan loyihalash, qidiruv va tekshirish ishlari loyihalash oldi bosqichi deb hisoblash qabul qilingan. Loyihalashning bevosita bosqichi texnik loyihani ishlab chiqish bilan boshlanadi.

Loyihalashga topshiriqni tayyorlashda *qurilish uchun maydonni tanlash* loyiha buyurtmachisi, loyihalash tashkiloti, pudratchi qurilish tashkiloti, mahalliy hokimiyat organlari, sanitariya – epidemiologiya xizmati, davlat yong‘in xavfsizligi nazorati, davshahartexnazorat, suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish organlari, temir yo‘l, aloqa, energetika, fuqaro mudofa boshqarmalarining vakillaridan tashkil topgan komissiya tomonidan olib boriladi.

Qurilish maydoni uchun qishloq xo‘jaligi maqsadlarida foydalanishga yaroqsiz bo‘lgan va aholi punktlari, suv ta’minoti, energiya ta’minoti manbalariga yaqin bo‘lgan yer uchastkalarini tanlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Maydon sanitariya talablarini qondirmog‘i lozim.

Komissiya maydonni tanlash to‘g‘risidagi dalolatnomani tuzadi, ushbu dalolatnomasi ko‘zda tutilayotgan loyihaviy yechimlar hamda korxonani injenerlik tarmoqlari va kommunikatsiyalariga ulash to‘g‘risidagi kelishuvning asosiy hujjati deb hisoblaniladi.

*Loyihalash topshirig‘ini* buyurtmachi loyihalash tashkiloti ishtirokida tasdiqlangan TIA asosida tuzadi. Sanoat ob’yektini loyihalash uchun taqdim etilgan topshiriq qurilish rayoni, punkti va maydoni, mahsulotning tavsifi, uning nomenklaturasi va ishlab chiqarish quvvati, texnologik jarayonlar va jihozlarga asoslangan ixtisoslashtirish hamda koopiratsiyalash, xom – ashyolar, suv, yoqilg‘i, gaz va elektrenergiya bilan ta’minkaydigan manbalar, oqava suvlarni tozalash va oqizib yuborish sharoitlari, tayyor mahsulotlarni iste’mol qiladigan rayonlar, qurilish mudduti va quvvatlarni ishga tushirish ketma – ketligi, kapital mablag‘larning taxminiy miqdori, yashash – fuqaro qurilishining hajmi va uni joylashtirish

to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

*Injenerlik qidiruv ishlari* ob‘yektni qurishda va uni ekspluatatsiya qilishda texnik jihatdan to‘g‘ri hamda iqtisodiy asosolangan loyihaviy yechimlarni qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni olish maqsadida olib boriladi. Injenerlik qidiruv ishlari ikkita: iqtisodiy va texnik tadqiqotlar qismlariga bo‘linadi. Injenerlik qidiruv ishlarining iqtisodiy qismi investitsiyalarning TIA ni ishlab chiqish va biznes-reja tuzish vaqtida olib boriladi. Lekin bu izlanishlarning ma’lum qismidan loyihash jarayonida ham foydalaniлади. Iqtisodiy izlanishlar vazifasiga quyidagilar: ishlab turgan korxonalarning mavjudligi, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, xom-ashyo manbalari, yoqilg‘i – energiya resurslari, turli vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan injenerlik tarmoqlari, temir va avtomobil yo‘llari, suvning ulanish yo‘llari, mehnat resurslari va yashash maydoni, xom – ashyo bazasini rivojlantirish, yer fondining holati haqidagi malumotlarni to‘plash kiradi.

Texnik tadqiqotlar yoki izlanishlar jarayonida bajariladigan ishlar kompleksiga topografik – geodezik ishlari, injener – geologik, gidrogeologik va gidrologik, iqlimi, tuproq – va geobotanik, sanitar - gigienik tadqiqotlar, qurilishni tashkil etish loyihasini ishlab chiqish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni to‘plash kiradi. Tadqiqotlarning to‘liq va sifatli bajarilganligi loyihada qabul qilingan yechimlarning to‘g‘riliği va maqsadga muvofiq ekanligini aniqlab beradi.

Loyihalash ikkita bosqich – texnik loyiha va ishchi chizmalar yoki bitta bosqich – texnik-ishchi loyiha orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ikkita bosqichda murakkab sanoat ob‘yektlari, shuningdek, shaharlarda quriladigan, bosh rejaga ega bo‘lmagan yashash-fuqaro ob‘yektlari loyihanadi. Boshqa barcha ob‘yektlar bitta bosqichda loyihanadi.

Texnik loyiha quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

- 1) umumiyl tushuntirish matni;
- 2) bosh reja va transport;
- 3) texnologik yechimlar;
- 4) ishlab chiqarish va korxonani boshqarish hamda ishchi va xizmatchilar uchun sharoitlar yaratish va ular mehnatini muhofaza qilishni tashkil etish;
- 5) arxitekturaviy – qurilish yechimlari;
- 6) injenerlik jihozlari, tarmoqlar va tizimlar;
- 7) qurilishni tashkil etish;
- 8) atrof – muhitni muhofaza qilish;
- 9) fuqarolarni himoyalash bo‘yicha injener – texnik tadbirlar;
- 10) smeta hujjatlari;
- 11) investitsiyalarning samaradorligi.

*Umumiyl tushuntirish matnida* ob‘yektning loyihaviy quvvati, mahsulotlar nomenklaturasi, sifati va raqobatbardoshligi, ob‘yekt bo‘yicha resurslarga bo‘lgan talab-ehtiyojlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar, qurilish maydoni joylashgan rayonning ijtimoiy - iqtisodiy va ekologik sharoitlari, bosh reja, injenerlik tarmoqlari va kommunikatsiyalari hamda investitsion loyihani amalga oshirishning boshqa xarakteristikalar bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar haqidagi ma’lumotlar beriladi.

2. *Bosh reja va transport.* Bosh reja, ichki maydon va tashqi transport bo‘yicha

ko'rsatkichlar, hududni ko'kalamzorlashtirish bo'yicha asosiy rejaviy yechimlar, tadbirlar va boshqa materiallarni o'z ichiga oladi.

3. *Texnologik yechimlar* – ishlab chiqarish texnologiyasi, mahsulotlarni tayyorlash uchun zarur bo'lgan mehnat sig'imi xarakteristikalari, mahsulotlar sifatini nazorat qilishni tashkil etish bo'yicha takliflar, texnologik jarayonlarning yoqilg'i-energetik va moddiy balanslari, atrof-muhitga zararli moddalarni chiqarishni bartaraf etish bo'yicha texnik yechimlar keltiriladi va h.k.

4. *Ishlab chiqarish, korxonani boshqarish hamda ishchi va xizmatchilar uchun barcha zarur bo'lgan sharoitlarni yaratishni tashkil etish va ularning mehnatini muhofaza qilish* korxonani boshqari tashkiliy – funksional tuzilmasining tahlilini, boshqarishning avtomatik tizimi (BAT), ishchi o'rnlari soni va jihozlar bilan ta'minlanganligi, ishchi – xodimlar mehnat qilishlari uchun sanitariya-gigienik sharoitlarning yaratilganligi, mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi bo'yicha chora – tadbirlarni o'z tarkibiga kiritadi.

5. "Arxitekturaviy – qurilish yechimlari" bo'limiga qurilish maydonining injener – geologik, gidrogeologik sharoitlari to'g'risidagi ma'lumotlar, arxitekturaviy – qurilish yechimlarining va ishlab chiqarish shovqinlarini va tebranishlarni pasaytirish bo'yicha chora – tadbirlarning asoslanishi kiradi va h.k.

6. *Injenerlik tarmoqlari va tizimlari, jihozlari* bo'limida suv ta'minoti, kanalizatsiya, isitish tarmog'i, shamollatish bo'yicha yechimlar keltiriladi va h.k.

7. "*Qurilishni tashkil etish*" bo'limida QMKga muvofiq ravishda "Qurilish ishlab chiqarishini tashkil etish" (QITE) ishlab chiqiladi va unda ob'yeektni tiklash jarayonida resurslardan (shu bilan bir qatorda vaqt resurslaridan ham) foydalanish prinsiplari tavsiflanadi.

QITE tarkibiy qismlari – qurilish bosh rejasi va qurilish kalendar rejasidan iborat bo'ladi. QITEda qurilishni materiallar, konstruksiyalar, yarimfabrikatlar, detallar, buyumlar, qurilish mashinalari hamda transport vositalari bilan ta'minlash manbalariga doir savol va masalalar echiladi. Bunda butun qurilish bo'yicha qurilish ishlab chiqarishi hajmlari mavjud bo'lgan resurslar bilan solishtiriladi. Agar korxonaning ishlab chiqarish quvvatlari etarli bo'lmasa, u holda ularni oshirish bo'yicha chora – tadbirlar ishlab chiqiladi.

Qurilishni tashkil etish loyihasi ob'yeektlar qurilishi kalendar rejasi va asosiy qurilish – montaj ishlarini ishlab chiqarish metodlarini o'z ichiga oladi, pudratchi qurilish tashkilotlar tarkibi, ularni boshqarish tizimi, qurilishni amalga oshirish jarayonida ularni rivojlantirish yo'llarini aniqlab beradi.

8. "Atrof – muhitni muhofaza qilish" bo'limida ob'yeektni qurish jarayonida ham keyingi ekspluatatsiya jarayonida ham atrofdagi tabiiy muhitga ko'rastiladigan zararli ta'sirni kamaytirish va bartaraf etish bo'yicha chora – tadbirlar keltiriladi.

9. *Fuqaro mudofasi bo'yicha injener – texnik tadbirlar* aholi va hududni tabiiy ofatlardan hamda texnogen xarakterli favqulodda vaziyatlardan himoya qilish bo'yicha tadbirlarni o'z tarkibiga kiritadi.

10. "Smeta hujjatlari" bo'limi qurilish tannarxining jamlangan smeta hisoblarini, zarur bo'lgan hollarda sarf – xarajatlar jamlamasini, ob'yeekti va lokalli smeta hisoblari, alohida turdag'i sarf-xarajatlar va shu bilan birgalikda tadqiqot ishlari

hamda loyihalash ishlari bahosini ham o‘zida mujassam etadi. Smeta hujjalarda qurilishning smetaviy narxini ikkita narx bo‘yicha: bazisli va oldindan (yoki bashoratli) baholash tavsiya etiladi. Bazisli va bashoratli narxlar asosida buyurtmachilar va pudratchilar qurilish mahsulotlariga qo‘yiladigan jamlanma (shartnomali) narxlarni shakllantiradilar.

11. “*Investitsiyalar samaradorligi*” bo‘limida investitsiyalarni asoslash vaqtida o‘rnatalgan kapital mablag‘lar samaradoligini baholash aniqlanadi.

Loyiha (texnik loyiha)da, qoidaga ko‘ra, qurilishni bajarishga jalg qilish va uni amalga oshirish bo‘yicha savdolashish e’loni uchun tenderli hujjat ishlab chiqiladi.

Texnik loyiha, qoidaga ko‘ra, ekspertizadan o‘tkaziladi. Aksariyat hollarda buyurtmachi yirik va murakkab ob‘yektlarni ekspertizadan o‘tkazish uchun tender e’lon qiladi. Ekspertiza jarayonida ishlab chiqilgan loyihaning loyihalash uchun taqdim etilgan texnik topshiriqqa muvofiq kelishi tekshiriladi, ilg‘or taraqqiyot natijalaridan foydalanganlik darajasi va loyihaviy yechimlarning yangligi tahlil qilinadi, kapital mablag‘lar iqtisodiy samaradorligining to‘g‘ri baholanganligi tekshiriladi, qabul qilingan loyihaviy yechimlar mamlakatdagi va xorijdagi eng yaxshi loyihalar bilan solishtiriladi. Inshootning xavfsizligi bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar yechimlariga alohida e’tibor qaratilishi taqoza etiladi.

Ekspertiza yakunlangandan keyin ekspertiza xulosasi loyihalovchiga beriladi. Loyihachi ekspertlar tomonidan ko‘rsatilgan kamchiliklarni o‘rganib chiqqandan keyin buyurtmachi bilan birqalikda loyihani to‘ldirish va unga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Undan so‘ng loyiha tasdiqlanadi va buyurtmachi ob‘yekt qurilishi uchun tender e’lon qilish haqida qaror qabul qiladi, shu asosda pudratchi qurilish tashkiloti aniqlanadi.

Xalqaro amaliyot va amaldagi tavsiyalarga muvofiq ob‘yekt qurilishiga tegishli bo‘lgan ishchi hujjatlar buyurtmachi tomonidan ishlab chiqiladi yoki uning (buyurtmachining) qarori bilan ishchi hujjatlarning kontrakt asosida tuzilishi ixtisoslashgan loyiha – ilmiy tekshirish tashkilotlariga topshiriladi.

Ishchi chizmalarini tuzishda texnik loyihadagi texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni pasaytiradigan, ishchi – xizmatchilarning mehnat qilish sharoitlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan yechimlar yoki inshootning xavfsizlik darajasini pasaytiradigan yechimlarni qabul qilish taqiqlanadi.

Ishchi chizmalar kelishuv, ekspertiza va tasdiqlashga topshirilmaydi. Ishchi chizmalar qurilayotgan korxona bosh injeneri yoki amaldagi korxona kapital qurilishi boshqarmasining bosh injeneri imzosi bilan to‘g‘ridan – to‘g‘ri ishlarni bajarishga tadbiq etiladi.

Ishchi loyihalarni tuzish bosqichida qurilish tashkiloti odatda o‘zining xusuiy kuchlari orqali ishlarni ishlab chiqarish loyihasini (IIL) ishlab chiqadi, unda ishlarni ishlab chiqarish metodlari va ob‘yektni qurish uchun zarur bo‘lgan resurslar aniqlanadi.

Ishlarni ishlab chiqarish muddatlari moddiy-texnika resurslarining hajmi va ularning o‘z vaqtida etkazilib berilishiga bog‘liq bo‘ladi. Bu savollar ishlarni ishlab chiqarish va resurslarning ob‘yektga etkazilish grafigini tuzish vaqtida echiladi. Qurilish maydonini zarur bo‘lgan material resurslari bilan minimal ravishda

ta'minlashdan kelib chiqqan holda qurilish materiallarini ob'yektga etkazish grafigi tuziladi.

Ob'yektning bosh qurilish rejasiga ham ishlarni ishlab chiqarish va qurilayotgan ob'yektni resurslar bilan ta'minlash singari IILning muhim tarkibiy qismlaridan biri deb hisoblanadi, unda qurilayotgan bino va inshoot oldindan mavjud bo'lgan doimiy va inventar binolarning joylashish o'rni ko'rsatiladi. Qurilishning bosh rejasiga qurilish maydoni hududidan oqilona foydalanishni hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Ishlab chiqarish-maishiy xonalarining soni va ularni joylashtirish tartibi sanitariya me'yorlarini qoniqtirishi zarur va ishchilarining qurilish maydoni hududi bo'yicha ortiqcha yurishlariga yo'l qo'ymasligi lozim. Injenerlik kommunikatsiyalari trassalari va yo'llar minimal uzunlikka ega bo'lishi kerak. Qurilish mashinalarini shunday joylashtirish taqoza etiladiki (texnika xavfsizligi talablariga rioya qilgan holda), bunda ishlab chiqarishni oqilona ishlangan texnologiya bilan ta'minlash talab etiladi.

Loyihalash bir bosqichda olib borilayotganda texnik-ishchi loyiha formatida tasdiqlanadigan qism va ishchi chizmalar ajratilib ko'rsatiladi. Tasdiqlanadigan qismning kelishuvi va tasdiqdan o'tkazilish tartibi texnik loyihani kelishish hamda tasdiqlash protseduralariga o'xshash bo'ladi.

Ishchi hujjatlar lokalli smetalar, qurilish materiallariga bo'lgan ehtiyoj bayonnomalari, jihozlar spetsifikatsiyalari, ishlarni ishlab chiqarishga qo'yiladigan talablarni o'z ichiga oladi.

### **5.3. Loyerha yechimlari iqtisodiy samaradorligini baholash**

Loyihalash va injener - texnik jihatdan qurish jarayonida, tashkiliy-texnologik yoki xo'jalik ishlarini bajarishda qabul qilinadigan yechimlar ko'p variantlilik shart-sharoitlari asosida qabul qilinadi. Masalan, aynan bitta bino yoki inshootni qurishda turli konstruktiv-komponovkali yoki hajmiy - rejaviy yechimlar, boshqa-boshqa materiallar, mexanizatsiyaning har xil vositalarini qo'llash orqali turli metodlardan foydalanish mumkin. Shunga bog'liq ravishda quyidagi vazifa yuzaga chiqadi: ko'p variantlar ichidan eng maqbulini tanlash lozim bo'ladi.

Maqbul variant odatda ko'rileyotgan variantlarning texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlarini taqqoslash, yangi loyerha ko'rsatkichlarini etalon yoki qurilgan inshoot ko'rsatkilariga solishtirish yo'li orqali tanlanadi. SHunday yechim yoki variant qabul qilinadiki, bunda bir xil ishonchlilik va bir xil xavfsizlikni ta'minlaydigan variantlar ichidan ularni amalga oshirishda eng kam sarf- xarajatlar talab qiladigani tanlab olinadi.

Har xil yechimlarga ega bo'lgan variantlarni taqqoslashda iqtisodiy samaradorlik mezoni sifatida shunday ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladiki, ular bir tomonidan ekspluatatsiya va qurilish jarayonidagi ko'rsatkichlar, ikkinchi tomonidan esa - asosiy va qo'shimcha ko'rsatkichlarni hisobga oladigan tizimlarga bo'linadi.

Kapital mablag'lar hajmi (yoki solishtirma kapital mablag'lar), korxona tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxi, qurilish-montaj ishlari tannarxi (yoki mahsulot birligiga sarflanadigan xarajat) asosiy ko'rsatkichlar sifatida

ko'rib chiqiladi. Shuningdek, oxirisiga, ya'ni qurilish-montaj ishlariiga qurilish muddati ham tegishlidir.

Qo'shimcha yoki xususiy ko'rsatkichlarga quyidagilar: solishtirma mehnat sig'imi, kapital mablag'lar umumiylajmida qurilish-montaj ishlarining solishtirma salmog'i, hamjihatlanganlikni belgilovchi koeffitsient, qurilish montaj ishlarining 1 mln. so'mlik smeta mablag'iga sarflanadigan asosiy qurilish materiallari miqdori (sement, metall va h.k.); qurilish koeffitsienti; injenerlik kommunikatsiyalari va yo'llar uzunliklari, vertikal rejalash bo'yicha yer ishlari, injenerlik kommunikatsiyalarini o'rnatish va yo'l qurilishi ishlari hajmi, uchastkani o'zlashtirish (keraksiz har xil qurilishlarni bo'zish, qurib qolgan va noqulay joyalashgan daraxtlarni kesish, drenajlar kovlash va shu kabi ishlar)ga sarflanadigan xarajatlar, tiklanayotgan binoning massasi, bino maydoni va hajmidan oqilona foydalanilganlik darajasi, qurilayotgan korxonada mahsulotlar tayyorlashdagi mehnat sig'imi, zavod ichida haraktalanadigan transport vositalariga sarflanadigan xarajatlar, injenerlik kommunikatsiyalari va transport inshootlarining eksplutatsiyasi bo'yicha sarflanadigan xarajatlar, xom-ashyo, yoqilg'i va energiyalarning solishtirma sarfi, tiklanayotgan bino va inshootning xizmat qilish muddati hamda qator qurilish va ekspluatatsion ko'rsatkichlar kiradi.

Solishtirma mehnat sig'imi, ya'ni qurilish - montaj ishlarining 1 ming so'mlik smetaviy sarfi ( $k_T$ ) yoki ob'yeiktning birlik hajmiga sarflanadigan mablag' ( $K^1_T$ ).

Solishtirma mehnat sig'imi  $k_T$  va  $k^1_T$  quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi

$$K_T = \frac{T_0}{C_{cmp}}; \quad K_T^1 = \frac{T_0}{V}, \quad (5.1) \text{ va } (5.2)$$

bu yerda  $C_{cmp}$  – ob'yeektni qurishda bajariladigan qurilish – montaj ishlarining smetaviy narxi, ming so'mda;  $V$  – qurilayotgan ob'yeekt hajmi,  $m^3$ ;  $T_0$  – ob'yeektni qurishda sarflanadigan mehnat hajmi, kishi – kun.

Ishlarni bajarishdagi mehnat sig'iming solishtirma ko'rsatkichi qurilish – montaj ishlarini ishlab chiqarishda sarflanadigan mehnat hajmini o'zida aks ettiradi va qurilayotgan ob'yeekt uchun qabul qilingan konstruktiv yechimlarining texnologikligini hamda qurilish – montaj ishlarining mexanizatsiyalashganlik darajasini tavsiflaydi.

Kapital mablag'lar umumiylajmida qurilish – montaj ishlarining solishtirma salmog'i  $C_{cmp}$  quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi.

$$K_{cmp} = \frac{C_{cmp}}{K} \times 100\%. \quad (5.3)$$

Bu ko'rsatkich qurilishning industrializatsiyalashganlik darajasini tavsiflaydi.

Qurilish koeffitsienti  $K$ , qurilish yer uchastkasidan foydalanish darajasini belgilaydi:

$$K_3 = \frac{F_3}{F_0}, \quad (5.4)$$

Bu yerda  $F_3$  va  $F_0$  mos ravishda uchastkaning qurilayotgan va umumiy hududlari.

Bino maydoni ( $k_m$ ) va hajmidan ( $k_h$ ) oqilona foydalinish darajasi  $k_o$  va  $k_h$

$$K_n = \frac{F}{F_n}; \quad K_0 = \frac{V}{F'}, \quad (5.5) \text{ va } (5.6)$$

Bu yerda  $F'$  – binoning umumiy maydoni,  $m^2$ ;  $F_n$  – foydali (yashash yoki ishlab chiqarish maydoni),  $m^2$ ;  $V$  – binoning hajmi,  $m^3$ .

$k_m$  va  $k_h$  koeffitsientlar mos ravishda binoning umumiy maydoni yoki hajmining qanday qismidan bevosita mo‘jallangan vazifa uchun foydalanishni, xonalar (qavatlar) balandligi qanday darajada to‘g‘ri tanlanganligi va yordamchi – xo‘jalik xonalari to‘g‘ri loyihalanganligini ko‘rsatadi.

Ko‘rsatkichlar tizimining mavjudligi murakkab texnik va xo‘jalik yechimlarini har tomonlama yetarli darajadagi aniqlik bilan baholash imkonini beradi. Biroq shu bilan bir qatorda bu ko‘rsatkichlar ziddiyatli jihatlarga ham egadir. Agar bir variantning barcha ko‘rsatkichlari boshqa variantnikidan yaxshi bo‘lsa, u holda masala juda oddiy bo‘ladi. Lekin afsuski, amaliyotda bunday holat, ya’ni oddiylik kamdan – kam bo‘ladi. SHunday holatlar bo‘ladiki, masalan, qurilishning muddatini qisqartirishga ancha qimmat industrial konstruksiyalarni qo‘llash orqali erishiladi, ekspluatatsion sarf - xarajatlarni qisqartirishga esa ancha qimmat bo‘lgan materiallarni qo‘llash, issiqlikning izolyasiyasiga sarflanadigan mablag‘larni oshirish yo‘li bilan erishiladi, qurilishga sarflanadigan mehnat sig‘imini qisqartirish uchun esa mehnat unumдорлиги ancha yuqori bo‘lgan va ancha qimmat turadigan mexanizmlarni qo‘llashga to‘g‘ri keladi.

Bir xil bo‘lgan vaziyatlarda u yoki bu yechimlarni baholash uchun joriy xarajatlarning farqini hisobga olgan holda qo‘shimcha kapital mablag‘larning miqdorini solishtirish yoki taqqoslash etarli bo‘ladi. Masalan, variantlarning bittasi bo‘yicha kapital mablag‘larning miqdori boshqasinika nisbatan ko‘p  $K_1 > K_2$ , lekin boshqa variant bo‘yicha joriy xarajatlarning miqdori (qurilish mahsuloti tannarxi) ikkinchi variantnikiga nisbatan past:  $C_1 < C_2$ , bu esa qurilish vaqtida qilingan ortiqcha sarf-xarajatlarni bildiradi, bunday ortiqcha sarf-xarajatlar ekspluatatsiya jarayonida mahsulot tannarxini pasaytirish orqali erishiladigan iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan tartibli ravishda bartaraf etila boriladi, ya’ni muntazam ravishda kompensatsiyalanadi. Ikkinci variant: qurilish kam kapital mablag‘lar evaziga amalga oshiriladi:  $K_1 < K_2$ , lekin bunda ishlab chiqarilayotgan mahsulotning yillik tannarxi yuqori bo‘ladi:  $C_1 > C_2$ .

Eng samardor variantni aniqlashda olib boriladigan hisoblashlar quyidagi

ketma - ketlikda bajariladi: dastlab ko‘rib chiqilayotgan  $K_1$  va  $K_2$  variantlar bo‘yicha kapital mablag‘larning farqi aniqlanadi, bu farq birinchi variant ko‘rsatkichlarini ikkinchi variant ko‘rsatkichlari bilan solishtirilganda olingan birinchi variant bo‘yicha qo‘sishimcha kapital mablag‘larni bildiradi, so‘ngra mahsulot tannarxini pasaytirish miqdori yoki  $S_1$  va  $S_2$  ekspluatatsion xarajatlar aniqlanadi. *Kapital mablag‘lar o‘sishining tannarx pasayishiga ko‘rsatadigan ta’siri bu pasayishning uni yuzaga keltiruvchi kapital mablag‘larga bo‘lgan nisbati bilan aniqlanadi.* Bu nisbatni solishtirma iqtisodiy samaradorlik koeffitsienti deb atashadi ( $E$ ):

$$E = \frac{C_2 - C_1}{K_1 - K_2}. \quad (5.7)$$

Bu koeffitsient qo‘sishimcha kapital mablag‘lar har bir so‘miga to‘g‘ri keladigan mahsulot tannarxini pasaytirish evaziga erishiladigan iqtisodiy samaradorlikni anglatadi. Samaradorlik koeffitsienti qiymatining yo‘l qo‘yiladigan minimal chegaraviy oralig‘i sifatida qabul qilinadigan qiymatidan past bo‘lagn yechim samarasiz deb baholanadi,  $E_m = 0,12$  qiymat samaradorlik koeffitsientining minimal chegaraviy oraliq qiymati sifatida qabul qilinadi, CHetki SHimol rayonlari yoki ularga tenglashtirilgan rayonlarda loyihanayotgan yoki qurilayotgan ob’yektlar uchun  $E_m^{sh} = 0,08$ . Bunday shart – sharoitlarda (6,7) formula quyidagi ko‘rinishni oladi.

$$\frac{C_2 - C_1}{K_1 - K_2} > E_m. \quad (5.8)$$

#### 5.4. Loyiha yechimlari iqtisodiy samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari

Loyihalanayotgan ob’yektning iqtisodiy samaradorligi ko‘p jihatdan ekspluatatsiya shart-sharoiti, chiqarilayotgan mahsulot tannarxi hamda loyiha yechimlari qanchalik to‘g‘ri qabul qilinganligiga bog‘liq bo‘ladi. Loyiha yechimlari iqtisodiy samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘ladi: hajmiy - rejaviy yechimlar, konstruktiv yechimlarni takomillashtirish, ilg‘or texnologiya asosida olingan materiallar va konstruksiyalarni qo‘llash va boshqalar.

*Hajmiy - rejaviy yechimlarni takomillashtirish. Hududda qurilish ob’yektlari zinchligi (tig‘isligi)ning oshishi loyihaviy yechim iqtisodiy samaradorligiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Qurilishning past koeffitsientida injenerlik kommunikatsiyalarni tortib kelish masofasi, yo‘llarning uzunligi o‘sib boradi, ko‘kalamzorlashtirishga, zxavod ichidagi transport va injenerlik kommunikatsiyalari tarmoqlarini ekspluatatsiya qilishga sarflanadigan mablag‘lar oshadi.*

Ob’yektlarni hudud bo‘yicha kompaktli joylashtirishga binolar orasidagi masofalarni qisqartish orqali erishiladi. Sanoat korxonalari binolarining hududga o‘zaro birgalikda joylashtirilishi zavod ichida qo‘llanadigan transport turiga bog‘liq bo‘ladi, ayniqsa temir yo‘l transportidan foydalanilganda binolar orasidagi masofa katta bo‘ladi. Bundan temir yo‘l transportidan faqat yoqilg‘i, xom – ashyo, qurilish materiallarini tashish (kiritish) va tayyor mahsulotni olib ketish uchun foydalanish zaruriyati kelib chiqadi.

*Binolarni yiriklashtirish va blokklashtirish* solishtirma kapital mablag‘larni keskin (sezilarli darajada) qisqartirish va hududda qurilish ob’yektlari zichligini (tig‘is joylashuvini) oshirish imkonini beradi. Binolarni yiriklashtirish jarayoni qurilishning hamma turlari uchun xarakterlidir. Yirik shaharlarda quriladigan turar – joy binolari ko‘p qavatli bo‘lib, katta uzunlikka (200 – 500 kvartiraga) ega bo‘ladi. Qishloq xo‘jaligida 100-180 ming chorva mollariga mo‘ljallangan majmualar, yirik parrandachilik fabrikalari va sut beruvchi qoramol fermalari quriladi.

Sanoatda binolarni sexlar va yordamchi – xo‘jalik xizmat bloklariga blokklashtirish olib boriladi. Alovida sexlar o‘nlab hektar maydonni egallashi mumkin.

Yiriklashtirish jarayonini mikrorayonlar va qishloq aholi punktlari uchun ham qo‘llash tavsiya etiladi.

*Yarim o‘tuvchan va o‘tuvchan kanallar* ichiga kommunikatsiyalarni birgalikda (qo‘shma tarzda) yotqizish orqali injenerlik kommunikatsiyalari tarmoqlari uzunligini qisqartirishga hamda ekspluatatsiya jarayonida sarflanadigan mablag‘larni kamaytirishga erishish mumkin.

*Loyihalashtirishning ilg‘or yo‘nalishi* – bu texnologik jarayon nuqtai-nazaridan o‘zaro bog‘langan (hamda bog‘lanmagan) bir nechta korxonalarini bir guruhga birlashtirishdir. Bunda *sanoat tuguni* haqida so‘z yuritilyapti. Sanoat tuguniga tegishli bo‘lgan korxona turli vazirliklarga bo‘ysunishi mumkin. Korxonalarini ta’mirlash, asbob – uskuna va quyish sexlari, suv – kanalizatsiya, transport va energetika xo‘jaliklari, tibbiy va bolalar maussasalari hamda bashqalarni o‘z ichiga olgan yagona xizmat ko‘rsatish bazasida binolar bevosita bir – biriga yaqin joylashtiriladi. Sanoat tugunlarini qurish alovida korxonalarini qurishga qaraganda qurilish maydonini ancha qisqartirish imkonini beradi va ekspluatatsiya xarajatlarini 20 foizga kamaytiradi.

Bunday sanoat tuguniga neftkimyo va mashinasozlik korxonalaridan tashkil topgan Saratov sanoat tugunini misol tariqasida keltirish mumkin. Bu sanoat tuguni tarkibiga “Nitron” birlashmasi, rezina texnika buyumlari zavodi, sanitar – texnik jihozlar ishlab chiqaruvchi zavod, dizel zavodi, qator kengaytirilayotgan va mavjud bo‘lgan zavodlar bilan bir birgalikda Issiqlik elektr stansiyasi ham kiradi. Qabul qilingan yechimlar sanoat tuguni hududini 14 hektarga qisqartirish, injenerlik kommunikatsiyalari uzunligini 93 km ga kamaytirish, bino va inshootlar sonini 16 taga, xodimlar sonini esa 344 taga qisqartirish imkonini berdi.

Kapital mablag‘larni iqtisod qilish 5 mln. so‘mni tashkil etdi, yillik ekspluatatsion xarajatlar 3 mln. so‘mga qisqardi.

Sanoat tugunlari bosh rejasi tipli sxemasidan foydalanish orqali yanada kattaroq iqtisodiy samaraga erishish mumkin.

Sanoat qurilishida binolar hajmini qisqartirish maqsadida ko‘prikli kranlar o‘rniga yer usti transporti qo‘llaniladi, texnologik jihozlar ochiq holatda joylashtiriladi, madaniy - maishiy xizmat ko‘rsatish joylarining antresollar va fermalar (qurilish konstruksiyasi) orasidagi fazoviy kengliklarga joylashtirilishi loyihalash jarayonida ko‘zda tutilishi taqoza etiladi.

Sex ichidagi transport sifatida ko‘prikli kranlarning sex ichiga joylashtirilishi yuk ko‘taruvchi konstruksiyalarni og‘irlashtiradi, bino balandligi va hajmini asossiz

ravishda oshiradi.

Massasi 5 tonnadan oshmaydigan yuklar bilan ishlaydigan ishlab chiqarishda (sexlarda) polda yuradigan va osma transport (elektrokaralar, avtoyuklagichlar, konveyerlar, kran - balkalar) dan foydalanish ancha maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda ko‘plab ishlab chiqarish korxonalari ishlab chiqarish sexlarida *texnologik jihozlarni binolar tashqarisiga emas, balki ichkariga ochiq holatda joylashtirish* uchun imkoniyatlar mavjud bo‘ladi yoki ularni joydagi usti yopiq joylarga joylashtirish talab etiladi.

Texnologik o‘rnatmalarini kimyo va metallargiya, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati hamda shu kabilarda yopiq va yarim yopiq holatda joylashtirish mumkin. Hozirgi vaqtida tashqarida joylashgan maydonlarga joylashtirish uchun zarur bo‘lgan issiqlik izolyasiyasiga ega bo‘lgan yangi germetik jihozlarning namunalari ishlab chiqarilmoqda. Texnologik jihozlarni ochiq maydonlarga joylashtirishda qurilishga sarflanadigan mablag‘lar 4 – 6% ga qisqaradi.

Maishiy xizmat ko‘rsatish xonalarini antresollarga, fermalar orasidagi va sexlardadgi bo‘sh joylarga joylashtirish orqali kattaroq miqdordagi mablag‘larni iqtisod qilishga erishish mumkin. Ayniqsa ko‘prikli kranlarga ega bo‘lmagan sexlar uchun bunday yechimni qabul qilish ancha maqsadga muvofiq bo‘ladi (qurilish sarfi qisqaradi, ishchilarga xizmat ko‘rsatish yaxshilanadi, chunki dam olish joylari hamda oshxona ish joylariga yaqin joylashadi). Madaniy – maishiy va ma’muriy xonalarni fermalar orasidagi bo‘sh joylarga (ochiq fazoviy kenlikka) joylashtirish tepe qismida fonari bo‘lmagan ko‘p oraliqli sanoat binolarini qurishda ancha engil echiladi. Binoning tepe qismiga fonarlar qurish qurilish umumiy tannarxining 7% ini tashkil etadi. Fonarlar har doim ham aeratsiya va tabiiy yorug‘likni ta’minlayvermaydi. Tomi yassi bo‘lgan va devorlarida yorug‘lik o‘tkazuvchi oraliqlar (derazalar)ga ega bo‘lmagan fonarsiz ko‘p oraliqli binolar keng tarqalmoqda. Ularda havo almashinuvi sun’iy ventilyasiya, yoritish esa kunduzi yoritadigan chiroqlar yordamida ta’minlanadi. Bunday binolar nisbatan ancha past tannarxga ega bo‘ladi, ularni qurish uchun esa ancha kam tipli va markali konstruksiyalar talab qilinadi. Qurilish ishlari va binoni ekspluatatsiya qilish sezilarli ravishda soddalashadi. Mehnat unumdarligi oshadi, chunki bunday vaziyatda ish joylari sutka davomida har doim bir maromda yoritilib turiladi, havoning muntazam ravishda almashinib turishi mehnat sharoitini yaxshilaydi.

Kolonnalar *yirik gabaritli to‘rlarining* qo‘llanilishi texnologik jihozlarni ratsional joylashtirish va ishlab chiqarish maydonini 10% ga iqtisod qilish imkonini beradi. Bunday binolarni qurish mayda to‘rli binolarni qurishga qaraganda 3-4% ga qimmat bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda ularni qurishga sarflanadigan solishtirma sarf-xarajatlar 6-7% kam bo‘ladi. Bunday binolarda texnologik jarayonlarni qayta tashkil etish ancha engil amalga oshiriladi, chunki jihozlarni qayta o‘rnatish va transport oqimini o‘zgartirish uchun katta imkoniyat (keng maydon) mavjud bo‘ladi.

*Konstruksiyalarni yiriklashtirish va fazoviy konstruksiyalarga o‘tish orqali* konstruktiv yechimlarni takomillashtirishga erishish mumkin. Temirbeton zavodlarida qoliplash metodini qo‘llash orqali maqbul hajmdagi konstruksiyalar tayyorlanadi. Zavodda tayyorlangan yassi elementlardan yig‘ma-quyma

konstruksiyalar yaratiladi. Bunday konstruksiyalarga hajmli sanitar – texnik kabinalar, lift shaxtalari, tonnellarning shaxtalari, kvartira bloklari, sanoat binolari yopilmasi metall bloklarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Qurilishda katta o'lchamli oraliq va tom yopish plitalari hamda devor panellarini qo'llash keng tarqalmoqda.

Loyihachilar bir nechta operatsiyalarni avtomatlashtirish bilan mexanizatsiyalashgan usulda yangi konstruksiyalarni tayyorlash ustida ish olib borishmoqda. Temirbeton konstruksiyalarda montaj uchun mo'ljallangan ilgaklarni boshqa moslamalar bilan almashtirish oldinga maqsad qilib qo'yilgan. Bu esa yiliga 0,3 mln. tonna po'latni iqtisod qilish imkonini beradi.

Loyiha yechimlari samaradorligini oshirish yo'nalishlaridan biri bu *to'liq yig'ish asosida qurilishni* rivojlantirishdan iboratdir.

Loyihalarning iqtisodiy jihatdan samara keltirishini va sifatini yaxshilashga tipli loyihalarni keng qo'llash, unifikatsiyalangan konstruksiyalar va gabaritli sxemalardan foydalanish evaziga erishish mumkin. Qurilish – montaj ishlarining 80 % dan ortiqrog'i ob'yektlarda tipli proektlar bo'yicha bajariladi. Ayniqsa tipli loyihalar turar – joy binolarini tiklashda va qishloq qurilishida keng qo'llaniladi (95% ortiqrog'i). Tipli loyihalar qo'llanishi loyihada ko'rsatilgan materiallar hajmini kamaytiradi, bu esa o'z navbatida loyihalarni ishlab chiqish muddatini qisqartirish uchun shart – sharoit yaratadi, loyihalash va ilmiy – tadqiqot ishlariga sarflanadigan mablag'larni 30–40% pasaytiradi.

Axamiyatli tarzdagi iqtisodiy samaraga qurilish jarayonida erishiladi. Tipli loyihalar bo'yicha quriladigan ob'yektlarning smeta narxi individual loyihalar bo'yicha quriladigan ob'yektlarnikiga nisbatan 10-15%ga arzon bo'ladi. Bu shu bilan tushuntiriladi, tipli loyihalar ularni loyihalash institutlarida ishlab chiqish jarayonida quruvchilar va loyiholovchilar tomonidan keng muhokama qilinadi, ularda qurilish ishlab chiqarishida ratsional texnologiyani ta'minlaydigan tipli va standart detallar hamda konstruksiyalar qo'llaniladi. Ko'plab tipli loyihalar tanlovlар orqali qabul qilinadi. Turar-joy ob'yektlarini tipli loyihalashtirish o'lchamlari bo'yicha har xil bo'lgan kvartiralarni yaratish, ularni rejalashtirishni yaxshilash, umumiy foydalanish maydonlari (dahliz, oshxona va sanitar tugunlarning maydonlari)ni oshirish, sanitar-texnik va oshxona jihozlarini takomillashtirish, kvartiralar, binoning kirish joylari zinapoya kletkalari va liftlarni yaxshi pardozlashga yo'naltirilgan.

*Ilg'or texnologiya asosida ishlab chiqarilayotgan materiallar va konstruksiyalar.* Agar qurilish maydoniga korxonalar (zavodlar)da masimal darajada puxtalik bilan tayyorlanib keltirilgan yig'ma konstruksiyalar va detallardan ob'yektlar tiklansa iqtisodiy samaradorlik ahamiyatli tarzda oshadi. Detallarning qoniqarsiz sifatda tayyorlanishi esa qurilish-montaj ishlarini bajarishda qo'shimcha mehnat sarfini yuzaga keltiradi va bu esa ishlarning tannarxini oshirishga olib keladi.

Pol va tom bo'yicha ishlar bajarish jarayonida mehnat sig'imini qisqartirish va ularning sifatini oshirish uchun keyingi yillarda tom va oraliq tom yopmalarining kompleksli plitalari ishlab chiqarilmoqda.

Konstruksiya va detallarning zavodda tayyorlanish darajasini oshirish qurilishda amalga oshiriladigan qurilish-montaj ishlarini 4-6%ga qisqartirish

imkonini beradi.

Yig‘ma beton va temirbeton konstruksiyalarni qo‘llash bilan ishlab chiqarish va metall hamda yog‘ochdan tayyorlangan konstruksiyalar hajmi ortadi.

Metall konstruksiyalar qo‘llanilishi sanoatning shunday tarmoqlarida keng tarqalganki, bu tarmoqlarda texnologik jarayonning o‘ziga xos jihatlariga bog‘liq ravishda temirbeton konstruksiyalarni qullashga yo‘l quyilmaslik talab etiladi, bunday tarmoqlarga katta dinamik yuklanganlikka ega bo‘lgan metallurgiya korxonalarini misol tariqasida keltirish mumkin. SHuningdek, metall konstruksiyalardan katta oraliqli binolarni qurishda ham keng ko‘lamda foydalaniladi, bunday binolarda temirbeton konstruksiyalarni qo‘llash iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas (aviatsiya sanoatidagi yig‘ish sexlari, oraliqli ko‘priklarni qurishda va h.k.). Metall konstruksiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirishga ularni ishlab chiqarish jarayonida yuqori mustahkamlikka ega bo‘lgan po‘latlardan, egilgan profillardan, keng taxtali prokatdan, elektrpayvandlanadigan quvurlardan foydalanish bilan erishiladi.

Samarador *engil metall konstruksiyalarni* keng tadbiq etish qurilish ob‘yektlarini qurish uchun moddiy ta’minot tuzilmasini takomillashtirishga katta ta’sir ko‘rsatdi. Ishlab chiqarilgan konstruksiyalarning tadbiq etilishi qurilishda bino va inshootlarni to‘liq zavodda tayyorlangan elementlardan kompleks - mexanizatsiyalashgan holda yig‘ish jarayonini tashkil etish imkonini berdi.

Bunday konstruksiyalardan qurilgan binolarda montaj qilish ishlarining mehnat sig‘imi 20-25%ga qisqaradi, devorlar va tom yopmalari massasi esa 5-7 marta kamayadi.

Bino massasining kamayishiga asosan temirbeton plitalar o‘rniga antikorroziya qoplamasiga ega bo‘lgan po‘latdan tayyorlangan profilli yopilmalarni qo‘llash orqali erishiladi. Alyuminli qotishmalardan tayyorlangan konstruksiyalarni derazalar tabaqalari, vitrajlar, devorbop osma panellar, agressiv muhitli binolarning yuk ko‘taruvchi konstruksiyalari, qurilish uchun suyuqliklarni saqlashga mo‘ljallangan sig‘imli idishlar yasash va shu kabilar uchun qo‘llash ancha maqsadga muvofikdir. Transport magistrallaridan olisda joylashgan qurilish ob‘yektlarini tiklashda ularning qo‘llanilishi ayniqsa katta samara beradi.

Qurilishda alyuminli qotishmalardan tayyorlangan konstruksiyalar qo‘llanishi fuqaro va sanoat qurilishi ob‘yektlari sifatini yaxshilashda keng istiqbolga egadir va fasadlar umrboqiyligi hamda ularning estetik sifatini oshirishga xizmat qiladi.

*Asbotsement buyumlar* ikkinchi jahon urushidan oldingi besh yillikdan buyon qo‘llanilib kelinmoqda. Asbotsement detallar engil, suv o‘tkazmaydigan, olovbardosh va uzoq muddatga jidaydigan bo‘lib, ulardan buyumlar tayyorlash uchun katta mehnat sarfi va ko‘p mablag‘ talab qilinmaydi. Asbotsementdan tayyorlangan tashqi devor panellari temirbetondan tayyorlangan xuddi shunday konstruksiyalardan 5 marta engildir.

Asbotsement sanoatining asosiy vazifasi – yirik o‘lchamli (uzunligi 3 metr va undan yuqori bo‘lgan) zichlangan yassi va to‘lqinsimon tom yopmalari (shifer) ishlab chiqarish hajmini ancha oshirish, asbotsement panellar va plitalar hamda rangli asbotsement tom yopmalari ishlab chiqarishni tashkil etishdan iboratdir.

Asbotsement konstruksiyalar qishloq qurilishida ham keng qo'llanilmoqda.

*Yog'och konstruksiyalar* mamlakatning o'rmonli hududlarida, yuklarni tashishda uzoq qishloqlarda qurilish ob'yektlarini tiklashda, kimyoviy agressiv muhitga ega bo'lган sanoat binolarini barpo etishda, ko'priklı o'tish joylar, tomosha va ko'rgazma zallar, sport inshootlari, yopiq bozorlar va pavilonlarni qurishda keng ko'lamda qo'llanadi.

Fan va texnologiya taraqqiyoti zamonaviy darajasi yog'och konstruksiyalarning yuqori konstruktiv sifati, ularning massasini kamaytirish, kimyoviy bardoshligini oshirish, umrboqiyiliqi (uzoq muddutga chidamliligi) va olov bardoshligini ta'minlash imkonini beradi.

Elimlab tayyorlanadigan yog'och konstruksiyalardan foydalanish yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Qishloq ishlab chiqarish qurilishida bu konstruksiyalar arkali, balkali va ramali konstruksiyalar, to'suvchi konstruksiyalarni o'rnatish uchun foydalaniladigan yig'ma panellar sifatida qo'llaniladi. Sanoat qurilishida oralig'i 12 – 18 metr bo'lган elimlab tayyorlanadigan va faneralarni elimlash orqali yasaladigan to'sinlar, 25 – 30 metr oraliqlik arkalar va faneralarni elimlash orqali tayyorlanadigan panellar binolarning to'suvchi konstruksiyalari uchun samarali qo'llaniladi. Jamoat binolari va sport – tomosha inshootlarini yopishda katta oraliqlik arkali konstruksiyalardan foydalanish yuqori samarador va keng istiqbolga egadir. YOg'ochdan ishlanadigan tom yopmalar temirbeton tom yopmalaridan 5 marta engildir. YOg'och tom yopmalari narxi temirbeton tom yopmalari narxidan 30-40%ga arzon bo'ladi.

*Pardozlash materiallari.* Keyingi yillarda pardozlash ishlari industdirlash sohasida shaxdam qadamlar qo'yildi – sintetik materiallar asosidagi o'ramli va plitka materiallar keng qo'llanilmoqda, yog'och qipiqlaridan tayyorlangan va yog'och tolali plitalar ham keng tadbiq qilina boshlandi.

Plitalar va o'ramli materiallarning qurilishga tadbiq etilishi pardozlash ishlari sifatini yaxshiladi va pardozlash ishlari xarakterini tubdan o'zgartirdi. Pollarni qoplash, devorlarni pardozlash, pardevorlar uchun bu materiallardan foydalanish binolarni montaj qilish metodlari va montajdan keyingi hamda pardozlash ishlari oarasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etdi.

O'sib borayotgan hajmga ega bo'lган yig'ma konstruksiyalarni chiqarish ko'plab qurilayotgan ob'yektlarda yig'ma qurilishga o'tish, mashinalar yordamida bino va inshootlarni tayyor konstruksiyalardan tiklash imkonini berdi. Qurilish maydonlari asta-sekinlik bilan konveyerli qurilish maydoniga aylanmoqda, ularda zavodlarda yuqori darajada tayyorlangan yirik o'lchamli tugunlar va detallarning montaj qilinishi orqali binolar va inshootlar tiklanadi. Texnologikligi bo'yicha qurilish yanada katta mavqeda yirik sanoat korxonalari bilan uzviy bog'lanishga ega bo'lmoqda.

**Tayanch iboralar:** Loyiha. Tannarx. Smeta. Muammoli izlanishlar. Biznes-reja. texnik-iqtisodiy asos. Loyihalash topshirig'i. Injenerlik qidiruv ishlari. texnik loyiha. ishchi chizma. texnik-ishchi loyiha.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Qurilishda loyihalashtirish maqsadi va vazifalari nimalardan iborat.
2. Loyihalash bosqichlari va loyihalashtirish hujjatlarini mazmunini tushuntirib bering.
3. Loyiha yechimlari iqtisodiy samaradorligini baholash uslublarini ayting.
4. Loyiha yechimlari iqtisodiy samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat.

## **6-MAVZU: INVESTITSION-QURILISH FAOLIYATINING DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLINISHI**

---

### **Reja:**

- 6.1. Boshqaruv ob’yekti zaruriyat va maqsadga yo‘naltirilgan jarayon sifatida.
- 6.2. Qurilishda boshqarish maqsadi, vazifalari va xususiyatlari.
- 6.3. Qurilishni boshqarish zamona viy tizimi va organlari.
- 6.4. Pudrat tashkilotlari va firmalari - qurilishni boshqarishdagi asosiy bo‘g‘inlar.

### **6.1. Boshqaruv ob’yekti zaruriyat va maqsadga yo‘naltirilgan jarayon sifatida**

Jamiyat paydo bo‘lgandan buyon va sivilizatsilashgan darajaga o‘tgandan beri iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot tizimiga, shu jumladan materiallarni va boshqa buyumlarni ishlab chiqarish va qayta ishlashga tayangan holda rivojlangan. Odamlar jamoasidan farqli o‘laroq tabiat ham, texnika ham, ongli jarayonni boshqarish bo‘yicha hech qanday ish olib borolmaydi.

**Demak boshqaruv** – bu chuqur tahlilni, ishlanmalarni va ma’lum maqsadlarni to‘g‘ri qo‘yishga qaratilgan, makon va zamonda to‘xtovsiz amalga oshiriladigan maqsadga yo‘naltirilgan jarayondir. Lekin boshqaruv biror narsa yoki birov tomonidan boshqarilsagina vujudga keladi. Bu asnoda boshqarish haqidagi fan, boshqaruv sub’ekti va ob’yekti tushunchasini kiritadi.

**Boshqaruv sub’ekti** - bu jismoniy yoki yuridik shaxs bo‘lib, hukumat organlari tomonidan va amaldagi qonunchilik bo‘yicha berilgan vakolatlar bo‘yicha ta’sir o‘tkazish imkonitiga ega bo‘ladi.

**Boshqaruv ob’yekti** – bu boshqaruv sub’ektining ta’sir o‘tkazish (boshqaruv ta’siri) ob’yekti bo‘lib, huquqiy va jismoniy shaxslar, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, ishlab chiqarish va xo‘jalik tizimlari boshqaruv ob’yekti bo‘la oladi.

Menejment, boshqaruv sub’ekti va ob’yektsiz, ham fan sifatida, ham xo‘jalik amaliyotida o‘zining mazmuni va mohiyatini yo‘qotadi. Boshqarish jarayoni, qaysi darajada bo‘lmasin davriy va bir vaqtning o‘zida uzluksiz hisoblanadi. Uzluksizlik bir

vaqtning o‘zida va ketma-ket amalga oshiriladigan ko‘plab sikllarni bajarishda vujudga keladi. Boshqarish sikli maqsadlarni ishlab chiqishdan boshlanadi va ularga erishish bilan yakunlanadi. Bunday siklning asosiy bosqichlari quyidagilar hisoblanadi:

- maqsadlarni rejalashtirish;
- qabul qilingan qarorlarni yoki maqsadli funksiyalarni tartibga solish;
- erishilgan natijalarni tahlil qilish va baholash;
- yangi boshqaruv qarorlarini tanlab olish va belgilab olish.

Bu hamma sikllar uchun asosiy bo‘lib boshqarish ta’siri hisoblanadi. Aynan ta’sir qilish - boshqaruvning asosidir. Ta’sir qilish, ya’ni boshqaruv ta’sirini o‘tkazish samarali bo‘lishi uchun quyidagi asosiy shartlarga rioya qilish lozim:

1. Boshqaruvchi yoki boshqariluvchi tizimlar singari boshqaruv ob’yekti va sub’ekti o‘zaro bir-biriga sabab-oqibat munosabatlari orqali bog‘liq bo‘lishi kerak.
2. Boshqarayotgan tizimda boshqarish maqsadi aniq bo‘lish kerak. Boshqarayotgan tizim boshqarish ob’yektining holati haqidagi axborotlarni - faoliyat natijalari, muhitning o‘zgarishi kabilarni o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.
3. Boshqarish ob’yekti boshqarish ta’sirlarni qabul qila olish, o‘zlashtirish va qo‘yilgan vazifani mazmuniga mos ravishda bajara olish qobiliyatiga ega bo‘lish kerak.

Boshqarish normasida, odatda, boshqarish samaradorligini ta’minalash sharti bilan bitta rahbar yoki boshqaruv organiga bo‘ysunadigan ishlovchilar yoki bo‘linmalar soni belgilanadi.

Bu qonuniylardan bir qator oqibatlar kelib chiqadi.

1. Oddiy boshqaruv organlari yordamida murakkab ob’yektlarni boshqarish mumkin emas.
2. Boshqaruv samaradorligi boshqarish apparati xodimlari miqdoriga bog‘liq bo‘lar ekan, boshqaruv xizmatining optimal miqdoriga erinish lozim.
3. Ishlab chiqarishni boshqarishning tashkiliy tuzilmasida boshqaruv darajalarining ratsional tabaqalashuviga erishishi kerak.

Ohirgisi quyidagi sxema tarzida ko‘rish mumkin. Qurilish boshqa moddiy ishlab chiqarish sohalar kabi dinamik (o‘zgaruvchan) va ochiq tizim bo‘lib, tashqi muhit bilan, ya’ni har xil sohadagi korxonalar va tashkilotlar bilan yakuniy qurilish tovarlari yaratilishida to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita aloqaga kirishuvchi tizimdir. Bu esa o‘z navbatida bir qator qonuniylarga rioya etishni talab qiladi.

Bular qatoriga qo‘yidagilarni kirlitsa bo‘ladi:

- a) boshqaruvning ob’yektivligi ya’ni boshqaruv ta’siri insonlarning irodasi va tafakkuridan qat’iy nazar namoyon bo‘ladi.
- b) boshqaruvning zaruriyligi – sabab-oqibat munosabatlarining vujudga kelishi. Bunda bir hodisaning o‘zgarishi boshqa bir hodisaning o‘zgarishini kelirib chiqarishi mumkin yoki keltirib chiqaradi.
- v) Boshqarish jarayonida boshqarish ta’sirining vazifasi.
- g) Boshqarish qonuni, tabiat, jamiyat va ong rivojlanish qonuni bilan mosligi.

Boshqarishning ob'yektiv zarurligi mavqe teoriyasi kabi va xo'jalik amaliyotida ham albatta belgilangan qonuniyatlarini, shartlarni, sub'ekt bilan oyu'ekt boshqarishning o'zaro nisbatlari ramkalar bilan chegaralab qo'yish mumkin emas.

Boshqarish fan kabi ko'p aspektlarni o'z ichiga oladi:

- Tashkilot boshqarmasi va ish boshqarmasi.
- Texnologiya boshqarmasi ya'ni informatsion ta'minlash boshqarmasi va qarorlarning qabulqilinishi.
- Kadrlar boshqarmasi metodlari va boshqarish usuli.
- Ishlab chiqarilayotgan tovar sifatining boshqarmasi.
- Loyiha tizim boshqarmasi va h.k.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, bu jihatlar har bir soha bo'yicha o'zgarishga uchrashi yoki yechim usullariga ega bo'lishi mumkin. Va bu tomonidan qurilishni boshqarish undagi boshqarish maqsad funksiyalari umumjamiyat ishlab chiqarishini boshqarishdagilari bilan bir xil bo'lsada, boshqa sohalardan o'zining ixtisoslashishi va birinchi navbatda ishlab chiqarishni tashkillashtirish va ishlab chiqariladigan mahsulot xususiyatlaridan kelib chiqib sezilarli darajada farq qiladi.

## **6.2. Qurilishda boshqarish maqsadi, vazifalari va xususiyatlari**

Oldin aytib o'tishgandek, qurilish – bu dinamik sistema. Bu sistemaning faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi ham ichki imkoniyatlar va resurslarga, ham tashqi muhitga bog'liq. Amaliyotda tashqi muhit va avvalambor qurilish tashkilotlarining buyurtmasilar mablag'lariga bog'liqligi tizim sifatida boshqarish samaradorligiga jiddiy ta'sir qiladi. Bu esa o'z navbatida, ko'pincha qurilishdagi boshqarish maqsad funksiyalariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi v ko'p hollarda boshqarishning oldindan berilgan parametrlariga ma'lum o'zgarishlar kiritishni talab qiladi. Lekin bu bilan maqsad funksiyalari o'zgarmaydi. Tabiiyki, maqsad va vazifalarsiz boshqarish bo'lmaydi. Boshqarish, doim fan xususiyatlariga ega bo'ladi.

Bundan kelib chiqib, boshqarish maqsadi deganda, nafaqat qurilish balki, bugun jamoat amaliyotida, erishilishi zarur bo'lgan qandaydir ideal, oldindan berilgan natijani tushunish kerak. Qurilishda – bu ob'yektni ekspluatatsiyaga berish, uni buyurtmachi (investor)ga topshirish va ko'zlangan foydani olish. Bu maqsad esa biz hohlaganimizdek oson, tez va muammolarsiz ham bo'lmaydi. Qurilishda boshqarish ko'p maqsadli xususiyatga ega bo'ladi.

Har bir maqsadga ma'lum talablar qo'yiladi, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Maqsadning ilmiy va amaliy asoslanganligi;
- Maqsadning aniqlanganligi, ifodalanganligi va yo'naltirilganligi;
- Amalga oshirish imkoniyatlari va sharoitlarini hisobga olinishi, ya'ni qo'yilgan maqsad amalga oshiriligi darajasi.

Amaliyotda qo'yilgan maqsad uni bajarish usullari sifatida namoyon bo'ladigan masalalar bilan aniqlashtiriladi. SHuning uchun boshqaru yechimlarini aniqlashda maqsad va masalalar yonma-yon keladi, bir birini to'ldiradi. O'z

mohiyatiga ko‘ra esa masala (masalalar) – bu echilishi kerak bo‘lgan masalalar, shuningdek bu yechim uchun zarur bo‘lgan sharoitlar to‘plamidir.

Qurilishda boshqarishning asosiy masalalari quyidagilar:

- Ilmiy-texnik progressni tezlashtirish va ishlab chiqarishga mahalliy va xorijiy qurilish amaliyotining zamonaviy yutuqlarini tadbiq qilish;
- Mashina texnikasi va zamonaviy texnologiyalarni kkeng qo‘llash va shu asosda qurilishda qo‘l mehnati hissasini qisqartirish;
- qurilayotgan binolar industrial darajasini oshirish, ular sifatini oshirish va qurilish muddatlarini qisqartirish;
- resurslar tejamkorligini ta’minlash va har qanday yo‘qotish va noishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish;
- kapital qurilishning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilash.

Boshqarish maqsad va masalalardan uning vazifalarini farqlash kerak. Boshqarish vazifalari boshqarish mexnizmining taqsimlanishi jarayonidagi boshqarish faoliyati turlaridan iboratdir. Boshqacha qilib aytganda, boshqarish, tizim sifatida, faqat boshqarish vazifalari bajarilgan holdagina muvaffaqiyatli amal qiladi.

Ilmiy tasniflashga muvofiq qurilishdagi boshqarish vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Rejalashtirish q qurilish ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadi va masalalari tizimini aniqlab olish;
2. Prognozlashtirish - qurilish amal faoliyati va rivojlanishning ehtimoliy maqsadlarini aniqlash;
3. Tartiblash - qurilish sanoati korxonalari va tashkilotlari faoliyatidagi chetlanishlarni yo‘qotish jarayoni;
4. Tashkillashtirish – boshqaruvchi va boshqariluvchi tizim elementlarini asoslash va tanlab olish, shuningdek ular orasida mutanosiblikni o‘rnatish;
5. Nazorat – faoliyatning joriy ko‘rsatkichlari va o‘rganilgan masala va dasturlarning mos kelish darajasini aniqlash;
6. Hisob va tahlil – ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va qayta ishlash, shuningdek, xulosalar chiqarish va ishlab chiqarish tizimi faoliyatini baholash.
7. Ijobiy yutuqlarni qo‘llab-quvvatlash.

Yuqorida umumiylardan tashqari qurilishda ishlab chiqarish sikllari, qurilish jarayonlari, yo‘nalganligi – faoliyat ko‘rsatish va perspektiv rivojlanishga qaratilgan, aloqalar – ichki va tashqi va boshqa qurilishni boshqarishning maxsus funksiyalari umumiylarini to‘ldiradi va rivojlantiradi.

### **6.3. Qurilishni boshqarish zamonaviy tizimi va organlari**

Tizim – bu bir butunlikni tashkil qiladiki o‘zaro bog‘liq bo‘lgan elementlarning tartiblangan kompleksidir. Bunda tizim uning elementlarida bo‘lmagan xususiyatlarga ega bo‘ladi. Ma’lumki, qurilish bu tarkibida doimiy o‘zgarishlar va bir kanatdan boshqasiga o‘tishlar bo‘lib turadigan dinamik ishlab chiqarish tizimidir. Qurilishning dasturiy masalalarini echish bilan bog‘liqlikda boruvchi bu

o‘zgarishlarni hisobga olish va ularga to‘g‘ri munosabat bildirish o‘zida boshqarish jarayonining tashkiliy mazmunini ifodalaydi.

Boshqa tarmoqlarda bo‘lganidek qurilishda ham boshqarish tizimi ishlab chiqarishning normal borishi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan barcha vazifalarni to‘lig‘icha amalga oshirgan holdagina tizim bo‘la oladi. Buning uchun u yoki bu vazifalarni bajarish yuklatiladigan bo‘limlar va ma’sul shaxslarga ma’lum vakolat va ma’sulyatlar berilishi kerak. Ba’zi bir vazifalarni uno‘tish yoki to‘liq amalga oshirmslik va, ayniqsa, ma’suliyatsizlik boshqarishning tizim sifatida samaradorligining tushishiga olib keladi. Tizim boshqarish ob’yektiga samarali ta’sir ko‘rsata olishi uchun etarli boshqarish imkoniyatlariga ega bo‘lishi kerak. SHu bilan birga sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarga o‘z vaqtida munosabat ko‘rsatishni ta’minlovchi boshqaruv tizimi moslashuvchanligini ta’minalash zarur.

Boshqarish tizimi va vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishi uchun u quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Barcha vazifalarni to‘liq, qamrab olish va ularning bosqichlar, bo‘limlar va vazifalar bo‘yicha optimal taqsimlanishi.
2. Boshqarishning har bir bosqichida har bir bo‘lim va ma’sul shaxsga ularga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun kerakli bo‘lgan vakolatlarni ajratish.
3. Vazifa yoki ma’suliyatli burchlarni bajarishni ta’minalash uchun qat’iy javobgarlikni o‘rnatish;
4. Boshqaruvchanlikni ta’minalash.
5. Yakkaboshlik va buyruq berishning ahamiyati prinsiplariga rioya qilish.
6. Boshqaruv xarajatlaridagi mutanosiblik, moslashuvchanlik, tejamkorlik va o‘z-o‘zini tashkil etish.

Keltirilgan talablar ichida eng asosiysi – bu boshqaruv tizimi tejamkorligi va faoliyatchanligidir. Bu hozirgi xo‘jalikning bozor sharoitlarida ishlab chiqarishni xodimlarning minimal miqdori va boshqaruvning minimal sarf-xarajatlarida samarali boshqarishda namoyon bo‘ladi. Bunda boshqaruv xodimlari va xarajatlarini xaddan tashqari oshirib yuborish ham, kamaytirib yuborish ham noto‘g‘ri bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2018 yil 2 apreldagi “Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5392-sonli Farmoni va 2018 yil 2 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” gi PQ-3646-sonli Qaroriga muvofiq islohotlar na faqat kapital qurilishda, balki mamlakatning qurilish tarmog‘iga xizmat qiluvchi boshqa tarmoq va sohalarda ham amalga oshirilmoqda.

Arxitektura va qurilish sohasini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish hududlarning zamonaviy qiyoqasini shakllantirish, hayot va tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan shaharsozlik faoliyatini sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarishning muhim sharti hisoblanadi.

Shu bilan birga, tahlillar qurilish sohasida davlat boshqaruvini tashkil etishda zamonaviy shaharsozlik uslublari, normalari va qoidalalarini keng joriy qilishga, raqobatni rivojlantirishga, yangi sub’ektlarning innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar bilan bozorga kirib kelishiga to‘sinqilik qilayotgan bir qator tizimli muammolarni ochib berdi. Xususan:

birinchidan, shaharsozlik faoliyati, loyiha va pudrat xizmatlari bozori, shuningdek, qurilish materiallari ishlab chiqarishning holati hamda rivojlanish tendensiyalari kompleks tahlil qilinmagan, oqibatda hududlarni shaharsozlik jihatidan rivojlantirishning o‘rta muddatli va istiqbolli yo‘nalishlari belgilanmagan;

ikkinchidan, arxitektura va qurilish organlarining tashkiliy-shtat tuzilmasi qurilish va rekonstruksiya jarayonlarini to‘liq kuzatib borishni ta’minlash, shuningdek, qurilish-montaj ishlari sifatini samarali nazorat qilish uchun mavjud resurslarni safarbar etishga imkon bermayapti;

uchinchidan, arxitektura va qurilish organlari funksiyalarining tarqoqligi hamda ular faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish darajasining pastligi shaharsozlik sohasida davlat xizmatlarini ko‘rsatishning maksimal shaffofligi va samaradorligini ta’minlamayapti;

to‘rtinchidan, ko‘pchilik aholi punktlarining bosh rejalari mavjud emasligi hududlarni kompleks qurishga, ishlab chiqarish va infratuzilma ob’yektlarini joylashtirishga, tadbirkorlik va ishbilarmonlik faolligini rivojlantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda, shuningdek, qurilish jarayonida puxta o‘ylanmagan qarorlarni qabul qilishga sabab bo‘lmoqda;

beshinchidan, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar ancha eskirgan hamda ularda arxitektura-qurilish ishlarini olib borishning innovatsion uslublarini, energiya samarador va energiya tejaydigan texnologiyalarini keng qo‘llash e’tiborga olinmagan, bu esa loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va ob’yektlarni qurish sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda;

oltinchidan, qurilish ishlarini tashkil etish, innovatsion g‘oyalar va ishlanmalarni joriy qilishda ayrim hollarda tor idoraviy manfaatning ustunlik qilishi byudjet mablag‘laridan oqilona foydalanmaslikning sabablaridan biri hisoblanadi;

yettinchidan, qurilish sohasi va qurilish materiallari sanoatida istiqbolli investitsion loyihalarini, innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarini ilgari surish va amalga oshirishda, shuningdek, innovatsion mahsulotlarni joriy etish uchun infratuzilmani takomillashtirishda davlat-xususiy sheriklikdan foydalanishga etarlicha e’tibor berilmayapti;

sakkizinchidan, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning amaldagi tizimi arxitektura-qurilish sohasini jadal rivojlantirish vazifalarini samarali ro‘yobga chiqarishga imkon bermayapti, kadrlarni moddiy rag‘batlantirish darajasining pastligi esa malakali mutaxassislarining tizimdan ketib qolishiga olib kelmoqda.

Arxitektura-qurilish sohasini boshqarishning shaharsozlik faoliyatiga innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish imkonini beruvchi zamonaviy tizimni yaratish, ko‘rsatilayotgan xizmatlarning shaffofligini ta’minlash maqsadida, shuningdek, 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi va O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi negizida O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tashkil etildi va quyidagilar uning vazifalari etib belgilandi:

- shaharsozlik va qurilish uchun muhandislik-texnik izlanishlar sohasida yagona ilmiy-texnikaviy siyosatni olib borish, mehnat unumdorligini oshirish, qurilish-montaj ishlari qiyamatini kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydigan energiya samarador va energiya tejaydigan innovatsion loyiha va qarorlarni qurilish faoliyatiga joriy etish;
- respublika hududida aholini joylashtirishning bosh sxemasini, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar hududlarini rejalashtirish sxemalarini, aholi punktlarining bosh rejalarini va boshqa shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish va tasdiqlashni tashkil qilish, ularning amalga oshirilishi ustidan monitoring yuritish;
- shaharsozlik sohasida davlat siyosatining asosiy yo'naliishlari bo'yicha takliflar tayyorlash, arxitektura-qurilish faoliyatini rivojlantirishning uzoq muddatli va o'rta muddatli davlat dasturlarini ishlab chiqish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning tarmoq va hududiy dasturlarini tayyorlashda ishtiroy etish;
- loyiha ishi va qurilish faoliyatini muvofiqlashtirish, loyiha-qidiruv tashkilotlarining ish samaradorligini oshirish va hududiy tarmoqlarini kengaytirish, yakka tartibdagi, namunaviy, takroran qo'llaniladigan va eksperimental loyihalarni va loyiha yechimlarini ishlab chiqishni tashkil etish, shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish;
- shaharsozlik va shaharsozlik faoliyatining normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish va yangilash, idoraviy qurilish norma va qoidalarini ishlab chiqishni muvofiqlashtirish, loyihalash, qurilish, qurilish materiallari va buyumlarini ishlab chiqarish sohasida standartlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- arxitektura, loyihalash va qurilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlash, ixtisoslashtirilgan ta'lif muassasalarida o'quv jarayonining darjasini va sifatini tubdan yaxshilash, qurilish sohasida, jumladan, chet eldag'i etakchi ilmiy-tadqiqot muassasalarida loyihachilar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishga ko'maklashish.

Vazirlik markaziy apparatining boshqaruv xodimlari cheklangan soni 81 nafar etib belgilandi. Hududiy bo'linmalarda esa 796 kishi ishlaydi.

Idora litsenziyalovchi organga aylanadi. Buning uchun Qurilish sohasida islohotlarning amalga oshirilishi monitoringi va faoliyatni litsenziyalash bo'yicha Respublika komissiyasi tugatildi. Litsenziyalar Loyiha boshqaruvi milliy agentligi bilan kelishilgan holda beriladi. Litsenziyalash jarayoni soddalashtiriladi: aniq va to'liq litsenziya talablari va shartlari nazarda tutiladi, ularga rioya etilishini nazorat qilinadi va moddiy javobgarlik belgilanadi, shuningdek litsenziya talabgorining litsenziya talablari va shartlariga muvofiqligini tekshirish mexanizmi takomillashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 noyabrdagi "Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo'shimcha choratadbirlari to'g'risida"gi PF-5577-sod Farmoniga muvofiq mamlakatimizda tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlashning zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy etish, xususiy biznesga katta erkinlik berish, ularning huquqlari va qonuniy


manfaatlari kafolatlarini kuchaytirish, xorijiy investitsiyalarni va zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish yuzasidan chora-tadbirlar ko‘rilmogda.

Shu bilan birga, qurilish sohasidagi ishlar holatini o‘rganish ushbu sohasida islohotlarni jadal amalga oshirishga va sog‘lom raqobat muhitini rivojlantirishga to‘sinqinlik qilayotgan muammolar borligini ko‘rsatdi.

Shaharsozlikni texnik tartibga solishning bozor vositalarini joriy etishga etarlicha e’tibor berilmayapti, qurilish sohasida katta miqdorda davlat ma’muriy-boshqaruv va nazorat funksiyalari saqlanib qolmoqda.

Ob’yektlarni loyihalashtirish va qurishdagi normalashning mavjud ko‘rsatma beruvchi usuli innovatsion loyihaviy yechimlar va yangi ilmiy-texnik ishlamalarni qo‘llashga to‘sinqinlik qilmoqda, ichki va xorijiy investitsiyalarni qurilish sohasiga jalb qilishni sekinlashtirmoqda.


TASHKILIY TUZILMASI



**6.1-diagramma. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining tashkiliy tuzilmasi.**

## O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi markaziy apparatining

### TUZILMASI



6.2-diagramma. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi markaziy apparatining tashkiliy tuzilmasi.

Xalqaro savdoning hozirgi globallashuv shartlariga javob beradigan qurilish normalari va qoidalarini ishlab chiqish, qo'llab-quvvatlash va joriy etish sohasida kadrlarni professional tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi mavjud emas.

Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish, investitsiyalarni jalg qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, qurilish tarmog'i kadrlarini professional tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimining samaradorligini oshirish maqsadida:

1. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga ko'ra:

a) 2018 yil 1 dekabrdan boshlab:

barcha qurilish ob'yektlari uchun loyihalarning smeta qismini ekspertizadan o'tkazish majburiydir, qurilishi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar hisobiga amalga oshiriladigan ob'yektlar bundan mustasno;

qurilishi tugallangan ob'yektlarni foydalanishga qabul qilish qurilish sohasidagi nazorat inspeksiyasi, kadastr organlari, buyurtmachi, pudratchi (bosh pudratchi) vakillari ishtirokida amalga oshiriladi, davlat xaridlari sub'ektlari mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan ob'yektlarni qurish bundan mustasno;

pudrat tashkilotlari va loyiha tashkilotlari o'rtasida konsorsium tashkil etish hamda konsorsium ishtirokchilari zimmasiga loyihani sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish uchun solidar javobgarlikni yuklash orqali «fast-track» usuli (bir vaqtning o'zida loyihalashtirish, xarid qilish va qurilish ishlari) bilan «tayyor holda topshirish» shartlari (Engineering Procurement Construction) asosida loyihalarni amalga oshirishga yo'l qo'yiladi;

b) 2019 yil 1 yanvardan boshlab:

loyihalash va qurilish faoliyatini amalga oshirish uchun Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga a'zo davlatlarning vakolatlari, tashkilotlari, jamiyatlari va birlashmalari tomonidan berilgan sertifikatlar va boshqa ruxsat beruvchi hujjalarni (litsenziyalar) tan olinadi;

qurilish uchun yer uchastkalarining o'z vaqtida va to'g'ri ajratilishi hamda qurilish-montaj ishlari tasdiqlangan bosh rejaga yoki yer uchastkalarini joylashtirish sxemalariga (bosh reja mavjud bo'lmaganda) bog'lamasdan amalga oshirilishi uchun tegishli hokimlarning shaxsiy javobgarligi belgilanadi;

qurilish uchun yer uchastkalari o'z vaqtida ajratilmasligi yoki noto'g'ri ajratilishi natijasida yuzaga kelgan xarajatlar mahalliy byudjetlar mablag'lari hisobidan, keyinchalik aybdor shaxslardan regress tartibida undirish orqali qoplanadi;

milliy qurilish normalari va qoidalarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish, shuningdek qurilishga oid xorijiy normativ-texnik hujjalarni moslashtirish faqat tanlov asosida amalga oshiriladi;

milliy qurilish normalari va qoidalarini qayta ko'rib chiqishda, shuningdek qurilishga oid xorijiy normativ-texnik hujjalarni moslashtirishda mulkchilik shaklidan qat'i nazar milliy va xorijiy yuridik shaxslar, jamoat va xalqaro tashkilotlar, shuningdek shu sohaga ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot muassasalari ishtirok etishga haqli;

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi milliy qurilish normalari va qoidalari ishlab chiqish hamda takomillashtirish, shuningdek qurilishga oid xorijiy normativ-texnik hujjatlarni moslashtirish va ularni amaliyotga joriy etish bo‘yicha ishlarning buyurtmachisi hisoblanadi;

qurilish normalari va qoidalari har tomonlama ekspertizadan o‘tkazish natijalari asosida Qurilish vazirligining qarori bilan tasdiqlanadi va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida majburiy tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilishi shart;

belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan qurilish standartlari, texnik reglamentlar, qurilish normalari va qoidalaringin yagona katalogini yuritish, rasmiy veb-saytida e’lon qilish va yangilab borish orqali katalogdan bemalol foydalanishni ta’minlash «O‘zstandart» agentligiga yuklanadi;

v) 2019 yil 1 martdan boshlab:

malakaga ega bo‘lishi O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq majburiy bo‘lgan qurilish sohasidagi mutaxassislarini sertifikatlash O‘zbekiston muhandislar-konsultantlar uyushmasi tomonidan amalga oshiriladi;

loyihalash faoliyatini amalga oshirishga shtatida tegishli sertifikatga ega va doimiy asosda ishlaydigan kamida ikki nafar muhandis mavjud bo‘lgan yoxud O‘zbekiston muhandislar-konsultantlar uyushmasi a’zosi bo‘lgan yuridik shaxslarga ruxsat beriladi;

ob’yektlarni qurishning barcha bosqichlarida mualliflik va texnik nazorat majburiydir hamda tegishli ravishda loyiha muallifi va buyurtmachi tomonidan yoki sertifikatga ega ekspert jalb qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

qurilayotgan ob’yektlar ustidan mualliflik nazorati, texnik nazorat va tekshiruv faqat belgilangan tartibda sertifikat olgan mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi;

g) 2020 yil 1 yanvardan boshlab uy-joy qurilishi ob’yektlari loyiha-tadqiqot va qurilish-montaj ishlarini bajarish bosqichida energiya-samarador va energiya-tejamkor uskunalar bilan majburiy ravishda jihozlanishi, shuningdek, ular foydalanishga qabul qilinishidan avval energetik audit pasportini olishi kerak, BREEAM (binolar samaradorligini ekologik baholash usuli) va LEED (energiya-samarador va ekologik loyihalashtirish bo‘yicha qo‘llanma) xalqaro standartlari bo‘yicha sertifikatga ega ob’yektlar bundan mustasno;

2. Adliya vazirligi, Qurilish vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligining qurilish sohasini texnik tartibga solishning normativ bazasini isloh qilish to‘g‘risidagi quyidagilarni nazarda tutuvchi takliflariga rozilik berilsin:

tayyorgarlik davri (2019 — 2021 yillar) — O‘zbekiston Respublikasining geologik, tabiiy-iqlim, seysmologik va boshqa xususiyatlarini inobatga olgan holda amaldagi milliy qurilish normalarini qayta ko‘rib chiqish, shuningdek, qurilishga oid xorijiy normativ-texnik hujjatlarni moslashtirish;

o‘tish davri (2022 — 2026 yillar) — milliy qurilish normalari va qoidalari moslashtirilgan qurilishga oid xorijiy normativ-texnik hujjatlarni amaliyotga joriy etish, qurilish sohasiga innovatsiyalar joriy etish, yangi texnologiyalar, materiallar, buyumlar va konstruksiyalarni o‘zlashtirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

yakuniy davr (2027-2028 yillar) — milliy va moslashtirilgan xorijiy qurilish normalari hamda qoidalarini qo'llash tajribasini umumlashtirish asosida qurilish sohasini texnik tartibga solishning yagona normativ bazasini yaratish.

#### **6.4. Pudrat tashkilotlari va firmalari - qurilishni boshqarishdagi asosiy bo'g'inlar**

Hozirgi sharoitda qurilishni boshqarish taxminan quyidagi sxema bo'yicha boradi: qurilish boshqarmasi - qurilish tresti - qurilish birlashmasi yoki vazirlik. Hozirgi qurilish vazirliklari va idoralari boshqarish sahnasidan chiqib kechayotgan bir davrda, qurilish sanoatining asosiy bo'g'inlari bo'lib, O'zbekiston Respublikasining "Korxonalar to'g'risida"gi qonunga muvofiq faoliyat yurituvchi qurilish trestlari va firmalari bo'lib bormoqda.

Umumi pudratchilar hisoblanuvchi trestlar yoki firmalarga qurilishning barcha ishtiroqchilari faoliyatini shuningdek mijozlar va davlat bilan majburiy to'lovlari yoki boshqa, iqtisodiy va tashkiliy masalalar bo'icha munosabatlarni koordinatsiyalash kabi majburiyat yuklatiladi. Hozirgi paytda faoliyati O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi tomonidan 2 dekabr 1998 yilda tasdiqlangan "Xususiy qurilish firmalari haqidagi qaror" bo'yicha tartibga solinishi kerak bo'lган xususiy qurilish firmalarini tashkil etish haqidagi masala dolzarb bo'lib turibdi.

Yuqorida aytilgan qaror bo'yicha qurilish firmasi yuridik shaxs maqomidagi mustaqil faoliyat olib borishga va O'zbekiston Respublikasi va uning tashqarisida ishchilar sonidan qat'iy nazar o'z tashkilotchilarini (sho'ba tashkilotlarini) yaratish va qurilish kompleksining barcha turdag'i ishlarini bajarish huquqiga ega sub'ekt hisoblanadi.

Firma, tabiiyki, tijorat tashkiloti hisoblanadi va xo'jalik sherikchiligi yoki jamiyati, ishlab chiqarish kooperativi yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchilikda ko'rsatilgan boshqa shaklda tuzilishi mumkin. U o'z nomidan kontrakt tuzishi, mulkiy va nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi, majburiyatlar olishi, sudsarda da'vogar yoki javobgar bo'lishi mumkin. Firma o'z balansiga ega bo'ladi, moliyaviy va valyuta tomonidan o'zini to'liq qoplash asosida faoliyat ko'rsatadi.

Qurilish firmasining asosiy masalalari quyidagilardir:

- qurilish xizmatchilari bozori marketingni
- biznes-plani tayyorlash va qurilish talablarini qondirish uchun resurs etkaib beruvchilar bilan kelishuvlar tuzish;
- rja va hisob xujjatlarini olib borish va ishchilar mehnatini rag'batlantirish;
- butun qurilish mahsulot bo'yicha va qilinadigan ishlarda yuqori sifat va raqobatbardoshlikni ta'minlash;
- foyda olish va ishlab chiqarish rentabelligini ta'minlash.

Firma o'z faoliyatini mustaqil ravishda rejalashtiradi va rivojlanish istiqbollarini belgilaydi, zaruriy fondlar – mehnat rivojlanish, sug'urta va boshqa o'z hohishiga binoan tashkil qiladi.

Qurilish firmasi mulki shakllanishining manbalari quyidagilar hisoblanadi:

- asoschilarning pul va material qo'shilmalari;
- mahsulot, ish va xizmatlar, shuningdek Ustavda ko'rsatilgan boshqa ish turlarini sotishdan olingan daromadlar;
- banklar kreditlari va boshqa zayom mablag'lari;
- amaldagi qonunchilik tomonidan ta'qiqlanmagan boshqa manbalar.

Firma moliyaviy resurslari shakllanishi manbasi bo'lib foyda, amortizatsion chegirmalar, qimmatli qog'ozlarni sotishdan keladigan foyda va asoschilarning ta'qiqlanmagan boshqa tushumlar hisoblanadi.

## **7-MAVZU. QURILISH INDUSTRIYASINING ISHLAB CHIQARISH VA RESURS SALOHIYATI HAMDA UNDAN OQILONA FOYDALANISH YO'LLARI**

---

### **Reja:**

- 7.1. Ishlab chiqarish salohiyati va resurslari, ularning mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari va qurilishdagi xo'jalik sub'ektlarining faoliyatidagi ahamiyati.
- 7.2. Asosiy fondlar - qurilishning ishlab chiqarish va resurs asosi sifatida. Asosiy fondlarning qurilish tashkilotlarining ishlab chiqarish quvvatiga bog'liqligi.
- 7.3. Qurilishning aylanma fondlari va aylanma mablag'lari, ularning shakllanishi va ulardan foydalanish ko'rsatkichlari.
- 7.4. Mehnat resurslari va qurilishning kadrlar salohiyati.

### **7.1. Ishlab chiqarish salohiyati va resurslari, ularning mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari va qurilishdagi xo'jalik sub'ektlarining faoliyatidagi ahamiyati**

Ma'lumki, har qanday tarmoqdagi ishlab chiqarish jarayoni uchta asosiy element: mehnat qurollari, mehnat predmetlari va bevosita mehnatning o'zidan, ya'ni inson faoliyatidan tashkil topadi. Bu elementlar birgalikda ishlab chiqarishning resurs asosini tashkil qiladi va ko'p jihatdan muayyan bir xo'jalik sub'ektining - korxonaning, qurilish tashkilotining yoki butun tarmoqning ishlab chiqarish salohiyatini belgilab beradi. Mazkur elementlarsiz ishlab chiqarish jarayoni mutlaqo mavjud bo'la olmaydi.

Resurslar tushunchasi - bu pul mablag'lari, qimmatbaho buyumlar, qonunlar, joriy va kelgusidagi imkoniyatlar, daromadlar va ularning manbalaridir. Resurslar tabiiy, moddiy, iqtisodiy, moliyaviy resurslar, mehnat resurslari va hokazolar bo'lishi mumkin. Korxonalar, tarmoqlar va butun mamlakatning resurs imkoniyatlari qanchalik keng va katta bo'lsa, iqtisodiyot va uning rivojlanish istiqbollari ham shunchalik barqaror bo'ladi.

Ishlab chiqarish salohiyati - bu korxona, tashkilot va butun tarmoqning berilgan resurslar asosida u yoki bu hajmdagi mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati

yoki qobiliyatidir. SHuning uchun ham, ishlab chiqarish salohiyatini ishlab chiqarishning resurs imkoniyatlariga taqqoslanadi.

Ishlab chiqarish salohiyatining resurslar bilan ta'minlanganlik darajasiga o'zaro bog'liqligini ishlab chiqarish sharoitlari hamda u yoki bu mahsulotga bo'lgan ehtiyojlarni (iste'molchilik talabini) hisobga olgan holda tasvirlash mumkin.

Ishlab chiqarish salohiyatini xo'jalik sub'ektining ishlab chiqarish omillari majmuasi deb ko'rsatish mumkin. Bu omillar shu su'ektning xalq xo'jaligi va aholining ma'lum davrdagi ehtiyojlarini hisobga olgan holda turli moddiy ne'matlar yaratish yoki xizmatlar ko'rsatish imkoniyatlarini belgilab beradi.

Ishlab chiqarish salohiyatining rivojlanishini o'rganishda uning faqat miqdoriy baholash mumkin bo'lgan material-moddiy omillarini emas, balki uning sifat omillarini (mehnatni va ishlab chiqarishni tashkil qilish shart-sharoitlari, mehnat motivatsiyasi, xo'jalik mexanizmi va boshqalarni) ham tahlil qilish lozim. Bundan tashqari, ishlab chiqarish salohiyatining tarkibini aniqlash ham muhim bo'lib, unda ishlab chiqarish resurslarining ro'yxati va nisbati, ishlab chiqarish jarayonida mehnat va resurslarning o'zviy uyg'unligi yuz beradigan ishlab chiqarish sharoitlari aks ettirilishi lozim.

Ishlab chiqarish salohiyati va resurslar o'zaro bog'liq kategoriyalar sifatida rivojlanish va samaradorlikka ta'sir ko'rsatibgina qolmay, balki o'z navbatida ichki va tashqi omillarga, avvalo fan-texnika taraqqiyotiga, boshqaruv tizimiga va axborot bazasiga bog'liqdir. Gap shundaki, fan-texnika taraqqiyoti va boshqaruv tizimi axborot yordamida yanada zamonaviy mehnat qurollari va predmetlarining yaratilishiga, ishlab chiqarishga safarbar qilinadigan resurslarning sifatini oshirishga imkon tug'diradi. Agar ishlab chiqarishning material-moddiy omillari ishlab chiqarish va texnik salohiyatning tanasi bo'lsa, fan-texnika taraqqiyoti, boshqaruv va axborot uning jonidir. Mazkur omillar o'rtaсидаги о'заро bog'liqliкни quyidagicha tasvirlash mumkin:

"FTT - ishlab chiqarish resurslari" aloqasi FTT yutuqlarining ishlab chiqarish resurslari sifatida namoyon bo'lishi jarayonini aks ettiradi, ya'ni FTT xom ashyo va materiallarning yangi turlari yaratiladi. FTT, axborot, boshqaruv va ishlab chiqarish sharoitlari o'rtaсидаги aloqalar axborot va boshqaruvning o'ziga xos ishlab chiqarish omillari sifatida ishlab chiqarish sharoitlarining FTT darajasini hisobga olgan holdagi ahvolini belgilaydi. Umuman olganda, ishlab chiqarish resurslari mahsulotni ishlab chiqarish va sotish jarayoniga mo'ljallangan bo'lib, o'z navbatida boshqaruv tizimiga, axborotga va fan-texnika taraqqiyotiga bog'liq bo'lib, korxonalar, tarmoqlar va butun xalq xo'jaligining ishlab chiqarish salohiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. qurilish industriyasining korxona va tashkilotlari mana shu aloqalar va o'zaro bog'liqliklar sharoitida faoliyat ko'rsatadi.

## **7.2. Asosiy fondlar - qurilishning ishlab chiqarish va resurs asosi sifatida. Asosiy fondlarning qurilish tashkilotlarining ishlab chiqarish quvvatiga bog'liqligi**

Asosiy fondlar - ham moddiy ishlab chiqarish sohasida (asosiy ishlab chiqarish fondlari), ham noishlab chiqarish sohasida (noishlab chiqarish asosiy fondlari) band

bo‘lgan material-moddiy qiymatlar majmuasi. qurilish xalq xo‘jaligining turli tarmoqlari uchun turli korxonalar, bino va inshootlarni qurish davomida mamlakat uchun asosiy fondlarni bunyod etishda ishtiroq etadi, biroq o‘z navbatida o‘zi ham ulardan mehnat va ishlab chiqarish qurollari sifatida foydalanadi. Shuning uchun qurilish mahsuloti sifatida va zaruriy ishlab chiqarish qurollari sifatidagi asosiy fondlarni bir-biridan ajratish lozim.

Asosiy ishlab chiqarish fondlariga quyidagilar kirdi:

- ishlab chiqarish bino va inshootlari;
- ishchi mashina va asbob-uskunalar;
- mashina va asbob-uskunalar;
- transport vositalari;
- asbob-uskunalar va ishlab chiqarish jihozlari.

Noishlab chiqarish asosiy fondlarga quyidagilar kirdi:

- uy-joylar;
- kommunal xo‘jalik ob’yektlari;
- madaniy-maishiy ob’yektlar;
- sog‘liqni saqlash va maorif ob’yektlari.

Bu yerda gap butun xalq xo‘jaligi balansida emas, balki qurilish balansida turgan noishlab chiqarish asosiy fondlari haqida bormoqda. Agar bunday tafovut bo‘lmasa, qurilishning noishlab chiqarish asosiy fondlari bilan jihozlanganligi sun’iy ravishda o‘sib ketishi mumkin.

Asosiy fondlar natura va pul shaklida (qiymat ifodasida) baholanadi. Buxgalteriya hisobida asosiy fondlar odatda korxonalar, tashkilotlar va xo‘jaliklarning asosiy fondlari sifatida ko‘rsatiladi, vaholanki bu ularning elementlar bo‘yicha, ya’ni bino va inshootlar, ishchi va quvvat mashinalarida, transport vositalarida va hokazolarda qancha mablag‘ borligi bo‘yicha hisobga olinishiga to‘sqinlik qilmaydi.

Asosiy fondlar ishlab chiqarish jarayonida qatnashish darajasiga va mehnat predmetlariga ko‘rsatadigan ta’siriga qarab ikki qismga bo‘linadi: aktiv - ishchi va quvvat mashinalari va asbob-uskunalar, transport vositalari, asboblar va jihozlar; passiv - bino va inshootlar, ya’ni ishlab chiqarishga ta’sir ko‘rsatuvchi yordamchi jarayonlar bilan band bo‘lgan imoratlar va ob’yektlar (idoralar, omborxonalar, laboratoriylar, boshqaruv apparati joylashgan binolar).

Asosiy fondlarni ko‘paytirishni tahlil qilish, baholash va strategiyasini belgilab olishda ularning tuzilmasi - asosiy fondlarning ayrim guruhlarining ularning jami qiymatidagi ulushi - katta ahamiyat kasb etadi. Mashina va asbob-uskunalarning, transport vositalarining jami asosiy fondlar qiymatidagi ulushi qanchalik katta bo‘lsa, (qolgan shartlar teng bo‘lganda) mahsulot ishlab chiqarish hajmi ham, fond qaytimi ko‘rsatkichi ham shu qadar yuqori bo‘ladi. SHuning uchun asosiy ishlab chiqarish fondlarining tuzilmasini yaxshilashga ishlab chiqarish va fond qaytimini oshirishning muhim sharti deb qaraladi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlarining tarkibini quyidagicha yaxshilash mumkin:

- mashina parkini texnikaning yangi turlari bilan to‘ldirish yo‘li bilan;
- ishlab turgan mashina va asbob-uskunalarni modernizatsiyalash bilan;

- ortiqcha va kam foydalaniladigan asbob-uskunalarni tugatish bilan;
- asosiy fondlarning ayrim guruhlari o'rtasida oqilona nisbatlarni ta'minlash bilan.

Ma'lumki, asosiy fondlar ekspluatatsiya jarayonida muntazam ravishda eskirib, ishdan chiqib boradi. SHu sababdan asosiy fondlarga nisbatan jismoniy va ma'naviy eskirish tushunchalarini kiritamiz.

**Jismoniy eskirish** - asosiy fondlarning ekspluatatsiya jarayonida yoki bekor turish natijasida o'zining dastlabki xarakteristikalarini asta-sekin yo'qotishidir. Bu notekis kechuvchi jarayon bo'lganligi tufayli, asosiy fondlar to'liq yoki qisman eskirishi ajratiladi. Birinchi holda eskirgan asosiy fondlar tugatiladi va yangisiga almashtiriladi, ikkinchi holda esa ta'mirlash yo'li bilan tiklanadi.

**Ma'naviy eskirish** - mashina va asbob-uskunalar qiymatining ularni ishlab chiqarishga sarflanadigan ijtimoiy zaruriy xarajatlarning kamayishi ta'sirida kamayib borishi (ma'naviy eskirishning birinchi shakli) yoki ularning qiymatining yangi, ilg'or va samarali mashina va asbob-uskunalar yaratilishi natijasida kamayishidir (ma'naviy eskirishning ikkinchi shakli).

Asosiy fondlarning eskirishini tiklash korxona va tashkilotlarning maxsus mablag'lari asosida - amortizatsiya ajratmalari hisobiga amalga oshiriladi. Ularning summasi asosiy fondlarning qiymatiga, ularning xizmat muddatiga, ta'mirlash va modernizatsiyalash xarajatlariga bog'liqdir. Bu mablag'lar odatda korxonaning amortizatsiya fondida to'planib boradi va faqatgina asosiy fondlarni tiklash va ta'mirlash maqsadlarida foydalaniladi.

Yillik amortizatsiya summasining asosiy fondlar qiymatiga nisbati foizlarda ifodalanganda amortizatsiya me'yori deb ataladi va quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$H_{am} = \frac{\Phi_1 - \Phi_a}{T_a * \Phi_1}$$

bu yerda:

$\Phi_1$  - asosiy fondlarning dastlabki qiymati;

$\Phi_a$  - asosiy fondlarning tugatish qiymati;

$T_a$  - asosiy fondlarning amortizatsiya muddati yoki xizmat muddati, yil.

Dastlabki qiymat - asosiy fondlarni sotib olish paytidagi xarajatlar summasi (etkazib berish, o'rnatish yoki montaj xarajatlari bilan birga).

Tiklash qiymati - asosiy fondlarning bugungi kundagi inflyasiya, qayta baholash va hokazolarni hisobga olgan holda hisoblangan qiymati.

Qoldiq qiymat - bu asosiy fondlarning dastlabki yoki tiklash qiymati bilan eskirish summasi o'rtasidagi farqdir.

Asosiy fondlarni to'liq tiklash uchun amortizatsiya ajratmalari summasi quyidagicha hisoblanadi:

$$\mathbf{A} = \mathbf{H}_{am} \times \boldsymbol{\Phi},$$

bu yerda  $\boldsymbol{\Phi}$  - asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari qurilish industriyasidagi korxona va tashkilotlarning ishlab chiqarish quvvatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. qurilish

tashkilotlarining fond bilan jihozlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ularning ishlab chiqarish quvvati ham shu qadar yuqori bo'ladi. Ishlab chiqarish quvvati - berilgan mashina va asbob-uskunalar, texnologiyalar va ishlab chiqarishni tashkil qilish uslubida (ishchilar soni va ajratilgan vaqtini hisobga olgan holda) mahsulot ishlab chiqarishning (qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishning) maksimal hajmi. Buni hisobga olgan holda qurilish korxonasining yillik, choraklik va oylik ishlab chiqarish quvvatini aniqlash mumkin.

Ishlab chiqarish quvvatini va umuman asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni hisoblashda bir qator ko'rsatkichlar qo'llaniladi. Ularni quyidagi uch guruhga bo'lish mumkin:

**ekstensiv ko'rsatkichlar** - asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning vaqt bo'yicha ko'rsatkichlari;

**intensiv ko'rsatkichlar** - asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning unumdarlik (quvvat) ko'rsatkichlari;

**integral ko'rsatkichlar** - ekstensiv va intensiv omillarning jami ta'sirini, ya'ni ekstensiv va intensiv ko'rsatkichlarning hosilasini hisobga oluvchi ko'rsatkichlar.

Mazkur ko'rsatkichlar asosan asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning natural ko'rsatkichlari hisoblanadi va quyidagi kategoriyalarni o'z ichiga oladi:

- asbob-uskunalar va mashinalarning bandlik koeffitsienti;
- almashinuv koeffitsienti;
- asbob-uskunalarning unumdarligi.

Ular bilan bir qatorda amaliyotda asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning qiymat ko'rsatkichlari ham keng qo'llanilmoqda. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

**Fond qaytimi** - ishlab chiqarilgan mahsulotning asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati birligiga to'g'ri keladigan miqdori;

**Fond sig'imi** - fond qaytimi ko'rsatkichiga teskari ko'rsatkich;

**Fondlarning rentabelligi** - asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati birligiga to'g'ri keladigan foyda miqdori.

Asosiy ishlab chiqarish fondlarini baholash va ulardan foydalanishni tahlil qilishda mehnat va ishlab chiqarishning fond bilan qurollanganligi hamda uning yana bir turi - mehnat va ishlab chiqarishnng mexaniq qurollanganligi kabi ko'rsatkichlarni ham e'tiborga olish lozim.

Qurilish tashkilotlari asosiy ishlab chiqarish fondlarini yangilab borishni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Davlat soliq qo'mitasi va Arxitektura va qurilish davlat qo'mitasining 2003 yil 14 oktyabrdagi qaroriga ko'ra «Pudratchi qurilish tashkilotlari uchun qurilish texnikasi va asbob-uskunalarini sotib olishga yo'naltiriladigan mablag'larga soliq solish bazasini kamaytirish qismida daromad (foyda) solig'i bo'yicha imtiyozlarni qo'llash tartibi to'g'risida NIZOM» qabul qilindi.

Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12 sentyabrdagi 395-sonli "Kapital qurilishda xo'jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan va

pudratchi qurilish tashkilotlari uchun qurilish texnikasi va asbob-uskunalarni sotib olishga yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga soliq solinadigan bazani kamaytirish daromad (foyda) solig'i bo'yicha imtiyozlarni qo'llash tartibini belgilaydi. Unga quyidagilar ko'zda tutiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12 sentyabrdagi 395-sonli "Kapital qurilishda xo'jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq pudratchi qurilish tashkilotlarini qurilish texnikasi va asbob-uskunalarni sotib olishga yo'naltiriladigan mablag'lari 2006 yilning 1 yanvarigacha daromad (foyda) solig'ini hisoblashda soliq solinadigan bazadan chiqarib tashlanadi.

2. Pudratchi qurilish tashkilotlari tomonidan qurilish texnikasi va asbob-uskunalarni sotib olishga yo'naltiriladigan mablag'lari buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi va quyidagilarda hisobga olinadi:

a) montaj talab etiladigan qurilish texnikasi va asbob-uskunalari kelib tushganda - o'rnatishga asbob-uskunalar hisobi schyotida, "O'rnatishga qurilish asbob-uskunalari" hisobidan ajratilgan holda;

b) montaj talab etilmaydigan qurilish texnikasi va asbob-uskunalari kelib tushganda - kapital qo'yilmalar hisobi schyotida "qurilish texnikasi va asbob-uskunalarni sotib olish" hisobidan ajratilgan holda.

3. Pudratchi qurish tashkilotlari tomonidan qurilish texnikasi va asbob-uskunalarni sotib olishga yo'naltirilgan mablag'lari summasi haq to'langan va pul tushgan sanadan qat'i nazar hisobot davrida daromad (foyda) solig'ini hisoblashda soliq solinadigan bazadan chiqarib tashlanadi.

4. Soliq solinadigan bazani kamaytirish bo'yicha imtiyozlarni qo'llashda tegishli hisobot davri uchun daromad (foyda) solig'ini hisoblash bo'yicha hisob-kitoblarga qurilish texnikasi va asbob-uskunalarni sotib olishga yo'naltirilgan mablag'lar summasi ko'rsatilgan ma'lumotnomaga ilova qilinishi shart.

5. Korxonalar soliq solish bazasini kamaytirish bo'yicha berilgan imtiyozlarni hisobga olgan holda daromad (foyda) solig'ini to'g'ri hisoblash uchun javobgardirlar.

6. Daromad (foyda) solig'ini hisoblash va o'z vaqtida to'lash yuzasidan nazorat O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonuni va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish miqyosining o'sishi va boshqa ijobiy o'zgarishlar sharoitlarida, ba'zan korxonaning asosiy fondlari, jumladan, ishchi mashinalar va uskunalar, ishlab chiqarish binolari, qurilmalar va hokazolar etmay qoladi. Bunday hollar ro'y berganda korxona shartnomaga asosida o'ziga kerakli bo'lgan asosiy fondlarni yollaydi va ular ijaraga olingan hisoblanadi. Ijaraga beruvchi va ijaraga oluvchi o'rtasida yuzaga keluvchi mulk munosabatlari **lizing** deb ataladi (ingl. Lease - ijara).

"Kapital qurilishda ijara va lizing xizmatlari tizimini joriy etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori (23.10.2003 y. № 462) qabul qilingan bo'lib, unda kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada

chuqurlashtirishga yo‘lida ijara va lizing xizmatlarini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar ko‘zda tutilgan:

1. Vazirlar Mahkamasining qurilish, qurilish materiallari sanoati, uy-joy-kommunal xo‘jaligi va transport kompleksi, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, "Asaka" banki, "Paxta-bank", "O‘zsanoatqurilishbank", "O‘zuyjoyjamg‘armabank", "O‘zbekiston temir yo‘llari" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi, "O‘zbekneftgaz" milliy xolding kompaniyasi, "O‘zbekenergo" davlat-aksiyadorlik kompaniyasining ustav jamg‘armasi 1 mlrd so‘m bo‘lgan, ulushlar 7.1-jadvalga muvofiq taqsimlanadigan ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklidagi "qurilish-lizing" lizing kompaniyasini tashkil etish.

2. "Qurilish-lizing" lizing kompaniyasiga:

o‘z moliyaviy manbalari hisobiga, shuningdek mamlakatimiz banklari va xorijiy banklar kreditlarini jalb qilish yo‘li bilan zamonaviy qurilish texnikasi, kichik mexanizatsiya va maxsus transport vositalari xarid qilish;

qurilish texnikasini, transport va kichik mexanizatsiya vositalarini mulkchilikning barcha shakllaridagi pudrat qurilish tashkilotlariga, birinchi navbatda, kichik va xususiy biznes sub’ektlariga shartnoma asosida lizingga va ijaraga berish yuklanadi.

3. "Qurilish-lizing" lizing kompaniyasi xodimlarining cheklangan umumiyligi soni 34 nafar, shu jumladan boshqaruv xodimlari 19 nafar bo‘lgan boshqaruv tuzilmasi belgilangan. (7.1-rasm)

4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi, Moliya vazirligi:

Vazirlar Mahkamasining "2003-2004 yillarda korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish dasturi to‘g‘risida" 2003 yil 17 apreldagi 185-son qaroriga muvofiq pudrat qurilish tashkilotlarining davlat aktivlarini birja va birjadan tashqari bozorlarda sotishdan tushadigan mablag‘larni;

iqtisodiy nochor pudrat qurilish tashkilotlarining byudjet oldidagi qarzlarini qoplash hisobiga ularning mol-mulkini qarz summasi doirasida sotishdan tushadigan mablag‘larni qaytarish asosida "qurilish-lizing" lizing kompaniyasiga 5 yil muddatga beriladi, ushbu mablag‘lar kompaniyaning maxsus hisob raqamiga o‘tkaziladi.

Ushbu mablag‘lardan faqat keyinchalik ularni pudrat qurilish tashkilotlariga lizing va ijaraga berish uchun qurilish texnikasi, kichik mexanizatsiya va transport vositalari xarid qilish uchun foydalanishi mumkin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo‘mitasi Davlat mulki qo‘mitasi va Davlat soliq qo‘mitasi bilan birgalikda tugatilayotgan iqtisodiy nochor qurilish tashkilotlarining qurilish texnikasi, transport vositalari va kichik mexanizatsiya vositalarini ularning byudjet oldidagi qarzlarni qoplash hisobiga "qurilish-lizing" lizing kompaniyasiga beriladi.

Tugatilayotgan iqtisodiy nochor pudrat qurilish tashkilotlarining ularning byudjet oldidagi qarzlarini qoplash hisobiga "qurilish-lizing" lizing kompaniyasiga beriladigan asosiy vositalari daromad solig‘i va mol-mulk solig‘i bo‘yicha soliqqa tortish ob‘yekti hisoblanmaydi.

6. "Qurilish-lizing" lizing kompaniyasi:

O‘zbekiston Respublikasi hududiga, keyinchalik ularni lizingga va ijaraga berish uchun olib kelinayotgan qurilish texnikasi, ehtiyyot qismlari, qurilish transport vositalari va kichik mexanizatsiya vositalari uchun bojxona bojlari va qo‘shilgan qiymat solig‘idan 5 yil muddatga;

qurilish texnikasi va kichik mexanizatsiya vositalarini lizingga va ijaraga berishdan olingan daromadlar bo‘yicha 2007 yil 31 dekabrgacha daromad (foyda) solig‘idan ozod qilinadi, soliqqa tortishdan bo‘shaydigan mablag‘lar zamonaviy qurilish asbob-uskunalari va texnika xarid qilishga maqsadli yo‘naltiriladi.

7.1 jadval

### "Qurilish-lizing" lizing kompaniyasi ustav jamg‘armasining tarkibi

Muassislar nomi	Ustav jamg‘armasidagi ulush	
	foiz	mln. so‘m
"O‘zmilliybank"	15	150,0
"O‘zuyjoyjamg‘armabank"	15	150,0
"O‘zsanoatqurilishbank"	15	150,0
"Asaka" banki	15	150,0
"Paxta-bank"	15	150,0
"O‘zbekiston temir yo‘llari" kompaniyasi	15	150,0
"O‘zbekneftgaz" milliy xolding kompaniyasi	5	50,0
"O‘zbekenergo" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi	5	50,0
<b>Jami:</b>	<b>100</b>	<b>1000,0</b>

### 7.3. Qurilishning aylanma fondlari va aylanma mablag‘lari, ularning shakllanishi va ulardan foydalanish ko‘rsatkichlari

Qurilish tashkilotlari boshqa tarmoqlardagi korxonalar kabi, muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatish uchun faqat asosiy emas, balki aylanma vositalar ham kerak bo‘lib, ular aylanma fondlar va muomala fondlariga avanslangan pul mablag‘laridan iborat. Ko‘pincha, bu har doim ham to‘g‘ri bo‘lmasa-da, aylanma vositalar aylanma fondlarning pullik ifodasi deb ataladi.

Aylanma fondlar - bir ishlab chiqarish siklida to‘liq foydalaniladigan aylanma vositalarning bir qismi bo‘lib, shu sikldan so‘ng o‘zining dastlabki natural-moddiy shaklini yo‘qotib, o‘z qiymatlarini to‘laligicha hosil bo‘layotgan mahsulotga o‘tkazadi.

Muomala fondi - bu korxona yoki tashkilotning pul mablag‘lari hamda hisob-kitoblardagi mablag‘lardir. Demak, korxonaning aylanma vositalari - uning aylanma va muomala fondlari yig‘indisidir.

Aylanma fondlar eng muhim ikki elementdan tashkil topgan: ishlab chiqarish jarayonida band bo‘lgan ishlab chiqarish vositalari va zahiralaridan tashkil topgan.

**Ishlab chiqarish zahiralari** - bu ishlab chiqarish jaayonining o‘zluksizligini ta’minlashga mo‘ljallangan, ammo hali ishlab chiqarish jarayoniga joriy qilinmagan

mehnat predmetlaridir (xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg‘i, tayyor mahsulotlar omborlari yoki poligonlaridagi buyumlar va konstruksiyalar, ehtiyyot qismlar va boshqalar).

**Ishlab chiqarish jarayonidagi aylanma fondlar** - bu avvalo tugallanmagan ishlab chiqarish (qurilish) va kelgusi davr xarajatlaridir (vaqtinchalik bino va inshootlar qurishga, asbob-uskunalarni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish, sinovlar o‘tkazish va hokazolarga sarflanadigan xarajatlar).

Bu xarajatlarning o‘ziga xos xususiyati shuki, ular bir hisobot davrida bir marta amalgalashadi lekin mahsulotning (xizmatlarning) tannarxiga esa bo‘laklab kiritib boriladi, chunki ular faqat joriy emas, balki kelgusida davrlardagi ishlab chiqarish bilan ham bog‘liqdir.

Bugungi bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarish zahiralarining qiymatini to‘g‘ri baholash juda muhimdir. Amaliyotdan ma’lum bo‘lishicha, bu masalaga korxona va tashkilotlar tomonidan noto‘g‘ri yondashish (ular o‘z zahiralarini ko‘paytirishga intiladilar) ularda kerakli aylanma vositalarning, shu jumladan aylanma fondlarning etishmasligiga, ba’zan esa hatto mutlaqo mavjud bo‘lmasligiga olib keladi.

Zahiralarning uch xil turi: transport, joriy (ombor) va sug‘urta (kafolat) zahiralari mavjud.

**Transport zahiralari** - to‘lov talabnomasi to‘langan kundan yukning korxona omboriga kelib tushgan kunigacha bo‘lgan davr.

**Joriy zahira** - ishlab chiqarish jarayonining o‘zluksizligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmiga teng bo‘lishi kerak. Joriy zahiraning miqdori o‘rtacha kunlik xarajatlarga va xom ashyo, materiallar, konstruksiyalar va hokazolarning qanchalik tez-tez etkazib berib turilishiga bog‘liq. Xom ashyo va materiallar ishlab chiqarishga qanchalik tez-tez kelib tursa, joriy zahira miqdori ham shunchalik kam bo‘lishi kerak. Tabiiyki, bunda ishlab chiqarish dasturi o‘zgarmas bo‘ladi.

**Sug‘urta zahirasini** ta’mindagi va transport faoliyatidagi o‘zilishlarning, etkazib berish muddatlari bo‘zilishining oldini olish uchun zarur. Sug‘urta zahirasining qiymati joriy (ombordagi) zahira uchun belgilangan aylanma vositalar me’yorining 30-50 foizi atrofida bo‘lishi mumkin.

Aylanma vositalari shakllanish manbalariga ko‘ra **xususiy** va **qarz** vositalarga bo‘linadi. Aylanma vositalarning **xususiy manbalari** qatoriga korxonaning foydasini, uning nizom kapitalini, shuningdek, qo‘sishimcha va zahira kapitalini kiritish mumkin bo‘lib, ular ayniqsa korxonani boshqarishning aksionerlik shakli sharoitlarida ko‘proq ko‘zatilishi mumkin.

Barqaror passivlar, masalan, ishchi va xizmatchilar oldidagi ish haqi bo‘yicha minimal ko‘chuvchi qarzdorlik, turli fondlarga (bandlik, sug‘urta, nafaqa va boshqa fondlar) ajratmalar bo‘yicha qarzdorlik, soliqlar, yig‘imlar va byudjetga to‘lovlar bo‘yicha va boshqa qarzlar ham aylanma vositalarning muhim ichki manbalari qatoriga kiradi.

**Qarz mablag‘lari** - bu chetdan, turli moliyaviy manbalardan jalb qilinadigan va odatda qaytarish sharti bilan ma’lum bir to‘lov (foiz stavkalari) evaziga olinadigan

mablag‘lardir. Ma’lum kelishilgan shartlar asosida jismoniy va huquqiy shaxslardan qarzga olingan mablag‘lar ham qarz mablag‘lar tarkibiga kiradi.

Bozor sharoitlarida birinchidan, aylanma mablag‘lar etaricha bo‘lishi va ishlab chiqarish ehtiyojlariga bog‘liq bo‘lishi, ikkinchidan imkon qadar samarali foydalanilishi juda muhimdir. Ushbu ikkinchi holat uchun amaliyotda ikki ko‘rsatkich - mablag‘larning aylanuvchanlik koeffitsienti va bir aylanmaning o‘rtacha muddati qo‘llaniladi.

**Aylanuvchanlik koeffitsienti** muayyan vaqt mobaynidagi aylanma mablag‘lar miqdorini yoki berilgan davrdagi aylanma mablag‘larning har 1 so‘miga to‘g‘ri keladigan mahsulot hajmini ko‘rsatadi. U quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$K_{\text{айл}} = \frac{Q}{OC}$$

bu yerda:

Q - sotilgan mahsulot hajmi (buyurtmachiga topshirilgan ishlar hajmi);

OC - aylanma mablag‘larning o‘rtacha qiymati.

Aylanuvchanlik koeffitsientining kamayishi korxonaning aylanma vositalari aylanishining sekinlashayotganligidan dalolat beradi va aksincha.

**Bir aylanmaning o‘rtacha davomiyligi** ( $\bar{D}_{yp}$ ) hisobot davri kunlarining aylanuvchanlik koeffitsienti qiymatiga nisbati bo‘lib, quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$\bar{D}_{yp} = \frac{T_p}{K_{\text{аил}}}$$

bu yerda  $T_p$  – hisobot davri (360 kun, 180 kun, 90 kun).

Aylanma vositalarning aylanish davomiyligi qanchalik kichik yoki sotilgan mahsulot hajmi o‘zgarmas bo‘lgandagi aylanishlar soni qanchalik ko‘p bo‘lsa, aylanma vositalar shunchalik kamroq miqdorda talab qilinadi va aksincha, aylanma vositalar qanchalik tez aylanib tursa, ulardan shunchalik samarali foydalaniladi. Aylanma vositalarning aylanishini jadallashtirish samarasi resurslarning ozod bo‘lishi, ulardan foydalanishning yaxshilanishi tufayli ularga bo‘lgan ehtiyojning kamayishida aks etadi.

#### 7.4. Mehnat resurslari va qurilishning kadrlar salohiyati

**Mehnat resurslari** - bu aholining jismonan rivojlangan, aqliy qobiliyat va bilimlarga ega, mehnatga layoqatli qismidir. Odatda ularni aholining iqtisodiy faol qismi deb ataladi.

Mehnatga layoqatli aholining katta qismi (moddiy ishlab chiqarish sohasida band bo‘lganlarning taxminan 8-10 foizi) bugungi kunda qurilish sohasida ishlamoqda. Aynan ular qurilishning asosiy fondlarini ham, aylanma fondlarini ham harakatga keltiradilar, xalq xo‘jaligi va aholi uchun kerakli ob’yektlarni vujudga keltiradilar.

Bozor va bozor munosabatlari sharoitlari mehnat resurslarini mahorat bilan boshqarish va avvalo, kadrlarni makroiqtisodiy miqyosda ham, uning birlamchi

bo‘g‘inlari - korxonalar, tashkilotlar va boshqa xo‘jalik sub’ektlar miqyosida ham kadrlarni to‘g‘ri tanlab, to‘g‘ri joylashtirish ham muhim ahamiyatga egadir. Bugungi kundagi kadrlar ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasini yaxshi tushunish bilan birga, iqtisodiyot va iqtisodiy rivojlanish qonunlarini, biznes-strategiyalarni, ilmiy menejment asoslarini, xo‘jalik yuritishning huquqiy masalalarini bilishlari, ishlab chiqarishda yuzaga keladigan vazifalarni tezkor echa olishlari kerak.

Islohotlardan avvalgi davrda kadrlar bilan ishslashning tahlili unda quyidagicha salbiy jihatlar bo‘lganligini ko‘rsatmoqda:

- kasbga yo‘naltirishning, kadrlarni ya’ni ishchilarni va rahbarlarni (menejerlarni) tanlash va joylashtirishning rasmiyligi;
- ayrim ishlovchilarning shaxsiy sifatlariga, ularning mehnat natijalariga ortiqcha baho berish yoki etarli baholamaslik;
- ishlovchining o‘z ish lavozimiga mos emasligi yoki ishga qabulqilishdagi proteksionizm;
- mehnat natijalari uchun javobgarlikning so‘sayishi;
- o‘z-o‘zini tanqid va o‘z-o‘zidan norozilikni bilmaslik;
- mehnatga haq to‘lashda tenglashtirish, mahorat va tashabbuskorlikka, mustaqillikka etarli e’tibor bermaslik.

Bugungi kunda qurilishdagi kadrlar siyosati boshqa tarmoqlardagi bilan deyarli bir xil bo‘lib, avvalo bozor talablari va bozor munosabatlari, qarorlar qabulqilishda mustaqillikka asoslangandir. Bunda asosiy e’tibor inson omilining kuchaytirilishiga qaratiladi, chunki iqtisodiy taraqqiyotning taqdirini zavod va fabrikalar, mashinalar, asbob-uskunalar yoki ishlab chiqarish zahiralari emas, balki avvalo insonlar, ishchilar hal qiladi. Korxona yoki tashkilotning faoliyatini samarali yoki samarasiz qiluvchilar ham aynan ishchilar, mehnat jamoasidir.

Shu munosabat bilan inson omilining qurilishning samaradorligini oshirishga inson omilining ta’sir ko‘rsatishidagi asosiy jihat quyidagilardan tashkil topgan:

- kadrlarni tanlash va ilgari surish;
- kadrlarni tayyorlash va ularni o‘zluksiz o‘qitish;
- kadrlar tarkibining barqarorligi va ixchamligi;
- ishchilar mehnatini moddiy va ma’naviy baholashni takomillashtirish.

Bu vazifalarni hal qilishda qurilish tashkilotlari (firmalari) boshqa korxonalar kabi keng faoliyat miqyosiga egadirlar. Ammo bu yerdagi umumiyligida shundayki, ishlab chiqarishga ma’lumoti va kasbiy mahorati bilan ajralib turadigan kishilar kerak. Bugungi kunda, talab va taklif ko‘pincha bir-biriga qarama-qarshi turgan, endi shakllanib kelayotgan mehnat bozorida aynan ana shunday kishilarga bo‘lgan talab kuchlidir.

Qurilishda mehnat resurslarini boshqarish tizimi hozirgi kunda o‘zaro bog‘liq bo‘lgan uch blokni o‘z ichiga oladi:

- 1) korxonaning mehnat resurslarini shakllantirish;
- 2) korxonaning mehnat resurslarini rivojlantirish;
- 3) hayotning mehnat davrining sifatini oshirish.

**Tayanch iboralar:** Resurs. Mehnat qurollari. Mehnat predmetlari. Mehnat. Ishlab chiqarish salohiyati. Asosiy fondler. Asosiy ishlab chiqarish fondlari. Noishlab chiqarish asosiy fondlari. Jismoniy eskirish. Ma’naviy eskirish. Amortizatsiya. Dastlabki qiymat. Tiklash qiymati. Qoldiq qiymat. Fond qaytmi. Fond sig‘imi. Fond rentabelligi. Aylanma vositalar. Aylanma fondler. Muomala fondlari. Ishlab chiqarish zahiralari. Qarz mablag‘lari. Aylanuvchanlik koeffitsienti.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. “Ishlab chiqarish resurslari” nima, ularning “ishlab chiqarish zahiralari” dan farqi yoki o‘xhash tomonlari nimada?
2. Bozor sharoitlarida resurslarni tejash qanday ahamiyatga ega va u qurilish iqtisodiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
3. Ishlab chiqarish fondlarining iqtisodiy mohiyatini ochib bering va ulardan qurilishda foydalanish darajasini xarakterlovchi ko‘rsatkichlarga misol keltiring.
4. Kadrlar salohiyati nima va qurilishda qanday shakllanadi?
5. Mehnat unumdarligini oshirishning ahamiyatini yoritib bering, ko‘rsatkichlarini aytib bering va qurilishda uni oshirish yo‘llarini ko‘rsatib bering.

## **8-MAVZU: QURILISH KORXONASI BOZOR IQTISODIYOTI SUB’EKTI SIFATIDA**

---

### **Reja:**

- 8.1. Tadbirkorlik va korxona.
- 8.2. Turli qurilish korxonalarini shakllantirish va ular faoliyatining asosiy jihatlari.
- 8.3. Tadbirkorlikni rivojlantirish qo’llab-quvvatlashda davlatning o’rni.

### **8.1. Tadbirkorlik va korxona**

Mamlakatda bozor iqtisodiyoti munosabatlari rivojlanayotgan bir sharoitda jamiyat oldida turgan masalalar ichida tadbirkorlik iqtisodiy faoliyatning faol shakli sifatida muhim o‘rin egallaydi.

Tadbirkorlik deganda shaxslar va korxonalarining o‘zaro manfaatdorligiga yo‘naltirilgan xarakatlari va mulkiy mas’ulligi asosida amalga oshiriladigan jismoniy va yuridik shaxslarning tashabbuskor mustaqil xo‘jalik faoliyati tushuniladi.

Tadbirkorlik koordinatsiya, bozor va raqobat orqali rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish mexanizmlarini yaratadi, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasida aloqalar o‘rnatadi. Tadbirkorlik faoliyati ijtimoiy omillar (o‘z ahvolini yaxshilash bo‘yicha izlanishlar olib borish) bilan ham shart-sharoitlanadi.

Tadbirkorlik faoliyati deganda ketma-ket yoki parallel ravishda amalga oshiriladigan kelishuvlar jamlanmasi tushuniladi, bu kelishuvlardan har biri puxta aniqlangan vaqt oraliqlari bilan chegaralanadi.

Tadbirkorlik faoliyati sub'yeqtisi: mamlakat fuqarolari, xorijiy davlat fuqarolari va birlashgan hamkorlar bo'lishi mumkin.

Fuqarolar yuridik shaxslar tashkil etmasdan, davlat ro'yxatidan o'tkazilgan momentdan boshlab yakka tadbirkor sifatida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin. Birlashgan hamkorlar tadbirkorlik sub'ektleri sifatida turli xo'jalik birlashmalari shaklida o'zlarining xususiy va qonuniy asosda to'plagan mulkidan foydalangan holatda maydonga chiqishlari mumkin.

Tadbirkorning rasmiy maqomi jismoniy shaxsni yollangan mehnatsiz yakka tadbirkorlik ishtirokchisi sifatida yoki qonun orqali aniqlanadigan ramkada jalb qilingan yollanma mehnat bilan korxona sifatida yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi.

Tadbirkorlik faoliyati sub'yekti quyidagi huquqlarga ega:

muassasa, korxona tuzish va qayta tashkil etish, shuningdek, korxona mulk egasi bilan shartnomalarni tuzish, bank muassasalarida hisob raqamlari ochish, hamma turdag'i hisob, kredit va cassali operatsiyalarni amalga oshirish yo'li bilan tadbirkorlik faoliyatini boshlash va yurgizish;

moliyaviy mablag'lar, intellektual mulk ob'yeqtisi, fuqarolar va yuridik shaxslar mulklari hamda alohida mulkiy huquqlarni shartnomalarni asosda jalb qilish va ulardan foydalanish;

ishlab chiqarish dasturini shakllantirish, etkazib beruvchilar va o'z mahsulotni iste'molchilarini tanlash, mahsulotga narx qo'yishni mustaqil ravishda shakllantirish va amalga oshirish;

tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish, valyuta operatsiyalarini olib borish; korxonani boshqarish bo'yicha ma'muriy-tartiblash faoliyatini amalga oshirish; korxona nomidan yoki amaldagi qonunlar va korxona ustaviga muvofiq ishchilarni yollash (ishga qabul qilish) va ishdan ozod etish;

qonunchilik, korxona shartnomasi va ustaviga muvofiq soliqlarni to'lagandan keyin va boshqa majburiy to'lovlarni amalga oshirgandan so'ng korxona tadbirkorlik faoliyati orqali erishilgan foya o'stida erkin ish yuritish;

davlat ijtimoiy ta'minot tizimlari, tibbiy va ijtimoiy sug'urta xizmatlaridan foydalanish;

tadbirkorlar ittifoqlari, assotsiatsiyalari va boshqa birlashmalarini tashkil etish; qonunda belgilangan tartibda fuqarolar, yuridik shaxslar, boshqaruv organlari harakatlarini sudda (arbitrajda) qayta ko'rish.

Shu bilan birgalikda qonun bir vaqtning o'zida tadbirkorning burchlarini ham aniqlab beradi.

*Tadbirkorning burchlari:*

- O'zbekiston Respublikasi qonunlari va tadbirkor tomonidan tuzilgan shartnomalar, jumladan korxona mulk egasi bilan tuzilgan shartnomalardan kelib chiqadigan burchlarni bajarish;

- qonunchilikka muvofiq mustaqil ravishda yoki korxona nomidan fuqarolarni yollash bo'yicha ishchilar yoki tashkilotlar bilan mehnat shartnomalari tuzish;

- tuzilgan shartnomaga muvofiq korxonaning moliyaviy holati (ahvoli) ga bog'liq bo'limgan holda hamma ishchi-xodimlar bilan hisob-kitob qilish;

- qonunchilik va jamoa shartnomasiga muvofiq yollanma asosda ishlayotgan fuqarolar uchun ijtimoiy, tibbiy va boshqa turdag'i majburiy sug'urtalarni amalga oshirish;

-nogironlar va ishslash qobiliyati (ishslash imkoniyati) chegaralangan shaxslarni ijtimoiy himoyalash bo'yicha markaziy va mahalliy hokimiyat organlari qarorlarini bajarish;

-korxona daromadlari haqidagi deklaratsiyani o'z vaqtida taqdim etish va qonunda beligilan soliqlarni ko'rsatilgan tartib va o'lchamda o'z vaqtida to'lab borish;

-kreditorlar oldida majburiyat va burchlarni ijro etishning imkonini bo'limgan vaziyatda korxonaning bankrotligi haqida ariza (xabar) berish.

Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning asosiy shakli - bu korxonadir.

*Korxona* – bu bozor iqtisodiyotida amal qiluvchi, ehtiyojbop (talab qilinayotgan) mahsulotni ishlab chiqarish, ijtimoiy ehtiyojlarni qoniqtirish maqsadida ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish va foyda olish uchun moddiy va axborot resurslardan foydalanishga asoslangan xo'jalik yurituvchi sub'ektdir. Korxona o'z faoliyatini amalga oshirish uchun mulchilik yoki to'liq xo'jalik yuritish huquqi asosida unga tegishli bo'lgan mulchilikni shakllantiradi. Quyida ko'rsatilganlar korxona mulki manbalari deb hisoblanadi: muassislarining pul va moddiy jamg'armalari; mahsulot sotilishidan, ishlar va xizmatlardan keladigan daromadlar; qimmatli qog'ozlar, kapital qo'yilma (ajratma)lar, turli darajadagi buyudjetlardan tushadigan daromadlar; aksiyalar, tanlovlari, auksion, tender va qonun bilan taqilangan boshqa manbalar orqali davlat korxonalari mulklarini sotib olish, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksiga binoan turli-tuman tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish va taqsimlash, tarqatish bo'yicha bir yoki bir nechta spetsifik funksiyalarni bajaradigan zavod, fabrika, kombinat va boshqa shu kabi shakldagi tashkilotlar yoki muassasalar korxonalar deb tan olinadi.

Tuzilmasi bo'yicha korxonalar xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarishda asoslangan mulkka egalik qiladi va o'zining majburiyatlari bo'yicha bu mulkchilikka javob beradi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy, nomulkiy huquqlarga ega bo'ladi, javobgarlikni o'z bo'yniga oladi, sudda haqiqiy mulk egasi va javobgar shaxs sifatida ishtirok etadi.

Korxonani har xil parametrlar bo'yicha sinflashtirish mumkin:

*tarmoqli mulklar bo'yicha:*

a) moddiy ishlab chiqarish sohasi yoki tarmog'i (sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi);

b) noishlab chiqarish sohasi tarmoqlari (turar-joy - kommunal xo'jaligi, transport, aloqa va h.k.);

v) aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohalari (sog'lijni saqlash, fan, madaniyat va san'at, madaniy-maishiy soha, mudofa va sh.o'.);

*sonli parametrlar bo'yicha:*

a) kichik korxonalar yoki kichik biznes – 100 kishigacha;

b) o'rta korxonalar yoki o'rta biznes – 500 kishigacha;

v) yirik korxonalar yoki yirik biznes – 500 kishidan ortiq;

sifat parametrlari bo'yicha:

- a) mulkchilik turi (xususiy, qo'shma, davlat, munitsipial, diniy, kooperativ);
- b) tashqarilayotgan mahsulot hajmi va assortimenti (turlari);
- v) tadbirdorlik faoliyati tashkiliy-huquqiy shakllari.

## **8.2. Turli qurilish korxonalarini shakllantirish va ular faoliyatining asosiy jihatlari**

Qurilish korxonasi boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar singari ko'p jihatdan mustaqil ravishda o'z faoliyati maqsad va vazifalarini aniqlaydi va shakllantiradi, rivojlanish taktikasi va strategiyasini ishlab chiqadi, moliyaviy vositalarni qidiradi, mehnat jamoasini shakllantiradi, boshqarishning tashkiliy tuzilmasini yaratish, o'ziga qarashli tashkilotlar va bo'limlarning faoliyatini tartiblash, ijtimoiy kuchlanish holatini pasaytirishda ko'plab tashkiliy masalalarni hal etadi.

Qurilish korxonasi, avvalom bor, tashkil etilayotgan vaqtida o'zi tanlagan tashkiliy – huquqiy shakl hamda joriy vaqt va kelgusi faoliyatini aniqlovchi konkret maqsad va vazifalari bilan tavsiflanadi.

Qurilish tarmog'i korxonalari bozor iqtisodiyotining quyidagi prinsiplaridan foydalanadi: tadbirdorlik faoliyatining erkinligi, to'liq mustaqil xo'jalik yuritishi, xususiy mulk bo'yicha mulkchilikning turli shakllaridan foydalanish; erkin narxlar (davlat tomonidan alohida tartiblanadigan va nazorat qilinadigan narxlardan tashqari) bo'yicha ishslash; faoliyatning antimonopolligi; ichki bozorning ochiqligi (tashqi bozorlarga chiqishning erkinligi); xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi shartnomaviy shakllar.

Xo'jalik yuritishning yangi sharoitlarida qurilish korxonalari taktika va strategiyasini tanlash quyidagi holatlar bilan shart – sharoitlanadi: buyurtmachilarning qurilish mahsuloti bilan etarli darajada ta'minlanmaganligi; qurilish-montaj ishlari qimmatlashuviga va qurilish ob'yeqtalarini tiklash muddati cho'zilishiga olib keluvchi sabablar - qurilish materiallari, konstruksiyalari, energiya, transport va boshqa xizmatlar narxlarining o'sishi.

Qurilish korxonasi boshqarish strategiyasi ro'yxatga olingan korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli va davlat tomonidan tartiblovchi qanday richaglarning unga ko'satadigan ta'siriga bog'liq bo'ladi.

O'zbekistonda barcha korxonalar o'z faoliyati maqsadiga ko'ra tijorat va notijorat korxonalariga bo'linadi.

Notijorat korxonalarining tijorat korxonalaridan farqi shundaki, tijorat korxonalarida foydani tarqatish uning asosiy maqsadi emas va foya ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanmaydi. Notijorat korxonalariga quyidagilar: turli jamg'armalar, kengashlar, jamoat va diniy tashkilotlar, iste'molchi kooperativlar kiradi.

Agar korxona davlat yoki munitsipial xususiy mulk bazasiga unitar korxona ko'rinishida asoslangan bo'lsa, u holda mulk egasi o'z-o'zini boshqarish shaklidan foydalanadi. Xususiy mulk egasi bir kishi bo'lgan holda ham o'z-o'zini boshqarish shaklidan foydalanadi.

Mulkchilikning aralash shaklida yoki mulk egalarining soni ko'p bo'lganda

tashkilotni boshqarishning eng murakkab tuzilmasi shakllanadi, masalan bunga ochiq turdag'i aksionerlik jamiyatini misol tariqasida keltirish mumkin.

Qurilish tashkiloti qurilish (ishlab chiqarish) kooperativi shaklida ro'yxatdan o'tkazilganda va faoliyat yuritganda mehnat jamoasida o'z – o'zini boshqarish shakli amalga oshiriladi.

Xo'jalik yuritishning zamonaviy sharoitlarida o'z-o'zini boshqarish shakli bilan bir qatorda mulchilik boshqaruv shakli ham keng tarqalgan. O'z-o'zini boshqarishda tadbirkor, menejment va mehnat jamoasining funksiyasi mulk egasi tomonidan to'liq hajmda konsentratsiya qilinadi. Tadbirkorning asosiy boshqaruv funksiyalari kapitalni mulk egasi (mulkdor)dan ajratish natijasida yuzaga keladi va bunday vaziyatda tadbirkor mulk egasi hamda boshqaruvchi sifatida namoyon bo'ladi. Resurslar, kapital va mehnatni birlashtirish amalga oshiriladi. Tadbirkor yakka o'zi o'zining mablag'lari, vaqt, mehnati va obro'-e'tibori bilan harakat qiladi (xavf-xatarga qo'l uradi). Menejer funksiyasi odamlarni boshqarish bo'yicha o'zining professional bilimlaridan foydalana olishi bilan belgilanadi.

Aralash mulk va faqat mulkning xususiy shakliga ega bo'lgan korxonalarda mehnat jamoasini boshqarish murakkab bo'lmaydi. Bu boshqaruv mehnat kelishuvi (shartnoma, konrakt)ni o'ziga qamrab oladi. Boshqaruv – bu kun tartibi, mehnat ta'tillarini rejalashtirish, rahbatlantirish va mehnat jamoasi xavfsizligini ta'minlash tizimini ishlab chiqish, mahsulot sifatini nazorat qilish demakdir. Mehnat jamoasi o'z-o'zini boshqarishida ham amalda aynan xususiy mulkchilikni boshqarishdagi funksiyalardan foydalaniлади.

*Davlat tomonidan tartibga solish, nazorat qilish.* Bu tegishli richaglar va manfaatlар – soliqlar, imtiyozlar (engilliklar) va turli ta'qiqlashlardan foydalanimagan holda huquqiy, iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy shakllarda namoyon etiladi. Bevosita (to'g'ridan – to'g'ri) davlat tomonidan tartiblash qurilish tashkilotlari ish holatiga ta'sir ko'rsatadigan me'yoriy aktlar, holatlar va tadbirlar ishlab chiqilishi va funksialashuvida o'z aksini topadi.

Bilvosita davlat tomonidan tartiblash esa soliq, moliya-kredit, amortizatsiya va narx-navo siyosatining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishida namoyon bo'ladi. Bevosita va bilvosita davlat tomonidan tartiblashda hamma ishchi-xodimlar hayoti va faoliyatidagi manfaatlarni ifoda etuvchi ijtimoiy spektrga tegishli bo'lgan savol hamda masalalar o'z dolzarbligini hech ham yo'qotmaydi.

### **8.3. Tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashda davlatning o'rni**

Xususiy tadbirkorlik faoliyatini himoya qilishning huquqiy mexanizmlari va kafolatlarini yanada mustahkamlash, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi vositalarini yaratish, tadbirkorlik sub'ektlarining kredit resurslaridan foydalanimishini kengaytirish, shu asosda yangi ish o'rinlarini tashkil etishni rag'batlantirish va respublika bank-moliya tizimi faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida 2017 yil 17 avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3225-sonli qarori imzolandi. Unga ko'ra::

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘arma) davlat muassasasi shaklida tashkil etilsin va kichik tadbirkorlik sub’ektlariga quyidagi shaklda moliyaviy yordam ko‘rsatish uning asosiy vazifasi etib belgilansin:

b) kichik tadbirkorlik sub’ektlariga tijorat banklari kredit miqdorining 50 foizigacha, ammo 2 milliard so‘mdan ko‘p bo‘limgan hajmdagi kreditlari bo‘yicha kafil bo‘lish;

v) tijorat banklarining kreditlari bo‘yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun quyidagi ekvivalentda kompensatsiya berish:

milliy valyutada, qiymati 8 milliard so‘mdan oshmaydigan miqdordagi qayta moliyalashtirish stavkasining 1,5 baravaridan oshmaydigan foiz stavkasida — 5 foizli punkt miqdorida;

milliy valyutada, qiymati 8 milliard so‘mdan oshmaydigan miqdorda, qayta moliyalashtirish stavkasining 1,5 baravaridan oshmaydigan foiz stavkasida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik sub’ektlari va keng aholi qatlamiga mikrokreditlar ajratish tizimini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2017 yil 17 martdagি PQ-2844-son qaroriga 2-ilovada ko‘rsatilgan tumanlarda, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 martdagи PF-5386-son Farmoni bilan tasdiqlangan «Obod qishloq» dasturi doirasida amalga oshiriladigan loyihalalar uchun — 8 foizli punkt miqdorida;

milliy valyutada, qiymati 8 milliard so‘mdan oshmaydigan miqdorda — yosh tadbirkorlar tashabbusi bilan ishlab chiqilgan loyihalarni amalga oshirish uchun O‘zbekiston YOshlar ittifoqining tavsiyasi bilan jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘lari hisobidan ajratiladigan imtiyozli kreditlar bo‘yicha — banklar xarajatlarini qoplash uchun 3 foizli punkt miqdorida;

xorijiy valyutada, qiymati ekvivalentda 8 milliard so‘mdan oshmaydigan miqdorda — tijorat banklari tomonidan belgilangan foiz stavkasining 40 foizi, ammo 3 foizdan ortiq bo‘limgan miqdorda;

xorijiy valyutada — 2017 yil 5 sentyabrgacha issiqxonalar qurish, intensiv bog‘lar yaratish vasovutgichlar qurish uchun xalqaro moliya institutlari kredit liniyalari hisobiga ajratilgan valyuta kreditlari bo‘yicha — belgilangan foiz stavkasining 50 foizi miqdorida.

Jamg‘arma bosh bitimlar asosida tijorat banklari orqali milliy va xorijiy valyutada kichik tadbirkorlik sub’ektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlaydi.

## 2. Quyidagilar Jamg‘arma resurs bazasining manbalari etib belgilansin:

Toshkent shahridagi Kichik sanoat zonalari kafolat jamg‘armasini va Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish kafolat jamg‘armasini keyinchalik tugatish va ularning tegishli ravishda 50 million dollar hamda 100 milliard so‘m miqdoridagi pul mablag‘lari shaklida ushbu qarorning 1-ilovasida\* qayd etilgan tashkilotlar badallari hisobidan shakllantiriladigan Jamg‘armaning boshlang‘ich badali;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining ushbu maqsadlar uchun har yili tasdiqlanadigan ajratmalar doirasidagi mablag‘lari, 2017 yilda Jamg‘arma resurs bazasini shakllantirish uchun — 100 milliard so‘m;

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik sof daromadining O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga yo‘naltiriladigan qismi;

xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumat tashkilotlari va boshqa donorlarning Jamg‘arma zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun jalg‘ etiladigan kreditlari (qarzlari) va grantlari;

Jamg‘armaning, jumladan, depozitlarni joylashtirish, kafolatlar berishdan tushadigan daromadlari, shuningdek, qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa manbalar.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 2018 yildan boshlab, O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan Jamg‘arma resurs bazasini to‘ldirish uchun har yili mablag‘ ajratishni ko‘zda tutsin.

3. Belgilansinki, Jamg‘arma kichik tadbirkorlik sub’ektlariga:

a) tijorat banklarining kreditlari bo‘yicha kafolatlar beradi, kuyidagilar nazarda tutilgan kreditlar bundan mustasno:

avval olingen kreditlar yoki boshqa har qanday qarzlarni qaytarish;

spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish;

savdo-vositachilik tashkilotlari va umumiylar ovqatlanish korxonalarining aylanma mablag‘larini shakllantirish;

savdo ob’ektlari va umumiylar ovqatlanish ob’ektlari qurilishini moliyalashtirish;

tavakkalchilikka asoslangan qimor o‘yinlari va boshqa o‘yinlarni tashkil etish, shuningdek, ushbu maqsadlar uchun uskunalar xarid qilish.

b) tijorat banklarining kuyidagi loyihalarni moliyalashtirish uchun ajratiladigan kreditlari bo‘yicha foiz xarajatlarini qoplashga kompensatsiyalar beradi:

qishloq xo‘jaligida, birinchi navbatda, energiya samarador zamonaviy issiqxonalarini tashkil etishga, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, quyonchilik, asalarichilik, uzumchilik va bog‘dorchilikni, shu jumladan intensiv bog‘larni rivojlantirishga;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishslash sohasida, meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash bo‘yicha infratuzilma va ushbu mahsulotlarni transportda tashish bilan bog‘lik logistika markazlarini tashkil etishga;

ko‘p kvartirali uylarda umumiylar foydalilaniladigan joylarni xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruvchi kompaniyalar tomonidan obodonlashtirish va ta’mirlashga yo‘naltirilgan loyihalar;

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni ko‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasini boshqarish bo‘yicha Kengash (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘armani boshqarish bo‘yicha kengash) belgilaydigan tadbirkorlik faoliyatining boshqa yo‘nalishlaridagi loyihalar.

3<sup>1</sup>. SHunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq Jamg‘arma tomonidan taqdim etiladigan kafolatlarning maksimal umumiylarini miqdori Jamg‘arma mablag‘larining 10 barobari miqdoridan oshmasligi kerak.

**Tayanch iboralar:** Korxona. Tadbirkorlik. Tijorat korxonalari. Notijorat korxonalari. Davlat va nodavlat korxonalari. Mikrofirmalar. Kichik korxonalar. O’rta korxonalar. Yirik korxonalar.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. “Korxona” va “Tadbirkorlik faoliyati” tushunchalarining mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
2. Tadbirkorlik faoliyatining asosiy shakllarini aytинг.
3. Qurilish korxonalari turkumlanishi va ular faoliyatining asosiy jihatlari nimalardan iborat?
4. Tijorat va notijorat tashkilotlari farqi nimada?
5. Qurilish korxonasi faoliyatini amalga oshirishda qaysi bozor iqtisodiyoti tamoyillaridan foydalniladi?

## **9-MAVZU: QURILISHDA MEHNAT RESURSLARI VA MEHNAT UNUMDORLIGI**

---

### **Reja:**

- 9.1. Mehnat resurslari va mehnat unumdorligi mohiyati.
- 9.2. Mehnat unumdorligini o’stirish omillari va rezervlari.
- 9.3. Mehnat unumdorligini o’lchash metodlari.
- 9.4. Mehnat unumdorligini baholash.

### **9.1. Mehnat resurslari va mehnat unumdorligi mohiyati**

Hozirgi zamon sharoitlarida mehnatni tashkil etish va uning unumdorligini oshirishga alohida e’tibor ajratmoq zarur, chunki ular iqtisodiy o’sish va taraqqiyotning yagona manbai deb hisoblanadi. Biroq keyingi yillarda sanoat – ishlab chiqarish salohiyati, jumladan ish o’rinlarining kompensatsiyalashmagan holda yo‘qolish jarayoni keskin kuchaydi. 1991 yildan boshlab qator tarmoqlarda ishlab chiqarish quvvatlarining yo‘qolishi yangilarini ishga tushirish sonidan oshib ketdi, yangi ish o’rinlarini yaratish yanada qisqarmoqda. Bundan tashqari qurilishda birinchi navbatda sanoat qurilishining kamayishi evaziga ayniqsa jismoniy ish o’rinlari soni jadal qisqarmoqda, ya’ni mantiq juda oddiy: mahsulotlar sotilishining chegaralanishi mashg’ullik soni kamashiyiga olib keladi, buning oqibatida esa jismoniy ish o’rinlari ularning zarur bo‘lmay qolganligi tufayli qisqaradi.

Shuni ta’kidlash joizki, yuzaga kelgan iqtisodiy vaziyatda mehnat samaradorligini o’stirish muammosi eng murakkab masalalardan biri bo‘lib qolaveradi, lekin uni echish bilan ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini qurishga muvaffaqiyatli erishish mumkin. Muammoni echishning mumkin bo‘lgan mexanizmi shundan iboratki, bunda milliy ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo‘naltirilgan moliya-kredit va eksport-import siyosatini olib borish, jamg’arma va investitsiyalashga bo‘lgan real manfaatlarning harakatlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, imkoniyatlar va ishlab chiqarish samaradorligini hisobga olgan holda mulkni davlat tasarrufidan chiqarishni amalga oshirish, mamlakatda to‘plangan intellektual va mehnat salohiyatiga oqilona yondashish zarur bo‘ladi.

Yuzaga kelgan vaziyat korxona ishchi-xodimlari singari davlat organlari tomonidan ham mehnat unumdorligini oshirishga yo‘naltirilgan kardinal chora – tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. SHu sababli mehnat unumdorligi, uning o‘sishi hamma tarmoqlar va ayniqsa qurilish uchun juda dolzarbdir.

Mehnat unumdorligining alohida korxonalar va butun jamiyat rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etishi mehnat unumdorligi darajasini ko‘tarish va uniing o‘sishiga yordam beradigan rezervlarni yuzaga keltirishga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omillarni o‘rganish naqadar zarur ekanligidan darak beradi.

*Mehnat unumdorligi* – bu ishlab chiqarish jarayonida safrflangan mehnat samaradorligini belgilovchi ko‘rsatkichdir. Mehnat unumdorligiga mumiy tushuncha bera turib, aytish mumkinki, mehnat unumdorligi mahsulot miqdori bilan aniqlanadi, ya’ni ishchilar tomonidan vaqt birligida yaratiladigan iste’mol mollarining miqdori bilan o‘lchanadi.

## **9.2. Mehnat unumdorligini o‘stirish omillari va rezervlari**

*Omillar* – bu harakatlantiruvchi kuch va biron – bir jarayon va hodisaga ta’sir ko‘rsatuvchi sababdir. Mehnat unumdorligiga ta’sir ko‘rsatish xarakteri va darajasiga bog‘liq ravishda omillarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: moddiy – texnik, tashkiliy – iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik, tabiiy-iqlimiyl, siyosiy, xususiy.

*Moddiy – texnik* omillar yangi texnika, ilg‘or texnologiyalar, xom-ashyolar va materiallarning yangi turlaridan foydalanish bilan bog‘langandir. Ishlab chiqarishni takomillashtirishga quyidagilarni amalga oshirish bilan erishish mumkin:

- jihozlarni modernizatsiyalash;
- ma’naviy eskirgan jihozlarni ancha unumdar bo‘lgan yangi jihozlarga almashtirish;
- ishlab chiqarish mexanizatsiyasi mavqeini oshirish orqali: qo‘lda bajariladigan ishlarni mexanizatsiyalashtirish, kichik mexanizatsiya vositalarini keng tadbiq qilish, uchastkalar va sexlarda bajariladigan ishlarni kompleksli mexanizatsiyalashtirish;
- ishlab chiqarishni avtomatlashtirish;
- yangi ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash;
- xom-ashyolar yangi turlaridan, progressiv materiallardan foydalanish.

Ilmiy-texnik taraqqiyotni mehnat unumdorligini har tomonlama oshirishning bosh manbai sifatida ko‘rib chiqish taqoza etiladi. Hozirgi zamon sharoitlarida fan-texnika taraqqiyoti yutug‘larini ishlab chiqarish jarayoniga tadbiq etish investitsiyalar ajratilishini talab etadi, birinchi navbatda amaldagi ishlab chiqarishni rekonstruksiya qilish va texnik jihatdan qayta jihozlashga investitsiyalarni jalb etish maqsadga muvofiqdir.

Moddiy-texnik omillarning juda muhimligi, ularning moddiylashgan mehnat iqtisodiyotini ta’minlashi bilan izohlanadi.

*Tashkiliy-iqtisodiy* omillar mehnatni tashkil etish, ishlab chiqarish va boshqarish mavqeい bilan aniqlanadi. Unga ishlab chiqarish boshqaruvini tashkil etishni takomillashtirish: boshqaruv apparati tuzilmasi, ishlab chiqarishni boshqarish

tizimi, ishlab chiqarishni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlarini tadbiq etish va rivojlantirish kiradi.

*Ijtimoiy-psixologik* omillar mehnat jamoalari ahilligi, ularning ijtimoiy – demografik tarkibi, tayyorgarlik darajasi, mehnat faolligi, bo‘limlar va butun korxona bo‘yicha ma’naviy-ruhiy muhitni shakllantiradigan rahbarlik qilish usuli bilan aniqlanadi.

*Tabiiy-iqlimi*y omillar qurilishning borishiga katta ta’sir ko‘rsadadi, chunki qurilish ishlarining aksariyat qismi ochiq osmon ostida bajariladi. Bu omillarni qurilish jarayonini loyihalashning boshlang‘ich bosqichlaridayoq hisobga olish taqoza etiladi.

*Siyosiy va qonuniy* omillar soliqqa tortish, investitsiyalash, lizenziyalash, bojxona va shu kabi jarayonlarni tartiblashtiradi: xalq xo‘jaligi hamma tarmoqlarini, jumladan qurilish sohasini ham rivojlantirish yo‘nalishini aniqlab beradi.

*Xususiy omil.* Mamlakat iqtisodiy mexanizmida ishlab chiqarish vositalari va mehnat natijalariga bo‘lgan mulkchilik shakllari o‘zgarishi ro‘y berayotgan hozirgi zamon sharoitlarida qurilish iqtisodiyotida ham jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Bunday o‘zgarishlar tadbirkorlik va raqobat bazasida yangi iqtisodiy munosabatlar yuzaga kelishiga olib keladi, insonni ishlab chiqarish vositalari bilan bilvosita muloqatda bo‘lishdan ozod etish (ya’ni dastgohlarni, mexanizmlarni masofadan boshqarishni yo‘lga qo‘yish) uchun sharoitlar yaratilyapti.

Yuqorida sanab o‘tilgan barcha omillar biri-biri bilan o‘zaro bog‘liqlika ega bo‘lganligi tufayli ularni kompleks holda o‘rganish taqoza etiladi. Bunday o‘rganish shuning uchun zarurki, bunda har bir omilning ko‘rsatadigan ta’siri aniq baholanadi, chunki ularning ta’sirlari hech qachon bir xil bo‘lmaydi. Ulardan ba’zilari mehnat unumdarligining ustivor o‘sishini ta’minlaydi, boshqa omillar ta’siri esa o‘zgaruvchan bo‘ladi.

Korxona mehnat unumdarligini o‘stirish rezervlari deganda ishlatilmayotgan ishlab chiqarish resurslari tushuniladi. Odatda O‘zbekiston korxonalarida mehnat unumdarligini o‘stirish rezervlari ichki ishlab chiqarish rezervlari, mehnat sig‘imini pasaytirish, ish vaqtidan unumli foydalanish, moddiy resurslarni tejash va mehnat qurollarini asrab–avaylab ishlatish rezervlariga bo‘linadi.

Vaqt bo‘yicha foydalanishga ko‘ra mehnat unumdarligi rezervlari *joriy va perspektiv* rezervlarga bo‘linadi.

*Joriy rezervlar* yaqin kelajakda amalga oshirilishi mumkin, qoidaga ko‘ra ular ahamiyatli tarzdagi yagona vaqtli mablag‘larni talab etmaydi. Ularga yaxshi jihozlardan foydalanish, yaroqsiz jihozlarni ishlab chiqarish tizimidan olib tashlash, mehnatga haq to‘lashning eng ratsional va samarador (effektiv) tizimlarini qo‘llash, korxonalarda mehnatni tashkil etishni takomillashtirish va uni me’yorlashtirish kiradi.

*Perspektiv rezervlar* odatda ishlab chiqarishni qayta qurishni, yangi texnologiyalarni tadbiq etishni va sh.o‘. larni talab etadi, buning uchun qo‘shimcha kapital mablag‘lar va ishlarni amalga oshirish uchun ahamiyatli tarzdagi muddatlar zarur bo‘ladi.

Unumdarlikni mohiyat jihatdan aniqlash, aynan mahsulot hajmining uni ishlab chiqarishga sarflangan mablag‘larga bo‘lgan nisbatidan kelib chiqqan holda

unumdorlik to‘rtta holatda oshishi mumkin:

- mahsulot hajmining oshishi, sarf-xarajatlarning esa pasayishi (klassik holat);
- mahsulot hajmining sarf-xarajatlarga qaraganda tez o‘sishi;
- mahsulotning hajmi o‘zgarishsiz qoladi, sarf-xarajatlar esa pasayadi;
- sarf-xarajatlarning pasayishiga nisbatan mahsulot hajmining kam suratlar bilan pasayishi.

Mehnat unumdorligini o‘stirishni ta’minlash bo‘yicha boshqarish strategiyasi tanlash ushbu holatlardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

### **9.3. Mehnat unumdorligini o‘lchash metodlari**

Turli tashkilotlardagi mavjud rezervlarni baholash, mehnat unumdorligining darajasini o‘lchash, o‘tgan bir qator yillar davomida mehnat unumdorligining dinamikasini yuzaga chiqarish uchun qurilishda mehnat unumdorligini to‘g‘ri (ob‘yektiv) o‘lchash muhim ahamiyat kasb etadi.

Qurilishda mehnat unumdorligining darajasini ikkita asosiy ko‘rsatkich bilan aniqlash mumkin: vaqt birligida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori (*unumdorlik*), va mahsulot birligini tayyorlashga sarflanadigan vaqt (*mehnat sig‘imi*).

Mehnat unumdorligi mahsulot hajmi va sarflangan mehnat qanday birliklarda o‘lchanishiga bog‘liq ravishda turli usullar bilan aniqlanadi.

O‘lchash metodlari:

1. mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish hajmi;
  - 1.1. naturaviy;
  - 1.2. me’yoriy;
  - 1.3. narxli: jamlanma (valovoy), tovarli, shartli toza, sof mahsulotli.
2. Sarflangan mehnat (mehnat sarfi):
  - 2.1. kishi-soatlar;
  - 2.2. kishi-kunlar;
  - 2.3. personalning o‘rtacha ro‘yxatli soni.

*Naturaviy metod.* Ishlab chiqarishning naturaviy metodi ish turlari bo‘yicha ishchining kasbi bo‘yicha ish unumini natural ko‘rsatkichlarda aniqlab beradi (terilgan g‘ishtning kubometrdagi hajmi, konstruksiyalarning kubometri, yuzalarning kvatrat metrlari) yoki yakuniy mahsulotni bitta ishchiga to‘g‘rieladigan hajmda umumiyligi o‘lcham birliklarida o‘lchash (yashash maydoning kvadrat metrlari, quvur o‘tkazgichlarning kilometri va h.k.).

Ish turldari bo‘yicha *naturaviy ko‘rsatkichini* (ishchining naturaviy ko‘rsatkichlardiagi ish unumi ni) natural ko‘rsatkichlarda (kubometrlar, pogonometrlar, kvatrat metrlar) da o‘lchangan alohida ish turi hajmining ushbu ish turini bajargan ishchilar soniga (kishi) nisbati orqali aniqlash mumkin.

Natural ko‘rsatkich (ishlab chiqarilgan naturaviy miqdor) mehnat unumdorligining eng ob‘yektiv va ishonchli ko‘rsatkichi deb hisoblanadi. Ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorining naturaviy o‘lchamlardagi ko‘rsatkichlari alohida

birgadalar va ishchilarining mehnat unumdorligini aniqlash hamda taqqoslash, ularning sonini rejashtirish, professional va saviyaviy (kvalifikatsion) tarkibini, turli tashkilotlarda bir xil tipli ob'yeqtarni qurishda bir jinsli ishlarni bajarishdagi mehnat unumdorligini qiyoslash imkonini beradi. Biroq unumdorlikning bunday ko'rsatkichlari ham kamchiliklardan holi emas. Masalan ular qurilish har xil jinsli ishlarning bir nechta turlarining bajarilishida tashkiloti bo'yicha mehnat unumdorligining umumlashgan ko'rsatkichini aniqlash imkoniyatini bera olmaydi, tugatilmagan ishlab chiqarish qoldiqlarining o'zgarishini hisobga olmaydi.

*Me'yoriy metod.* Mehnat unumdorligini o'lchanishning me'yoriy metodi me'yorlarda ko'satilgan mehnat sarfi asosida faktli mehnat sarfining aniq ish hajmiga nisbatini ko'rsatadi, ya'ni ishchilar tomonidan ishalb chiqarish me'yorlarining bajarilish darajasini tavsiflaydi. Me'yoriy ko'rsatkich ishlar mehnat sig'imining me'yor bo'yicha (kishi-kunlar) nisbatini 100% ga ko'paytirish orqali ifodalab beradi. Me'yoriy metod yoxud me'yoriy vaqtning qisqarish darjasini, yoki ishlab chiqarish me'yorining bajarilish darjasini (miqdori)ni aniqlash imkonini beradi.

*Narxli metod.* Mehnat unumdorligini aniqlashning narxli metodi eng ko'p talqalgan bo'lib, bunda mahsulot miqdori smetaviy narxda yoki shartnoma asosida kelishilgan narxda hisobga olinadi. Bu metodda mehnat unumdorligining darjasini asosiy va yordamchi ishlab chiqarish, ya'ni qurilish tashkilotining qurilish – ishlab chiqarish personali bo'yicha bitta ishchiga to'g'ri keladigan qurilish-montaj ishlarining smetaviy narxlari orqali o'lchanishi bilan tavsiflanadi.

Narxli ko'rsatkichni qurilish tashkiloti (qurilish boshqarmasi, qurilish tresti) bo'yicha hamda birlashma, vazirlik miqiyosida umumiyligi mehnat unumdorligini belgilaydigan ko'rsatkich deb hisoblash mumkin. Ushbu ko'rsatkichning ustunlik tomonlari – hisoblashning oddiyligi, turli ob'yeqtlar, qurilishlarda unumdorlikning darajasini taqqoslash imkoniyati mavjudligi, o'tgan qator yillar davomida unumdorlikning dinamikasini aniqlash, uning kamchiliklari – jonli mehnat samaradorligiga hech qanday aloqasi bo'lmanan ishlarning materialli sig'imga, mehnat qurollari va predmetlarining dinamikasiga bo'lgan ta'siri. Axir qurilish – montaj ishlari orqali yig'ma temirbetonni montaj qilishda materiallar sig'imi (hajmi, miqdori) 70 - 75% ga chiqadi, yer ishlarida esa materiallar sig'imi (hajmi, miqdori) atigi 5 - 8% ni tashkil etadi. SHuning uchun bajarilayotgan ishlarning strukturali siljishini hisoblashda (yoki hisobga, ya'ni inobatga olishda) muammo yuzaga keladi.

*Yalpi mahsulot narxi bo'yicha ko'rsatkich.* Bu korsatkich asosida ko'p yillar mobaynida mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi rejashtirilda va hisobga olindi, bu shunisi bilan ajablanarligi, turli korxonalarda va turli yillarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar qandaydir vaqt holati bo'yicha korxonalarining yagona ko'tara narxlari bilan hisoblandi. Bu esa turli yillarda narxlarning o'zgarishini belgilash imkonini berdi va bu kreteriy bo'yicha ko'rsatkichlarni taqqoslash (qiyoslash)ga erishildi. Biroq mahsulot narxi nafaqat jonli mehnat sarfini o'zida aks ettiradi, balki oldindan kooperatsiya bo'yicha olingan xom-ashyo, materiallar, sotib olingan yarim fabrikatlar, detallar va uzellarni ham o'zida aks ettirmog'i lozim. Ancha qimmat bo'lgan xom-ashyoning qayta ishslashga yo'naltirilishi yalpi mahsulot narxini oshirib yuboradi va shunga mos ravishda korxona mehnat unumdorligi ishchilarining

qandaydir ishtirokisiz ham oshib ketadi. Yalpi mahsulot narxiga shuningdek, tugallanmagan (yakunlanmagan) mahsulot narxining farqi ham kiradi. Bu esa korxonalarga yalpi mahsulot narxini oshirish imkoniyatini beradi, shu bilan bir qatorda tugallanmagan ishlab chiqarish hajmlarini oshirish evaziga mehnat unumdarligi ko'rsatkichi ham oshadi.

*Tovarli mahsulot narxining ko'rsatkichi* tugallanmagan ishlab chiqarish hajmlari ta'siridan holidir, lekin bu ko'rsatkich yalpi mahsulot ko'ratkichiga tegishli bo'lgan boshqa kamchiliklardan holi emas.

*Sof mahsulot ko'rsatkichi* – yangidan yaratilgan narx korxonaning mahsulot yaratishdagi hissasi to'g'risida to'liq taasurotni beradi, chunki uning qiymatiga xomashyo, materiallar, sotib olingan yarimfabrikatlar va uzellarga sraflangan mablag'lar ta'sir ko'rsatmaydi, u amortizatsiya chegirmalaridan ozoddir.

$$P = Z + Pr, \quad (9.1)$$

bu yerda  $Z$  – korxona ishchilarining (chegirmalarsiz) to'liq maoshi;  $Pr$  – korxonaning foydasi.

*Sof mahsulot* yangidan yaratilgan narxni aniq tavsiflaydi, agar qachonki, mahsulot bozor narxlarida ayriboshlansa (sotilsa). Lekin bizning sharoitda monomol narxlarning ta'siri katta bo'lib, ular yangi narxlar qo'yilishida korxonaning real hissasini aniq ko'rsatmaydi va sof mahsulot uchun narxning o'rnatilishi muammoli holatga aylanib qoladi.

*Shartli – sof mahsulot ko'rsatkichi* o'ziga to'liq ish haqini va foydani, shuningdek, asosiy vositalarning amortizatsion chegirmalarining yig'indisini, ya'ni qilingan mehnat qismini ham kiritadi:

$$P = Z + Pr + A, \quad (9.2)$$

bu yerda  $Z$  – korxona hamma ishchilarining (chegirmalarsiz) to'liq maoshi (ish haqi);  $Pr$  – korxonaning foydasi;  $A$  – amortizatsiya chegirmalarining yig'indsi.

Bu ko'rsatkichning ijobiy tomoni shundaki, yangidan yaratiladigan narxni tavsiflash bilan u taqqoslash imkonini beradi.

Bu ko'rsatkich ishlab chiqarishning materialli sig'imiga bog'liq emas, bunda ishlab chiqarilayotgan mahsulotning «qulay» va «noqulay» mahsulotga ajratilishi inkor etiladi. Bundan tashqari kooperativ etkazib berish hajmining hamda mahsulotni qaytadan hisobga olishning mehnat unumdarligi ko'rsatkichiga ko'rsatadigan ta'siri bartaraf etiladi. Ulardan oxirgisi ishlab chiqarishni kombinaziyalashtirishda va ishlab chiqarish hamda sanoat birlashmalarini yaratishda (tuzishda) kam bo'limgan muhim ahamiyatga egadir. Lekin ishlab chiqarish hajmini o'lchashning bunday o'lchamidan foydalanish amaliyoti turli buyumlarning ancha ahamiyatli tarzdagi rentabelligi va ko'tara narx orqali olinadigan foydadagi korxona ulushlarining katta farqlari mahsulot ishlab chiqarishda korxonaning real hissasini taqqoslashda va foydani

tegishli miqdorlardagi ko‘rinishda aks ettirishda ishonchli natijalarni bermadi.

*Mehnat sarflari* bajarilgan kishi – soatlar soni bilan ancha aniq ifodalanadi. Lekin ularni hisoblash juda ko‘p mehnatni talab qiladi.

Kishi – kunlar mehnat sarflarining kishi – soatlarda o‘lchangandagiga qaraganda kamroq bo‘lgan natijani beradi, chunki kishi – kunlar ichki smenali to‘xtab qolishlarni hisobga olmaydi.

Ishchi xodimlarning o‘rtacha oylik soni kishi – kunlariga qaraganda kun mobaynidagi to‘xtalishlarni hisobga olmaydi, shunga qaramasdan aynan ishchi-xodimlarning o‘rtacha oylik sonidan yillik mehnat unumdarligini hisoblashda foydalaniladi, chunki bu turli korxonalarining, tarmoqlarning va umuman mamlakat bo‘yicha ko‘rsatkichlarning qiyoslanishini ta’minlaydi. Korxona xo‘jalik faoliyatini ichki ishlab chiqarish bo‘yicha tahlil qilishda soatli va kunlik mehnat unumdarligi ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi. SHunday qilib, unumdarlikni aniqlash uchun mahsulot ishlab chiqarish hajmi va mehnat sarflarining tegishli ko‘rsatkichlari tanlanadi va birinchi ko‘rsatkichlar ikkinchi ko‘rsatkichlarga bo‘linadi.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi va mehnat sarflari ko‘rsatkichlarining ustunligi va kmachiliklarini tahlil qilish asosida shuni ta’kidlash joizki, ularni mumkin bo‘lgan har qanday uyg‘unlashtirish ma’lum bir iqtisodiy mazmunni kasb etadi, ularni tanlash esa mehnat unumdarligi darajasini o‘lchashning konkret masalalari bilan aniqlanadi. Kornxonada unumdarlikni aniqlashning eng keng qo‘llaniladigan (universal) usuli yil davomida o‘rtacha ro‘yxat bo‘yicha shu korxona bitta ishchisiga to‘g‘ri keladigan korxona tomonidan bir yilda ishlab chiqarilgan sof mahsulotning miqdorini hisoblashdan iboratdir.

Mehnat unumdarligining boshqa ko‘rsatkichi – mehnat sig‘imi - mahsulot birligini ishlab chiqarishga to‘g‘ri keladigan jonli mehnat sarfining yig‘indisini belgilaydi.

Mahsulot birligini ishlab chiqarish bo‘yicha mehnat sig‘imini aniqlash uchun hamma ishlab chiqarishga sarflangan sarf – xarajatlarni ma’lum vaqtida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga bo‘lish kerak bo‘ladi. Mehnat sig‘imi ko‘rsatkichi qaralayotgan qurilishga aloqador bo‘limgan boshqa omillarning ta’siriga uchramaydi. SHuning uchun mahsulot (ish)ning faktli mehnat sig‘imi narxli ishlab chiqarish ko‘rsatkichiga nisbatan ancha to‘g‘ri bo‘lib, mehnat unumdarligining darjasini va dinamikasini tavsiflab beradi.

Mehnatni rejalashtirish va tahlil qilish maqsadida alohida operatsiyalar, buyumlar, ishlarning mehnat sig‘imi hisoblanadi.

Texnologik mehnat sig‘imi ( $T_1$ ) asosiy ishchi-bajaruvchilar va vaqtbay ishlaydiganlarning mehnat sarflari bilan aniqlanadi. U ishlab chiqarish operatsiyalari, detallar, tugunlar va tayyor mahsulotlar bo‘yicha hisoblanadi.

Xizmat ko‘rsatish bo‘yicha mehnat sig‘imi ( $T_2$ ) asosiy sexlarning yordamchi ishchilarining hamda yordamchi sexlar va bo‘limlardagi ishchilarining, ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatayotgan hamma ishchilarining mehnat sig‘imini namoyon etadi. Uni har bir operatsiya, buyum bo‘yicha yoki buyumning texnologik mehnat sig‘imiga proporsional hisoblash mumkin.

Ishlab chiqarish bo‘yicha mehnat sig‘imi ( $T_3$ ) texnologik va xizmat ko‘rsatish

bo‘yicha mehnat sig‘imlari yig‘indisidan tashkil topadi, ya’ni bu asosiy va yordamchi ishchilarning ish birligini bajarishga sarflagan mehnatini ifodalaydi.

Boshqarish bo‘yicha mehnat sig‘imi ( $T_3$ ) rahbarlar, mutaxassislar, xizmatchilar tomonidan sarflangan mehnat yig‘indisidan iborat bo‘ladi. Bunday sarflarning bir qismi bevosita buyumlarning tayyorlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu buyumlargacha bevosita (bevosita) tegishli bo‘ladi, mehnat sarflarining boshqa qismi esa buyumlarning tayyorlanishiga bevosita bog‘liq bo‘lmaydi, ishlab chiqarish mehnat sig‘imiga proporsional bo‘lgan holatda bumlarning tayyorlanishiga tegishli bo‘ladi.

Eng yaxshisi, mahsulotning to‘liq mehnat sig‘imi ko‘rsatkichidan foydalanish juda qulay bo‘lib, bu ko‘rsatkich barcha kategoriyalardagi ishchilarning mehnat sarflar (kishi-soatlar)ini o‘z ichiga oladi va u quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi

$$T = T_1 + T_2 + T_3 + T_4 \quad (9.3)$$

Mehnat sig‘imi hisoblash usuliga bog‘liq ravishda me’yoriy, faktli, rejali mehnat sig‘imlariga ajratiladi.

Mehnat sig‘imi ko‘rsatkichlari mehnat unumdorligining darajasini hisoblash, yangi konstruksiyalar, materiallar va texnologik jarayonlarni qo‘llashning samaradorligini hamda qurilish–montaj ishlarining mexanizatsiyalashganligini baholash uchun zururdir. Mehnat sig‘imi ko‘rsatkichlaridan qurilishda mehnat resurslariga bo‘lgan ehtiyojlarni hisoblashda foydalaniladi.

Mehnat unumdorligini hisoblash (o‘lchash)ning metodlarini har doim takomillashtirib borish taqoza etiladi, shu bilan u yoki boshqa omillardan masadli yo‘nalishda foydalanishni va konkret iqtisodiy maqsadlarni hisobga olgan holda mehnat sig‘imining samradorligi (natijaviyligi)ni ob‘yektiv (xolisona) baholashga erishish mumkin. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitlarida boshqarishning zamonaviy iqtisodiy metodlarida shunday o‘lcham birliklarini izlab topish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqdaki, ular natijalar va sarf-xarajatlarni bir-biriga bog‘lash orqali alohida ishchilarning xo‘jalik hisobidagi fanfaatlarini hisobga olgani kabi butun jamiyatning ham manfaatini ifodalamog‘i lozim. Natija sifatida foyda, daromad tushunilsa, sarf sifatida esa mehnatga haq to‘lash fondi tushuniladi.

*Boshqarishning mehnat unumdorligi o‘sishi omillaridan foydalaniladigan tashkiliy-iqtisodiy metodlari.* Bozor turidagi iqtisodiyotga o‘tish boshqarishning mehnat unumdorligini o‘stirishga qaratilgan an’naviy yondashuvlarini qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Ushbu sohada fan va amaliyot orqali ko‘p yillar davomida nimalar to‘plangan bo‘lsa, hammasining ijobiy va salbiy tomonlarini xolisona baholash zarurdir. Ishlab chiqarishni faqat uning texnik-iqtisodiy mazmuni jihatidan ko‘rib chiqilishini butunlay maqsadga muvofiq deb bo‘lmaydi.

Ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy mazmuni ishlab chiqarishning omillari bilan bog‘liqlikda aniqlanadi. Texnologiyalar, texnika, materiallarning oshib borayotgan imkoniyatlari mehnatni, ishlab chiqarishni va boshqarishni tashkil etish ta’siri ostida amaliyotga tadbiq etiladi. Mehnat faqat shundagina samarador bo‘ladiki, qachonki, uning tashkil etilishi ishlab chiqarish va boshqarishning kompleks tarzda tashkil etilishi bilan birgalikda amalga oshirilsa, lekin bu shart har doim ham

bajarilavermaydi. Ishlab chiqarishni tashkil etish – bu, mohiyatiga ko‘ra, mehnatning moddiy elementlarining funksiallashuvini ta’minlash bo‘lsa, boshqarishni tashkil etish esa – mehnat munosabatlarining funksialla-shuvidir. Kompleks tashkil etilgan mehnat faoliyatini ish joyiga, struktura birligiga va butun korxonaga qo‘llash juda zarurdir: bu mehnatni tashkil etishning tor tushunchasidan texnologik faoliyatga o‘tish demakdir.

Hozirgi vaqtida yangi ishga tushirilayotgan ob’yektlarning hammasi ham texnik-texnologik parametrlar bilan uzviy bog‘langan mehnat, ishlab chiqarish va boshqarishni tashkil etishning puxta tayyorlangan loyihamalariga har doim ham ega bo‘lavermaydi. Shu sababli mehnatni va ishlab chiqarishni boshqarishning tashkil etilish darajasi hamda bir xil sharoitlarda ishlayotgan, aynan bir xil jihozlar (dastgohlar)da bir xil mahsulotlarni ishlab chiqaradigan korxona ishchilarining soni tez-tez bir-biridan sezilarli ravishda farq qilib turadi.

Inson omilini faollashtirish va fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish – bu muvozanatlashuvchanlik va ishlab chiqarish omillari dinamik rivojlanishining o‘zaro bog‘langan muammolaridir. Ushbu muammo nazariy jihatdan yaxshi ishlab chiqilmagan.

Ijtimoiy omillarning rolini kuchaytirishni hisobga olmasdan turib mehnat samaradorligi muammosini echish mumkin emas. Faqat shuni inobatga olgan vaziyatdagina ikkita o‘zaro bog‘langan masalalarning maqbul yechimlarini topish mumkin bo‘ladi: yuqori natijaga ega bo‘lgan ishlab chiqarish va tovarlar hamda xizmatlarning raqobatbardoshligi ta’minlanadi va shu bilan bir vaqtning o‘zida har bir ishchi – xodimga tegishli ijtimoiy kafolatlarni taqdim etish yo‘li bilan ishchi-xodim-larning ishlab chiqaruvchanligini kengaytirishga erishish mumkin. Mehnatni gumanizatsiyalashirish inson mehnati mazmunini aniqlashda uning ustuvor qadr-qimmati tan olinishi, yangi texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari, atrof-muhitni muhofaza qilish sharoitlarini belgilab beradi. Ulardan oxirgisi, ya’ni atrof-muhitni muhofaza qilish ayniqsa qurilish ishlab chiqarish sohasida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnatni juda ham tor darajadagi bo‘limlarga ajratishga mutlaqo yo‘l qo‘ymaslik kerak, ishchi –xodimlarga mehnat funksiyalarini kengaytirish uchun keng imkoniyatlar taqdim etish, kasblarni qo‘sish, boshqaruvda ishtiok etishlarini, texnologiyani insonga va insonni texnologiyaga o‘zaro adaptatsiyalashni ta’minlash zarur.

Bozor munosabatlari sharoitlarida yuqori professional ishchi-xodimlarni jalb etishning egiluvchan shakllarini ta’minlash taqoza etiladi. Har bir ishchi-xodimni nafaqat uning professional sifatlari nuqtai-nazaridan, balki uni insonga xos bo‘lgan individual fazilatlar va ehtiyojlar bo‘yicha ham baholash alohida muhim ahamiyat kasb etadi. SHunday qilib, mehnat faoliyatini tashkil etishni mehnatning ichki bozorida shakllanayotgan personaldan ajratib bo‘lmaydi.

Korxonada mehnat faoliyatini tashkil etish yuqori tashabbuskorlik va faollik darajasiga ega bo‘lgan va o‘zining ishi uchun har qanday xavf-xatarga yuz tutadigan ishchi-xodimlari bilan ajralib turadigan tadbirkorlikning rivojlanishi bilan uzviy bog‘langandir.

#### **9.4. Mehnat unumdorligini baholash**

Ma'lumki, iqtisodiy o'sish ikkita usul: ma'lum vaqt davomida real yalpi milliy mahsulotlar ishlab chiqarilishining (YAMMI) oshishi yoki sof milliy mahsulotlar ishlab chiqarish (SMMI) sifatida va mal'um vaqt ichida YAMMI yoki SMMI ni aholi jon boshiga nisbatan oshirish sifatida aniqlanadi va o'lchanadi.

O'z navbatida real YAMMI mehnat sarflvri (kishi-soatlar)ning mehnat unumdorligiga (bitta ishchi-xodimning real soatli ish unumi) ko'paytmasi sifatida aniqlanadi, ya'ni :

YAMMI = bajarilgan kishi-soatlar soni x mehnat unumdorligi.

Shunday qilib, mehnat unumdorligi darajasini oshirish va YAMMI ni kengaytirish o'rtasida to'g'ridan –to'g'ri (proporsional) bog'liq mavjud, dekmak iqtisodiy o'sishda ham xuddi shunday bog'liqning borligiga izoh berish joiz emas.

Real YAMMI ning o'sishda mehnat unumdorligi omilining ahamiyatini aniqlash zarurdir. Xorijdagi va mamlakatimizdagi mutaxassislarining baholashiga ko'ra YAMMI o'sishining asosiy omili – bu mehnat unumdorligidir.

Real YAMMIning o'sishiga ta'sir ko'rsatadigan omillar:

1. Mehnat sarflarni oshirish.	
2. Mehnat unumdorligini oshirish	78
- texnik taraqqiyot	28
- kapital sarfi	19
- ma'lumot berish va kasbga tayyorlash	14
- ishlab chiqarish masshtabi shart-sharoitlangan iqtisod	9
- resurslarni taqsimlashni yaxshilash	8

Har qanday ob'ektni qurishda o'nlab, yirik inshootlarni qurishda esa yuzlab ilmiy-tekshirish, loyiha – qidiruv, qurilish va montaj tashkilotlari, hamda asosiy texnologik jihozlarni tayyorlovchi zavodlar, qurilish-montaj jihozlarini va qurilish materiallarini etkazib beruvchilar, banklar va iqtisodning boshqa sub'ektlari ishtirot etadilar. Faqat qurilishda ishtirot etuvchilarning hamjihatlikda bajaradigan ishlari – qurilish tashkilotining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishining garovi bo'lishi mumkin.

Hozirgi vaqtida korxonalarda aylanma mablag'larning kamligi oqibatida pul to'lash talabining pasayganligi kuzatilmogda, pul to'lay olmaslik inqirozi yuzaga kelmoqda.

Sanoat-ishlab chiqarish salohiyatining kompensatsiyalashmagan holatdagi izdan chiqishi jarayonlari, shuningdek ish o'rinalining kamayishi ham kuchaymoqda. Bundan tashqari, qurilishda ayniqsa birinchi navbatda ishlab chiqarish qurilishining kamayishi tufayli jismoniy ish o'rinalari keskin qisqarmoqda. Ya'ni xulosa ajablanarlidir: mahsulotlar sotilishining chegaralanishi mashg'ullik sonining kamayishiga olib keladi, buning ortida esa jismoniy ish o'rinalining kerak bo'lmay qolishi oqibatida ularning kamayishi yuzaga keladi.

Ishlab chiqarish va iqtisodning hozirgi holatining pasayishining asosiy sabablaridan biri – bu alohida ishlab chiqarishda boshqarishning yomonlashuvi. Ishlab chiqarish va iqtisodning hozirgi holatining pasayishining asosiy sabablaridan biri – bu alohida ishlab chiqarishni boshqarishda ham tarmoqlararo

boshqaruvda ham hududiy komplekslarni hamda umuman butunlay xalq xo‘jaligida boshqaruvning yomonlashuvidir. Boshqaruvning asosiy va birlamchi bug‘inlaridagi rahbarlik qiluvchi xodimlar (korxona, brigada mavqieda) bozor munosabatlarini tadbiq etishning dastlabki vaqtidagi yangi sharoitlarda ishlab chiqarishni boshqarishni uddalay olishmaydi va bunga qodir ham emasdilar. Ular ilgari noma’lum bo‘lgan hamda moddiy-texnik ta’minot, maxsulotlarning savdo sotig‘i va ularni ayriboshlash bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab murakkab muammolarni yechimlari lozim edi. Privatizatsiya (Xususiy lashtirish) korxonalarga o‘zлari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarga o‘zлari narx qo‘yish, personalning (xodimlarning) sonini aniqlash, maoshni belgilash kabi imkoniyatlarni beradi.

Hozirgi kunga kelib boshqaruv xodimlar ma’lum bir tajribaga ega bo‘lishdi, shunga qaramasdan alohida ishlab chiqarishda bo‘lgani kabi butun xalq xo‘jaligini boshqarishda boshqaruvning darajasi ancha pastligi ko‘zatilmoxda, boshqaruvning muhim parametrlarini tiklash bo‘yicha qat’iy chora-tadbirlar talab etilyapti. Avvalom bor zudlik bilan iqtisodni stabillashtirish va o‘stirish bo‘yicha kelishilgan boshqa chora-tadbirlar bilan birgalikda mehnat unumdorligini oshirishning Federal dasturini ko‘rib chiqish va tasdiqlash, izdan chiqqan (buzilgan) infratuzilmani xususan avvalo (ilgari) sanoatning turli tarmoqlaridagi korxonalar va tashkilotlar uchun me’yorlar va me’yoriy xujjatlarni ishlab chiqish bilan shug‘ullangan xizmatlarni ko‘rib chiqish zarurdir, bozor munosabatlari sharoitlarida mehnat unumdorligini oshirishning iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish va tadbiq etish, ularning informatsion (axborot almashinuv), kadrlar bilan va moliyaviy ta’minlanishini va h.k. larni yo‘lga qo‘yish taqoza etiladi.

Bu chora-tadbirlarni amalga oshirish ahamiyatli tarzdagи moddiy sarflar (mablag‘lar)ni talab etadi, biroq bu mablag‘larsiz iqtisodiy holatni stabillashtirish (muvozanatlashtirish)ning hech ham iloji yo‘q.

Ish unumdorligining buzilishga olib keladigan pasayishini oddiy qilib tushuntirish mumkin, ishlab chiqarishda ro‘y berayotgan pasayishi mashg‘ullar sonining tegishli qisqarishi bilan izohlanmayapti, aniqrog‘i bu pasayiy sanoat-ishlab chiqarish personali soni bilan bog‘liq ekanligi tushuntirib berilmayapti. YAshirinchа yoki patentli deb nom oлgan ishsizlarning jadal suratlar bilan ko‘payishi ro‘y bermoqda.

Agar real ish haqi kamaymaganda edi yashirin ishsizlarning soni ko‘paymagan bo‘lar edi. Sobiq ittifoq respublikalarida ko‘plab tovarlarning narxi jahon darajasiga etdi.

Arzon mehnat yuqori unumdor bo‘la olmaydi, moddiy va boshqa ishlab chiqarish resurslarining iqtisod qilinishini hamda ulardan oqilona (ratsional) foydalanishni ta’minlay olmaydi. Bularning hammasi ishlab chiqarishning degradatsiya qilinishga, kelgusida ishlab chiqarish hajmlarining pasayishiga va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatining yomonlashuviga olib keladi. Oxirgi 5 yil davomida ish haqi 60% dan ko‘proqga pasaydi. Bu vaqtda tovarlarning narxlari bir necha ming marta oshib ketdi.

Ish haqini oshirish haqida qabul qilinayotgan federal qonunlar, bir qarashda ushbu muammoni echishga yo‘naltirilgan, lekin bu muammo faqatgina yanada chuqurlashayotganligiga asos borligi shubhadan xoli emas. Birinchidan, ishlab chiqarishning pasayishi davom etayotgan sharoitlarda bu

chora-tadbir inflyasiyaning o'sishiga olib keladi, oxir-oqibat ish haqining pasayishiga olib kelmaydi.

Oxirgi yillardagi tajriba shuni ko'rsatadiki, avvalom bor byudjet sferasida ish haqi tezroq pasaymoqda. Ikkinchidan, bunday chora-tadbirlarning eng bosh kamchiligi shundan iboratki, ulardan qutilib bo'lmaydi va moddiy sferada tegishli ish haqining o'sishiga olib keladi, lekin bu o'sish yana mehnat samaradorligiga bog'liq bo'lmanan holda ro'y beradi. Moddiy ishlab chiqarishda ish haqining bazali mavqeい (darajasi) sezilarli tarzda yuqori bo'lsada, lekin katta bo'lmanan vaqt oralig'ida ta'kidlangan disproporsiya yuzaga chiqadi, biroq u yanada cho'zilgan ko'rinishda ro'y beradi.

Hozirgi vaqtida ish haqini mehnatga haq to'lashda sarflarning me'yoriy miqdorlari oshib ketishiga qo'yiladigan soliq shaklida boshqarish mexanizmi (aniqrog'i ish haqi o'sishining ushlab turilishi) ning mavjudligi ya'ni amal qilishi hech qanday manfaatli funksiyani bajarmaydi, faqatgina byudjetga qo'shimcha soliq yig'ishning mutlaqo fiksalli rolini bajaradi xolos.

**Tayanch iboralar:** Mehnat resurslari. Mehnat unumdorligi. Mehnat unumdorligini o'lhash metodlari. Moddiy – texnik omillar. Tashkiliy-iqtisodiy omillar. Ijtimoiy-psixologik omillar. Tabiiy-iqlimiy omillar. Siyosiy va qonuniy omillar. Xususiy omil. Joriy rezervlar. Perspektiv rezervlar. Naturaviy metod. Me'yoriy metod. Narxli metod. Yalpi mahsulot narxi bo'yicha ko'rsatkich. Shartli – sof mahsulot ko'rsatkichi. Mehnat sarflari. Mehnat haqi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Qurilishda "mehnat resurslari" va "mehnat unumdorligi" tushunchalarining mohiyatini tushuntirib bering.
  2. Qurilishda mehnat unumdorligini oshirishning asosiy omillari nimalardan iborat?
  3. Qurilishda mehnat unumdorligini oshirish yo'llari nimalardan iborat.
  4. Mehnat unumdorligini o'lhash va baholash usullarini aytib bering.
  5. Mehnat sig'imi nima va qaysi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi?
-

## **10-MAVZU: QURILISHDA MEHNAT MUNOSABATLARI VA KADRLAR SALOHIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI**

---

### **Reja:**

- 10.1. Korxonaning kadrlar salohiyati.
- 10.2. Bozor munosabatlari sharoitlarida korxonaning kadrlar siyosati.
- 10.3. Korxonalarda mehnatga haq to‘lash.

### **10.1. Korxonaning kadrlar salohiyati**

“Hamma narsani kadrlar hal qiladi” qoidasi iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan hozirgi kunlarda ham o‘z dolzarbligini yo‘qtGANI yo‘q. Prezident I.Karimov aytganidek: “Bugungi kunda biz oldimizga qanday vazifalarni qo‘ymaylik, bizning oldimizda qanday muammolar mavjud bo‘lmasin, ularning barchasi pirovardida kadrlar va faqat kadrlarga borib taqaladi.”

Zamonaviy korxonalar faoliyatida mehnat qurollari va mehnat predmetlaridan tashqari kadrlar ham katta ahamiyatiga ega. Aynan kadrlar ishlab chiqarishni boshqarib, joriy va istiqboldagi rejalashtirishni amalga oshiradilar hamda ishlab chiqarish vositalarini foydalanishga kiritadilar. Kadrlarning kasbiy malakasi qanchalik yuqori bo‘lsa, korxonalarning iqtisodiy va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari shunchalik yaxshi bo‘ladi.

Korxonaning “mehnat resurslari”, “kadrlar”, “personal” tushunchalarini, garchi ular o‘rtasida ma’jозиј ма’нода aytganda “xitoy devori” yo‘q bo‘lsa va ular kadrlar salohiyatini shakllantirish va ulardan foydalanishda bir xilda qo‘llansada, bir-biridan farqlash lozim.

Salohiyat (potensial) tushunchasining o‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib (potentia), imkoniyat, kuch-quvvat, yashirish imkoniyat ma’nosini anglatadi. Lug‘at va qo‘llanmalarda u mavjud va harakatga keltirilishi, ma’lum bir maqsadlarga erishish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan vosita, zahira, manba deb ko‘rsatilgan.

Kadrlar salohiyati - mehnat resurslarining umumiyligi soni va jinsi, yoshi, ma’lumoti, kasbiy ko‘nikmalari, korxonaning u yoki bu bo‘g‘inlarida va jamoatchilik ishlab chiqarishida qatnashishi bilan ifodalanuvchi mehnat resurslari yoki imkoniyatlarini ifodalaydi. Kadrlar salohiyati jamiyat mehnat salohiyatining tarkibiy qismidir.

Kadrlar korxonada mehnat bilan band bo‘lgan hamda korxona shaxsiy tarkibiga kiruvchi turli kasbiy–malakaviy guruhlardagi xodimlar majmuasidir. Korxonaning mehnat resurslari uning ishchi kuchini tavsiflaydi. Korxona personali doimiy va yollanib ishlovchi, malakali va malakasiz barcha xodimlardan iborat bo‘lgan shaxsiy tarkibni izohlaydi.

Ishlab chiqarishdagi asosiy «shaxs», iqtisodiyot nazariyasida talqin qilinishicha, ishchi kuchi - insonning mehnat qilishga jismoniy va aqliy qobiliyatlarini hisoblanadi. Bozor munosabatlari sharoitlarida mehnat qobiliyati, ishchi kuchini tovar holiga keltiradi. Biroq bu oddiy tovar emas. Uning boshqa tovarlardan farqi shundaki, birinchidan, u o‘z qiymatidan ortiq bo‘lgan qiymat yaratadi, ikkinchidan, uni jalb qilmasdan biron-bir ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish mumkin emas, uchinchidan, asoyi fondlar va aylanma mablag‘lardan samarali foydalanish darajasi, xo‘jalik yuritish iqtisodiyoti ko‘p jihatdan unga bog‘liq bo‘ladi.

Korxonalarda ishchi kuchi va umuman kadrlar salohiyatidan samarali foydalanishga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatadi: xodimlarning moddiy manfaatdorligi, atrof-muhit, aqliy, jismoniy va asablar kuchlanishi, boshqarish usullari va hokazolar. Ayniqsa mehnat uchun ijtimoiy sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Korxona personali yoki kadrlar tarkibi va uning o‘zgarishi ma’lum bir sifat, miqdor va tuzilmaviy tavsiflarga ega bo‘lib, ulardan faoliyatni rejalashtirish va hisobga olishda foydalaniladi. Korxona xodimlarining ro‘yxat bo‘yicha tarkibi zamonaviy tasnifi bo‘yicha quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

\* **sanoat-ishlab chiqarish personali** (S.ICH.P) - asosiy va yordamchi sexlar, zavod boshqaruvi, laboratoriya, ilmiy-tadqiqot va tajriba-loyihalashtirish bo‘limlari (IT va TL.I), hisoblash markazi xodimlari;

\* **noishlab chiqarish personali** - uy-joy, kommunal va yordamchi xo‘jaliklarda, sog‘liqni saqlash, profilaktika va ta’lim muassasalarida faoliyat yurituvchi xodimlar;

\* **rahbarlar** - direktor, direktor o‘rinbosarlari, bosh mutaxassislar, bo‘lim va xizmat boshliqlari, ya’ni muhandis-texnik personal (MTP);

\* **xizmatchilar** - hujjatlarni tayyorlash, hisob-kitob va nazorat qilish, xo‘jalik xizmati xodimlari (agentlar, g‘aznachilar, ish yurituvchilar, kotiblar, statistlar va hokazo).

Korxona S.ICH.Pning asosiy va ko‘p sonli qismini **ishchilar** tashkil qilib, ular mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish, ish bajarish), ta’mirlash va uskunalarga xizmat ko‘rsatishda (*ta’mirlovchi ishchilar*) qatnashadilr, mehnat predmetlarini tashish va mahsulot tayyorlashni amalga oshiradilar (*transport ishchilari*), qurilish-ta’mirlash ishlarini bajaradilar (*quruvchi-ishchilar*).

Korxona faoliyatini rejalashtirish va tahlil qilishda, ayniqsa, mehnat unumdorligi, o‘rtacha ish haqi, kadrlar aylanishi va oqimini hisoblashda **o‘rtacha ro‘yxat soni** ko‘rsatkichi qo‘llaniadi. Bu ko‘rsatkichi yil yoki chorak uchun korxona faoliyat ko‘rsatgan barcha oylar uchun ishchilarning o‘rtacha ro‘yxatdagi sonini qo‘sish va hosil bo‘lgan yig‘indisini mos ravishda 3 (12) ga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi. Bu ko‘rsatkichni to‘g‘ri aniqlash uchun xodimlarni ishga qabul qilish, boshqa ishga o‘tkazish va mehnat shartnomasini bekor qilishni inobatga olgan holda har kuni hisobga olib borishni yo‘lga qo‘yish zarur.

Kadrlarning korxonada harakatlanishini tavsiflash uchun quyidagi ko‘rsatkichlar hisoblanadi va tahlil qilinadi:

Ishchilarni qabul qilish bo‘yicha aylanish koeffisienti (Kpr):

$$K_{pr} = \frac{\text{Ishga qabul qilingan personal soni}}{\text{Personalning o‘rtacha ro‘yxat soni}}$$

Ishdan ketish bo‘yicha aylanish koeffisient (Kv):

$$K_v = \frac{\text{Ishdan bo‘shagan xodimlar soni}}{\text{Personalning o‘rtacha ro‘yxat soni}}$$

Kadrlar oqimi koeffisienti (Kt):

$$K_t = \frac{\text{O‘z xohishiga ko‘ra va mehnat intizomini buzganlik uchun ishdan bo‘shagan xodimlar soni}}{\text{Personalning o‘rtacha ro‘yxat soni}}$$

Korxona personali tarkibining doimiylik koeffisienti ( $K_{p.s.}$ ):

$$K_{p.s.} = \frac{\text{Butun yil davomida ishlagan xodimlar soni}}{\text{Personalning o‘rtacha ro‘yxat soni}}$$

Kadrlar salohiyati miqdoriy tavsif berishdan tashqari *korxona personalining sifat tavsifi* ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u korxona xodimlarining mazkur ishlab chiqarishga kasbiy va malakaviy jihatdan yaroqlilik darajasi bilan aniqlanadi. Bu yerda birinchi o‘ringa “mutaxassislik”, “kasb”, “malaka” kabi tushunchalar chiqadi.

**Mutaxassislik** insonda ma’lum bir turdagи ishlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar majmuasining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Masalan, iqtisodchi, buxgalter, moliyachi yoki texnik tilda - mexanik, quruvchi, energetik, geolog va boshqalar. Ishchilarning bilim va qobiliyatlariga bo‘lgan talab yagona tarif-malakaviy ma’lumotnomasida (YATMM), (MTP) va xizmatchilarga esa lavozimlar malakasi ma’lumotnomada aks ettirilgan. Bu hujjatlar asosida korxonalar ishchi va xizmatchilar tariflariga o‘zgartirishlar kiritadilar.

**Kasb** – faoliyatning maxsus va tor ko‘rinishdagi turi bo‘lib, mutaxassislik kabi nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni talab qilsada, mutaxassislikdan farqli ravishda ishlab chiqarishning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib qo‘srimcha ko‘nikmalarni ham talab qiladi.

**Malaka** deganda biron-bir kasb yoki mutaxassilik bo'yicha murakkab ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan mehnat ko'nikmalarini va bilimlar darajasi tushuniladi. Ishchilar malakasi darajasini baholashda o'rtacha tarif koeffisienti va o'rtacha tarif razryadi hisoblanadi. Tarif razryadlari va koeffisientlari bir vaqtning o'zida bajarilayotgan ishlar murakkabligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Kadrlar salohiyatining yuqorida sanab o'tilgan va boshqa tushuncha va ko'rsatkichlari korxona personalining miqdoriy, sifat va tuzilmaviy holatlari haqida va ularni personalni va umuman ishlab chiqarishni boshqarish, jumladan, korxona mehnat resurslari samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish, tahlil qilish va rejalashtirish maqsadlari uchun o'zgartirishlar kiritish yo'naliishlari haqida ma'lumot beradi.

## 10.2. Bozor munosabatlari sharoitlarida korxonaning kadrlar siyosati

Yuqorida aytib o'tilganidek, ishchi kuchi va umuman, kadrlar, ishlab chiqarishning muhim elementi hisoblanadi. Shu sababli korxona ishlab chiqarish faoliyatining joriy va istiqboldagi strategiyasi **kadrlar siyosati** bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- \* ishchi kuchini yollash, joylashtirish va rejalashtirish;
- \* xodimlarni o'qitish, tayyorlash va malakasini oshirish;
- \* kadrlarni xizmat lavozimlari bo'yicha yuqori pog'onaga ko'tarish;
- \* yollash shartlari, mehnat va unga haq to'lash sharoitlari;
- \* mehnat jamoasida qulay ruhiy (psixologik) muhitni yaratish.

Korxonalarning kadrlar siyosatini, garchi yagona javobgar shaxs sifatida ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatining barcha jabhalari, jumladan, kadrlarni tanlash va joylashtirishda asosiy javobgarlikni korxona direktori o'z bo'yniga olsada, faqatgina uning o'zi amalga oshirmaydi. Bunda direktordan tashqari bo'lim va xizmat boshliqlari, kadrlar bo'limi, iqtisodiy va ishlab chiqarish bo'limi, mehnat va haq to'lash bo'limi, texnik bo'lim va boshqalar ham ishtiroy etadi.

Korxonada kadrlar siyosati sog'lom va mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan jamoani shakllantirish, kadrlarning jinsi va yoshiga ko'ra tarkibi va malakasi hamda ularning ishlab chiqarishda to'g'ri joylashtirilishini hisobga olishdan tashqari, ishlab chiqarish va mehnat sharoitlarining o'zgarib borishiga o'z vaqtida e'tibor qaratishi, fan va texnikaning yangi, ilg'or yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy qilish, xodimlarning mehnat unumdarligini oshirishni rag'batlantirishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, kadrlar siyosati birinchi o'rinda, insonning ishlab chiqarish va turmushdagi yangi axloqini shakllantirish, ikkinchidan, novatorlik va yuqori mehnat unumdarligiga mafaatdarligini rivojlantirishi lozim.

Korxonaning kadrlar siyosati amaliyotda faqat ichki vazifa va muammolarni hal qilishdan tashqari, bandlik sohasida davlat siyosatiga tayanadi va quyidagilarni ko'zda tutadi:

- \* fuqarolarning mehnat huquqi va kasb tanlash erkinliklarini amalga oshirishda bir xil imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlash;

\* fuqarolarning mehnat va tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ularning ishlab chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga bandlik sohasidagi faoliyatni iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatning boshqa yo‘nalishlari bilan uyg‘unlashtirish orqali ko‘maklashish ;

\* mehnat faoliyati davrida va nafaqaga chiqqandan so‘ng ham xodimlarning ijtimoiy muhofazasini ta’minlash;

\* aholi bandligi muammolarni echishda, qo‘shma korxonalar tuzish va ishlab chiqarish bilan bog‘liq loyihalarni amalga oshirish yo‘li bilan xalqaro hamkorlik yuritish va boshqalar.

Iqtisodiyotni boshqarishning turli darajasida, jumladan, korxonalarda ham kadrlar siyosati ko‘p qirrali, murakkab va uzoq muddatli jarayon bo‘lib, bir qancha resurs va vaqt sarflanishini talab qiladi. Ishchilar yoki oliy ma’lumotli mutaxassislar, ya’ni turli kadrlar bilan turli darajadagi xarajatlar ko‘zda tutiladi. Agar ishchilar zamonaviy korxonalar personali tuzilmasida 70-80 % va undan ortiqni tashkil qilsa, oliy ma’lumotli mutaxassislar 15-20 % ni tashkil etadi. SHunga mos ravishda ularni tayyorlash ham turlicha bo‘ladi: ishchilar korxona, ixtisoslashtirilgan maktab va kasb-hunar bilim yurtlarida tayyorlansa, oliy ma’lumotli mutaxassislar bir necha yil davomida oliy o‘quv yurtlarida tahsil oladilar.

Afsuski, ba’zi korxonalarning rahbarlari, bugungi kunda tahlillarning ko‘rsatishicha, ko‘proq buyurtmalar “portfeli”ni shakllantirish, resurs va investisiyalar izlash, mahsulotlarni sotish kanallarini aniqlash, debitorlik va kreditorlik qarzlarini qisqartirish, turli xo‘jalik muammolarini hal qilish bilan band bo‘lib, bularning barchasi bozor munosabatlari sharoitlarida muhim ahamiyat kasb esada, ularning ahamiyati kadrlar siyosatini to‘g‘ri olib borishning ahamiyatidan kamdir. Bu masalada yirik korxonalar unchalik yutuqlarga ega bo‘lmasada, mazkur holatlar asosan shaxsiy tarkibi 100 kishigacha bo‘lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun xosdir.

Shunday bo‘lsada, kadrlar siyosatiga, jumladan zarur bo‘lgan kadrlar salohiyatini shakllantirish va uning tarkibiga ijobiy o‘zgarishlar kiritish, xodimlar malakasini oshirishga e’tiborni qaratmasdan, ishlab chiqarishni rivojlantirish vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilish, korxonalar hayotiga fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy qilish, eng asosiysi, korxonaning barqaror va daromad keltiruvchi faoliyat yuritishini ta’minlash qiyin.

Masalan, Yaponiyada korxona va firmalarning kadrlar siyosati birinchi o‘rinda universitetlar va ilmiy markazlar bilan aloqalarni kuchaytirishga, ikkinchidan, sanoatni robotlashtirish sohasida mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan bo‘lib, bu ishlab chiqarishni mexanizasiyalashtirish va avtomatlashtirishning o‘sishidan tashqari, ishchi va mutaxassislar o‘rtasida raqobatchilik muhitini yaratilishiga ham xizmat qiladi.

Germaniyada iqtisodiyot va ishlab chiqarish sohasidagi deyarli barcha o‘zgarishlar kadrlar siyosati bilan bog‘liqdir. Korxonalarning kadrlar salohiyatini shakllantirishda xodimlar malakasi va ma’lumot darajasi asosiy omil hisoblanadi. Germaniya korxona va firmalari har yili xodimlarning ma’lumot olishi va malakasini oshirishi uchun 10 mlrd markadan ortiq mablag‘ sarflaydi. Bundan tashqari, ular

mutaxassislarga ishdan bo'sh vaqtarda qatnab kerakli bilimlarni olishlari mumkin bo'lgan o'quv markazlari va kurslar haqida ma'lumot beradilar.

Kadrlar siyosati Fransiya va Italiya korxonalarida ham etakchi o'rinni egallaydi. Gresiyada raqobatchilik tufayli kompaniya va firmalar ishlab chiqarishni doimiy ravishda modernizasiya qilishlari, yangi texnologiyalarni qo'llashga yirik miqdordagi mablag'larni sarflashlariga to'g'ri keladi. Biroq modernizasiyalashning yakuniy maqsadlariga xodimlar malakasi ishlab chiqarishning texnik darajasiga mos kelgan holdagina erishish mumkin. SHu sababli ko'plab sanoat korxonalarini ishchi va mutaxassislarning malakasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasini keng ravishda amalda qo'llaydilar.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqadiki, kadrlar siyosati barcha mamlakatlarda korxonalarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, mamlakatimizdagi korxonalar ham bundan mustasno emas. Ular chet elning ilg'or korxonalarini yutuqlarini o'zlashtirishdan tashqari, o'z kadrlar siyosatini yaxshilashi, xodimlar malakasining o'sishi va hayotning mehnat bilan bog'liq davri sifatini oshirishga e'tibor berishlari zarur. Bu vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishiga, korxonalarning mustaqilligidan tashqari korxona va ishlab chiqarishni boshqarishning aksiyadorlik shakllari, shuningdek, iqtisodiyotda rivojlanib borayotgan bozor munosabatlari o'z hissasini qo'shamoqda.

### 10.3. Korxonalarda mehnatga haq to'lash

Korxonalarda mehnatga haq to'lashni oqilona tashkil qilish xodimlar faoliyatini rag'batlantirish, tayyor mahsulot va mehnat bozorida raqobatchilikni, rentabellikni va mahsulotlarning daromadlilagini ta'minlashi lozim. Mehnatga haq to'lashni oqilona tashkil etishdan maqsad-uning hajmi va xodimning korxona xo'jalik faoliyatiga mehnat faoliyatida qo'shgan hissasiga mos kelishini ta'minlash, ya'ni mehnat o'lchami va iste'mol o'lchami o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashdir.

**Ish haqi** - har bir xodimning sarflagan mehnati miqdori va sifatiga mos ravishda taqsimlanuvchi va xodim tasarrufiga pul shaklida kelib tushuvchi milliy daromadning bir qismidir. Ish haqi-bu mehnat uchun mukofotdir.

**Xodimlar mehnatiga haq to'lash** ishlab chiqarish jarayoniga jalg qilingan mehnat resurslarining bahosidir. Boshqacha qilib aytganda, ish haqi – bu, mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining korxona xodimlari mehnatiga haq to'lash uchun sarflanuvchi qismidir.

Ish haqining *nominal* va *real* turlari mavjud.

**Nominal ish haqi** – bu xodimning ma'lum bir vaqt mobaynida bajargan mehnati uchun hisoblangan va to'langan ish haqidir.

**Real ish haqi** – nominal ish haqiga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori; real ish haqi – bu, nominal ish haqining "iste'mol qobiliyati" dir.

Korxonalarda ish haqi sohasidagi siyosatni ishlab chiqish va uni tashkil etishda quyidagi tamoyillarni inobatga olish zarur:

- \* adolatlilik, ya'ni bir xil mehnat uchun bir xil haq to'lash;
- \* bajarilayotgan ishning murakkabligi va mehnat malakasi darajasini hisobga olish;

- \* mehnatning zararli sharoitlari va og‘ir jismoniy mehnatni hisobga olish;
- \* sifatli, sidiqidildan mehnat qilishni rag‘batlantirish, yo‘l qo‘yilgan yo‘qotishlar yoki o‘z majburiyatlariga mas’uliyasiz yondashishni moddiy jazolash;
- \* mehnat unumdorligi sur’atini o‘rtacha ish haqining o‘sish sur’atlariga nisbatan tezroq o‘stirish;
- \* ish haqi miqdorini inflyasiya sur’atlariga mos ravishda muvofiqlashtirish;
- \* mehnatga haq to‘lashning korxona ehtiyojlariga to‘liq javob beruvchi ilg‘or shakl va tizimlarini qo‘llash.

Zamonaviy sharoitlarda korxonalarda mehnatga haq to‘lashning turli tizim va shakllari qo‘llanilib, ulardan eng ko‘p tarqalganlari sifatida ishbay va vaqtbay usulni ko‘rsatish mumkin.

**Mehnatga ishbay haq to‘lash** ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish, ko‘rsatilgan xizmat) uchun to‘lanadigan haqni anglatadi.

Korxonalarda ko‘pincha faqat ishbay emas, balki ishbay-mukofotli haq to‘lashdan foydalaniladi.

**Mehnatga ishbay-mukofotli haq to‘lashda** ishchi bajargan ishiga haq olishdan tashqari, mukofotga ham ega bo‘ladi. Mukofot asosan ma’lum bir ko‘rsatkichlarga erishish - mahsulot ishlab chiqarish rejasini bajarish, mahsulot sifatini oshirish, xom ashyo va materiallarni tejash va shu kabilar uchun beriladi.

**Mehnatga vaqtbay haq to‘lash** tarif tizimida ko‘zda tutiluvchi ishlab berilgan vaqt - kalendor vaqt emas, balki normativ vaqt uchun to‘lanadigan haqni anglatadi.

**Vaqtbay-mukofotli haq to‘lashda** ishchi ishlab bergan vaqtiga haq olishdan tashqari, ushbu ish haqiga ma’lum bir foiz hisobida mukofot ham oladi.

**Mehnatgaakkord haq to‘lash tizimi** mehnatga ishbay haq to‘lashning bir turi bo‘lib, uning mohiyatiga ko‘ra, bunda bajarilishi kerak bo‘lgan ishlarni muddatini ko‘rsatgan holda baholash amalga oshiriladi.

Korxonada quyidagi hollardaakkord haq to‘lash tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- \* korxona biron-bir buyurtmani o‘z vaqtida bajara olmasa va buning uchun shartnomaga asosan yirik miqdorda jarima to‘laydigan bo‘lsa;
- \* korxonaning to‘xtab qolishiga sabab bo‘luvchi favqulodda vaziyatlar (yong‘in, sel, zilzila, suv toshqini yoki jiddiy sabablarga ko‘ra asosiy texnologik liniyalarning ishdan chiqish hollari) ro‘y berganda;
- \* alohida ishlarni bajarishga o‘ta zarurat tug‘ilganda yoki korxonada yangi asbob-uskunalar ishga tushirilganda.

Ko‘pchilik korxonalarda ish haqini hisoblash tarif tizimi, ayniqsa uning tarif stavkasi va tarif setkalari kabi elementlari asosida amalga oshiriladi.

**Tarif stavkasi** – turli guruh va kategoriyadagi ishchilarning vaqt birligidagi mehnati uchun to‘lanuvchi haqning mutlaq (absolyut) o‘lchamidir. Minimal tarif stavkasi yoki birinchi razryadli stavka boshlang‘ich hisoblanadi. U eng oddiy mehnat turiga to‘lanuvchi haq darajasini belgilab beradi.

Tarif setkalari mehnatga haq to‘lashdagi mutanosibliklarni malaka darajasini hisobga olgan holda, belgilash uchun xizmat qiladi. U tarif razryadlari va ularga mos

keluvchi tarif koeffisientlari yig‘indisini ifodalaydi. Tarif koeffisientining eng past razryadi birga teng deb olinadi. Undan keyingi tarif razryadlari mos keluvchi tarif stavkalari birinchi razryadli tarif stavkasidan necha marta katta bo‘lishini ko‘rsatadi.

Kadrlar, mehnat unumdorligi va ish haqi o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan tushunchalar hisoblanadi. Har bir korxonada mehnat va ish haqi bo‘yicha reja tuzilib, uning maqsadlari ishchi kuchidan foydalanishni yaxshilash zahiralarini topish va bu asosda mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Bu rejalgarda ko‘ra mehnat unumdorligining o‘sish sur’ati o‘rtacha ish haqi suratlaridan tezroq o‘sishi lozim.

**Tayanch iboralar:** Salohiyat. Kard. Xodim. Personal. Xodimlar salohiyati. Kadrlar siyosati. Ish haqi. Real ish haqi. Nominal ish haqi. Tarifli va tarifsiz ish haqi. Mehnatga ishbay haq to‘lash. Mehnatga vaqtbay haq to‘lash.

#### **Nazorat uchun savollar:**

- 1.Bozor munosabatlari sharoitlarida korxonaning kadrlar siyosatini qay tarzda tasavvur qilasiz?
- 2.Kadrlar tuzilmasi deganda nima tushuniladi va uni belgilab beruvchi omillar qanday?
- 3.Real ish haqi va nominal ish haqidan nimasi bilan farq qiladi?
- 4.Mehnatga haq to‘lashning qanday tizim va shakllarini bilasiz?
- 5.Qaysi hollarda vaqtbay va ishbay haq to‘lashdan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi?
- 6.Nima sababli korxonada mehnat unumdorligi sur’atlari o‘rtacha ish haqi sur’atlaridan ortiq bo‘lishi lozim?
- 7.Mehnat unumdorligi va ish haqini rejorashtirish mohiyati nimada?
- 8.Qaysi omillar korxonada ishlab chiqarishning o‘sishini belgilab beradi?

---

## **11-MAVZU: QURILISH MODDIY – TEXNIKAVIY BAZASI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI**

---

#### **Reja:**

- 11.1. Bozor sharoitida qurilish moddiy–texnika ta’minoti.
- 11.2. Moddiy – texnika resurslari yetkazilishini tashkil etish.
- 11.3. Moddiy – texnika resurslari ta’minoti shakllari va metodlari hamda ularning samaradorligi.
- 11.4. Qurilish moddiy – texnika ta’minotini tashkil etish tizimida logistika.

### **11.1. Bozor sharoitida qurilish moddiy–texnika ta’minoti**

Bozor sharoitlarida qurilish moddiy – texnika ta’minoti tizimi sanoat va qurilish industriyasi, transport va energetika tashkilotlari, ilmiy – tekshirish, loyiha,

o‘quv va boshqa muassasalar, xo‘jaliklarning tarmoqlariga qaratilgan bo‘ladi. U qurilish kompleksini zarur bo‘lgan moddiy – texnika resurslari bilan ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Qurilish materiallarining tovarlar bozoridagi vaziyatini umumiy holda baholash bilan shunday to‘xtamga kelish mumkinki, korxonalar va tashkilotlar qonunda ko‘rsatilgan etarli darajadagi erkin tadbirkorlik faoliyatini tavsiflaydigan sharoitlarda ishlaydilar: ular boshqarish va davlat hokimiyati tuzilmalariga nisbatan zarur bo‘lgan xo‘jalik mustaqilligiga egadirlar, amalda barcha resurslarga erkin holatda yondashish imkoniyatlariaga ega bo‘lib, savdo-sotiq va xo‘jalik yuritishda amalga oshiriladigan operatsiyalarda kontragentlarni tanlashda mutlaqo erkindirlar, olinadigan daromadni mustaqil ravishda taqsimlashlari va ishlatishlari mumkin (o‘zining manfaatlaridan kelib chiqqan holda), maksimal foyda olish maqsadida o‘zining faoliyat yo‘nalishlarini erkin tarzda tanlaydilar. Mavjud bo‘lgan ishlab chiqarish quvvati va qurilish materiallarini ishlab chiqarish hajmi umuman olganda bu bozordagi talab – ehtiyojlarni to‘liq qondiradi. Xo‘jalik yuritishning yangi tizimiga o‘tish tufayli qurilish tarmog‘i uchun materiallar tanqisligi o‘tmishda qolib ketdi.

Qurilish moddiy – texnika resurslari ishlab chiqarish, noishlab chiqarish va tabiiy resurslarga bo‘linadi:

- qurilish ishlab chiqarishini talab etilgan sifat va sonda zarur bo‘lgan resur turlari bilan o‘z vaqtida ta’minlash;
- resurslardan foydalanish darajasini yaxshilash: mehnat unumдорligi va fond qaytarmasi oshirish, qurilish jarayoni ritmiyligini ta’minalash, aylanma mablag‘lar aylanish vaqtini qisqartirish, ikkilamchi resurslardan to‘liq foydalanish, investitsiya va boshqa ko‘rsatkichlar samaradorligini oshirish;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulot hamda bino va inshootlar raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha taklif-tavsiyalar ishlab chiqish uchun o‘z tashkilotida va raqobatchi tashkilotlardagi qurilish ishlab chiqarishining tashkiliy – texnik holatini va qurilish – montaj ishlari (xizmatlari)ning sifatini tahlil qilish.

Qurilish tashkilotida yuqorida ko‘rsatilgan maqsadlarga erishish uchun quyida ko‘rsatilgan ishlarni doimiy ravishda bajarish talab etiladi:

1. Bozorda qurilish materiallari, konstruksiylari, buyumlari, yarimfabrikatlar va boshqa mahsulotlarni etkazib beruvchilar (xizmatlar) bo‘yicha marketing izlanishlarini olib borish. Etkazib beruvchilarni tanlash quyidagi talablardan kelib chiqqan holda tavsiya etiladi: etkazib beruvchining litsenziya va ushbu sohada etarlicha tajribaga ega ekanligini aniqlash, ishlab chiqarishning yuqori tashkiliy – texnik holatdaligi, ishning ishonchligi va foyda keltiruvchanligi, ishlab chiqarilayotgan qurilish materiallarining raqobatbardoshligini oshirish, ular narxlarining hammabopligi, ularni etkazib berish sxemasining soddaligi va turg‘unligi;

2. Konkret moddiy-texnika resurslariga bo‘lgan ehtiyojlarni me’yorlashtirish;

3. Moddiy – texnik resurslar sarfi me’yorlari va me’yoriy hujjatlarini kamaytirish bo‘yicha tashkiliy-texnik tadbirlar ishlab chiqish.

4. Qurilish ishlab chiqarishini moddiy-texnik jihatdan ta’minlash kanallari va

shakllarini izlab topish.

5. Moddiy materiallar balansini (muvozanat, turg'unlik holatini) ishlab chiqish.

6. Qurilish ishlab chiqarishi moddiy – texnika ta'minotini rejalashtirish.

7. Ish joylarini qurilish materiallari, konstruksiyalari, buyumlari, yarimfabrikatlar va boshqa materiallar bilan ta'minlashni tashkil etish.

8. Moddiy – texnik resurslardan foydalanishni hisoblash va nazorat qilish.

9. Qurilish ishlab chiqarishidagi chiqindilarni yig'ish va ularni qayta ishlashni tashkil etish.

10. Moddiy – texnika resurslaridan foydalanish samaradorligini tahlil qilish.

11. Moddiy – texnika resurslaridan foydalanishni yaxshilash bo'yicha olib boriladigan ishlarni rag'batlantirish.

Bu funksiyalarga bog'liq ravishda qurilish ishlab chiqarishi moddiy – texnika ta'minoti (MTT)ning tegishli xizmat ko'rsatish bo'limlari aniqlangan.

Ularga quyidagilar tegishlidir:

- moddiy – texnika ta'minoti xizmati, bu xizmat ishlab chiqarish jarayoni uchun xom-ashyo, yarimfabrikatlar, butlovchi detallarni o'z vaqtida etkazishni ta'minlash va tartibga solish bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari ta'minot va sotish bo'limlari xo'jalik shartnomalari asosida o'rnatilgan xizmatlarni nomenklatura va o'z muddatida hamda belgilangan hajmda bajarilshini ham ta'minlaydi;

- materiallar, yoqilg'i, xom-ashyo va tayyor mahsulotlarni joylashtirish va saqlash xizmati, bu xizmat omborxona bilan ta'minlangan bo'lib, ta'minot va sotish tizimi moddiy – texnika bazasi deb hisoblanadi;

- tayyor mahsulotlarni komplektlashtirish bo'yicha ishlab chiqarish – texnologik xizmat ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bino va inshootlarni tiklash yig'ma elementlarni kalendar grafik bo'yicha qat'iy ravishda etkazib berishni talab etadi. Shuning uchun ishlab chiqarish - texnologik komplektlashtirish xizmati qurilish tashkiloti bilan kelishilgan buyumlar va konstruksiyalarni qa'tiy ravishda sutkali va soatli grafik bo'yicha belgilangan muddatlarda ma'lum miqdorda, nomenklatura bo'yicha etkazishni ta'minlaydi;

- asbob – uskuna xo'jaligi va texnologik jihozlar ta'minoti xizmati. Bu xizmat bo'limi ishlab chiqarishni asbob –uskuna, moslamalar, texnologik jihozlar, yuqori sifatli qoliplar bilan ta'minlaydi. Yuqorida ko'rsatilganlar bilan ta'minlanganlik ilg'or texnologiyani, ko'p mehnat talab qiladigan ishlarni mexanizatsiyalashni muvaffaqiyatli tadbiq etishni oldindan aniqlab beradi.

- ta'mirlash – mexanik ishlab chiqarish xizmati, bu xizmat vazifasi katta va murakkab park jihozlari, mashinalar ishchi holatini ta'mirlash va modernizatsiyalash orqali ta'minlashdan iborat. Qurilish tashkiloti ishi natijalari bu xizmat bo'limining puxta ishlashi bilan keng ma'noda aniqlanadi;

- transport jarayonlari xizmati, bu bo'lim qurilish maydoni ichida va uning atrofidagi tashqi maydonda ishlab chiqarish jarayonining bir ma'romda olib borilishi uchun zarur bo'lgan katta massali yuklarni ko'chirishni ta'minlaydi. Ayniqsa alohida jarayonlarni yagona ishlab chiqarish tizimiga bog'lovchi texnologik transport aniq va ritmik ishni talab etadi.

## **11.2. Moddiy – texnika resurslari yetkazilishini tashkil etish**

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida qurilish tashkiloti bozor orqali sotib olish borasida iste'molchi sifatida va sotish bozori orqali esa ishlab chiqaruvchi sifatida ko'plab korxonalar bilan bog'langan bo'ladi. Qurilishni moddiy - texnik ta'minlash (MTT) turli etkazuvchi tashkilot va korxonalar bilan bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) tuzilgan shartnomalar asosida olib boriladi. Bu etkazuvchi tashkilotlar moddiy – texnika ta'minoti tarkibiga kiradi, bu ta'minot quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat ehtiyojlari uchun moddiy - texnik resurlarini etkazib berish;
- texnologik jihozlar, qurilish materiallari, konstruksiyalari, buyumlari, yarim fabrikatlar bilan ulgurji savdo qilish;
- yuqorida ko'rsatilgan resurslar bilan qurilish birjalari, savdo-sotiq uylari va vositachi korxonalar orqali savdo –sotiq qilish.

Qurilish ishlab chiqarishi texnologiyasi va tashkiliyotining ilg'or shakllari qurilish montaj ishlarini moddiy – texnik resurslar bilan komplektli holatda va o'z vaqtida ta'minlash shartlari qat'iy bajarilishini talab etadi. Ushbu vazifaning bajarilishi ishlab chiqarish – texnologik komplektlashtirish boshqarmasi (ITKB) zimmasiga yuklatiladi.

ITKB bosh vazifasi materiallar va detallarni tayyorlash (taxt qilish), yarimfabrikatlar va konstruksiyalarni tayyorlash hamda ularni komplektli holatda bajarilayotgan qurilish – montaj ishlari grafigi bo'yicha qurilish maydoniga o'z vaqtida etkazib berishdan iboratdir. ITKB tashkilotlarining shakllari turlicha bo'lib, ular ob'yeqtlar qurilishi spetsifikasi, ularning hududiy joylashuvi, ish turlari va hajmlari hamda boshqa konkret shart-sharoitlarga bog'liq bo'ladi. ITKB trest topshirig'iga binoan qurilish-montaj ishlarining rejorashtirilgan hajmlarini bajarish uchun zarur bo'lgan moddiy resurslar buyurtmachisi sifatida va transport ta'minoti tashkilotlari bilan shartnomaga asosida munosabatda bo'lish uchun maydonga chiqadi.

ITKB funksiyasiga trest manziliga tushadigan moddiy resurslarni qabul qilib olish, ularni joylashtirish va saqlash, tipli bo'limgan detallar va konstruksiyalarni tayyorlash, kelib tushgan materiallarni yuqori darajadagi texnologik tayyor holatda saqlash va komplektlarni qurilish maydoniga o'z vaqtida etkazib berish kiradi. Ishlab chiqarish – texnologik komplektlashtirish boshqarmasi o'z faoliyatini xo'jalik shartnomalari asosida olib boradi.

## **11.3. Moddiy – texnika resurslari ta'minoti shakllari va metodlari hamda ularning samaradorligi**

Qurilish ishlab chiqarishi bo'yicha xizmat ko'rsatishga oid bo'lgan barcha tashkiliy savol va masalalarni tizimli hamda kompleksli ishlab chiqish taqoza etiladi, chunki ishlab chiqarilayotgan mahsulot – bino va inshootlar (xizmatlar) raqobatbardoshligi qurilish maydoniga kelib tushadigan konstruksiyalar, buyumlar va boshqa materiallar, energetik resurslar, texnologik jihozlarning sifatiga bog'liq bo'ladi.

Qurilish ishlab chiqarishi bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarga

quyidagilar kiradi: moddiy - texnika ta'minoti, energetik, ta'mirlash, transport va omborxonan xo'jaligi va sifatni nazorat qilishni. Bu jarayonning asosiy vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- moddiy – texnika resurslari bilan ta'minlash tizimida va menejment tizimi doirasida qaralayotgan ishlab chiqarishni aniqlash;
- qaralayotgan qurilish ishlab chiqarish faoliyati maqsadlarini aniqlash;
- masadlarga erishish bo'yicha bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlar va ishlarni shakllantirish;
- moddiy – texnika resurslari ta'minoti xizmati tuzilmasini ishlab chiqish va uning funksiyalarini aniqlash;
- yaratilayotgan xizmat ko'rsatish bo'limi faoliyati omillari va ko'rsatkichlarini aniqlash;
- menejment bo'yicha ilg'or yondashuvlarni qo'llagan holda moddiy – texnika resurslari bilan ta'minlash xizmati ishining taktik, strategik hamda operativ rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- rejalarining bajarilish motivatsiyasini va nazoratini ta'minlash;
- xizmat ko'rsatish bo'limi taomonidan bajariladigan ishlar samaradorligini tahlil qilish.

Qurilish majmuasida zamonaviy sharoitlarda resurslar bilan ta'minlashning quyidagi shakllari (metodlari) keng tarqalgan:

- tovar – xom-ashyo birjasি orqali;
- vevosita aloqada bo'lish (to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish orqali);
- auksionlar, tanlovlар;
- homiylik;
- xususiy ishlab chiqarish va boshqalar.

Moddiy – texnika resurslari bilan ta'minlashning konkret shaklini qurilish tashkiloti ularning o'ziga xos jihatlari, ularni olishning davomiyligi (muddati), berilgan takliflar soni, hamda rusurlar sifati va narxi hamda boshqa omillardan kelib chiqqan holda tanlaydi. Qurilish ishlab chiqarishini resurslar bilan ta'minlash shaklini aniqlashda etkazuvchining ishonchliligi hamda ishlab chiqarilayotgan konstruksiylar, buyumlar va boshqa materiallar raqobatbardoshlik darajasini aniqlash taqoza etiladi. Etkazuvchilar bilan kontraktlar (shartnomalar) tuzishda ushbu shartnomalar (kontraktlar)da miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari, etkazib berishning konkret shakllari, muddatlari, sanksiyalari va boshqa talablarni aks ettirish zarurligini esda tutish taqoza etiladi.

Moddiy – texnika ta'minoti bu tashkiliy aloqalar va shartnomalar asosida ishlab chiqarish mablag'larini etkazuvchilar va iste'molchilar o'rtasida bevosita yoki vositachi orqali taqsimlash shaklidir. U ishlab chiqarish jamg'armalaridan foydalanish, qurilish-montaj ishlari ritmiyligi, tannarx, mehnat unumdarligi, qurilishning davomiyligiga va boshqa ko'rsatkichlarga bevosita ta'sir ko'rsatish bilan ahamiyatli tarzda ishlab chiqarishning natijaviyligini oldindan aniqlab beradi.

## **11.4. Qurilish moddiy – texnika ta'minotini tashkil etish tizimida logistika**

Qurilish kompleksini butun holatda va uni tashkil etuvchi komponentlarni ko'rib chiqish shunday xulosa chiqarish imkonini beradiki, unga ko'ra qurilishni o'zaro bog'langan va o'zaro shart-sharoitlangan oqimlar jamlamasini o'z tarkibiga kirituvchi tizimga kiritish mumkin. Bu oqimlarning asosiyalariga quyidagi: axborotlar, moddiy – texnika hamda moliya resurslari va boshqa oqimlar kiradi.

Ma'lumki, bino va inshootlar qurilishi muddatlarini qisqartirish, maqbul bo'lgan sarf-xarajatlar bilan ularning sifatlarini yaxshilash bo'yicha zaruriy natijalarga erishish uchun birinchi navbatda yuqorida ko'rastilgan va boshqa iqtisodiy oqimlarni maqbullashtirish va ratsionizatsiyalashtirish talab etiladi.

Qurilish tashkilotlari hamda qurilish industriyasi korxonalarida xususiy va o'z maqsadlariga erishish yo'lida jalb etilgan resurslar harakatining o'zaro bog'langan hamda o'zaro shart-sharoitlangan jarayonlarini iqtisodiy oqimlar deb hisoblash mumkin.

Qurilishni tizim sifatida birinchi navbatda qurilishni moddiy – texnika jihatdan ta'minlash deb qabul qilish joizdir. Har qanday bino va inshootni qurish uchun, avvalom bor, etarli miqdorda qurilish materiallari, konstruksiyalari va buyumlari, xom-ashyo hamda texnologik jihozlar zarur bo'ladi, ularning aniq miqdori qurilish-montaj ishlari loyihasida ko'rsatiladi. Qurilish ishlab chiqarishini tashkil etish jarayoni bu resurslarning belgilangan hajmda, ko'rsatilgan muddatda va tegishli sifatda etkazilib berilishini ko'zda tutadi. Vatanimiz va xorijdagi turli ishlab chiqarishlar bo'yicha to'plangan tajriba shunga o'xshash masalalarni echishda logistikadan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligini tasdiqlaydi.

Terminologik lug'atda logistikaning quyidagi ma'nosi ifodalangan. *Logistika* – xom-ashyo va materiallarni ishlab chiqarish korxonasiga ekazish jarayonida tashish, joylashtirish va boshqa moddiy hamda nomoddiy operatsiyalar, zavod ichida xom-ashyo, materiallar, yarimfabrikatlarni qayta ishslash, tayyor mahsulotlarni iste'molchiga manfaatlar va talablarga muvofiq etkazib berish, shuningdek, tegishli axborotlarni uzatish, saqlash va qayta ishslashni rejalashtirish, nazorat qilish va boshqarish haqidagi fandir.

Bunda asosiy izlanish ob'yektlari quyidagilar bo'ladi: logistik ushlab qolishlar, axborot oqimi, logistik tizim, logistik funksiya, logistik zanjir, logistik operatsiyalar, materiallar oqimi va boshqalar. Logistika qator o'zaro bog'langan bo'limlarni qamrab oladi, jumladan ta'minot logistikasi, ishlab chiqarish logistikasi, savdo-sotiq logistikasi, transport logistikasi va boshqalar. Logistik tizimlar doirasida qurilish materiallariga bo'lgan ehtiyojni bashorat qilish va zahiralar holatini nazorat qilish, buyurtmalarni yig'ish va qayta ishslash, logistik zanjirda material oqimi ketma-ketligi va bo'g'inlarini aniqlashni o'z tarkibiga kiritgan qator masalalar va ularning komplekslari echiladi.

Qurilish logistika tizimlarini logistik tizimlarning umumiyl nazariyasi matnida ko'rib chiqish taqoza etiladi.

Oqimlarning turlariga ko'ra logistik tizimlarni quyidagilarga ajratish mumkin:

*materiallar, moliyaviy, axborot oqimlari va mehnat resurslari oqimlari.*

Materiallar oqimlari logistik tizimlari yoki boshqacha qilib aytganda materiallar logistik oqimlari qurilish tashkilotlari va korxonalar (firmalar) moddiy resurslarini sotib olishdan tortib to tayyor mahsulot (binolar va inshootlar)ni sotishgacha bo‘lgan barcha harakatlarni birlashtiradi.

Moliyaviy oqimlar logistik tizimi (yoki logistik moliyaviy tizim) ishlab chiqarish va qurilish mahsulotini sotish bilan bog‘liq bo‘lgan hamma moliyaviy oqimlar harakatlarini birlashtiradi.

Axborotlar oqimlari logistik tizimlari (yoki axborotlar logistik tizimlari) qurilish firmasi oddiy ishlab chiqarish jarayonlarini qanday birlashtirsa, ushbu firma orqali amalga oshiriladigan kengaytirilgan ishlab chiqarish jarayonlarini ham xuddi shunday birlashtiradi.

Mehnat resurslari oqimlarining logistik tizimlari (yoki mehnatning logistik tizimlari) mehnat resurslarini qurilish firmasiga yo‘naltirishning barcha xilmassisligini birlashtiradi.

Logistikalarni qurilish ishlab chiqarish sikli stadiyalari bo‘yicha differensiyalash bilan quyidagi logistik tizimlarni ko‘rib chiqish mumkin:

- savdo - sotiq logistikasi tizimlari, ular moddiy-texnika resurslarini sotib olish oqimlarini va qurilish ishlab chiqarish-texnologik komplektatsiyasini, shuningdek, moliyaviy, axborotlar va mehnat resurslari bilan birga boradigan oqimlarni tashkil qilish bilan shug‘ullanadi;

- tadbirkorlik logistikasi (yoki ishlab chiqarish logistikasi) tizimlari, ular qurilish industriyasini korxonalari va qurilish firmalarida qurilish konstruktsiyalari, buyumlari va boshqa materiallarni ishlab chiqarish jarayonidagi resurslar oqimini, loyiha-konstrukturlik, qurilish-montaj va ishga tushirish ishlarini tashkil qilish bilan shug‘ullanadi;

- taqsimlash logistikasi tizimlari, ular iste’molchiga taqdim etiladigan tayyor qurilish mahsuloti, ishlar va xizmatlarning oqimlarini, shuningdek, bu oqimlar bilan birga boradigan moliyaviy, axborotlar va mehnat oqimlarini tashkil qilish bilan shug‘ullandi;

- transport–omborxona logistikasi tizimlari, ular qurilish firmasida yuklar oqimini va omborxona ichki oqimlarini tashkil qilish bilan shug‘ullanadi.

Qurilish firmasi logistika tizimlari sinflanishini boshqa belgilari bilan ham davom ettirish mumkin, masalan, investitsion jarayonlar bosqichi, qurilish mahsuloti hayotiy sikli bosqichlari va shunga o‘xhash oqimlar bilan davom ettirish mumkin.

Agar iqtisodiy mustaqil sub’ektlar qanchalik ko‘p sonda logistika zanjiriga kiritilsa, logistika tizimlarini shakllantirish jarayonlari shunchalik murakkab kechadi. Bu ma’noda makrologistik tizimlar mikrologistik tizimlarga nisbatan ancha murakkab ko‘rinishga ega bo‘ladi. Tashkiliy-iqtisodiy integratsiya xarakteri bo‘yicha makrologistika tizimlari sub’ektlari vertikal, gorizontal va konglomerant tizimlarga ajratiladi. Logistik faoliyat uchta asos ostida birlashadi: moddiy resurslar birga boradigan hamma texnik vositalar va jihozlar jamlamasi bo‘lgan *texnika*, tizimlardagi moddiy va nomoddiy oqimlar harakatlari haqidagi statistik va dinamik axborotlar jamlamasi bo‘lgan *axborot*, korxona va tarmoq *iqtisodiyoti*.

Tizimdagи barcha moddiy va nomoddiy oqimlarni kompleksli boshqarish logistika predmetini tashkil etadi.

Logistika ishlab chiqarish sohasini qanday tarzda qamrab olgan bo'lsa, moddiy manfaatlar almashinushi (moddiy-texnika ta'minoti va savdo-sotiq tizimi)ni ham xuddi shunday tarzda qamrab oladi. U ishlab chiqarish va marketing, moliya va iqtisodiy hisoblar hamda zarur bo'lgan axborotni qayta ishslashni boshqarishning yagona tizimi faoliyatini yaratishga va nazorat qilishga yo'naltiriladi.

Moddiy resurslardan tugal holatda foydalanuvchi yirik sub'ektlardan biri sifatida qurilish kompleksi katta miqyosdagi manfaatdorlikni ko'zlagan holda bu resurslardan oqilona foydalanish orqali ularni qo'llashning samarador shakllarini yaratadi.

Bu masalalar yechimini resurslarning barcha turlariga qo'llash mumkin va bunda bu yechim ularning har birida o'z spetsikasiga ega bo'ladi.

Qurilish ishlarini bajarishda foydalaniladigan va konstruksiyalarni montaj qilishga mo'ljallangan mashina va jihozlar uchun sotib olishning lizing shakli ancha qulaydir.

Materiallar, qurilish konstruksiyalari va detallari uchun ularni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan mablag'larni minimillashtirish maqsadida materiallar oqimini ratsionalsiyalashtirish birinchi darajali ahamiyat kasb etadi, bu esa o'z navbatida materiallar oqimini shakllantirish va ular harakatini boshqarishning samarador ilmiy quroli sifatida logistikani qo'llashning maqsadga muvofiqligi va zarurligini oldindan aniqlab beradi.

Qurilish materiallari bozori va kapital qurilish tarmog'i hozirgi vaqtida O'zbekiston xo'jalik – iqtisodiy kompleksi segmentlarini tashkil etadi, ularda logistik siyosatni ilgari surish uchun etarlicha sharoitlar yaratilgan.

Xozirgi vaqtida qurilish materiallari bozorida boshqa ishlab chiqarish mahsulotlari bozorlariga qaraganda yuqori darajadagi raqobat kuzatilyapti.

Qurilish materiallari sanoati va qurilish industriyasi korxonalari ishlatilmayotgan ishlab chiqarish quvvatlarining katta zahiralariga ega va ularning chetki ehtiyojlar yuqori talablarini qoniqtira olish nuqtai-nazaridan kelib chiqqan holda ko'pchiligi to'liq ishga tushirilsa ular xoridorlar bilan hamkorlik qilishga tayyor bo'ladi.

Investitsion jarayonda materiallar oqimining katta qismi qurilish kompleksi ichida shakllanadi va ular ushbu kompleks bug'inxilari va bo'limlari harakatlariga, ular tomonidan tanladigan ratsional yechimlar hamda ularning ketma-ket amalga oshirilishiga to'liq bog'liq bo'ladi.

Qurilishdagi materiallar oqimi uning chegarasidan tashqarida boshlanadi va u asosiy jamg'armalarni yaratish (yangilash, ta'mirlash) jarayonida bu materiallar oqimidan foydalanish vaqtida yakunlanadi. Sanoatda esa materiallar oqimi berilgan ishlab chiqarishda tayyor mahsulotlar yaratish bilan yakunlanmaydi, balki uning harakati aylanma jamg'armalar elementi sifatida boshqa ishlab chiqarishga o'tkaziladi (transformalashtiriladi). SHuning uchun logistikani mehnat mahsulotlariga qo'llab bo'lmaydi.

Qurilish sikli jarayonida puxta ifodalangan bir jinsli bo'lmagan mahsulotga ega

bo‘lish bilan siklining har bir stadiyasida materiallar tarkibi o‘zgaradi (poydevorlarni qurishda, devorlarni tiklashda, tom yopish ishlarini bajarishda, ichki pardozlash ishlarini amalga oshirishda, injenerlik kommunikatsiyalarini o‘tkazishda va h.k.). SHunig uchun qurilish siklining har bir bosqichi uchun unga xos bo‘lgan logistik yechimlar zarur bo‘ladi. Agar sanoatda logistik yechim uchun mahsulot yo‘naltiruvchi moment bo‘lsa, qurilishda esa bu qurilish siklining bosqichi bo‘ladi.

Qurilishda materiallar oqimi ishlarni ishlab chiqarishni bir ob’yektdan boshqasiga ko‘chirish bilan yoki bir vaqtning o‘zida bir nechta ob’yektlarni tiklashda ishlab chiqarish kuchlarini va vositalarini taqsimlab tarqatish bilan o‘zining yo‘nalishini uzluksiz ravishda o‘zgartiradi. Bundan kelib chiqadiki, ishlarnii shlab chiqaruvchi (prorab) aynan bir xil materiallardan foydalangan holda turli logistik yechimlarni qo‘llaydi, bu esa bir-biriga o‘xshashgan bo‘lgan bir qancha sharoitlarda ularning mos tushushini inkor etmaydi.

Ratsional logistik yechimlarni tuzish, ya’ni materiallar oqimida ishtirok etuvchi xo‘jaliklar faoliyatini tarkibi va xarakterini aniqlash moddiy-texnika ta’minoti sohasida samarador yechimlarni qidirishning muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Aniq sharoitlarda logistik zanjirni unga savdo vositachilarini kiritgan holda uzaytirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ayniqsa bu O‘zbekistonda aynan qurilishda keng rivojlangan kichik biznesni moddiy – texnika jihatdan ta’minalash jarayoniga ko‘proq tegishlidir.

Ishlab chiqarish–texnologik komplektatsiya bo‘limlari logistik zanjirning oraliq bo‘g‘ini sifatida qurilish uchun juda xosdir.

Xulosa sifatida quyidagilarni alohida ta’kidlash juda muhimdir.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish qurilish kompleksidagi o‘zaro munosabatlar xarakteri va uning moddiy ta’minoti sohasini ham tubdan o‘zgartirdi. Qurilish kompleksi tomonidan qurilish materiallariga bo‘lgan talablar va ehtiyojlarning holati va etkazuvchilarning narx siyosati qurilish materiallari bozori kon'yukturasining asosiy omillariga aylandi. Bozor turidagi iqtisodiy sharoitlarda etkazuvchilar uchun mahsulotlar sotilishini tashkil etish, istemolchilar uchun esa ularni minimal narxlarda xarid qilish bosh muammoga aylandi.

Qurilish kompleksi (materiallar resurslarini tugallangan holatda iste’mol qiladigan yirik sub’ektlar) oldida materiallar resurslarini xarid qilishning samarador shakllarini tanlash va ulardan oqilona foydalanish vazifasi turadi. Bu vazifalarni hal etishda mashinalar va jihozlar bo‘yicha lizingni rivojlantirish, materiallar va qurilish konstruksiyalari bo‘yicha esa materiallar oqimini samarali tashkil etish katta ahamiyat kasb etadi, buni muvaffaqiyatli amalga oshirish esa o‘z navbatida moddiy ta’minot logistik metodlarini amaliyatga qo‘llash bilan bog‘liqdir.

**Tayanch iboralar:** Moddiy – texnika bazasi. qurilish moddiy – texnika ta’minoti tizimi. moddiy – texnika resurslar. Logistika.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Bozor munosabatlari sharoitida qurilish tarmog‘ining moddiy-texnik ta’minoti tizimini tushuntirib bering.
2. Qurilish moddiy-texnik resurslari tarkibiga nimalar kiradi.
3. Qurilishni moddiy-texnik resurslar bilan ta’minlashning shakllari va usullarini aytib bering.
4. Qurilish moddiy-texnika ta’minotida logistikani tashkil etishning maqsad va vazifalarini gapirib bering.
5. Logistik tizimlar deganda nimani tushunasiz?

## **12-MAVZU. QURILISHDA ILMIY-TEXNIKA TARAQQIYOTI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGI**

---

### **Reja:**

12.1 Iqtisodiyot va jamiyatda ilmiy-texnika taraqqiyoti rivojlanish dastagi sifatida. Qurilishda ilmiy-texnika taraqqiyoti va uning jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta’siri.

12.2 Ilmiy texnika taraqqiyotining qurilishdagi mohiyati, ahamiyati va asosiy yo‘nalishlari.

12.3. Qurilishda ilmiy texnik-taraqqiyotni bashoratlash va rejalashtirish.

12.4 Ilmiy texnik-taraqqiyotning qurilishdagi samaradorligini iqtisodiy baholash va uning ko‘rsatkichlari.

### **12.1 Iqtisodiyot va jamiyatda ilmiy-texnika taraqqiyoti rivojlanish dastagi sifatida. Qurilishda ilmiy-texnika taraqqiyoti va uning jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta’siri**

“Faol tadbirkor deganda, biz raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qodir, eng muhimi, yangi ish o‘rinlari yaratib, nafaqat o‘zini va oilasini boqadigan, balki butun jamiyatga naf keltiradigan ishbilarmon insonlarni tushunamiz. Bunday tadbirkorlar safini kengaytirish, jumladan, yuqori texnologiyalar, ilm-fanning eng so‘nggi yutuqlariga asoslangan texnika va asbob-uskunalarni mamlakatimizga olib kelish va joriy etish uchun ularga munosib sharoitlar yaratish bizning birinchi galdagi vazifamiz bo‘lishi shart. Kerak bo‘lsa, xorijdagi etakchi kompaniya va tashkilotlarda tajriba orttirishi, o‘zaro manfaatli hamkorlik qilishi uchun ularga har tomonlama imkoniyat tug‘dirib berishimiz lozim”<sup>4</sup>- degan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yilda mamlakatni rivojlantirishning eng ustivor vazifalari to‘g‘risidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida.

---

<sup>4</sup>Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.”Халқ сўзи” газетаси, 2018 йил 29 декабрь.

Bu o‘z navbatida iqtisodiy rivojlanish masalalarini hal qilish kabi, ko‘p jihatdan ilmiy texnika taraqqiyoti (I.T.T.) sohasida butun bir tizimni shakllantirish va uning ahamiyatini kuchaytirib, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida ilmiy yutuqlardan foydalanishga bog‘liq. Tarixan isbothanganki, fan va texnika yutuqlaridan foydalanmaydigan eski texnologiya va ishlab chiqarishni tashkil etish usullarini qo‘llaydigan jamiyat, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishiga va insonlarning moddiy farovon hayotini yuksaltirishga erishishga da’vo qilolmaydi. SHuning uchun ham ilmiy texnik taraqqiyot iqtisodiy rivojlanishning va aholi turmush darajasi sifatini oshirishning o‘ziga xos bir “dastak”gi bo‘lib hisoblanadi.

Shuni ta’kidlash joizki ilgarigi markazlashtirilgan ma’muriy buyruqbozlik boshqaruvi tizimi qaysidir ma’noda ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishini sekinlashtiradi va ilmiy texnika taraqqiyoti ahamiyatini kamaytiradi, lekin bu ilmiy texnik tashabbusning mavjud bo‘limganidan emas, balki xo‘jalik mexanizmining har qanday yangiliklarga nisbatan moyilligining juda pastligidandir.

Bugungi kunda iqtisodiyot bozor munosabatlariga o‘tayotgan bir paytda ushbu tendensiya asta sekinlik bilan rivojlanish bosqichiga o‘tmoqda, Tashabbus erkinligi va ijodkorlik davlatning maqsadga yo‘naltirilgan ilmiy-texnik va investitsion siyosatlari bilan bir qatorda ishlab chiqarish va ilmiy muassasalarning keng miqyosdagi mustaqilligi xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlaridagi ilmiy texnik taraqqiyotning o‘sish sur’atlari tezlashishiga asos bo‘ladi.

Uning umumiy iqtisodiyotdagagi asosiy yo‘nalishlari quyidagilar:

- ijtimoiy shuningdek ilmiy texnika taraqqiyoti rivojlanishining samarali qonuniyatlariga asoslangan yagona ilmiy texnik siyosatni ishlab chiqish va uni amalgalashishiga asos qilish;
- davlatning ilmiy texnik potensialini iqtisodiyot, vaqt va turmush talablariga mos ravishda tubdan isloh qilish;
- ishlab chiqarishning texnik salohiyati, ishlab chiqariladigan mahsulotning sifati va raqobatbardoshligini oshirish, mutloq va nisbatan arzonlashtirilgan yangi texnika bilan ta’minlash;
- yangi g‘oya, fikr va ilmiy texnik bog‘lanishlar shakllanishi asosida yotuvchi inson omilini har tomonlama faollashtirishga qaratilgan ta’lim dasturlarini chuqur isloh qilish;
- ilmiy texnik taraqqiyotning davlat tomonidan boshqarilishini tashkilotlar va ilmiy muassasalar hamkorligida olib borish.

Ilmiy-texnik taraqqiyotning boshlang‘ich ishlab chiqarish bosqichi bo‘lib, turli ilmiy tadqiqot muassasalarida yuzaga keladigan ishlab chiqariladigan g‘oya, fikr va loyihibar hisoblanadi. Yaratiladigan texnika-texnologiya va boshqa yangiliklarni eksperiment va sinovdan o‘tkazish, ishlab chiqarish tarmoqlari zimmasiga tushadi.

Biroq o‘z mahsulotini ilmiy texnika yutuqlar asosida yaratayotgan va ishlab chiqarayotgan har qanday tashkilot yuqori ishlab chiqarish texnikasiga ega bo‘lishi, ya’ni zamонавиy tashkilot bo‘lishi kerak. Aynan shu ma’noda qurilish tarmog‘i ilmiy texnik taraqqiyotning sur’at va miqyoslariga texnik jihatdan yangi asosiy fondlar va ishlab chiqarish quvvatini ishga tushirish yo‘li bilan katta ta’sir o‘tkazadi. Boshqacha qilib aytganda ilmiy texnika taraqqiyoti xalq xo‘jaligida bevosita kapital qurilish

natijalari bilan bog‘liq. Fan va texnikaning zamonaviy yutuqlari asosida tashkilot va boshqa ob‘yektlarni loyihalashtirishning asosiy omillaridan biri va kapital qurilish samaradorligini oshirishning negizi bo‘lib hisoblanadi.

## **12.2 Ilmiy texnika taraqqiyotining qurilishdagi mohiyati, ahamiyati va asosiy yo‘nalishlari**

Qurilishda ilmiy texnika taraqqiyoti-bu zamonaviy ilmiy texnik yutuqlar va ishlab chiqarish vositalari, texnologik jarayonlar mehnatni tashkil etish va boshqarish usullari asosida ishlab chiqarishni uzlusiz takomillashtirish jarayonidir. Ushbu jarayon mehnat unumdarligini, mahsulot sifatining oshirilishini va maksimal foydaga erishishni ta’minlaydi. Ilmiy texnik taraqqiyot o‘zining rivojlanishida ikkita o‘zaro bog‘liq shakllarda: evolyusion va revolyusion shakllarda namoyon bo‘ladi. Ilmiy texnik taraqqiyotning evolyusion shakli vazifasi an’anaviy texnologiya, jixozlar, material va konstruksiyalarni uzlusiz va doimiy ravishda mukammallashtirishdan iborat. Bunday jarayon ancha muddatgacha davom etishi mumkin va o‘zining birinchi bosqichlarida etarli miqdorda iqtisodiy va ijtimoiy natijalarga erishilishini ta’minlaydi.

Ilmiy texnik taraqqiyotning revolyusion shakli — bu prinsipial yangi, avval qo‘llanilmagan mehnat vositalari va texnologiyani yaratishdir. Ba’zan, ilmiy texnik taraqqiyotning ushbu shaklini ilmiy texnik revolyusiya deb ham ataladi. Afsuski ilmiy texnik taraqqiyotning ushbu shakli evolyusion ilmiy texnik taraqqiyotga nisbatan ohirgi yillarda kam sezilarli darajadadir.

Ilmiy texnik taraqqiyot natijasida mexnat sharoitlarini yaxshilanishi va uning me’yorida saqlanishi, atrof-muhitni himoya qilish, qo‘l mexnati hissani qisqartirish, alohida holatlarda qo‘l mehnatidan umuman foydalanmaslik, qurilishni davomiyligini qisqartirishlarga erishiladi. Ilmiy texnik-taraqqiyot asosida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va unumdarligini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Ilmiy texnik-taraqqiyotning qurilishdagi asosiy yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- qurilish ishlab chiqarishini sanoatlashtirish;
- qurilishda yangi materiallar va konstruksiyalarni yaratish hamda qo‘llash;
- qurilish montaj ishlarini mexanizatsiyalash, kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish;
- progressiv texnologiya va etakchi usullarni qurilish ishlab chiqarishini tashkil qilishda qo‘llash.

Sanoatlashtirish - bu ko‘pgina ishlab chiqarish jarayonlarini qurilish maydonchalarida zavod muhitiga ko‘chirish demakdir. Qurilish ishlab chiqarishini sanoatlashtirishga tipik misol bo‘lib, o‘z vaqtida tashkil qilingan va hozir ham amal qilayotgan uy-qurilish kombinatlari, temur-beton mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi zavodlar qurilish konstruksiyalarini ishlab chiqaradigan kombinatlar hisoblanadi.

Qurilishning sanoatlashtirish ko‘rsatkichlari bo‘lib bajaradigan qurilish montaj ishlari yoki ob‘yekt qiymatining umumiyligi hajmidagi konstruksiya va detallar

qiymatining nisbati bo'yicha aniqlanadigan qurilish ob'yektlarining jamlanganlik darajasi hisoblanadi.

Sanoatlashtirish qurilishni faol ishlab chiqarishga ketadigan mehnat sarfini kamaytirish va qurilish muddatini qisqartirish imkonini beradi. U shuningdek qurilish ishlab chiqarishida texnikaning tutgan ahamiyatini ko'tarishga va uni nisbatan montaj jarayoniga aylantirishga xizmat qiladi. Sanoatlashtirish uy-joy qurilishi sohasida keng rivojlangan.

Yangi material va konstruksiyalarni yaratish va qo'llash - bu qurilishdagi ilmiy texnik-taraqqiyotning muhim yo'nalishidir. Hozirgi qurilayotgan ko'pgina ob'yekt va qurilmalar avvalgilaridan nafaqat arxitekturaviy-rejali jihatdan, balki ishlataladigan material va konstruksiyalar bilan xam farq qiladi. Ular qatoriga plastmassa buyumlari, polietilen yog'ochlari, suvga chidamli faneralar, shishali plastika, keramik buyumlar, issiqlikni izolyasiya qiluvchi akkustik va boshqa materiallarni kiritish mumkin. Alovida qurilish-montaj ishlarida zamonaviy sintetika materiallari, santechnika va elekrotexnika ishlarida tayyor materiallarni yig'ish va ekspluatatsiya qilishda qulay bo'lgan materiallar keng qo'llaniladi. Alyuminiydan qilingan konstruksiyalar va qurilish buyumlari yaxshi ko'rinish va mustahkamlikka ega bo'ladi.

Biroq zamonaviy qurilish materiallari va jixozlarini yaratish jarayoni ilmiy ishlab chiqarish izlanishlarini kuchaytirish va ahamiyatini oshirishni talab qiladi. Bunga erishish uchun fan, texnika va ishlab chiqarish o'rtasidagi rivojlanish o'zaro bir nuqtada kesishishi kerak. Qurilishga rivojlangan davlatlar tajribasidan keng foydalanish zarur.

Ish va ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash, kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish - bu qurilishda texnik taraqqiyotning muhim yo'nalishidir. Uni amaliyatga tadbiq etish ishlab chiqarish jarayonida mashina mexanizmlar ahamiyatini kuchaytirish yo'li bilan amalga oshiriladi va buning natijasida yangi mashina va mexanizmlarni joriy, etish mavjud mashina parklarini modernizatsiyalash, shuningdek qurilish va ta'mirlash ishlarini yaxshilash mumkin bo'ladi.

Ilmiy texnik-taraqqiyotning ushbu yo'nalishini asosiy baholovchi ko'rsatkichlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- Ish mexanizatsiyasi koeffitsienti – qurilish mexanizmlar bilan bajariladigan ish hajmining umumiyligi bajarilgan ish hajmiga nisbati;
- mehnatning mexanik qurollanganlik koeffitsienti – qurilish mashinalari bilan bajarilgan ish hajmining umumiyligi bajarilgan ish hajmiga nisbati;
- ishning energetik qurollanganlik koeffitsienti — qurilishda ishlataladigan mashina va mexanizmlar dvigatellarining umumiyligi quvvatining yillik qurilish montaj ishlari hajmiga nisbati. Ushbu ko'rsatkich kVt'da o'lchanadi.

Qurilish ishlab chiqarishini tashkil qilishning rivojlangan texnologiya va usullarini amaliyatga tadbiq etish qurilishini sanoatlashtirish jarayoni bilan chambarchas bog'liq. Bu davlatimizning shuningdek chet el tajribasidagi yutuqlarga asoslangan bo'ladi. Uning asosiy maqsadi nafaqat kapital qurilish samaradorligi

ko'rsatkichlarini yaxshilash va ko'tarish, balki qurilish ishlab chiqarishini sanoatga asoslangan darajasini oshirish, mehnat bir xillagini bartaraf etish hamdir.

Ilmiy texnik-taraqqiyotning qurilishdagi ushbu yo'naliishing taxminiyl aks ettirilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- qurilish uzlusizligini rivojlantirish;
- ob'yekt va qurilmalarning atrofdagilardan chegaralash;
- katta o'lcham va gabaritdagi metalokonstruksiya, ferma va qoplash jixozlarining dastlabki yig'ilishi;
- brigada tartibini rivojlantirish;
- qurilishning alohida uchastkalarida ishni tashkil etishning vaxta usulidan foydalanish;
- payvand-chilangarlikning zamonaviy usullaridan foydalanish;
- ilg'or texnologiyani joriy etish, ob'yekt va qurilmalarni qurishni "g'ildirakdan" dan montaj qilish usuli yordamida tashkil etish.

Ilmiy texnologiyani amaliyatga tadbiq etish qurilish ishlab chiqarishini yangi pog'onada (ishni tashkil etishning industrial usullari talablariga mos ravishda) ko'tarish imkoniyatini yaratib beradi. Boshqacha qilib aytganda texnologik yangiliklar - mahsulot ishlab chiqarishga ketadigan mehnat sarfini kamaytirish va qurilish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosi bo'lib hisoblanadi.

### **12.3. Qurilishda ilmiy texnik-taraqqiyotni bashoratlash va rejalashtirish**

Milliy iqtisodiyot, tarmoq iqtisodiyoti va ishlab chiqarish bo'g'inlaridagi iqtisodiyot bo'lishiga qaramasdan, erishilgan natijalarni baholamasdan va kelgusidagi istiqbollarni belgilab olmasdan o'z-o'zidan boshqarilishi mumkin emas. Ularni barchasi ITTni bashoratlashni va xususan rejalashtirishni qurilishni boshqarishning muhim masalalarini samarali xal qilishda o'z aksini topadi.

Bashoratlash - davlat iqtisodiyotining holati yoki uning alohida tarmoqlari, yo'naliislari va sohalari xaqida ilmiy tasdiqlangan holda oldindan aytib berish, shuningdek iqtisodiyotning u yoki bu holatiga erishishning muqobil yo'llari, usullari va muddatlari to'g'risida mushohada yuritish demakdir.

Boshqaruv jarayoni sifatida bashoratlash iqtisodiyot rivojlanishining istiqbollarini baholash va uning holatini tahlil qilish bilan bog'liq. Uning ko'p tarqalgan shakllaridan bashoratlashning rejalashtirish bilan bevosita o'zaro aloqadorligini ta'minlovchi dastur, masalani qo'yish usul va uslublar bo'lib hisoblanadi.

Ilmiy texnik taraqqiyotni rejalashtirish - bu qurilishda fan va texnika rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan joriy masalalarini hal qilishga qaratilgan bashoratlashning tarkibiy bir qismidir. U ilmiy texnik rivojlanishning davlat dasturlari, shuningdek qurilish materiallari sanoatida bevosita faoliyat yuritadigan tashkilot va korxonalar tomonidan olib boriladigan tashkiliy-texnik tadbirlar bilan belgilanadigan masalalar asosida amal oshiriladi.

Rejalashtirish jarayonida qurilish ishlab chiqarishining texnik darjasini va iqtisodiy samaradorligini oshirish, qurilishni tashkil etishning eng yaxshi loyiha

namunalari, texnik takomillashtirish, ilmiy tadqiqot va loyihalashtirish institutlari, ulardagi olimlar va ratsionalizatorlar tomonidan ishlab chiqilgan texnik innovatsiyalar, ilg‘or qurilish tashkilotlarining tajribalari o‘z aksini topmog‘i lozim.

Qurilish soxasidagi tashkilot va korxonaarning texnik rivojlanish darajasining asosiy ko‘rsatkichlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

1.Samarali qurilish konstruksiyaliridan va yangi qurilish materiallaridan foydalanish;

2.Qurilish-montaj jarayonlarini mexanizatsiyalash, kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishni rivojlantirishning keyingi bosqichiga o‘tish;

3.Qurilish ishlab chiqarishining etakchi texnologiyasini amaliyatga tadbiq etish;

4.Ko‘rgazmali qurilishni tashkil etish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tashkilotlar va korxonalarga barcha sohalarda huquq va erkinliklar berilib, sobiq itifoq davrida bo‘lganidek yuqorida ko‘rsatmalar berilmay, balki texnik rivojlanish korxona va tashkilotlarning o‘z tashabbuskorligidan kelib chiqadi. Bu masala qurilish tashkilotining bosh muxandisi raxbarligi ostida hal qilinadi va kerak bo‘lganda bunga korxonaning iqtisodiy instrumentlari jalg qilinadi. Dastavval reja va dasturning asosiy yo‘nalishlarini belgilovchi tadbirlar ro‘yxati tuziladi, ushbu ro‘yxatda tadbirlarning qisqacha tasnifi va ularning qaysi ob‘yektlarda amalga oshirilishi ko‘rsatiladi. Rejaga kiritiladigan har bir tadbir zarur texnik iqtisodiy hisob kitoblar natijasida tasdiqlanadi, malakali ishchilardan tashkil topgan tashabbuskor gurux tashkil etiladi. Bu ishlab chiqarish rezervlidan maksimal darajada foydalanishni ta’minlovchi rejalarни sistematik ravishda takomillashtirish va ularga zarur tuzatishlar kiritish imkoniyatini beradi.

Yangi texnika va tashkiliy xo‘jalik tadbirlari rejalarini bajarish jarayonida, qurilish sohasidagi yangi kashfiyotlar, ratsionalizatorlik takliflari, shuningdek zamonaviy fan va texnikadagi yutuqlar hisobga olinishi kerak.

Ilmiy texnik-taraqqiyotni rejalshtirishda shuni hisobga olish muhimki turli g‘oya, fikr va yangiliklar paydo bo‘lishi mumkin, ularni amaliyatga qo‘llash esa qurilish sanoatidagi korxona va tashkilotlarning o‘z kuchlari bilan amalga oshiriladi, bular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

Institutlar — birlamchi tadqiqotlarga ixtisoslashgan va fanning ma’lum bir sohasidagi rivojlanish uchun javobgar tashkilot;

Ilmiy tadqiqot institutlari — ikkilamchi tadqiqiy ishlarga ixtisoslashgan va ma’lum bir tarmoqni ishlab chiqarish yoki ilmiy texnik darajasiga javobgar bo‘lgan tashkilot;

Loyihalash, konstruktorlik, texnologik tashkilotlar, texnologik iqtisodiy tadqiqot institutlari — konstruktorlik texnologik loyihalash yoki tashkiliy ishlab chiqarishga ixtisoslashgan mahsulot samaradorligi, texnologiyasi ishlab chiqarishini tashkil etish va loyihalarga javobgar hisoblanuvchi tarmoqli tashkilotlar. Bu yerga u yoki bu institutlarga xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar kirmaydi.

Montaj, ishga tushirish va ta’mirlash bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni boshqarish bilan shug‘ullanuvchi tashkiliy texnik institutlar, asosiy ishlanmalarni yaratishga qaratilgan maxsus labaratoriylar, ularni sinash ishlari bilan

shug‘ullanuvchi tashkilotlarga quyidagilar kiradi: yangiliklarni tarqatish bilan shug‘ullanuvchi ilmiy-texnik va boshqa institutlar.

Ushbu tashkilotlarni shuningdek bo‘ysundirilganligi, faoliyat miqyoslari (tarmoqli, tarmoqlararo, tarmoqlar osti, xududiy), ixtisoslik boshqalar bo‘yicha turkumlash mumkin.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy muammo fanning muvafaqiyatlari faoliyat yuritishi uchun sharoit yaratish, uni bir me‘yoda saqlash, ilmiy-texnik tadqiqotlar samaradorligini oshirish va ilmiy texnik-taraqqiyotning asosiy yo‘nalishlaridagi resurslar jamlanmasini ta‘minlash bo‘lib hisoblanadi. Aynan shu maqsadda akademik va ixtisoslashgan ilmiy tadqiqot muassasalarining erkinliklarini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni tanlov-shartnomali tamoyil bo‘yicha tashkil etilishiga, shuningdek ularni ilmiy texnik dasturlar asosida moliyalashtirish tizimiga o‘tish maqsadga muvofiq xisoblanadi. Bunda faoliyat yuritish ob’kti bo‘lib tanlov loyihasi hisoblanadi, sub’ekti bo‘lib esa uni ilgari surgan olimlar guruxi yoki ilmiy tadqiqot institutlari hisoblanadi. Ayni chog‘da tashkilot yoki korxanalar va ilmiy tadqiqot institutlari o‘rtasida o‘zaro aloqalarni o‘rnatish lozim, bu birinchidan ixtiro qilingan «velosiped»ni qayta ixtiro qilishning oldini oladi, ikkinchidan esa fan va texnika rivojlanishiga qaratilgan ilmiy texnik-taraqqiyotning samaradorligini oshirish imkonini beradi.

## **12.4 Ilmiy texnik-taraqqiyotning qurilishdagi samaradorligini iqtisodiy baholash va uning ko‘rsatkichlari**

Ilmiy texnik-taraqqiyot borasidagi iqtisodiy samaradorlik va ish mahsuldarligini baholash fan va texnika rivojlanishiga, tashkiliy- texnik va xo‘jalik tadbirlarini olib borishga o‘z hissasini qo‘sadi. Bunda tarmoq darajasida asosan quyidagilar muhim sanaladi:

- loyihalarning yangiligi va istiqbolligi;
- ishlab chiqarishning texnik darajasi va texnik iqtisodiy ko‘rsatkichlarini oshirishda qo‘shilgan amaliy ulushi;
- ish sifatini tushirmagan holda o‘z muddatida bajarish;
- ilmiy texnik loyihalarni amalga oshirishdan olinadigan iqtisodiy samaradorlik;
- yangiliklarning mazkur sohada mavjud o‘zimizning va chet el yutuqlaridan farqi.

Samaradorlikni baholash fan va texnika rivojlanishining rejalarini tasdiqlashda, shuningdek qurilish tashkilotlarining aniq tashkiliy texnik tadbirlarini ko‘rsatib berishda katta rol o‘ynaydi.

Qurilishda ilmiy texnik-taraqqiyotning samaradorligini baholashning eng ko‘zga ko‘ringan sohalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Ishlab chiqarish resurslarini tejalishini ta‘minlovchi yangi texnologik jarayonlarni qo‘llash, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish usullari.

Bu yerda samaradorlikni baholash quyidagi formula asosida baholanadi:

$$E = A ((S_1 + E_n K_1) - (S_2 + E_n K_2)) \quad (12.1)$$

bunda: **A** - yangi texnikadan foydalangan holda hisobot yilida bajarilgan ish hajmi;

**S<sub>1</sub>, S<sub>2</sub>** - taqqoslanadigan variantlar bo'yicha ishning tannarxi;

**K<sub>1</sub>, K<sub>2</sub>** - xuddi shu variantlar bo'yicha kapital qo'yilmalar;

**E<sub>n</sub>** - kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligining normativ koeffitsienti.

2. Butun xizmat davrida vaqt omilini hisobga olgan holda ekspluatatsiya qilish xarajatlarini tejab qolish orqali baholanadigan yangi mashina va konstruksiyalarni qo'llash.

Yangi qurilish texnikasining samaradorligi yuqorida ko'rsatilgan formula bo'yicha baholanadi. Bunda yangi va oldin ekpluatatsiya qilingan texnikaning qiymati hisobga olinadi. Yangi va oldindan ekpluatatsiya qilingan konstruksiyaning uzoq muddatligini hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$K_e = (R_1 + E_n) / (R_2 - E_n) \quad (12.2)$$

Bunda: **R<sub>1</sub>, R<sub>2</sub>** — taqqoslanadigan variantlar bo'yicha qurilish konstruksiyalarining bir yil xizmat qilishga mo'ljallangan qiymatining ulushi.

3. Ilmiy texnik-taraqqiyot yutuqlaridan foydalanish evaziga qurilishni davom etish muddatini qisqartirish. Bunda iqtisodiy samaradorlik quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$E_u = N (1 - T_2/T_1) \quad (12.3)$$

Bunda: **N** — qurilishni davomiylik muddatining variantlari bo'yicha shartli-doimiy xarajatlar;

**T<sub>1</sub>** va **T<sub>2</sub>** - taqqoslanayotgan variantlar bo'yicha qurilishning davomiylik muddati.

Shartli-doimiy xarajatlar miqdori o'rtacha «materialarga xarajatlar» moddasi bo'yicha bir foiz etib qabul qilinishi mumkin yoki «mashina va mexanizmlarni ekpluatatsiya qilish xarajatlari» moddasi bo'yicha 15 %, «davr (ustama) xarajatlari» moddasi bo'yicha 50% etib belgilanishi mumkin.

4. Xajmiy-rejaviy va konstruktorlik yechimlarini takomillashtirish. U quyidagi formula bo'yicha aniqlanishi mumkin:

$$E = (S_1 - S_2) = E_{ns} (K_1 - K_2) + E_n (F_1 - F_2) \quad (12.4)$$

bunda: **S<sub>1</sub>** va **S<sub>2</sub>** - yillik ishlab chiqariladigan mahsulotning (ishlab chiqarish ob'yektlari) tannarxi yoki ekpluatatsion xarajatlar (noishlab chiqarish ob'yektlari);

**E<sub>ns</sub>** va **E<sub>n</sub>** — qurilish ob'yektining qurilish samaradorligining normativ koeffitsientlari;

**K<sub>1</sub>** va **K<sub>2</sub>** — taqqoslanadigan ob'yektlar uchun kapital qo'yilmalar;

**F<sub>1</sub>, F<sub>2</sub>** — taqqoslanadigan ob'yektlarni jihozlashda qurilish tashkilotlarining ishlab chiqarish fondlari.

Ilmiy-texnik tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini baholash har qanday darajada ham yagona asosiy maqsad bo'lib hisoblanadi. Ilmiy texnik-taraqqiyot, fan, ishlab chiqarish iqtisodiy o'sish omili sifatida jamoaning mehnat unumdarligini oshirgan holda uning iqtisodiy omili sifatida ham rol o'ynaydi. SHuning uchun ham

fan va texnikaning iqtisodiy samaradorligi bir vaqtida ma'lum muddat davomida ilmiy texnik yutuqlarni amaliyotga tadbiq etish natijasida jamiyat tomonidan erishiladigan mehnatning umumiy xarajatlarini kamaytirishga erishishni aks ettiradi. Eng asosiysi ilmiy texnik-taraqqiyot ishlab chiqarish intensivligini va yaratilayotgan mahsulot sifatini oshirish imkonini yaratib beradi.

**Tayanch iboralar:** Fan. Texnika. Fan-texnika taraqqiyoti. Ilmiy tadqiqotlar. Yangilik. Ixtiro. Novasiya. Innovasiya. Sanoatlashtirish.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Fan-texnika taraqqiyoti deganda nimani tushunasiz?
2. Qurilishda fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari va mazmuni nimalardan iborat?
3. Jamiyat fan-texnika taraqqiyotida qurilishning o'rni nimalardan iborat?
4. Qurilishda yangi texnika va tenologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi, uning ko'rsatkichlari va aniqlash uslublari nimalardan iborat?

## **13 - MAVZU. QURILISH MAHSULOTINING TANNARXI, FOYDA VA RENTABELLIK**

---

### **Reja:**

- 13.1. Qurilish-montaj ishlari tannarxi strukturasi.
- 13.2. Qurilishning smeta bo'yicha qiymati (narxi)ni belgilash tarkibi, tuzilishi va uslublari.
- 13.3 Qurilishda foyda va uni hisoblash usullari.
- 13.4 Qurilishda rentabellik va uni oshirish yo'llari.

### **13.1. Qurilish-montaj ishlari tannarxi strukturasi**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish samaradorligining eng muhim ko'rsatkichi tannarx bo'lib qoladi, chunki pirovard natijada iqtisodiy rag'batlantirish fondlarining miqdori, ishlovchilarining real ish haqlari, ishlab chiqarish quvvatlarining rivojlanishi, ishlab chiqarish texnikaviy saviyasining o'sishi faqat tannarx orqali aniqlanadi.

Ob'yektning smeta qiymati o'z tarkibiga shu ob'yektni yaratish uchun kerak bo'lgan barcha ijtimoiy-zaruriy xarajatlarni oladi, shu jumladan, qurilish-montaj ishlarini bajarish, uskunalar sotib olish va ularni montaj qilish, loyiha-izlanish ishlari, ustama xarajatlar hamda rejalashtirilgan jamg'armalar.

Smeta qiymatidan farqli o'laroq qurilish-montaj ishlarining tannarxi qismi bo'lib, u qurilish-montaj tashkilotining qurilish montajlarini qurish va ta'mirlashga qilgan xarajatlaridan tashkil topadi. Qurilish-montaj ishlari tannarxi uning smeta qiymatiga nisbatan pul va moddiy resurslardan tejamli foydalanishni aks ettirib, tashkilot ishi samaradorligini ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Qurilish tarmoqlarining barcha boshqa turlaridagi kabi, ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish kompleks kalkuliyasion elementlar bo‘yicha amalga oshiriladi va ularning nomenklaturasi smeta hujjatlari tarkibidagi xarajatlarni elementlar bo‘yicha guruhlashtirish bilan to‘liq mos keladi.

Shunga muvofiq ravishda qurilish-montaj ishlari tannarxning tarkibi to‘g‘ridan-to‘g‘ri (TX) va ustama xarajatlarga (UX) ajratiladi. Rejalashtirilgan jamg‘armalar (RJ) ishlari tannarxi tarkibiga kirmaydi:  $QMI_{tn}=TX+UX$ .

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar tarkibiga ishlarni bajarishga sarflangan materiallar qiymati; ishchilarining asosiy ish haqlari; qurilish mashinalarini ishlatishga bo‘lgan xarajatlar va boshqa to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar kiradi.

Materiallar, konstruksiyalar va detallarga xarajatlar ishlari tannarxining tarkibida sanoat korxonalarida amal qilayotgan sotilish narxlari bo‘yicha (agar materiallar qurilish materiallar sanoati korxonalardan olinsa), yoki reja hisob-kitob narxlari bo‘yicha (agar materiallar qurilish montaj -qurilish trestiga tegishli bo‘lgan sanoat korxonalardan olinsa), yoki ularning haqiqiy tannarxi bo‘yicha (agar materiallar mustaqil balansga ega bo‘lmagan o‘z yordamchi ishlab chiqarishidan olinsa) hisobga olinadi. Bunda materiallar xarajatiga ularni ob‘yektoldi omborxonasi gacha etkazib kelish hamda omborxona xarajatlari ham kiritiladi.

Asosiy ish haqi tarkibiga qurilish-montaj ishlarida band bo‘lgan qurilish va yo‘l ishchilarining, qurilish materiallarini ob‘yektoldi omborxonasi va ishlatilish joyigacha etkazishda, dozirovka qilish va materiallarni mashinalarga etkazib berish va “ish” ga yetkazishda mashhg‘ul bo‘lgan ishchilarining ish haqlari kiradi.

Ishchilarining asosiy ish haqlari tarkibiga mehnatga haq to‘lashning barcha tizimlari bo‘yicha hisoblangan ish haqi, ish haqi fondidan vaqtida bajarilgan ishlari uchun qo‘srimcha to‘lovlar, ishchilar aybisiz turib qolishlar uchun to‘lovlar va boshqalar kiradi.

Mashina va mexanizmlardan foydalanishga bo‘ladigan xarajatlar birdaniga bo‘ladigan xarajatlar va joriy xarajatlardan tashkil topadi. Joriy xarajatlar tarkibiga mashinalarni boshqarish va ularga xizmat ko‘rsatishda band bo‘lgan ishchilarining asosiy ish haqlari, texnik xizmat ko‘rsatishda band bo‘lgan ishchilarining asosiy ish haqlari, texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash xarajatlar, yonilg‘i-moylash materiallari va elektr energiyaning qiymati, mashinalar amortizatsiyasi, ijaraga olingan mashinalar bo‘lsa ularga to‘lanadigan ijara haqi kiradi.

Birdaniga bo‘ladigan xarajatlar mashinalarni yuklash, tushirish, tranportirovka qilish, mashinalarni montaj, demontaj va sinab kirish ishlariga xarajatlar hamda mashinalarni o‘rnatish uchun vaqtinchalik inshootlarni qurish va buzish (masalan, ABZ, SBZ va boshqalarda) uchun xarajatlardan tashkil topadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar tarkibiga tuproqni tashishga, materiallarni ob‘yekt ichida, ob‘yektoldi omborxonasidan to‘shalish joyigacha yoki ko‘tarish mexanizmigacha tashib etkazishga bo‘ladigan xarajatlar ham kiritiladi.

(Boshqa to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar)

Ustama xarajatlar bevosita qurilish-montaj ishlari, ya’ni qurilish maydonlarida, yordamchi ishlab chiqarishda va boshqa (xizmat ko‘rsatuvchi) xo‘jaliklarda mavjud.

Yordamchi ishlab chiqarish va boshqa xo‘jaliklar bo‘yicha ustama xarajatlar qurilish-montaj ishlari tannarxi tarkibida alohida ajratilmaydi, chunki ular bu ishlab chiqarish va xo‘jaliklar mahsulotlari va xizmatlari qiymatining tarkibiga kiradi:

-ma’muriy-xo‘jalik xarajatlari - ma’muriy boshqaruva ishlab chiqarish texnik personalining ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar bilan birga hisoblangan ish haqlari, komandirovka va safar xarajatlari, idora va pochta-telegraf xarajatlari, idora binolarining ijarasi va ularni ta’mirlashga xarajatlar;

-ishchilarga xizmat ko‘rsatish xarajatlari - ishchilarni ijtimoiy sug‘urtalashga ajratmalar, ishchilarning qo‘shimcha ish haqlari (ta’tillar uchun to‘lov, brigadirlarga brigadaga rahbarlik qilganligi uchun qo‘shimcha to‘lov, engilroq ish sharoitiga o‘tkazilgandagi qo‘shimcha to‘lov va hokazolar), mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi xarajatlar, uy-joy kommunal xo‘jaligi xarajatlari va boshqalar;

-ishlarni bajarish va tashkil etishga xarajatlar, yong‘indan saqlanish va yiriqlashga xarajatlar, tashkiliy ravishda ishga olishni tashkil etish, ishlab chiqarishni tashkil etish xarajatlari; ob’yektlarni topshirish bilan bog‘liq xarajatlar, ishlab chiqarish uskunalari va inventarlarini asrashga va boshqa xarajatlar;

-boshqa ustama xarajatlar - qurilish-montaj ishlari amalga oshirishda geodeziya ishlariga xarajatlar, xodimlarga sharoitlar yaratish, umumiy ovqatlanish va boshqa xizmatlar xarajatlar.

-qurilish-montaj ishlaring smeta qiymati va uning tannarxi o‘rtasidagi farq, rejalashtirilgan jamg‘arma va tannarxning pasayishidan hosil bo‘ladigan tejamdan iborat. Qurilish-montaj ishlaring smeta qiymati va tannarxi o‘rtasidagi bog‘lanish quyidagi formula yordamida ifodalanishi mumkin:

$$C = C_{cm} - (H + \Theta) + K \quad (13.1)$$

*bu yerda,*

*H - smetada ko‘zda tutilgan jamg‘arma;*

*\Theta - tannarx pasayishidan hosil bo‘lgan tejam;*

*K - qurilish tashkiloti tomonidan kompensatsiyalar hisobiga, smeta qiymatidan tashqari qilinadigan xarajatlar.*

Smeta qiymatlaridan tashqari to‘lanadigan kompensatsiyalarni mavjudligining sababi shundaki, ishlab chiqarishda amal qilayotgan narxlar, tariflar, mehnatga haq to‘lash shart-sharoitlari vaqtiga vaqtiga bilan qayta kirib chiqiladi, shu sababli qator moddalar bo‘yicha o‘zgarmas me’yorlar va narxlar bo‘yicha smetada ko‘zda tutilgan xarajatlarga nisbatan amaldagi xarajatlar miqdori yuqori bo‘ladi. Bu xarajatlarning bir qismi buyurtmachi tomonidan umumlashma smeta hisob-kitoblari bo‘yicha kompensatsiya qilinadi, masalan, mukofotli ishbay mehnatiga haq to‘lash tizimining qo‘llanilishi sababli qo‘shimcha xarajatlar, kichib yuruvchi ish sharoitlari uchun qo‘shimcha to‘lovlari.

Qurilish-montaj ishlari larning smeta qiymatlari konkret ob’yekt bo‘yicha emas, balki o‘rtacha sharoitlar va qurilish uslublarini hisobga oluvchi smeta me’yorlari va narxlari asosida belgilanadi. SHu sababli tannarxni aniqlashda mehnat

unumdorligining yillik o'sishi va uning asosida konkret tashkilotlarda erishiladigan ishlar tannarxining pasayishi hisobiga olinishi kerak.

Rejalashtirilayotgan tannarx har yili yillik rejalarini ishlab chiqishda aniqlanadi va qurilish montaj tashkilotining uni pasaytirish tadbirlarini aks ettiradi.

Bajarilgan ishlarning haqiqiy tannarxi barcha turdag'i xarajatlarni, shu jumladan kompensatsiya hisobiga qoplanadigan xarajatlarni ham o'zida aks ettiradi. Kompensatsiyalar ishlar tannarxiga belgilangan yo'naliislarni hisobga olgan holda xarajat turlari bo'yicha taqsimlanadi, ya'ni asosiy ish haqi, materiallarning qiymatlari va hokazo.

Qurilish-montaj ishlari tannarxining strukturasi, ya'ni alohida moddalar bo'yicha xarajatlar nisbati, qurilish majmuining tarmoqlari bo'yicha turlicha bo'lib, tashkilot faoliyatining konkret shart-sharoitlarini harakterlovchi bir qator omillarga bog'liq.

Omillarning bir qismi qurilish montaj tashkilotiga nisbatan ob'yektiv harakterga ega va tabiiy-iqlim sharoitlari, texnik loyihada qabul qilingan muxandislik yechimlarining taraqqiyatvarligi, qurilish tashkilotlarining joylanishiga (dislokatsiya) ya'ni, qurilish materiallari va konstruksiylarini etkazib beruvchi tashkilotlarning uzoz yaqinligi va boshqalarga bog'liq. Omillarning boshqa qismi esa bevosa ishlab chiqarishning tashkiliy-texnik saviyasiga, mehnatni tashkil etilishining taraqqiyatvarligiga, qurilish tashkiloti ishlab chiqarish bazasining rivojlanganligiga, uning mexanizatsiya va transport vositalari bilan ta'minlanganligiga bog'liq.

Buning natijasida qurilish montaj lari qurilishida qurilish-montaj ishlarning tannarxi hatto bir qurilish tashkiloti miqyosida ham sezilarli o'zgarishlarga uchrab turadi. Qurilish montaj xo'jaligi tashkilotlarida qurilish-montaj ishlari tannarxi tarkibining 85 foizga yaqin qismini to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar tashkil etadi. Ishlarga ko'p material sarflanishi «materiallar, yarimfabrikatlar, konstruksiylar, detallar» moddasi bo'yicha xarajatlar salmog'ining sezilarli darajada yuqori bo'lishiga sabab bo'ladi (To'g'ridan-to'g'ri xarajatlar umumiyligi summasining 50 foizdan ko'prog'i). Umumiyligi qurilishdagiga nisbatan, to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar tarkibida mashinalarni ishlatishga bo'ladigan xarajatlarning salmog'i yuqori (20 foizgacha), bu esa qurilish montaj ishlarida mexanizatsiyalashish darajasining yuqoriligini ko'rsatadi.

Qurilishda qabul qilingan ishlab chiqarish xarajatlarini (qurilish-montaj ishlarning tannarxini) rejalashtirish va hisobga olish uslubiyoti amalda xarajat qilingan summalarini smetada ko'zda tutilgan xarajatlar bilan solishtirishga asoslangan.

Xususan "materiallar qiymati" kalkulyasiya elementi bo'yicha xarajatlarga yordamchi ishlab chiqarishdagi, transport tashkilotlaridagi, materiallarni qayta ishlash bazalaridagi ishchilarning asosiy ish haqlari va tegishli yordamchi ishlab chiqarishda ishlatilayotgan mashina va uskunalarni ishlatishga bo'ladigan xarajatlar kiradi. Bir vaqtning o'zida "Mashinalarni ishlatish" elementi bo'yicha xarajatlarga ishchi mexanizatorlarning asosiy ish haqlari, yonilg'i-moylash materiallari qiymati, mashina smenaning reja-hisob narxlariga kiritilgan ustama xarajatlar kiradi. O'z tarkibiga tannarxga kiruvchi barcha xarajat turlarini olgan (ish haqi, materiallar qiymati,

mashinalarni ishlatish xarajatlari) «Ustama xarajatlar» o‘z tarkibiy tuzilishi bo‘yicha tannarx elementining eng murakkab qismi bo‘lib, uning miqdorini qurilish-montaj ishlarining bir birligiga, yiriklashtirilgan ishlar majmuiga yoki ob’yektga nisbatan hisoblab chiqishning imkoniyati yo‘q, shu sababli uning miqdori bir butun tashkilot bo‘yicha aniqlanadi.

Yordamchi qurilish montaj qurilish va ta’mirlash qurilish tashkilotlari tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlar tannarxini rejalshtirish va hisobga olish rejaviy va amaliy kalkulyasiyalar asosida amalga oshirilib, quyidagi xarajat moddalarini o‘z ichiga oladi: asosiy va yordamchi materiallar (qaytariluvchi chiqitlarni hisobdan chiqarilib); ishlab chiqarish ishchilarning asosiy ish haqlari, yonilg‘i, bug‘, texnologiya ehtiyojlari uchun suv, uskunalarni soz holda tutib turish va ishlatish, elektr energiya, boshqa ishlab chiqarish xarajatlari, bevosita xarajatlari.

Ishlab chiqarish xarajatlarining shakllanish ketma-ketligi bo‘yicha tannarx texnologik, sex, ishlab chiqarish va to‘liq tannarxlarga ajratiladi. Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlarning tannarxi hisoblanadi.

Yordamchi korxonalar va xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklarning mahsulotlarini realizatsiya qilinishida tannarx kalkulyasiyasi reja-hisob narxlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

### **13.2.Qurilishning smeta bo‘yicha qiymati (narxi)ni belgilash tarkibi, tuzilishi va uslublari**

Qurilishning smeta bo‘yicha qiymati – bu loyihalarda asos solingan qarorlarga mos holda o‘sha yoki boshqa ob’yektlar va inshootlarni ko‘paytirish uchun zarur pul mablag‘lar miqdoridir. U smetaga oid hujjatlarni ishlab chiqarish paytida investor (buyurtmachi) topshirig‘i yoki vazifasi bo‘yicha loyiha tashkiloti tomonidan belgilanadi. Ohirgisi yangi qurilish bilan ham, amaldagi korxonalar, binolar va inshootlarni kengaytirish yoki qayta qurish bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Qurilishning smeta bo‘yicha qiymatini belgilash zaruriyati qoida bo‘yicha, asosan ikki holatda paydo bo‘лади:

- loyiha-smetaga oid xarajatlar bilan ishslash paytida, ya’ni belgilangan hujjatlarning tarkibiy va asosiy qismi sifatida;
- loyihaning texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish vaqtida (TIA).

Umuman smeta bo‘yicha qiymat kapital mablag‘larni aniqlash, qurilish uchun mablag‘ ajratishni topish, qurilish mahsulotlariga (kelishilgan) narxni shakllantirish, bajarilgan qurilish - montaj ishlariga hisob – kitoblarni amalga oshirish uchun asos hisoblanadi. Smeta bo‘yicha qiymatlardan kelib chiqqan holda qurilgan korxonalar, binolar va inshootlar bo‘yicha asosiy jamg‘armalar joriy qilingan bilans qiymati belgilanadi.

Qurilishning smeta bo‘yicha qiymatini belgilash uchun asos bo‘lib qo‘ydagilar xizmat qiladi.

- loyiha tushuntirish xati;

- loyihaning o‘zi va ish hujjatlari, shu jumladan qurilish-motaj ishlari ko‘lami, chizmalari va vedomosti;
- jihozlarni tasniflash;
- ishlarni bajarish loyihalari (IBL) va qurilishni tashkil qilish loyihalari (QTL);
- amaldagi smeta normativ baza;

Hisobga olish va rejalashtirish amaliyotidagi qurilishning smeta bo‘yicha qiymati quyidagi assosiy elementlar bo‘yicha aniqlanadi.

- qurilish ishlari;
- jihozlar va montaj bo‘yicha ishlar (montaj ishlari);
- mashina va jihozlarni uchun xarajatlar
- boshqa xarajatlar (loyiha - qidiruv va boshqalar);

Pudrat tashkilotlari faoliyatida elementlarning birinchi guruhi odatda bitta moddaga - qurilish-montaj ishlariga birikadi, ular o‘z navbatida quydagи qismlardan tashkil topadi: bevosita xarajatlar (**B<sub>X</sub>**), ustama xarajatlar (**UX**) va rejali jamg‘armalar yoki smetada foyda (**R<sub>j</sub>**). Qurilish mahsuloti birligini aniqlash yoki qurilish-motaj ishlarining yagona smeta bo‘yicha qiymati quydagи ko‘rinishda bo‘lishi mumkin.

$$Q_{qmi} = BX + UX + R_j \quad (13.2.)$$

Bevosta xarajatlar o‘z ichiga quyidagilarni oladi: xom-ashyo, mahsulot va konstruksiylar qiymati, ishchilarining ish xaqi, mashina va mexanizmlardan foydalanish xarajatlari. Ularning har bir ko‘rinishi, smeta normalari va narxlari bo‘yicha ishlarining ko‘lamin tashkil qilishda bevosita hisob-kitob bilan aniqlanadi.

**Ustama xarajatlar** – ishlab chiqarishning umumiy shartlarini, uning boshqarish va xizmat ko‘rsatish tashkilotlarini tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlarning yig‘indisidir. Ularning tarkibiga quydagilar kiradi:

- ma’muriy-xo‘jalik xarajatlari;
- qurilish ob’yektiga xizmat ko‘rsatish xarajatlari;
- qurilish maydonlaridagi ishlarni tashkil etish xarajatlari;
- qolgan ustama xarajatlar (mol-mulkni sug‘urta qilish, bank kreditlari bo‘yicha to‘lovlar, reklama bo‘yicha xarajatlar va boshqalar).

Ustama xarajatlarning qiymati bevosita xarajatlarning smeta bo‘yicha narxiga maxsus normalari bilan %larda belgilanadi.

**Rejali jamg‘armalar** (smetadagi foyda)- bu pul mablag‘lari yig‘indisi bo‘lib, ish tannarxiga tegishli bo‘lmagan va qurilish mahsuloti qiymati (narxi)ning normativ (kafolatli) qismi hisoblanuvchi qurilish tashkilotlarining alohida (umumiy) xarajatlarini qoplash uchun zarurdir. Uning qiymati bevosita va ustama xarajatlarning yig‘indisidan %larda hisoblanadi.

Yuqorida ko‘rsatilgan sarf-xarajatlarning hisob-kitobi quyidagi formulalar bilan amalga oshiriladi:

$$B_x = Q_{qmi} - UX + R_j; \quad (13.3.)$$

$$UX = ((Q_{qmi} - R_j)UX) / (100 + UX); \quad (13.4.)$$

$$R_j = (Q_{qmi} - UX) / 100; \quad (13.5.)$$

Qurilish mahsulotlariga erkin narxlarni shakllantirish sharoitida rejali jamg‘armalar normasi qurilish mashina va mexanizmlariga xizmat ko‘rsatuvchi ishchi-quruvchilar hamda ishchilar mehnatiga to‘lov uchun mablag‘ning aniq qiymatiga 50% yoki qurilish-montaj ishlarining smeta bo‘yicha tannarxiga 12% o‘lchamda belgilanishi mumkin.

$$S_t = Q_{qmi} - (Q_{qmi} * R_j) / (100 + R_j) \quad (13.6.)$$

**Q<sub>qmi</sub>** - qurilish-montaj ishlarining (qurilishning)smeta bo‘yicha qiymati.

**R<sub>j</sub>** – rejali jamg‘armalar normasi, %.

**Smeta bo‘yicha tannarx** – bu smetaga oid norma va narxlar bo‘yicha qurilish-montaj ishlarini bajarishga ketgan xarajatlardir. U qurilish-montaj ishlarini smeta bo‘yicha qiymatidan rejali mablag‘lar qiymatiga qaraganda kamroq, ya’ni

$$St = Q_{qmi} - R_t, \quad (13.7.)$$

**R<sub>t</sub>** – rejadagi mablag‘larning to‘liq qiymati.

**Rejadagi tannarx** – bu qurilish montaj ishlarini bajarish uchun rejalashtirilgan sarf-xarajatlardir. Rejadagi tannarx smeta bo‘yicha tannarxdan rejadagi kamayish qiymaticha kamroq bo‘ladi. U texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar bilan amalga oshiriladi va mehnat unumdorligini o‘sishi va qurilish mahsulotini yaratishning ratsional usullarini tashkil etish hisobiga qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishga ketishi mumkin bo‘lgan xarajatlarni belgilaydi. Ishlarning rejadagi tannarxi quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$R_t = Q_{qmi} - R_j - 3 + D \quad (13.8.)$$

**Q<sub>qmi</sub>** – ishning smeta bo‘yicha qiymati;

**R<sub>j</sub>** – rejadagi mablag‘lar;

**3** – tannarxning rejalashtirilgan kamayishi;

**D** – smetadan tashqari ishlar uchun to‘lovlar;

**Haqiqiy tannarx** – bu qurilish-montaj tashkilotlari tomonidan qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish uchun ketgan haqiqiy xarajatlar yig‘indisidir. Haqiqiy xarajatlar iloji boricha kamroq bo‘lishi uchun qurilish maxsulotining sifatiga zarar etkazmasdan pudratchi tashkilotlar resurslardan samarali foydalanishni ko‘rib chiquvchi tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni ishlab chiqishlari, jonli mehnat va taxnikadan unumli foydalanish, bekor turib qolishlar va talofatlarga yo‘l qo‘ymasliklari kerak.

Haqiqiy tannarxni shakllantirish uchun qoida bo‘yicha qurilish korxonasi buxgalteriyasi tomonidan bajarilgan ishlarni to‘g‘ri hisob-kitob qilish katta ahamiyatga ega. Bu hisob-kitob odatda qurilish tugaguncha o‘sib boruvchi uslub bilan har bir ob‘yekt bo‘yicha olib boriladi. Bu yerda qurilish tashkiloti hamda buyurtmachi yoki uning vakili tomonidan imzolangan bajarilgan ishlarni qabul qilish ishlari muqarrar foyda keltirishi mumkin. Bajarilgan ishlar hisobotini amalga oshirish vaqtida mutloq nojo‘ya oshirib yozishlar bo‘lib, qurilish qiymati va tannarxini sun’iy o‘stirish javobgarlikka tortiladi.

### 13.3 Qurilishda foyda va uni hisoblash usullari

Foyda – bu qurilish korxonasi ishchilarining qo'shimcha mehnati bilan topilgan sof daromad yoki daromad va mahsulot (ish,xizmat)ning to'la tannarxi o'rtasidagi farqdir. U korxona moliyaviy va ishlab chiqarish birqarorligini muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Foyda hisobiga korxonalar rivojlanadi, ishchilarni moddiy rag'batlantirish jamg'armalari tashkil etiladi, umuman xo'jalik sub'ektlari va davlat ehtiyojlari qondiriladi. Undan tashqari foyda olish korxona raqobatbardoshligini muhim sharti ham hisoblanadi.

Investitsion jarayonning turli bosqichlarida foydaning quyidagi turlari aniqlanadi:

**Smeta foydasi** – bino, inshoot va boshqa ob'yektlar loyihasida belgilangan foyda;

**Rejadagi foyda** – muayyan shartlar uchun qurilish tashkilotlari hisobiga olingan foyda;

**Haqiqiy foyda** – ishlab chiqarish faoliyati natijasida olingan foyda;

**Smetata foydasini** boshqacha qilib, qurilish tashkilotining rejadagi jamg'armalari, ya'ni qurilish loyihasida biriktirilgan, uni davlat tomonidan kafolatlangan daromad deb nomlanadi. U qurilish mashinalari va mexanizmlariga xizmat ko'rsatuvchi quruvchi va ishchilar ish haqi qiymatining 50%i yoki loyihasmeta hujjatlarida belgilangan qurilish-montaj ishlari tannarxining 12%i hisobida belgilangan.

Narx-navoni erkinlashtirish sharoitida rejadagi jamg'armalar (smetaga oid foyda) darajasi buyurtmachi roziligi bilan o'zgartirilishi mumkin.

Smeta foydasi kafolatli daromad sifatida qurilish tashkilotiga soliqni, bank kreditlari bo'yicha foizlarni to'lashga, uy-joy-kommunal xo'jalik ob'yektlarini saqlashga, ishlovchilarni rag'batlantirishni amalga oshiriga yordam beradi.

**Rejadagi foyda** ostida qurilish tashkiloti biznes rejasini (ishlab chiqarish – iqtisodiy rejasini) ishlab chiqish jarayonida belgilangan foyda tushuniladi. Qurilish tashkiloti imzolagan pudrat shartnomalari asosida o'z foydasini mustaqil rejalashtiradi.

A'lovida ob'yektlar bo'yicha rejadagi foyda ( $R_a$ ) quyidagi formula bo'yicha: smeta foydasi yoki rejali jamg'armalar ( $R_j$ ), ish tannarxini kamaytirish orqali erishilgan rejali samara ( $E_r$ ) va buyurtmachidan olingan kompensatsiya ( $K_b$ ) yig'indisi sifatida hisoblanadi.

$$R_a = R_j + E_r + K_b \quad (13.9.)$$

Qurilish tashkilotining o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlarni buyurtmachiga topshirishdan kelib chiqadigan rejadagi foyda ( $F_r$ ) quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi.

$$F_r = F_{rp} + I_{rt} + F_{rx} \quad (13.10.)$$

$F_{rp}$  – tugallanmagan qurilishdagi amalga oshirilmagan foyda;

$I_{rt}$  – rejalashtirilgan davrdagi o'z kuchlari bilan bajarilgan ish tannarxini pasaytirishdan tejash;

$F_{rx}$  - rejalashtirilgan davr oxiridagi tugallanmagan qurilishda amalga oshirilmagan foyda;

Umuman qurilish tashkiloti bo'yicha rejadagi foyda qo'shimcha ishlab chiqarish va yordamchi xo'jalik xizmatlari ko'rsatish, buyurtmachiga bajarilgan ishlar va ob'ektlarni topshirishdan olingan foyda yig'indisi sifatida hisoblanadi.

**Haqiqiy foyda** – bu belgilangan davrda qurilish tashkiloti ishlab chiqarish faoliyatini moliyaviy natijasidir. U quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$F_h = N_k \cdot QQS \cdot T_s, \quad (13.11.)$$

Bu yerda:

**N<sub>k</sub>** – kelishilgan narx;

**QQS** – qo'shilgan qiymat solig'i;

**T<sub>s</sub>** – bajarilgan ishlarning sof tannarxi;

**Balans foydasi** qurilish tishkiloti faoliyatining hamma turlari natijasida olingan foydani o'z ichiga oladi. U quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$F_b = F_h + F_m + F_d - S_d, \quad (13.12.)$$

**F<sub>h</sub>** – haqiqiy foyda;

**F<sub>m</sub>** – mol – mulk (aksiyalar) sotishdan kelgan foyda;

**F<sub>d</sub>** – yordamchi va qo'shimcha mahsulotlarni sotishdan keladigan foyda;

**S<sub>d</sub>** – sotishdan tashqari daromadlar;

yoki:

$$F_b = Q_{sq} \cdot T_s - H_b, \quad (13.13.)$$

**Q<sub>sq</sub>** – qurilishning smeta bo'yicha qiymati;

**T<sub>s</sub>** – qurilish ishlarining sof tannarxi;

**H<sub>b</sub>** – smetada ko'rsatilmagan buyurtmachilar xaqlari va imtiyozlari.

**Yalpi foyda** – bu balanslashtirilgan (F<sub>b</sub>) va hisob-kitob qilingan (F<sub>h</sub>) foyda yig'indisidir. U quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$F_{ya} = F_b + F_h, \quad (13.14.)$$

Hisob-kitob qilingan foyda (F<sub>h</sub>), mahsulot (ish, xizmat)larni past bozor narxlarida sotilishi, moliyaviy moddiy resurslarning bepul olinishi, mahsulot, ish, xizmatlarni ayirboshlash vaqtida hisoblash yo'li bilan aniqlanadi. Bu yerda korxona tomonidan bank krediti uchun foizlar bo'yicha to'lanadigan mablag' ham bo'lishi mumkin.

**Soliqqa tortiladigan foyda** ham xuddi yalpi foyda kabi hisoblanadi, lekin farqi shundaki, bu yerda byudjetga soliqlar va boshqa to'lovlar nazarda tutiladi. Soliqqa tortiladigan foyda quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$F_{st} = F_{ya} - M - I - QQ - QD - J_z, \quad (13.15.)$$

**F<sub>ya</sub>** – tashkilotning yalpi foydasi;

**M** – mol-mulkka soliq;

**I** – ijara haqi (agar bu nazarda tutilsa);

**QQ** – qimmatboho qog'ozlar bo'yicha daromad;

**QD** – qo'shimcha daromad (o'z xissasi bilan qatnashish);

**J<sub>z</sub>** – tashkilotning zahira jamg'armasi;

**Sof foyda** soliqlarni ( $S$ ) to‘langandan keyin korxona ixtiyorida qoladigan foyda hisoblanadi:

$$F_s = F_{st} - S, \quad (13.16.)$$

Sof foyda bozor sharoitida moliyaviy barqarorlik va ishga layoqatlilik bo‘yicha qurilish tashkilotining haqiqiy kuchlarini aks ettiradi. Aynan sof foyda ishlab chiqarishni yuksaltirish, ishlovchilarining iqtisodiy va ijtimoiy xolatini yaxshilash uchun asosiy shart hisoblanadi.

### 13.4 Qurilishda rentabellik va uni oshirish yo‘llari

Rentabellik qurilish tashkiloti faoliyatining samaradorligini baholovchi ko‘rsatkich hisoblanadi. Agar qurilish tashkiloti, qolaversa har qanday korxona ham o‘z ishlab chiqarish faoliyatidan foyda olsa, uni daromadli hisoblash mumkin. Lekin foyda bilan qiyoslanganda rentabellik - bu foizlarda hisoblanuvchi nisbiy ko‘rstkichdir. Qanchalik mahsulot va ishlab chiqarishga sarf-xarajat kam bo‘lsa, shuncha ko‘p foyda, mahsulotning rentabellik darajasi yuqori bo‘ladi.

Qurilish mahsulotini rejalashtirish va hisoblash amaliyotida rentabellikning quyidagi ko‘rsatkichlari hisoblanadi:

- smeta bo‘yicha rentabellik darajasi;
- rejadagi rentabellik darajasi;
- haqiqiy rentabellik darajasi;

**Smeta bo‘yicha rentabellik darajasi** smeta foydasi yoki rejali jamg‘armalarni ( $R_j$ ), qurilishning (ob‘yekt, qurilish-montaj ishlari, xizmatlari) smeta qiymatiga nisbati sifatida quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$R_1 = R_j / S * 100\%, \quad (13.17.)$$

**Rejadagi rentabellik darajasi** qurilish tashkilotlarining faoliyati natijalari bo‘yicha istiqbolni belgilash (prognozlash) maqsadlariga hizmat qiladi va quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$R_2 = R_j / N_k * 100\%, \quad (13.18.)$$

$R_j$  – smeta foydasi yoki rejali jamg‘armalar;

$N_k$  . qurilish ob‘yektiga (bajarilgan ish, ko‘rsatilgan xizmatlarga) kelishilgan narx;

**Haqiqiy rentabellik** - qurilish tugatilishi va bajarilgan ishlar bo‘yicha butun hisob-kitoblar o‘tkazishdan keyin belgilanadigan umumlashtiruvchi samara ko‘rsatkichidir. U haqiqiy foydaning ( $F_h$ ) qurilishning haqiqiy qiymatiga (tannarxi) ( $N_h$ ) nisbati sifatida, ya’ni quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$R_3 = F_h / N_k * 100\%, \quad (13.19.)$$

Mexanizatsiyalashgan qurilish trestlari va boshqarmalari hamda ishlarni o‘z hisobidagi mashina va mexanizmlar parki orqali bajaruvchi qurilish tashkilotlari uchun rentabellik darajasi quyidagi formula bo‘yicha foydaning ( $F_b$ ) asosiy ishlab chiqarish fondlari ( $F_{as}$ ) va aylanma mablag‘lar ( $F_{ayl}$ ) yig‘indisiga nisbati orqali aniqlanishi mumkin:

$$R_4 = F_b / (F_{as} + F_{ayl}) * 100\%, \quad (13.20.)$$

Hozirgi vaqtida mahsulot rentabelligi darajasini oshirish va foydalilagini ta'minlash har bir pudratchi tashkilot uchun muhim masala hisoblanadi, ustiga ustak uning ko'p masalalari o'tmishdagi xo'jalikni boshqarish amaliyotidek davlat mablag'i hisobidan emas, balki xususiy ishlab topilgan mablag'lar hisobidan hal qilinadi. SHuning uchun ular nafaqat ko'p «ishlab topishga», foydani ko'paytirish va rentabellik darajasini oshirishga harakat qilishlari, balki, tejashni, xususiy ishlab topilgan mablag'dan oqilona foydalanishni bilishlari kerak.

Foydani ko'paytirish va qurilishda rentabellikni o'stirishning har xil yo'llari orasida eng muhimlari quyidagilar hisoblanadi:

- bahoni shakllantirish mexanizmi va foydani shakllantirishni takomilllashtirish;
- mehnat unumdorligini oshirish;
- ishlab chiqarish fondlaridan, birinchi navbatda, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni yaxshilash;
- ishlab chiqarishning o'zviyligini ta'minlash;
- qurilish muddatlarini qisqartirish va amalda ob'yektlarni ishga tushirishni tezlashtirish;
- qurilish-montaj ishlari tannarxini pasaytirish va ularni sifatini yaxshilash.

**Tayanch iboralar:** Qurilish mahsuloti. Bah. Narx. Resurs. Xarajatlar. Daromadlar. Tannarx. Smeta qiymati. To'g'ri xarajatlar. Ustama xarajatlar. Rejallashtirilgan jamg'armalar. Haqiqiy foyda. Reja foydasi. Smeta foydasi. Balans foydasi. Rentabellik.

### Nazorat uchun savollar:

1. Qurilish mahsulotining tannarxi deganda nimani tushunasiz?
2. Qurilish mahsulotining tannarxi tarkibiga nimalar kiradi?
3. To'g'ri xarajatlar qaysi xarajat elementlaridan tashkil topgan?
4. Ustama xarajatlarga qaysi xarajatlar kiradi?
5. Rejallashtirilgan jamg'armalarga qaysi xarajatlar kiradi?
6. Foydaning qanday turlari mavjud?
7. Rentabellik nima va uning qanday turlari bor?

## **14-MAVZU: QURILISH ISHLAB CHIQARISHINI DIVERSIFIKATSİYALASH ASOSLARI**

---

### **Reja:**

- 14.1. Diversifikatsiyaning mohiyati va uning turkumlanishi.
- 14.2. Ishlab chiqarish diversifikatsiyasini amalga oshirish sharoitlari va mezonlari.
- 14.3. Ishlab chiqarish diversifikatsiyasini tashkil etish va o'tkazish.

### **14.1. Diversifikatsiyaning mohiyati va uning turkumlanishi**

Iqtisodiyot fanida “diversifikatsiya” tushunchasining ko‘plab izohlari mavjud. Umumiy ma’noda diversifikatsiya - bu xo‘jalik faoliyatini yangi soha, bozor va tarmoqlarga kiritish demakdir. U iqtisodiy va ishlab chiqarish diversifikatsiyalariga ajratiladi.

Iqtisodiy diversifikatsiya – bu bitta firmada turli rentabellikdagi mahsulotlar ishlab chiqarilishini birlashtirish bo‘lib, u ishlab chiqarishdagi tuxtalishlarni manipulizatsiyalash imkonini beradi.

Qurilishda iqtisodiy diversifikatsiyani amalda qo‘llashning iloji yo‘q, chunki qurilish firmalari rentabelligi deyarli bir xil bo‘lgan hamma qurilish-montaj ishlari (rentabelligi 8-10% atrofida farq qiladigan ishlar)ni bajarish bilan buyurtma (ob’yekt)li faoliyatni amalga oshiradi. SHu sababli qurilish uchun ishlab chiqarish diversifikatsiyasi ancha muhim ahamiyat kasb etadi.

Qurilish ishlab chiqarish diversifikatsiyasi bu bir-biri bilan bog‘langan yoki bog‘lanmagan ishlab chiqarish turlarini bir vaqtning o‘zida rivojlantirish orqali qurilish va noqurilish bozorlarining yangi sektorlarga kirib borishi yoki tovarlar ishlab chiqarish (ishlar, xizmatlar)ni har xil jinsli faoliyat sferalarida uyg‘unlashtirishdir.

Ishlab chiqarish diversifikatsiyasini korxona faoliyatining asosiy ishlab chiqarish bilan bog‘langan yoki bog‘lanmagan sferasini kengaytirish sifatida tushunish mumkin. Qurilishda ishlab chiqarish diversifikatsiyasining quyidagi yo‘nalishlari mavjud: uy-joy qurilishi kombinatlari tipidagi korxonalarga o‘xshash korxonalarini tuzish orqali qurilish va qurilish materiallarini ishlab chiqarishni bitta tizimga birlashtirish; qurilishni loyihalashtirish va qurilishni bitta ishlab chiqarish tizimiga birlashtirish, bunda loyihalash-qurilish firmalari tipidagi korxonalar yaratiladi; bu ikki faoliyat turini birlashtirish orqali ahamiyat tarzdagi iqtisodiy salohiyatga erishiladi, bu esa firma ichida har xil qurilish masalalarini operativ echish bo‘yicha katta imkoniyatlarni to‘plash imkoniyatini yaratadi, natijada firma qurilish bozorida ancha egiluvchan holatni egallab oladi; injenerning firmalar yaratish, ular tugallangan ob’yektlar yaratish bo‘yicha bajariladigan barcha ishlar va xizmatlar kompleksini o‘z faoliyatiga kiritadi, bu firmalar ob’yektlarni loyihada ko‘rsatilgan quvvat bilan ekspluatatsiya (foydalanish)ga tayyorlab beradi (shu bir qatorda infrastruktura yaratish bilan bog‘liq bo‘lgan ob’yektlar qurilishi bilan ham shug‘ullanadi); qurilish materiallarini ishlab chiqarishni tashkil etish va qurilish

ishlab chiqarishi chiqindilari, nokonditsion mahsulot, bino va inshootlarni rekonstruksiya qilishda to‘plangan chiqindilarini qayta ishlash asosida qurilish materiallari ishlab chiqarish bilan qurilish bozoriga chiqish; asosiy ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish, shu asosida qurilish firmasi ishchi-xodimlarining kvalifikatsiyasidan u yoki bu me’yoriy foydalanishni yo‘lga qo‘yish (masalan, mebel ishlab chiqarish asosida).

Ishlab chiqarish diversifikasiyasini qurilish tashkiloti samaradorligini oshirish va iqtisodiy turg‘unligini ta’minalash yo‘nalishlaridan biri deb hisoblanadi. Tor ixtisoslik qurilish tashkilotining ishlarni pudrat asosida olish imkoniyatini pasaytirayotgan vaqtagi qattiq raqobat sharoitlarida rivojlanishining ushbu yo‘nalishi ayniqsa juda dolzarb bo‘lib qolmoqda.

O‘z faoliyatini diversifikasiyalash istagi kapital mablag‘larning zarurligi, xavf-xatarga yuz tutishini (taxminlarni) pasaytirish, mahsulot ishlab chiqarishda to‘xtalishlarni bartaraf etish, distribyusiya kanallaridan samarali foydalanishga intilish, boshqarish tizimini takomillashtirish kabi motivlar asosida yuzaga keladi. Tovarlar va xizmatlarning ancha keng spektrini (ko‘lamini) taklif etish bilan korxona o‘zining raqobotbardoshligini oshirishi mumkin. Bundan tashqari diversifikasiyalashda tizimning xususiyatlaridan kelib chiqadigan sinergetik effekt yuzaga keladi: tizimdan tashqaridagi komponent jamlangan tizimga nisbatan ancha kichik salohiyatga ega bo‘ladi.

Diversifikatsiya bog‘langan va bog‘lanmagan (konglomerativ) diversifikasiyalarga bo‘linadi. Bog‘langan diversifikatsiya o‘z navbatida vertikal va gorizontal diversifikasiyalarga ajratiladi. Vertikal diversifikatsiya (integratsiya) – bu ishlab chiqarish jarayoni yagona texnologik zanjiriga kiruvchi yangi komponentlarni mavjud bo‘lgan (amaldagi) tizimga kiritish jarayonidir. Bunda integratsiya uchta turga: to‘liq, qisman va kvaziintegratsiyalar (egalik huquqiga o‘tmagan holda manfaatdor kompaniyatlar o‘rtasida alyanslarni yaratish tushuniladi). Bundan tashqari, vertikal diversifikatsiya to‘g‘ridan-to‘g‘ri (korxonalar-mahsulot iste’molchilari bilan integratsiya) va qaytma ya’ni aksincha (korxonalar-etkazib beruvchilar bilan integratsiya) bo‘lishi mumkin. Gorizontal diversifikatsiya – bu bitta sferada faoliyat yuritayotgan korxonalarining birlashish jarayoni bo‘lib, u o‘zining raqobotbardoshligini kuchaytirish yoki raqobatchilar ustidan nazorat o‘rnatish uchun amalga oshiriladi. Bog‘lanmagan diversifikatsiya – bu kopaniyaning asosiy faoliyati bilan bog‘lanmagan yangi bozorlarga kirish jarayonidir. (qurilishda diversifikatsiya jarayonini turkumlanishi 9.1. -rasmda ko‘rsatilgan). G‘arbda to‘plangan tajriba umumiqtisodiy krizis vaziyatlarida bog‘langan diversifikatsiyaga ega bo‘lgan kompaniyalar ancha ustuvor bo‘lishini ko‘rsatadi.

Ishlab chiqarish diversifikatsiyasi ikkita rivojlanish yo‘liga ega:

- ichki o‘sish – mavjud bo‘lgan (ishlab turgan) korxonani diversifikatsiya (yangi yo‘nalishlarni yaratish yoki ajratish);
- tashqi o‘sish – qo‘sib olish, yutib yuborish (yo‘qotish) yo‘li orqali diversifikatsiyalash.

Har qanday vaziyatda diversifikatsiyalash jarayoni etarli darajada murakkab kechadi va oldindan kompleks iqtisodiy baholashni talab etadi.

Diversifikatsiya uchun variantlarni qidirish jarayonida kompaniya o‘zining oldingi sohasida tuxtalishi yoki uning uchun yangi bo‘magan sohani tanlashi mumkin. Birinchi vaziyatda diversifikatsiya o‘ziga xos strategik muvofiqlikka ega bo‘lgan sohada olib boriladi.

Bir qancha firmalar foyda olish maqsadida yaxshi imkoniyatlarga ega bo‘lgan boshqa sohalarga diversifikatsiyalashni yoqlaydi. O‘z profiliga to‘g‘ri kelmaydigan diversifikatsiyaga boruvchi firmalar yagona korporativ struktura doirasida yangi filial yaratish (ochish) vositasida emas, balki deyarli doimo funksiya yuritayotgan kompaniyalarning ishlab chiqarish sektorlariga kirib boradi. Bunday strategiya boshqa firmalarni yutib yuborish (konglomeratli qo‘silish) yo‘li bilan aksiyalarning turg‘unligini oshirish orqali kompaniyani o‘sirishga asoslangan bo‘ladi. Qo‘sishma daromad (yutuqlar)ga erishish ikkinchi rejaga qo‘yiladi, qachonki profilli bo‘lmagan diversifikatsiya korporativ daromadlarni ta’minlagan holda o‘zini oqlamaguncha, shuningdek, yo‘lga qo‘yilgan ishlab chiqarishlar samarali funksiya (faoliyati) yurutmaguncha.

Ishlab chiqarish diversifikatsiyasi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- rejali (oldindan ishlab chiqilgan biznes-reja asosida) va rejadan tashqari (majburiy) bo‘lishi mumkin;
- tarmoq ichida va tarmoqlararo bo‘lishi mumkin;
- oddiy (uning olib borilishi sarf-xarajatlarsiz bajariladi) va murakkab (uning aalga oshirilishiga kapital mablag‘lar ajratiladi) bo‘lishi mumkin.

Yirik qurilish korxonalari, qoidaga ko‘ra, o‘z tarkibida qurilish materiallari, konstruksiyalari va buyumlarini (yig‘ma temirbeton va beton konstruksiylar, g‘isht, asfaltbeton, o‘rnatish detallari, rudasiz materiallar, eshik va romlar, qo‘shma mebellar va h.k.) ishlab chiqaruvchi bo‘limlariga ega bo‘lgan va egadirlar, shuning uchun qurilish materiallari, konstruksiyalari, buyumlarini chiqarish – bu tarmoqichi diversifikatsiyasi deb hisoblanadi. Ushbu tovarlar bilan savdo-sotiq qilish – bu ishlab chiqarishning tarmoqlararo diversifikatsiyasidir.

Hozirgi vaqtida qurilish korxonalarida ikki turdag'i ishlab chiqarish diversifikatsiyasi amalga oshirilmoqda:

- rejadan tashqi asosida oddiy bo‘lmagan, bog‘langan tipdagi (turdag'i), qaytma aloqalarga asoslangan ichki diversifikatsiya;
- bog‘lanmagan turdag'i, qoidaga ko‘ra rejali asosidagi tarmoqlararo diversifikatsiya. Korxonaning moliyaviy ahvoli (holati)ga bog‘liq ravishda murakkab va oddiy diversifikatsiya bo‘lishi mumkin.

O‘tish davrining inqirozli sharoitlarida ko‘plab qurilish korxonalari uchun xarakterli bo‘lgan xo‘jalik yuritishning noxush sharoitlari mamlakatdagi korxonalarning diversifikatsion strategiyalardan foydalanishlariga yo‘l ochib beradi.

Bu yerda shuni ta’kidlash joizki, G‘arbda yuzaga kelgan va faol qo‘llanish olgan diversifikatsion strategiya sharoitlaridan mamlakatdagi sharoitlarning farqi shundaki, mamlakat amaliyotida diversifikatsiya – bu inqirozli davrda majburiy chora-tadbir bo‘lib, mavjud holatdan chiqib ketish usuli sifatida qo‘llanilsa, G‘arbda esa diversifikatsiya – bu an‘anaviy tarmoqlar (sohalar) ramkasi tor bo‘lib qolgan bir paytda va boshqa tarmoqlar (sohalar) da yaxshi iqtisodiy natijalarga erishish

imkoniyatlari yuzaga kelayotgan vaqtida qo'shimcha foyda olish manbalarini qidirib topishdan iboratdir.

Ishlab chiqarish diversifikatsiyasini ixtisoslashgan korxonalarda foydaning kamayayotgan me'yori va uni (foyndani) qurilish va noqurilish bozorlarining boshqa sektorlarida oshirish imkoniyatlari o'rtasida yuzaga kelayotgan ziddiyatlarni bartaraf etish usuli deb hisoblash mumkin.

## **14.2. Ishlab chiqarish diversifikatsiyasini amalga oshirish sharoitlari va mezonlari**

Ishlab chiqarish diversifikatsiyasini samarali amalga oshirishga uchta guruhdan tashkil topgan quyidagi: makroiqtisodiy, tarmoqli va firma ichidagi omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Makroiqtisodiy omillar ichidan birinchi navbatda davlat investitsion va soliq siyosatini, inflyasiya darajasini, monetar (pul-kredit) siyosatini ajratib ko'rsatish o'rnlidir, chunki ular qurilish korxonasining funksiya yuritishi uchun sharoitlar yaratadi, shuningdek ular qurilish korxonasining faoliyati uchun xush va noxush xarakter bo'lgan ham ega bo'lishi mumkin.

Inflyasiya korxona resurslarini qadrsizlantiradi, investitsion faollikni kamaytiradi, bu esa asosiy ishlab chiqarish jamg'armalari (fondlari) shaklidagi asosiy kapitalning oddiy ishlab chiqarish jarayonini qiyinlashtiradi.

Bir vaqtning o'zida inflyasiya tadbirkorlik faolligini kamaytiradi, korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligini pasaytiradi, ularning moliyaviy ahvoli (holati)ga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Boshqa tomondan inflyasiya faoliyatning shunday sferalari va yo'nalishlarini izlab topish (qidirish)ni yo'lga quyadiki (rag'batlantiradiki), o'nga ko'ra foyda suratining o'sishi inflyasiya darajasining o'sishidan ancha ilgarilab ketadi. Bu shunday vaziyatlarda ro'y berishi mumkinki, qachonki mahsulot turg'un va katta ehtiyojga ega bo'lgan holdagina bu esa korxonaga inflyasiya o'sishiga nisbatan narxlarni tez oshirish imkonini beradi. SHunga o'xhash vaziyat korxonalarini o'z ishlab chiqarishini diversifikatsiyalashga, ularning asosiy faoliyat turlari bilan bog'langan va bog'lanmagan ancha foyda olib keladigan yo'nalishlarni qidirib topishga undashi mumkin.

Pul – kredit siyosati narxlar darajasi, YAIM, investitsion faollik, bandlik (mashg'ullik) kabi muhim ko'rsatkichlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Korxona uchun soliqqa tortish katta ahamiyat kasb etadi. Soliq olish (soliq bremyasi) qancha kam bo'lsa, korxonaning ishbilarmon faolligi shuncha yuqori bo'ladi va aksincha soliq olish (soliq bremyasi) qancha yuqori bo'lsa, korxonaning ishbilarmon faolligi shuncha past bo'ladi. 2001 yildan boshlab soliq yukining umumiylashtirish ro'y bermoqda. Ishlab chiqarish korxonalari uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotga, ishlar, xizmatlarga bo'lgan soliq bremyasi o'rtacha 28% dan 24% ga tushdi. Soliq solish (soliq pressi) taxminal 15% ga kamaydi, bu esa o'z navbatida korxonaning ishbilarmon faoliyatiga sezilarli darajada ijobjiy ta'sir ko'rsatdi, investitsiya, talab-ehtiyoj va bandlik uchun manfaatli sharoitlar yaratdi. Tarmoq

(soha) doirasiga tahsir qiluvchi omillar orasidan ushbu tarmoq daromad salohiyatiga ta'sir ko'rsatadigan bir qator omillarni ajratib ko'rsatamiz:

- qurilish mahsulotiga bo'lgan taklif va talab;
- pudrat ishlari bozorida harakatlanayotgan qurilish korxonalari o'rtasidagi raqobat;
- kapital ajratmalar, kapital ta'mirlash va ta'mirlashni moliyalashtirish hajmi;
- materiallarni etkazib beruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasidagi raqobat;
- qurilish pudrat ishlari bozorini materiallar va xizmatlar bilan to'ldirish darajasi.

Qurilish korxonalarining pudrat ishlari bozorida tutgan o'rni qurilish-montaj ishlari (QMI) narxi va sifati (ularning ixtisoslashtirilganligi), qurilish texnikasi, asbob-uskunalar, jihozlar, ishlab chiqarish bazasi, ishchi kuchi salohiyati va firmaning buyurtmachilar oldidagi mavqeい hamda qurilish tashkilotining raqobatbardoshlik darajasiga bog'liqdir.

Material etkazib beruvchilar, xizmat ko'rsatuvchilarning egallagan o'rni (pozitsiyasi) ham ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ko'rsatilayotgan xizmatlar) narxi va sifati, tarmoqning iste'molchi sifatidagi mavqeい (ahamiyati) va xaridorlar talablarini differensiallashgan holda hisobga olish bilan aniqlanadi. YUqorida sanab o'tilgan omillar alohida regionlarda faoliyat yuritayotgan ixtisoslashgan korxonalar soni, ularning quvvati, ya'ni bir jinsli mahsulot chiqarish bo'yicha ishlab chiqarish quvvatlarining konsentratsiya darajasi, alohida turdag'i ishlar va xizmatlar bajarilishi uchun ahmiyat kasb etadi. Boshqa tomonidan, investorlar va xaridorlar tomonidan ularning mahsuloti, ishlari, xizmatlariga qo'yiladigan talab va ehtiyojlar hajmini hisobga olish zarurdir.

Ishlab chiqarish diversifikatsiyasi – bu qurilish korxonasi moliyaviy holati (ahvoli)ni mustahkamlash yoki sog'lomlashtirishning salohiyatli imkoniyatidir. Qurilish tashkiloti faoliyati sferasini uning asosiy profili bo'yicha kengaytirish ishlab chiqarish diversifikatsiyasining eng samarador yo'nalishi deb hisoblanadi. Bunday vaziyatda ishlab chiqarish bazasi ham ishchilarning saviyasi (kvalifikasiyasi) ham buyurtmachilar bilan ishbilarmon doiradagi aloqalar ham o'z qo'llanishini topadi. Bu o'z navbatida qurilish korxonasining o'zi uchun yangi bo'lган bozor sektoriga chiqqandagi raqobatli salohiyatida o'z aksini topadi. Bundan tashqari nafaqat bozorda yangi partnyorlar va iste'molchilarni jalb qilish, balki avvalgilari bilan ham aloqalarni saqlab qolish imkoniyati vujudga keladi.

Qurilish korxonalari tomonidan ularning an'anaviy, tor doirada ixtisoslashgan yo'nalishli faoliyatdan diversifikatsion faoliyatga o'tishida uchraydigan har bir alohida vaziyatning asoslab berilishini taqoza etadi. Asoslash ishlab chiqarish diversifikatsiyasi maqsadlaridan kelib chiqadigan mezonlar bo'yicha amalga oshiriladi.

Ko'plab qurilish korxonalarining og'ir moliyaviy ahvoli, ulardagi ortiqcha ishchilar soni korxonalarini ishlab chiqarish diversifikatsiyasi tomon etaklaydi. Ushbu faoliyatning oxirgi maqsadlari quyidagilar: foydani maksimallashtirish, ish o'rinlarini

saqlab qolish va yangilarini yaratish, korxona asosiy jamg‘armasi (fondi)dan foydalanish darajasini oshirish, pudratishlari bozori va noqurilish bozorining yangi segmentlari o‘zlashtirish.

Bundan kelib chiqqan holda qurilish korxonasining ishlab chiqarish diversifikasiyasiga o‘tishini asoslaydigan mezonlar sifatida diversifikasiya turiga bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ushbu mezonli ko‘rsatkichlarning uchtasi: ishlab chiqarish diversifikasiyasiga o‘tishgacha bo‘lgan kvartaldagi ko‘rsatkichini; an’anaviy faoliyat turi davom ettirilgan vaziyatdagi ko‘rsatkich rejaviy miqdorini; diversifikasiya amalga oshirilgan vaziyatda bashorat qilinadigan ko‘rsatkich miqdorini ( $kk_0$ ;  $kk_d$ ;  $kk_{rej}$ ) taqqoslash taqoza etiladi.

Taqqoslash bazasi bo‘lib diversifikasiya amalga oshirilgandan keyingi davrdagi mezoniylari (kriterial) ko‘rsatkich ( $KP_i$ ) xizmat qiladi.

Ishlab chiqarish diversifikasiyasi maqsadlariga bog‘liq ravishda diversifikasiya turliri va uni o‘tkazish yaxshilanadi:

- to‘qqista ko‘rsatkich (rejali diversifikasiya yaxshilanadi);
- bir nechta ko‘rsatkichlar (majburiy diversifikasiya) yaxshilanadi.

Zikr etilgan ko‘rsatkichlar korxona uchun o‘zlarining ahamiyati bo‘yicha bir birlaridan farq qiladi. Bunda ulardan hech biri aniqlovchi (etakchi) bo‘la olmaydi ya’ni ko‘rsatkichlardan birontasi masala yechimini diversifikasiya o‘tkazilishi foydasiga yoki uning inkor etilishini hal qila olmaydi.

Olinadigan foya miqdorini aniqlab beradigan ko‘rsatkich (FK) eng muhim ko‘rsatkichlardan biridir. Bu ko‘rsatkich qurilish korxonasining moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalari to‘g‘risida xabar beradi. YUqori saviyali ishchi-xodimlarning soni o‘zining ahamiyatiga ko‘ra ikkinchi ko‘rsatkich deb e’tirof etiladi ( $S_{yus}$ ), chunki qurilish korxonasining uquvli ishchilar sonini saqlab qolish va ular sonini kupaytirish diversifikasiyaning eng asosiy maqsadlaridan biridir. Ishchi-xodimlarning o‘rtalro‘yxatli soni, ularning oylik-maoshlari, korxona asosiy ishlab chiqarish jamg‘arma (fond) laridan unumli foydalanish kabi ko‘rsatkichlar ham kam bo‘lmagan nisbiy salmoqqa ega. Foya miqdorlarini ifodalovchi ko‘rsatkichlar ishlab chiqarish diversifikasiyasi iqtisodiy samaradorligini belgilab bersa, yuqori saviyali ishchi kuchidan foydalanish esa ko‘p jihatlar bo‘yicha korxonaning raqobatbardoshlik darajasini aniqlab beradi.

Real bankrotlik xavfi ko‘plab qurilish korxonalarini ular tomonidan olinadigan daromadlar sarflangan xarajatlarni kam foya olish bilan yoki umuman foydaga ega bo‘lmagan holda qoplaydigan sharoitlarda ishslashga majbur qiladi. SHunday qilib, ular mavjud holatdan chiqib ketishlari uchun oddiy tur (tip) dagi (moliyaviy vositalarni jalb qilmasdan) ishlab chiqarish diversifikasiyasini o‘tkaztshga majbur bo‘ladilar.

Ko‘p sonli (massali) ishsizlik yuzaga kelgan paytda, ayniqsa regional miqyosda qurilish korxonalaridan ozod etilgan ishchilarga yangi ish o‘rinlarini topish juda qiyindir, bu esa o‘z navbatida jamiyat hayotida ijtimoiy kuchlanganlikni kuchaytiradi. Bularning hamasi qurilish korxonalari ishlab

chiqarish diversifikatsiyasi jarayonining naqadar ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligidan darak beradi.

Shunday qilib, diversifikatsiya variantlarini tavsiya etilayotgan mezon (kriterial) ko'rsatkichlar bo'yicha solishtirish ishlab chiqarish diversifikatsiyasini amalga oshirish usulini tanlash haqida qat'iy qaror qabul qilishga shart-sharoit yaratadi, ya'ni qanday qilib mavjud bo'lgan ixtisoslashgan ishlab chiqarishdan kengaytirilgan ishlab chiqarishga o'tish yo'llarini ko'rsatib beradi.

Diversifikatsiya maqsadlaridan kelib chiqqan holda uning mumkin bo'lgan natijalari haqida bashorat qilish, foyda va sarf-xarajatlarning nisbatlarini oldindan hisoblash, korxona faollari va ishchilari sonini oldindan aniqlash mumkin. Mezoniy (kriterial) ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish qurilish korxonasi mutaxassislariga ishlab chiqarish diversifikatsiyasi tufayli erishish mumkin bo'lgan natijalarni oldindan baholash imkonini beradi.

O'tkaziladigan ishlab chiqarish diversifikatsiya variantini tanlash uchun qurilish korxonalarining marketing yondashuvdan foydalanishi ancha maqsadga muvofiqdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida har qanday korxona o'zining bir yoki bir-nechta tovarlariga bo'lgan talab-ehtiyojning pasayishiga to'qnash keladi. Bunday vaziyatda konyukturaning pasayish sabablarini tahlil qilish va yangi maqsadli bozorlarni izlab topish yo'li bilan sotiqni yana o'z o'rniga qo'yish yoki tovar xarakteristikasini o'zgartirish orqali ko'zlangan maqsadga erishish mumkinligini aniqlash zarur bo'ladi. Marketingning vazifasi – bu tovari takomillashgan yondashuv asosida taklif qilish evaziga talab-ehtiyojning pasayishini to'xtatishdan iboratdir.

Axborot olishning hamma ijobiy tomonlariga ega bo'lgan marketing qidiruvlari axborot olish manbalari ichida eng qimmati deb hisoblanadi. Ko'plab qurilish korxonalarini moliyaviy mablag'lar etishmaydigan sharoitlar faqat eng muhim axborotlarni olish sururiyatigina ularni bunday axborot manbayiga murojat qilishga majbur etadi.

Ishlab chiqarish diversifikatsiyasini o'tkazishning yuzaga kelishi va uning bozor imkoniyatlarini baholash ko'plab variantlarning vujudga kelishiga olib keladi, bu variantlar ichidan qurilish korxonasi imkoniyatlari ko'proq darajada mos keladigan faqat bitta variantni tanlash zarur bo'ladi.

Diversifikatsiya variantini nazariy tanlash (asoslash) quyidagi tartibda olib boriladi.

Qurilish korxonasi ishlab chiqarish va qurilish buyumlarni ishlab chiqarishni "X" buyumlarni ma'lum deb hisoblaydi. "X" buyumlarni ishlar va xizmatlar namenklaturasiga kiritish uning maqsadlariga va mavjud bo'lgan resurslariga muvofiq keladi, ya'ni korxonaning ishlab chiqarish bazasi, tarkibi ishchixodimlarning saviyalari "X" buyumlar ishlab chiqarishni tashkil etish imkonini bersa, mavjud bo'lgan moliyaviy mablag'lar va xo'jalik aloqalari ishlab chiqarishni zarur bo'lgan resurslpar bilan ta'minlash va yangi mahsulot sotilishini tashkillashtirib beradi.

Diversifikatsiyaning bunday variantini yangi bozorning ahamiyati va o'ziga xos jihatlarini o'zlashtirish nuqtai nazaridan o'rghanish taqoza etiladi.

Diversifikatsiyaning ushbu variantini amalga oshirish imkoniyatlarini quyidagi tartibda olib boriladi:

- talab-ehtiyojga o‘lchanadi va bashorat qilinadi;
- yangi bozor o‘zlashtiriladi (segmentlashtiriladi);
- maqsadli segmentlar o‘rnatalidi;
- bozorda chiqarilayotgan buyum turi pazitsiyalantiriladi.

Ishlab chiqarilgan “X” buyumlarni bozorga olib chiqishni ko‘zda tutgan qurilish korxonasi tomonidan bozorning hozirgi va kelgusi ko‘lamini aniq bahlanishi taqoza etiladi. Bozorning hozirgi holatini baholash uchun korxona bozorda o‘zinikiga o‘xhash buyumlarning mavjudligini aniqlamog‘i va ulardan har birining sotilish hajmini baholashi zarur bo‘ladi.

Qurilish korxonasi tomonidan ishlab chiqariladigan “X” yangi buyumning bozorda sotilishi o‘suvchan bo‘lishliligi taxminiy xarakter kasb etadi. SHuning uchun marketing bo‘limi mutaxassislar oldida yangi yuozor perspektivasini aniqlash masalasi ko‘ndalang turadi.

Salohiyatlari xaridorlarni aniqlash, ularning ehtiyojlarini qoniqtirish uchun korxonaning samarador xizmat ko‘rsata olish holatini aniqlashda marketing xizmatini bozorni segmentlashtirish protsedurasi yordam beradi. Bozorni segmentlashtirish ma’lum parametrlerga tayangan holda uni (bozorni) iste’molchilarning aniq guruhlariga ajratish orqali amalga oshiriladi, bunda ulardan har biri uchun alohida ishlar, tovarlar yoki xizmatlar va mos ravishda marketing komplekslari talab etilishi mumkin.

Korxona bozorni segmentlashtirishda mumkin bo‘lgan turli parametrlardan foydalanishi mumkin. Bozorni segmentlashtirish uchun asosiy parametr sifatida iste’molchilar manfaatini, iste’mol qilinish jadalligini, iste’molchilar maqolini yoqlaydigan daromadlar mavqeini (darajasini) olish mumkin.

Segmentlashtirish korxona o‘z mahsuloti bilan chiqish ko‘zda tutilgan bozordagi turli segmentlarning imkoniyatlarini ochib beradi. So‘ngra korxonaga qancha segmentlarni egallash va ular ichidan eng ma’qullarini aniqlash zarur bo‘ladi.

Korxona bozorni egallashning uchta usulidan foydalanishi mumkin: nodifferensial marketing, differensiallashgan marketing, konsentratsiyalashgan marketing. Birinchi vaziyatda qurilish kooxonalari segmentlarning farqlanishini inobatga olmaydi va butun bozorga birdaniga bir xil takliflar bilan murojaat qiladi. Ikkinci vaziyatda korxona bir nechta segmentlarga chiqishni ko‘zda tutadi va ularning har biri uchun alohida takliflar ishlab chiqadi. Uchinchi vaziyatda esa katta bozorda katta bo‘lmagan hissaga konsentratsiyalishni kuchaytirish o‘rniga firma takliflarni bitta yoki bir nechta sub’nkovlarning katta hissasiga konsentratsiyalashadir. Oxirgi variant chegaralangan resurslarga ega bo‘lgan korxonalar uchun kancha qo‘l keladi. Bir vaqtning o‘zida konsentratsiyalashgan marketing yuqori darajadagi taxmin (xavf-xatarga yuz tutish) bilan bog‘langandir, chunki tanlangan segment raqobatchilarining ko‘payib ketishi tufayli ko‘zlangan umidlarni oqlamasligi

mumkin.

### **14.3. Ishlab chiqarish diversifikatsiyasini tashkil etish va o‘tkazish**

Har qanday diversifikatsion loyiha to‘rtta bosqichdan iborat bo‘ladi:

- 1) loyihani asoslash va ishlab chiqish (diversifikatsiya oldi ishi);
- 2) loyihani tadbiq etish;
- 3) loyihaga muvofiq ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish, mahsulot ishlab chiqarish;
- 4) loyihalashni tugatish va yakuniy xulosalar chiqarish.

O‘z navbatida ishlab chiqarish diversifikatsiyasi dasturini loyiha muvofiq asoslash va ishlab chiqish bir nechta bosqichlarda olib boriladi.

I bosqich. Pudrat ishlari bozori kon'yunkturasi.

II bosqich. Qurilish materiallari, konstruksiyalari, buyumlari, transport xizmatlariga bo‘lgan talab va takliflarni tahlil qilish.

III bosqich. Noqurilish bozorlari kon'yukturasini tahlil qilish.

IV bosqich. Korxona moliyaviy ahvolini tahlil qilish yoki korxonadagi nochor holatga iqtisodiy tashxis qo‘yish.

V bosqich. Ishlab chiqarish diversifikatsiyasi turini tanlash va loyiha yoki bines – reja ishlab chiqish.

VI bosqich. Korxona faoliyati yakuniy ko‘rsatkichlarini bashorat qilish yoki oldindan aytib berish.

Qurilish korxonalari diversifikatsiya dasturini ishlab chiqishda diversifikatsion mahsulot uchun bozor imkoniyatlarini baholash, diversifikatsiya yo‘nalishini va turini tanlash kabi kalitli momentlarga katta e’tibor qaratmoqlari zarur.

Birinchi tartibli vazifalar (bozorlar kon'yunkturasi monitoringi)ni bajarish ishonchli axborotlar olish va ularni qayta ishlashni talab etadi.

Bozor axboroti tizimi uchta yordamchi tizimlarni shakllantiradi: korxona ichki hisoboti tizimi, tashqi joriy axborot yig‘ish tizimi va marketing qidiruv tizimi.

Korxona ichki hisoboti tizimi korxona faoliyatining yo‘l ko‘rsatuvchisi deb hisoblanadi. Qaytma aloqa funksiyasini bajarish bilan korxona ichki hisoboti tizimi korxona faoliyatiga bozor muhiti ta’sirini ko‘rsatadi, bu ta’sir o‘z navbatida korxona faoliyati asosiy ko‘rsatkichlari o‘zgarishi dinamikasi, ijobjiy yoki salbiy moliyaviy va iqtisodiy natijalar bilan ifodalanadi.

Korxona ichki hisoboti tizimining amaliyotda foydalanilgan metodlari, uning kundalik qo‘llanish xarakterini hisobga olish qurilish korxonalarining ishlab chiqarish diversifikatsiyasiga o‘tishida va uning amalga oshirilishida katta rol uynaydi.

Tashqi joriy axborot yig‘ish tizimi qurilish korxonalarini turli bozorlarda ro‘y berayotgan oxirgi axborotlar bilan ta’minlaydi. Bu turdagiligi axborot turining manbalari bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, kompyuter dasturlari, gazeta va jarnallar xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari bu axborot qurilish korxonasi xodimlarining boshqa korxonalar (etkazib beruvchilar, investorlar, buyurtmachilar) mutaxasislari bilan bevosita muloqot natijasida ham olinishi mumkin.

Qurilish korxonalari olinishi qiyin bo‘lgan axborotga ega bo‘lishi uchun ixtisoslashgan marketing qidiruviga buyurtma berishlari mumkin.

**Tayanch iboralari:** Diversifikatsiya. Iqtisodiy diversifikatsiya. Ishlab chiqarish diversifikatsiyasi. Menejment. Marketing.

**Nazorat uchun savollar:**

1. Diversifikatsiya nima? Iqtisodiy va ishlab chiqarish diversifikatsiyalarini tushuntirib bering.
2. Qurilish ishlab chiqarish diversifikatsiyasi mohiyatini tushuntiring.
3. Ishlab chiqarish diversifikatsiyasini amalga oshirish mezonlari nimalardan iborat?
4. Ishlab chiqarish diversifikatsiyasini tashkil etish va o‘tkazish tartibini aytib bering.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

---

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.-Т.: “Ўзбекистон”, 2010.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1997 йил 28 октябрдаги “Капитал қурилишни ташкил этишни тартибга солиш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-1875-сонли Фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2003 йил 6 майдаги “Капитал қурилишда иқтисодий ислоҳотларни янада чуқурлаштиришнинг асосий йўналишлари тўғрисида” ги ПФ-3240-сонли Фармони.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 24 мартағи “Қурилиш материаллари саноатида иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштириш ва тармоқни жадал ривожлантириш тўғрисида” ги ПФ-3586-сонли Фармони.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2007 йил 1 июнданги “2007 - 2011 йиллардаги даврда қурилиш материаллари саноати корхоналарини модернизация қилиш, техникавий ва технологик қайта жиҳозлаш дастури тўғрисида” ги ПҚ-646-сонли Қарори.
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 3 июлдаги “Капитал қурилишда танлов савдолари тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги 302-сонли Қарори.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги ПФ-4947-сонли Фармони.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 2 апрелдаги “Қурилиш соҳасида давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-5392-сонли Фармони.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 2 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси Қурилиш вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида” ги ПҚ-3646-сонли Қарори.
10. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.”Халқ сўзи” газетаси, 2018 йил 29 декабрь.
11. Мирзиёев Ш.М. Билимли авлод – буюк келажакнинг, тадбиркор халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидир (Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 26 йиллигига бағишлиланган тантанали маросимдаги нутқи, 2018 йил 7 декабрь). – “Халқ сўзи” газетаси, 2018 йил 8 декабрь, № 253 (7211).
12. Мирзиёев Ш.М. Билимли авлод – буюк келажакнинг, тадбиркор халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидир// “Халқ сўзи”, 2018 йил 8 декабрь.
13. Бузырёва В.В. Экономика строительства. Учебное пособие .- М.: 2007.
14. Графова Г.Ф., Гуськов С.В. Экономическая оценка инвестиций: Учебное пособие. – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2008. – 183с.
15. Ефименко И.Б., Плотников А.Н. Экономика отрасли (строительство): учеб.пособ. – М.: Вузовский учебник, 2009. – 359 с.
15. Ёдгоров В.У., Бутунов Д.Я., Хайтов Э.Б. Қурилишида баҳони

- шакллантириш. ТАҚИ. «AQИМ» ШК, Т.: 2014г.-245 б.
17. Исаков М.Ю. Экономика капитального строительства. Учебное пособие. – Т.: Издательство Литературного фонда Союза писателей Узбекистана, 2004. - 28 б.
18. Исоқов М.Ю. Капитал қурилиш иқтисодиёти (маъruzalар матни) - Т.: ТДИУ, 2006. - 219 б.
19. Маматов Б.С., Хужамкулов Д.Ю., Нурбеков О.Ш. Инвестицияларни ташкил этиш ва молиялаштириш. Дарслик. – Т.: Иқтисод-Молия, 2014. – Б. 80. (608 б.)
20. Махмудов Э.Х. Корхона иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2004, - 208 б.
21. Мирзанов М.Е. Совершенствование развития кадрового потенциала в модернизируемой экономике (на примере капитального строительства).- Т.: Изд. “Fan va texnologiya”, 2010.-168 с.
22. Ниязов С.М. Экономическое реформирование производственно - технической базы строительства.-Т.:Изд-во «Fan va texnologiya»,2010.-176 с.
23. Оценка недвижимости: учебное пособие/ Т.Г.Касьяненко, Г.А. Маховикова, В.Е.Есипов, С.К.Мирзажанов.- М.: КНОРУС,2010.-752 с.
24. Серов В.М. Организация и управление в строительстве: учеб.пособие для студ.высш.учеб.заведений / В.М.Серов, Н.А.Нестерова, А.В. Серов.- 3-е изд., стер.-М.: Издательский центр «Академия», 2008.- 432 с.
25. Строительство Узбекистана в 2008г.-Ташкент, 2009.
26. Строительство Узбекистана в 2009г.-Ташкент,2010.
27. Суюнов А. Модернизация экономики капитального строительства на основе совершенствования инвестиционных процессов.-Т.: «Fan va tenologiya», 2010.-164 с.
28. Толмачев Е.А. Экономика строительства. Учебное пособие.- М.: 2003.
29. Экономика строительства: Учебник / под общей ред. И.С.Степанова.- 3-е изд., доп. и перераб. - М.: Юрайт-Издат, 2004. - 620с.
30. Экономика недвижимости: [учебник] /А.Н. Асаул [и др.]; под общ.ред. М.А.Икрамова; МВ и ССО РУз.- Т.: Изд.-во Национальной библиотеки Узбекистана им.А.Навои, 2010.-380 с.
31. Экономика строительства. 2-е изд./Л.М.Чистов.- СПб.: Питер, 2003.-637с.: ил.- (Серия “Учебник для вузов”).
32. Internet saytlari:
- www.gov.uz (O’zbekiston Respublikasi hukumatining rasmiy sayti)
- www. minstroy.uz (O’zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining rasmiy sayti)
- www.stat.uz (O’zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo’mitasi)
- www.soliq.uz (O’zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo’mitasi)
- www.naukaran.ru (журнал «Мировая экономика и международные отношения»)

## M U N D A R I J A

bet

Kirish .....	3
1-mavzu: “Tarmoq iqtisodiyoti” fanining predmeti, maqsadi, mazmuni va vazifalari .....	4
2-mavzu: Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo‘nalishlari va muammolari .....	14
3-mavzu: Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsion siyosat .....	31
4-mavzu. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash uslublari .....	49
5-mavzu: Qurilishda loyihalashtirish iqtisodiyoti va uni tashkil etish .....	59
6-mavzu: Investitsion-qurilish faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi .....	78
7-mavzu. Qurilish industriyasining ishlab chiqarish va resurs salohiyati hamda undan oqilona foydalanish .....	91
8-mavzu: Qurilish korxonasi bozor iqtisodiyoti sub’yekti sifatida .....	102
9-mavzu: Qurilishda mehnat resurslari va mehnat unumдорligi .....	109
10-mavzu: Qurilishda mehnat munosabatlari va kadrlar salohiyatini takomillashtirish muammolari .....	121
11-mavzu: Qurilish moddiy – texnikaviy bazasi va uni takomillashtirish yo‘nalishlari .....	128
12-mavzu. Qurilishda ilmiy-texnika taraqqiyoti va uning iqtisodiy samaradorligi .....	137
13 - mavzu. Qurilish mahsulotining tannarxi, foyda va rentabellik .....	145
14-mavzu: Qurilish ishlab chiqarishini diversifikatsiyalash asoslari .....	156
Fodalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....	166